Natijalar va ularning muxokamasi. Mahsulotning chiqish unumi 86% ni tashkil qildi. Kompleks birikmaning element tarkibi quyidagicha (Element-Hisoblangan (%)/Topilgan (%)): Co-8.90/8.85, C-46.83/46.75, H-4.11/4.60, N-8.46/8.30,


O-31.40/31.10.

1-jadval


Kompleks nomi	**Temperatura ^{0}C**	**Kompleks barqarorligi (nazorati pH = 6–7)**	**Brutto formulasi**	**Kompleks rangi**	**Hosil bo‘lish darajasi**
[Co(C$_7$H$_5$O$_3$)$_2$]	30-40	Yuqori	$CoC_{14}H_{10}O_6$	Och pushti	85–90%
[Co(C$_7$H$_5$O$_3$)$_2$(CH$_3$CONH$_2$)$_2$]	50-55	Yuqori	$CoC_{18}H_{20}N_2O_{10}$	To‘q pushti	80–85%



1-rasm. M-gidroksobenzoy kislotaning IQ spektri



2-rasm. Atsetamidning IQ spektri



3-rasm. $[Co(C_7H_5O_3)_2(C\ H_3CONH_2)_2]$ kompleksning IQ spektri

Xulosa. Tahlil natijalariga ko'ra Co(II) metagidroksobenzoat va atsetamid asosida kompleks birikma sintez qilindi hamda uning tarkibi va tuzilishini aniqlash bo'yicha tizimli tahlillar olib borildi. Sintez usullarini tanlashda mavjud adabiyotlar chuqur o'rganilib, ilmiy manbalardagi tajribalarga tayanildi. Kompleks birikmaning sintezi suvli eritma muhitida amalga oshirilib, olingan mahsulot tozalanib va quritilib keyingi tahlillarga tayyorlandi. Hosil bo'lgan birikmaning element tarkibi nazariy hisob-kitoblar asosida olingan ma'lumotlar bilan taqqoslab baholandi va ularning yuqori darajada mos kelishi aniqlanib, birikmaning formulasi eksperimental jihatdan tasdiqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. **Karakaya S., El S. N.** Phenolic acid derivatives used in food and medicine: a review // Trends in Food Science & Technology. – 2018. – Vol. 85. – P. 64–72. – DOI: 10.1016/j.tifs.2018.02.001.
2. **Salgado H. R. N. va boshq.** Hydroxybenzoic acids as potential antimicrobial and anti-inflammatory agents: mechanisms and applications // Journal of Pharmacy and Pharmacology. – 2020. – Vol. 72, № 6. – P. 773–790.
3. **Beppu M. va boshq.** Drug delivery using phenolic acid–based polymeric carriers // Biomaterials Science. – 2019. – Vol. 7, № 9. – P. 3697–3705. – DOI: 10.1039/C9BM00540D.
4. **Draelos Z. D.** The use of niacinamide in dermatology // Cutis. – 2012. – Vol. 90, № 1. – P. 17–20.
5. **Kose D. A., Necefoglu H.** Synthesis and characterization of bis(nicotinamide) m-hydroxybenzoate complexes of Co(II), Ni(II), Cu(II) and Zn(II) // Journal of Thermal Analysis and Calorimetry. – 2008. – Vol. 93, № 2. – P. 509–514. – DOI: 10.1007/s10973-007-8712-5.
6. **Савинкина Е. В., Ташлицкая С. М., Замилатсков И. А.** Комплексные полииодиды: комплексы переходных металлов с ацетамидом // XXII Международная Чугаевская конференция по координационной химии : тезисы докладов. – Кишинёв, 2005. – С. 260.

“KOLLOID SISTEMALAR, ULARNING OPTIK VA MOLEKULYAR-KINETIK XOSSALARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Lapasova Feruza Abdullayevna

Umirova Nilufar Omonboyevna

Toshxo`jayeva Odina

Guliston davlat universiteti

Annotasiya: *maqolada kimyoviy bog‘lanish va uning xususiyatlari mavzusini o’qitishda bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ta’lim samaradorligining ortishi bo’yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *ilg'or pedagogik texnologiyalar, virtual modellar, animatsiyalar, kimyoviy bog`lanish, aqliy hujum, BBB texnologiyasi.*

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Kimyoni o‘rganishga kirishdan so‘ng “kimyoviy reaksiyalar va moddalar tasnifi” va “atom tuzilish”, ulardan keyin “kimyoviy bog‘lanish va uning xususiyatlari” mavzusi boshlanadi. Mazkur mavzular bir-birini uzviy davomi va to‘ldiruvchi bo‘lib, talabalar mavzularning nazariy masalalari bilan tanishadilar.

Ushbu mavzularni chuqur va mukammal o‘zlashtirilishi kimyoni keyingi boblarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga mustahkam asos bo‘ladi.

“Kimyoviy bog‘lanish va uning xususiyatlari” mavzusini o‘qitish va o‘zlashtirishda samara berishi mumkin bo‘lgan pedagogik texnologiyalarni mazmuni va qo‘llash usullarini keltiramiz.

Aqliy hujum. Guruhlararo ishlarda qo‘llaniladigan, ko‘plab g‘oyalarni ishlab chiqish mumkin bo‘lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g‘oyalarni bayon qilish chog‘ida boshqalarni ham qizg‘in ishga yo‘llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag‘batlantiruvchi metoddir. Aqliy xujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g‘oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o‘ziga tortib oladi. Bu metodni dars vaqtida qo`llash uchun quyidagi savollar beriladi:

1. G‘oyalarni uyg‘otuvchi savollar

O‘quvchilar tezkor javob beradi, to‘g‘ri/noto‘g‘ri baholanmaydi:

- Kimyoviy bog‘lanish deganda nimani tushunasiz?
- Atomlar o‘rtasida bog‘lanish qanday kuchlar hisobiga hosil bo‘ladi?
- Qaysi bog‘lanish turi eng mustahkam deb o‘ylaysiz? Nega?
- Nima uchun ba’zi moddalar qattiq, ba’zilari gaz holatda bo‘ladi?
- Elektrmanfiylik bog‘lanishga qanday ta’sir qiladi?

2. Kimyoviy bog‘lanish turlari (g‘oyalar yomg‘iri)


O‘quvchilar sanab o‘tadi:

- Ion bog‘lanish
- Kovalent bog‘lanish (qutbli, qutbsiz)
- Metall bog‘lanish
- Vodorod bog‘lanishi
- Van-der-Vaals kuchlari

3. Bog‘lanish xususiyatlari bo‘yicha aqliy hujum

- Bog‘lanish uzunligi
- Bog‘lanish energiyasi
- Qutblanish darajasi
- Mustahkamlik
- Yo‘nalganlik

“Tarmoqlar” metodi (Klaster) fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, talabalarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun hizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish, hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.



“B-B-B”texnologiyasi. Bu texnologiya Bilaman – Bilishni xohlayman - Bilib oldim so‘zlarining bosh harflari bilan nomlanadi. Uning mazmunini quyidagi jadvalni to‘ldirish bilan izohlanadi. Talaba mazkur mavzu bo‘yicha umumta’lim,

akademik litsey va kasb hunarkollejlarida olgan bilimlari aosida jadvalning birinchi ustunini to‘ldiradi. Ikkinchi ustuniga yodidan chiqqan yoki yana nimalar qiziqtirishi haqida yozadi va uchinchi ustun “Venn doiralari” va “Klaster”tayyor bo‘lgandan so‘ng mazkur mavzuni yakunlovchi qismi sifatida talaba bilib olgan, o‘zlashtirgan bilimlariga xulosa yasab to‘ldiradi. Masalan, quyidagicha to`ldiriladi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Atomlar bir-biri bilan bog‘lanib molekula hosil qiladi	Atomlar nega aynan birikadi?	Atomlar barqaror holatga erishish uchun bog‘lanadi
Ion va kovalent bog‘lanish mavjud	Bog‘lanish mustahkamligi nimaga bog‘liq?	Bog‘lanish energiyasi va uzunligi muhim
Tuz ion bog‘lanishli modda	Qutbli va qutbsiz bog‘lanish farqi nimada?	Elektrmanfiylik farqi qutblanishni belgilaydi
Metalllar elektr tokini o‘tkazadi	Nega suv yaxshi erituvchi?	Suvda qutbli kovalent va vodorod bog‘lanishi bor
Bog‘lanish modda xossalariga ta’sir qiladi	Qaysi bog‘lanish eng kuchli?	Ion va kovalent bog‘lanishlar kuchli hisoblanadi

Mazkur mavzular bir-birini uzviy davomi va to‘ldiruvchi bo‘lib, talabalar atom tuzilish nazariyasini qanchalik qiziqish va bilim bilan o‘rganishgan bo‘lsa, men o‘tgan kimyoviy bog‘lanish, uning turlari va xususiyatlari mavzusiga har doimgiday faollik bilan munosabat ko‘rsatdilar va nazariy masalalar bilan tanishdilar.

Hozirgi kunda innovatsion pedagogika bilan shug‘ullanayotgan olimlarni fikricha 700 dan ortiq texnologiyalar mavjud. Ammo kafolatlangan natija olishhar bir o‘qituvchidan usulni to‘g‘ri tanlay bilish va uni mohirona qo‘llay bilishni talab etadi.

Demak, “Kimyoviy bog‘lanish va uning xususiyatlari” mavzusini o'qitishda zaruriy ko'rgazmalar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytish mumkinki biz yuqorida misol tariqasida yoritishga harakat qilgan yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalarni, shuningdek, global internet tarmog'i, mul'timedia tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etish o'rtaga tashlangan muammoni yechimida ijobiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Зимон А. Д.** Коллоидная химия. — М.: **АГАР**, 2007. — 344 с.
2. **Фролов Ю. Г.** Курс коллоидной химии. Поверхностные явления и дисперсные системы. — 3-е изд., испр. — М.: **Альянс**, 2004. — 464 с.
3. **Щукин Е. Д.**, **Перцов А. В.**, **Амелина Э. А.** Коллоидная химия. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: **Высшая школа**, 2004. — 446 с.
4. **Kamoliddinov M.**, **Vaxobjonov B.** Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari. — Toshkent, 2010. — B. 78–80.

ELEKTROKIMYOVIY TOZALASH USULLARINING AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Elmanov Abbos Begmat o’g’li
Maxmudov Shaxtiyor Baxritdin o‘g‘li

Normamatov Muhammad Boymurod O'g'li
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya*.Hozirgi kunda sanoat va kommunal xo'jaliklarda hosil bo'layotgan oqova suvlar hamda gazsimon chiqindilarni samarali tozalash masalasi global ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda* ***elektrokimyoviy tozalash usullari*** *zamonaviy va istiqbolli texnologiyalar qatoriga kiradi. Mazkur usullar yuqori tozalash darajasi, reagentlarsiz yoki kam reagent sarfi, avtomatlashtirish imkoniyati hamda ekologik xavfsizligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, elektrokimyoviy tozalash texnologiyalarining ayrim kamchiliklari, jumladan, elektr energiyasiga bog'liqligi, elektrodlarga xizmat ko'rsatish zarurati va dastlabki uskunalar qiymatining nisbatan yuqoriligi mavjud. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektrokimyoviy tozalash usullarining afzallik va kamchiliklarini kompleks baholash masalasi yetarlicha yoritilmagan bo'lib, bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu annotatsiyada elektrokimyoviy tozalash usullarining asosiy ustunliklari va cheklovlari tahlil qilinib, ularni amaliyotda qo'llash istiqbollari yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar*:Elektrokimyoviy tozalash, elektrokoagulyatsiya, oqova suvlar, Faradey qonuni, og'ir metallar, tozalash samaradorligi, energiya sarfi.*

KIRISH. So'nggi yillarda sanoatning jadal rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi hamda resurslardan noo'rin foydalanish natijasida atrof-muhitning ifloslanish darajasi keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, sanoat oqova suvlari tarkibidagi og'ir metallar, organik birikmalar va toksik moddalarning ko'payishi ekologik muvozanatga jiddiy tahdid solmoqda [1]. An'anaviy mexanik va kimyoviy tozalash usullari ushbu ifloslantiruvchi moddalarni to'liq bartaraf eta olmasligi sababli zamonaviy va samarali texnologiyalarga ehtiyoj ortmoqda.

Shu nuqtai nazardan, elektrokimyoviy tozalash usullari muqobil va istiqbolli yechim sifatida qaralmoqda. Ushbu usullar yuqori samaradorlikka ega bo'lishiga qaramay, ularning iqtisodiy va energetik jihatlari yetarlicha chuqur tahlil

qilinmagan. Ayniqsa, elektrokimyoviy tozalash usullarining afzallik va kamchiliklarini kompleks baholash masalasi ilmiy adabiyotlarda kam yoritilgan bo‘lib, bu mavzuning dolzarbligini oshiradi[3]. Mazkur ishda elektrokimyoviy tozalash texnologiyalarining nazariy asoslari, hisob-kitoblari va amaliy samaradorligi tahlil qilinadi.

NAZARIY QISM. Elektrokimyoviy tozalash - bu ifloslantiruvchi moddalarni elektr toki ta’sirida kimyoviy yoki elektrokinetik jarayonlar orqali chiqarib olish texnologiyasidir. Ushbu usul oqova suvlar, sanoat chiqindilari va boshqa ekologik zararli moddalarning konsentratsiyasini kamaytirish uchun qo‘llaniladi[1]. Elektrokimyoviy tozalashning asosiy afzalligi shundaki, u reagent sarfini kamaytiradi, yuqori tozalash darajasini ta’minlaydi va avtomatlashtirishga moslashadi.

Asosiy elektrokimyoviy jarayonlar

Elektrokimyoviy tozalash bir nechta asosiy jarayonlarga asoslanadi:

Elektrokoagulyatsiya – anoddan ajralib chiqqan metall ionlari suvdagi ifloslantiruvchi zarralarni birlashtirib, cho‘kib tushishiga olib keladi. Shu yo‘l bilan organik va noorganik moddalar bartaraf etiladi. Elektrooksidlanish – anod yuzasida ifloslantiruvchi organik birikmalar oksidlanib, zararsiz birikmalarga aylanadi. Bu jarayon, masalan, fenollar, fenolik birikmalar yoki rang beruvchi moddalarni yo‘q qilishda samarali[2]. Elektroreduktsiya – katodda og‘ir metall ionlari metall holatiga qaytarilib, suvdan ajralib chiqadi. Masalan, mis (Cu^{2+}) yoki xrom (Cr^{3+}) ionlarini bartaraf qilish mumkin. Elektroflotatsiya – jarayon davomida hosil bo‘lgan gaz pufakchalari iflosliklarni suv yuzasiga olib chiqadi, u yerda ularni yig‘ish osonlashadi[3]. Bu organik moddalarni samarali yo‘q qiladi.

Elektrokimyoviy tozalashning afzalliklari

Reagent sarfi kam – ko‘p hollarda jarayon suv va elektr toki bilan amalga oshadi.

Yuqori tozalash samaradorligi – 90–99% gacha ifloslantiruvchi moddalarni bartaraf etish mumkin.

Ekologik xavfsizligi – ikkilamchi chiqindilar kamayadi.

Avtomatlashtirish imkoniyati – jarayonni dasturiy boshqarish mumkin.

Moslashuvchanlik – turli tipdagi ifloslantiruvchilarni tozalash imkoniyati mavjud.

Elektrokimyoviy tozalashning kamchiliklari

Elektr energiyasiga bog‘liqlik – yuqori tok sarfi talab qilinadi, katta hajmdagi oqovalar uchun energiya sarfi oshadi.

Elektrodlarning xizmat muddati – anod va katodlar passivlanishi yoki yeyilishi jarayon samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Dastlabki uskunalar qiymati – texnologiya o‘rnatish dastlab qimmat bo‘lishi mumkin.

Katta hajmdagi oqovalar uchun murakkablik – sanoat miqyosida tok va elektrod maydoni hisobini optimallashtirish talab qilinadi[4].

Elektrokimyoviy jarayonlarni nazariy hisoblash

Jarayon samaradorligini hisoblashda Faradey qonuni ishlatiladi:

$$m = \frac{MIt}{nF}$$

Bu yerda:

m — hosil bo‘lgan modda massasi, g

M — moddaning molyar massasi, g/mol

I — tok kuchi, A

t — jarayon vaqti, s

n— elektronlar soni

F — Faradey doimiysi, 96500 C/mol

Hisob kitob va tahlil

Shartlar (model):

Anod materiali: Temir (Fe)

Tok kuchi: 5 A, 10 A, 15 A

Jarayon vaqti: 0.5 soat, 1 soat, 2 soat

Elektronlar soni: n = 3 ($Fe \rightarrow Fe^{3+}$)

Molyar massa: M = 55.85 g/mol

Faradey doimiysi: F = 96500 C/mol

Formuladan foydalanamiz:

$$m = \frac{MIt}{nF}$$

$$m = \frac{55.85*10*3600}{3*96500} \approx 6.94\text{g}$$

Demak, **1 soat davomida 10 A tokda temir anodding eritilishi natijasida ≈7 g Fe^{3+} hosil bo‘ladi**.

Tozalash samaradorligi

μ=6.94g/0.1 *100%≈ C100%

№	Parametr nomi	Belgilanishi	Qiymati	Birligi	Izoh
1	Tok kuchi	I	10	A	Barqaror rejim
2	Jarayon vaqti	T	3600	s	1 soat
3	Anod materiali	-	Fe	-	Temir
4	Molyar massa	M	55.85	g/mol	Fe
5	Elektronlar soni	n	3	-	Fe → Fe^{3+}
6	Faradey doimiysi	F	96500	C/mol	Doimiy
7	Hosil bo‘lgan modda massasi	m	6.94	g	Hisob-kitob natijasi

8	Nazariy tozalash samaradorligi	μ	≈ 100	%	Nazariy maksimal
9	Energiya sarfi	W	0.36	kWh	10A,36 V taxminiy

XULOSA. Mazkur ishda elektrokimyoviy tozalash jarayonining nazariy asoslari va hisobiy baholashlari amalga oshirildi. Faradey qonuniga asoslangan model hisob-kitoblar natijasida temir anodli elektrokoagulyatsiya jarayonida 10 A tok kuchi va 1 soat davomida taxminan 6,94 g Fe^{3+} ionlari hosil bo‘lishi aniqlandi. Ushbu miqdor og‘ir metall va kolloid ifloslantiruvchilarni samarali cho‘ktirish uchun yetarli ekanligi nazariy jihatdan asoslandi[4]. Hisobiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, elektrokimyoviy tozalash usuli yuqori tozalash darajasini (90–95%) ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lib, reagentlar sarfisiz amalga oshirilishi bilan an’anaviy kimyoviy usullardan ustun turadi. Shu bilan birga, jarayonning samaradorligi tok kuchi va vaqt parametrlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning ortishi bilan tozalash darajasi oshadi, biroq energiya sarfi ham mutanosib ravishda ko‘payadi.

Olingan natijalar elektrokimyoviy tozalash usullarini kichik va o‘rta hajmdagi oqova suvlarni tozalashda qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Energiya tejamkor rejimlarni tanlash, elektrod materiallarini takomillashtirish va jarayonni optimallashtirish orqali ushbu texnologiyaning sanoat miqyosida qo‘llanish istiqbollari yuqori ekanligi aniqlandi[5]. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida elektrokimyoviy tozalash jarayonlarini yanada chuqur o‘rganish va amaliy tajribalar bilan boyitish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Chen G.** Electrochemical technologies in wastewater treatment // Separation and Purification Technology. – 2004. – T. 38. – B. 11–41.

2. **Rajeshwar K., Ibanez J., Swain G.** Electrochemistry and the environment // Journal of Applied Electrochemistry. – 1994. – T. 24. – B. 1077–1091.

3. **Mollah M. Y. A., Schennach R., Parga J. R., Cocke D. L.** Electrocoagulation (EC): science and applications // Journal of Hazardous Materials. – 2001. – T. B84. – B. 29–41.

4. **Qodirov A. A., Mamatov B. Sh.** Oqova suvlarni tozalash texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

OQARTIRISH SANOATI OQAVA SUVLARINI TOZALASHNING FIZIK-KIMYOVIY JIHATLARI

Elmanov Abbos Begmat o'g'li
Maxmudov Shaxtiyor Baxritdin o'g'li
Normurodova Durdona Husniddin qizi
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oqartirish sanoatining qog'oz ishlab chiqarish va to'qimachilik sanoatidagi ahamiyati o'rganilgan. Mazkur jarayonda natriy gipoxlorit (xlor) va vodorod peroksid kabi kimyoviy moddalar ishlatiladi, ular ligninni samarali tarzda yo'qotish orqali pulpa va to'qimalarning yorqinligini oshiradi. Oqartirish jarayoni tolalarning mexanik mustahkamligini saqlagan holda materiallarni toza, yorqin va sifatli qilishga qaratilgan. Maqolada oqartirishning kimyoviy mexanizmlari, ishlatiladigan moddalar va sanoatdagi ahamiyati batafsil tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Oqava suvlar, suv resurslari, atrof-muhitni muhofaza qilish, suv ifloslanishi, ekologik xavfsizlik, oqava suvlarni tozalash, biologik tozalash, kimyoviy tozalash, suv ekotizimlari, suv tanqisligi, ekologik monitoring, barqaror rivojlanish.*

Kirish. Bugungi kunda inson faoliyatining jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitga, ayniqsa suv resurslariga bo‘lgan bosim tobora ortib bormoqda. Sanoat, maishiy va qishloq xo‘jaligi faoliyati jarayonida hosil bo‘ladigan oqava suvlar suv havzalarining ifloslanishiga sabab bo‘lib, ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Oqava suvlar tarkibining murakkabligi va xilma-xilligi ularning tirik organizmlar, inson salomatligi hamda tabiiy suv ekotizimlariga salbiy ta’sirini yanada kuchaytiradi[2]. Oqava suvlar tarkibida organik va noorganik moddalar, oziq-ovqat qoldiqlari, yog‘-moy aralashmalari, kimyoviy birikmalar, shuningdek patogen mikroorganizmlar va og‘ir metallar uchrashi mumkin. Bunday ifloslantiruvchi moddalarning suv havzalariga tushishi suvda kislorod miqdorining kamayishiga, biologik jarayonlarning izdan chiqishiga va suv organizmlarining nobud bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli oqava suvlarning atrof-muhitga ta’sirini chuqur o‘rganish hamda ularni samarali tozalash usullarini ishlab chiqish ekologik xavfsizlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oqava suvlar — bu insonning ishlab chiqarish, maishiy va qishloq xo‘jaligi faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan, tarkibida turli ifloslantiruvchi moddalarni saqlovchi suvlar bo‘lib, ular atrof-muhit va inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Oqava suvlar tarkibi kelib chiqish manbaiga qarab farqlanadi. Maishiy oqava suvlar tarkibida oziq-ovqat qoldiqlari, yuvish vositalari, yog‘-moy aralashmalari, gigiyenik mahsulotlar va mikroorganizmlar mavjud bo‘lsa, sanoat oqava suvlarida og‘ir metallar, kislota va ishqorlar, neft mahsulotlari, bo‘yoqlar, organik va noorganik kimyoviy birikmalar uchraydi[3]. Qishloq xo‘jaligidan kelib chiqadigan oqava suvlar esa asosan sug‘orish tizimidan chiqadigan ortiqcha suvlar bo‘lib, ular tarkibida azot, fosfor, nitratlar, pestitsidlar va boshqa zaharli moddalar bo‘lishi mumkin. Mazkur ifloslantiruvchi moddalar suv havzalariga tushishi natijasida eutrofikatsiya jarayoni kuchayadi. Eutrofikatsiya suv muhitida oziqa moddalarining, ayniqsa azot va fosfor

birikmalarining ortib ketishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu suv o‘simliklari va suv o‘tlarining haddan tashqari ko‘payishiga olib keladi[4]. Natijada suvda kislorod miqdori kamayadi, baliqlar va boshqa suv organizmlari nobud bo‘ladi, suvning tabiiy muvozanati buziladi va uning sifati keskin yomonlashadi[5]. Oqava suvlarning atrof-muhitga ta’siri faqat ekologik muammolar bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ham sabab bo‘ladi. Ifloslangan suv manbalaridan foydalanish natijasida ichimlik suvi tanqisligi yuzaga keladi, suv orqali yuqadigan kasalliklar — gepatit, dizenteriya, ichburug‘, tif kabi infeksiyalar keng tarqaladi. Shuningdek, ifloslangan suvlar bilan sug‘orilgan yerlarda zaharli moddalar tuproqda to‘planib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati pasayadi, inson salomatligi uchun xavfli bo‘lgan pestitsidlar va og‘ir metall qoldiqlari oziq-ovqat zanjiri orqali organizmga kiradi[6]. Shu sababli oqava suvlarni tozalash va ularni samarali boshqarish zamonaviy ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Oqava suvlarni tozalash jarayonida mexanik, biologik va kimyoviy usullardan foydalanish orqali ularning tarkibidagi zararli moddalarni me’yor darajasigacha kamaytirish mumkin[7]. Sanoat va maishiy oqava suvlarni maxsus tozalash inshootlarida qayta ishlash, qishloq xo‘jaligida esa ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish suv resurslarini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda oqava suvlar bilan bog‘liq muammolar faqat ifloslanish bilan cheklanib qolmay, balki global miqyosdagi suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi va aholining sog‘lig‘i bilan chambarchas bog‘liq masalaga aylandi. Aholi sonining ko‘payishi va ishlab chiqarish hajmining oshishi natijasida toza suvga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortmoqda, ammo shu bilan birga ifloslangan suvlar miqdori ham ko‘payib bormoqda[7]. Agar ushbu jarayonlar nazorat qilinmasa, kelajakda ichimlik suvi manbalarining yetishmovchiligi jiddiy ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin.Bugungi kunda ko‘plab hududlarda oqava suvlar yetarli darajada tozalanmasdan suv havzalariga chiqarilmoqda. Oqava suvlarning suv ekotizimlariga uzoq muddatli ta’siri . Oqava suvlarning eng xavfli jihati ularning qisqa muddatda emas, balki uzoq vaqt davomida to‘planib borishi bilan bog‘liq. Dastlab suv

havzasida sezilarli o‘zgarish bo‘lmasligi mumkin, biroq vaqt o‘tishi bilan suv tubida zaharli moddalar yig‘ilib, biologik muhit sekin-asta yemiriladi[5]. Masalan, suvdagi mikroorganizmlar muvozanati buzilib, foydali bakteriyalar kamayadi, zararli mikroflora esa ustunlik qila boshlaydi. Agar bu jarayon davom etsa, suv havzasi “o‘lik zona”ga aylanishi mumkin. Bunday hududlarda baliqlar yashay olmaydi, suv o‘simliklarining tabiiy tarkibi o‘zgaradi va suv o‘zining tabiiy tozalash xususiyatini yo‘qotadi. Natijada suv havzasi ekologik jihatdan tiklanmaydigan holatga kelib qoladi. Oqava suvlarning ta’siri bilvosita inson hayotiga ham jiddiy xavf tug‘diradi[3]. Agar ifloslangan suvlar qishloq xo‘jaligida foydalanilsa, zararli moddalar tuproq orqali o‘simliklarga o‘tadi. Bu mahsulotlar tashqi tomondan sog‘lom ko‘rinsa ham, tarkibida inson organizmi uchun xavfli bo‘lgan moddalarning to‘planishiga sabab bo‘ladi. Uzoq muddat davomida bunday oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish immunitetning pasayishi, surunkali kasalliklar va genetik buzilishlar xavfini oshiradi. Bundan tashqari, suv orqali yuqadigan kasalliklar sog‘liqni saqlash tizimiga katta yuk bo‘lib tushadi va jamiyatning umumiy mehnat salohiyatini kamaytiradi.

Agar oqava suvlar tozalanmasa – nima bo‘ladi?

Agar oqava suvlarni boshqarish va tozalash choralari ko‘rilmasa:

1)ichimlik suvi manbalari yaroqsiz holga keladi;

2) suv havzalarining biologik xilma-xilligi yo‘qoladi;

3)qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati pasayadi;

4)sog‘liqni saqlash xarajatlari keskin oshadi;

5)turizm va baliqchilik kabi sohalar iqtisodiy zarar ko‘radi.

Bu holat uzoq muddatda butun hududning ekologik va iqtisodiy inqiroziga olib kelishi mumkin[1]. Hozirgi vaqtda oqava suvlar bilan bog‘liq asosiy muammolardan biri — ularni boshqarish tizimlarining eskirganligidir. Ko‘plab hududlarda tozalash inshootlari texnik jihatdan zamonaviy talablar darajasida emas, natijada zararli moddalar to‘liq zararsizlantirilmaydi. Bundan tashqari, ayrim korxonalar iqtisodiy sabablar tufayli ekologik talablarga rioya qilmasdan oqava suvlarni ochiq suv havzalariga chiqaradi[2].

Tarmoqlar	Miqdor	Suv sarfi
Sanoatda:		
Ip-gazlama	1 tonna	250 m^3
Nikel eritish	1 tonna	…
Sintetik tola	1 tonna	…
Qishloq xo'jaligida:		
Bug'doy yetishtirish	1 tonna	1500 l
Jo'xori yetishtirish	1 tonna	…
Sholi yetishtirish	1 tonna	…
Paxta yetishtirish	1 tonna	…

Kelajakda oqava suvlarni boshqarish tizimlari integratsiyalashgan yondashuv asosida rivojlanadi. Ya'ni, texnologik, ekologik va ijtimoiy omillar birgalikda hisobga olinadi. Bunday yondashuv suv resurslarini uzoq muddat saqlab qolish va avlodlararo ekologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Agar davlat, sanoat va jamiyat o'zaro hamkorlikda harakat qilsa, oqava suvlar muammosi xavf manbaidan foydali resursga aylanishi mumkin.

Xulosa: Mening xulosamga ko'ra, oqava suvlar muammosi hozirgi zamonda atrof-muhitni muhofaza qilishda eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson faoliyati natijasida hosil bo'ladigan maishiy, sanoat va qishloq xo'jaligi oqava suvlarining yetarli darajada tozalanmasdan suv havzalariga tashlanishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Bu holat nafaqat suv resurslarining sifatini yomonlashtiradi, balki tirik organizmlar hayoti va inson salomatligi uchun ham jiddiy xavf tug'diradi. Mening fikrimcha, ushbu muammoni hal etish uchun oqava suvlarni tozalashga zamonaviy va kompleks yondashuv zarur. Innovatsion tozalash texnologiyalarini joriy etish, oqava suvlarni qayta foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ekologik nazorat va monitoring tizimlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, aholining ekologik madaniyatini oshirish va tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish barqaror ekologik muhitni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Abdurahmonov A. A.** Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari : darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 240 b.
2. **Qodirov B. Q., Ismoilova D. X.** Suv resurslari va ularni muhofaza qilish : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 198 b.
3. **Karimov I. A.** O‘zbekistonning barqaror rivojlanish yo‘li va ekologik xavfsizlik masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 156 b.
4. **Xolmurodov U. Sh.** Oqava suvlarni tozalash texnologiyalari : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDTU nashriyoti, 2021. – 212 b.
5. **Rasulov S. R., Jo‘rayev M. T.** Sanoat ekologiyasi : darslik. – Toshkent: Fan, 2017. – 180 b.
6. **Yo‘ldoshev F. Y.** Ekologik monitoring va nazorat : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 164 b.
7. **Madumarov N. M.** Qishloq xo‘jaligida ekologik xavfsizlik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. – 190 b.

POPULYATSIYA JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH: LOTKA–VOLTERRA MODELI

Narmanov Otabek Abdigapparovich
Yo’ldoshova Dilnoza Ilhomboy qizi
Po‘lotova Oysha Temurovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. *Ushbu ish populyatsiya jarayonlarini matematik modellashtirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Lotka–Volterra modeli asosida yirtqich va o‘lja populyatsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tahlil qilinadi. Populyatsiya dinamikasi zamonaviy tabiiy fanlarda fundamental ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda matematik modellashtirish usullarining biologik tizimlarni o‘rganishdagi ahamiyati yoritilib, Lotka–Volterra differensial tenglamalari orqali*

populyatsiyalar sonining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi grafik va diagrammalar yordamida tushuntiriladi. Olingan natijalar ekologik muvozanatni anglash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda zamonaviy tabiiy fanlar rivojida matematik modellar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *populyatsiya, matematik modellashtirish, Lotka–Volterra modeli, yirtqich–o‘lja tizimi, populyatsiya dinamikasi, tabiiy fanlar.*

KIRISH

Zamonaviy tabiiy fanlarning eng muhim vazifalaridan biri tabiatda sodir bo‘ladigan murakkab jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularni ilmiy asosda tushuntirishdan iboratdir. Ayniqsa, biologik tizimlarda populyatsiyalarning o‘sishi, kamayishi va o‘zaro ta’siri fundamental ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayonlar ekologik muvozanat, biologik xilma-xillik va barqaror rivojlanish bilan bevosita bog‘liqdir. Populyatsiya jarayonlarini o‘rganishda matematik modellashtirish muhim o‘rin tutadi. Matematik modellar orqali real jarayonlar soddalashtiriladi, ularning asosiy qonuniyatlari aniqlanadi va kelajakdagi holatlari bashorat qilinadi. Shunday modellar ichida Lotka–Volterra modeli alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u yirtqich va o‘lja populyatsiyalari o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu ishda Lotka–Volterra modeli fundamental ilmiy muammo sifatida ko‘rib chiqilib, uning zamonaviy tabiiy fanlar rivojidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

1. POPULYATSIYA TUSHUNCHASI VA UNI O‘RGANISHNING ILMIY AHAMIYATI. Populyatsiya – bu muayyan hududda yashovchi, bir turga mansub va o‘zaro erkin ko‘payish qobiliyatiga ega bo‘lgan organizmlar majmuasidir. Populyatsiyalar soni vaqt davomida tug‘ilish, o‘lim, migratsiya va tashqi muhit omillari ta’sirida o‘zgaradi.

1.1. Yirtqich–o‘lja o‘zaro ta’siri (3D sxema)

Grafik: 3D blok diagramma yoki sfera shaklida, o‘lja (x) va yirtqich (y) soni o‘qlar bo‘yicha, z o‘qi – vaqt. **Tahlil:** O‘lja populyatsiyasi yirtqichlar sonining oshishiga sabab bo‘ladi. Yirtqichlar o‘lja hisobiga ko‘payadi, ammo o‘lja kamayishi


bilan yirtqichlar ham kamayadi. Bu yopiq sikl tizimni dinamik muvozanatda ushlab turadi.

2. MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Matematik modellashtirish murakkab biologik jarayonlarni tenglamalar yordamida ifodalash imkonini beradi. Bu usul orqali real jarayon soddalashtiriladi va asosiy qonuniyatlar aniqlanadi. **Lotka–Volterra tenglamalari:**

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = ax - bxy \\ \frac{dy}{dt} = -cy + dxy \end{cases}$$

x – o‘lja populyatsiyasi; y – yirtqich populyatsiyasi; a, b, c, d – musbat koeffitsiyentlar



1-rasm. Lotka-Volterra modeli uchun fazoviy diagramma

Grafikda x – o‘q o‘lja populyatsiyasini, y – o‘q esa yirtqich populyatsiyasini ifodalaydi. Har bir nuqtada ko‘rsatilgan kichik o‘qchalar (vektorlar) tizimning shu nuqtadagi o‘zgarish yo‘nalishi va tezligini bildiradi. O‘qchalar qayerga qarab ketayotganiga qarab, o‘lja va yirtqich populyatsiyalarining qanday dinamikasi yuz berishi kuzatiladi. **Markaz atrofida yopiq siklik harakatlar (aylanalar) mavjud** — bu ikki populyatsiyaning davriy o‘zaro ta’sirini, ya’ni o‘lja ko‘payadi, keyin yirtqichlar ko‘payadi, so‘ng o‘lja kamayadi va keyin yirtqich kamayadi, shunday aylana takrorlanishini anglatadi. Tashqi hududlarda o‘qchalar uzun va qattiq ko‘rsatkichlar bilan o‘zgarish tezligini bildiradi, ya’ni tizimning u yerda o‘zgarishi tezroq sodir bo‘ladi. Bu fazoviy diagramma Lotka-

Volterra tenglamalari asosida biologik populyatsiyalarning vaqt bo‘yicha qanday harakat qilishini vizual tarzda ko‘rsatadi.

Masala. Bir hududda o‘lja (quyonlar) va yirtqich (bo‘rilar) populyatsiyalari mavjud. Ularning o‘zaro ta’siri Lotka-Volterra modeliga muvofiq ifodalanadi:

$$\begin{cases} \frac{dx}{dt} = 0.6x - 0.02xy \\ \frac{dy}{dt} = -0.4y + 0.01xy \end{cases}$$

Bu yerda:

$x(t)$ – o‘lja populyatsiyasi soni (quyonlar);

$y(t)$ – yirtqich populyatsiyasi soni (bo‘rilar);

0.6 – o‘lja populyatsiyasining tabiiy o‘sish darajasi;

0.02 – yirtqichlar tomonidan o‘ljaning kamayish koeffitsiyenti;

0.4 – yirtqichlarning tabiiy o‘lim darajasi;

0.01 – yirtqichlarning o‘lja hisobidan ko‘payish koeffitsiyenti.

Savol:

a) Tizimning barqaror nuqtasini toping.

b) Barqaror nuqtada populyatsiyalar sonini aniqlang.

c) Ushbu nuqta biologik ma’noda mantiqiy ekanligini tushuntiring.

YECHIM

a) Barqaror nuqtani toppish. Barqaror nuqtada populyatsiyalar o‘zgarishi to‘xtaydi, ya’ni: $\frac{dx}{dt} = 0, \frac{dy}{dt} = 0$ Tenglamalarni yechamiz:

$$0.6x - 0.02xy = 0 \Rightarrow x(0.6 - 0.02y) = 0$$

Bu yerda ikki holat bo‘lishi mumkin:

1. $x = 0$ (o‘lja yo‘q bo‘lsa)
2. $0.6 - 0.02y = 0 \Rightarrow y = \frac{0.6}{0.02} = 30$


Ikkinchi tenglama uchun: $-0.4y + 0.01xy = 0 \Rightarrow y(-0.4 + 0.01x) = 0$

Yana ikki holat:

1. $y = 0$ (yirtqich yo‘q bo‘lsa)

2. $-0.4+0.01x=0 \Rightarrow x=\dfrac{0.4}{0.01}=40$

Barqaror nuqtalar: $(x,y)=(0,0)$ – ikkala populyatsiya yo‘q; $(x,y)=(40,30)$ – barqaror nuqta (populyatsiyalar doimiy holatda) b) Barqaror nuqtada populyatsiyalar soni: $x^*=40,\ y^*=30$. Demak, bu modelga ko‘ra, vaqt o‘tishi bilan quyonlar soni 40 ga, bo‘rilar soni esa 30 ga barqarorlashadi.



2-rasm.O‘lja va yirtqich munosabatlari grafigi

c) Biologik ma’nosi. Bu nuqta populyatsiyalar o‘zgarishi to‘xtaydigan, muvozanat holatini ifodalaydi; x^*va y^*musbat sonlar bo‘lib, bu o‘lja va yirtqichning mavjudligi va o‘zaro barqarorligini ko‘rsatadi; Agar populyatsiyalar shu nuqtaga yaqinlashsa, ular o‘zaro ta’sir orqali tabiiy muvozanatga keladi, bu esa ekologik barqarorlikdir.

XULOSA

Populyatsiya jarayonlarini modellashtirish — bu zamonaviy tabiiy fanlar sohasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Tabiatdagi murakkab biologik tizimlarni chuqur tahlil qilish va ularning xatti-harakatlarini matematik usullar orqali tushuntirish, ekologiya, biologiya va boshqa sohalarda samarali ilmiy yechimlar yaratishga xizmat qiladi. Lotka–Volterra modeli aynan shunday muammolarga samarali javob beradi. U yirtqich va o‘lja populyatsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni matematik tenglamalar yordamida ifodalaydi va ularning vaqt o‘tishi bilan qanday

o‘zgarishini grafik tarzda ko‘rsatadi. Model biologik tizimlarning muvozanati va murakkab dinamikasini tushunishda asosiy nazariy poydevor hisoblanadi. Zamonaviy hisoblash texnologiyalari va grafik vositalari yordamida 3D rangli grafiklar yaratish imkoniyati biologik tizimlarning harakatini yanada intuitiv va aniq ko‘rishga yordam beradi. Bu grafiklar o‘lja va yirtqich populyatsiyalarining vaqtga bog‘liq o‘zgarishini, ularning o‘sish va kamayish sikllarini, shuningdek o‘zaro ta’sir intensivligini ranglar va shakllar orqali vizual tarzda ifodalaydi. Natijada murakkab jarayonlarni oddiy ko‘rinishda tahlil qilish va kelajakdagi populyatsiya holatlarini ishonchli prognoz qilish osonlashadi. Shu bilan birga, Lotka–Volterra modeli faqat biologiya bilan cheklanmay, ekologik monitoring, epidemiologiya, iqtisodiyot va tizimli tahlil kabi ko‘plab zamonaviy fanlar va amaliy sohalarda qo‘llanilmoqda. Bu model fundamental ilmiy muammolarni yechishda muhim vosita bo‘lib, murakkab tizimlarning xatti-harakatini tushuntirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Lotka A. J.** *Elements of physical biology*. — Baltimore: Williams & Wilkins, 1925.
2. **Volterra V.** *Leçons sur la théorie mathématique de la lutte pour la vie*. — Paris: Gauthier-Villars, 1931.

KUCHLI BUZILUVCHI GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMA UCHUN LOKAL CHEGARAVIY MASALALAR

Oramov Jura

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kuchli buzuluvchi giperbolik tipdagi tenglama uchun xarakteristik uchburchak sohada Koshi-Gursa va Gursa masalasi tipidagi lokal chegaraviy masalalar qo‘yiladi va o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kuchli buzuluvchi giperbolik tipdagi tenglama, shakli o‘zgartirilgan Koshi masalasi, Koshi-Gursa va Gursa masalasi tipidagi masalalar, parabolic buzilish chizig’i, xarakteristika o‘rami, yagona turg‘un yechim.*

KIRISH

Ushbu $U_{xx} + yU_{yy} + \frac{1}{2}Uy = 0, \left(y < 0\right),$ (1)

tenglamani xoy tekislikda ox o’qning $I \equiv AB = \left\{x : 0 < x < 1\right\}$ birlik kesmasi va (1) tenglamaning

$$AC: \ x - 2\sqrt{-y} = 0; \quad BC: \ x + 2\sqrt{-y} = 1$$

xarakteristikalari bilan chegaralangan D sohada qaraymiz. Ravshanki, (1) tenglama uchun $y = 0\left(ox\ o'qi\right)$ bir vaqtda ham parabolik buzilish chizig’i va xarakteristika hamdir. $y = 0$ o’q (1) tenglamaning xarakteristikalari o’ramidan iborat va bunday tenglamalarni kuchli buziluvchi giperbolik tipdagi tenglama ham deyiladi.

Ma’lumki, kuchli buziluvchi giperbolik tipdagi tenglamalar (xususan (1) tenglama) uchun odatdagi boshlang’ich shartli Koshi masalasi har doim ham korrekt qo’yilavermaydi. Bunday hollarda boshlang’ich shartlari o’zgartirilgan yoki shakli o’zgartirilgan Koshi masalasini qo’yilishini birinchi marta A.V.Bitsadze [1] tavsiya qilgan edi. [2] da (1) tenglama uchun shakli o’zgartirilgan Koshi masalasi, Darbu masalalari tipidagi masalalar o’rganilgan.

[3] da esa (1) tenglama uchun D sohada “siljishli masalalar” [4] o’rganilgan. Mazkur ishda esa (1) tenglama uchun D sohada Koshi-Gursa va Gursa masalasi tipidagi lokal masalalar o’rganiladi.

1-masala. (1) tenglamaning D sohada $U(x,y)\in C^2(D)\cap C^1\left(D\cup AC\setminus I\right)\cap C(\bar{D})$ sinfga tegishli va ushbu Koshining shakli o'zgartirilgan 2-shartini

$$\lim_{y\to -0}(-y)^{\frac{1}{2}}Uy=\nu_1(x),\ x\in I, \tag{2}$$

hamda AC xarakteristrikada

$$\left[U_x-\sqrt{-y}Uy\right]_{AC}=\left[U_x-\sqrt{-y}U_y\right]_{y=-\frac{x^2}{4}}=\varphi_1(x),\ 0<x<\frac{1}{2}, \tag{3}$$

xarakteristik, shuningdek

$$U(A)=U(0,0)=M, \tag{4}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin, bu yerda $\nu(x)\in C^1(I),\ \varphi_1(x)\in C^1\left(0,\frac{1}{2}\right)$ berilgan funksiyalar, $M-$ berilgan o'zgarmas haqiqiy son.

1-teorema. Agar $\nu_1(x)\in C^1(I);\ \varphi_1(x)\in C^1\left(0,\frac{1}{2}\right)$ bo'lsa, 1-masalaning $C^2(D)\cap C^1\left(D\cup AC\setminus I\right)\cap C(\bar{D})$ sinfga tegishli yagona turg'un yechimi mavjud.

2-masala. 1-masaladan (3) va (4) shartlari bilan farq qiladi. (3) AC xarakteristikadi shart o'rniga BC xarakteristikada ushbu shart bilan almashtiriladi:

$$\left[U_x+\sqrt{-y}Uy\right]_{BC}=\left[U_x+\sqrt{-y}Uy\right]\Big|_{y=-\frac{(1-x)^2}{4}}=\varphi_2(x),\frac{1}{2}<x<1, \tag{5}$$

(4) shart o'rniga esa ushbu

$$U(B)=U(1;0)=N \tag{6}$$

shartni qanoatlantiruvchi yechimni topish talab etiladi, bu yerda $\varphi_2(x)\in C^1\left(\frac{1}{2};1\right)-$ berilgan funksiya, $N-$ berilgan o'zgarmas haqiqiy son.

2-masala uchun ushbu teorema o'rinlidir:

2-teorema. Agar $v_1(x) \in C^1(I)$; $\varphi_2(x) \in C^1\left(\frac{1}{2};1\right)$ bo'lsa, 2-masalaning $C^2(D) \cap C^1\left(D \cup BC \setminus I\right) \cap C(\bar{D})$ sinfga tegishli yagona turg'un yechimi mavjud.

3-masala. (1) tenglamaning D sohada $U(x,y) \in C^2(D) \cap C^1\left(D \cup AC \cup BC \setminus I\right) \cap C(\bar{D})$ sinfga tegishli hamda AC xarakteristikada (3), BC xarakteristikada esa (5) shartlarni va $U(A) = U(0,0) = M$ (4) (yoki $U(B) = U(1,0) = N, (6)$) shartni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

3-masala uchun ushbu teorema o'rinlidir.

3-teorema. Agarda $\varphi_1(x) \in C^1\left(0;\frac{1}{2}\right)$, $\varphi_2(x) \in C^1\left(\frac{1}{2};1\right)$ bo'lsa, 3-masalaning $C^2(D) \cap C^1\left(D \cup AC \cup BC \setminus I\right) \cap C(\bar{D})$ sinfga tegishli yagona turg'un yechimi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Бицадзе А. В.** Некоторые классы уравнений в частных производных. — М., 1981.
2. **Oramov J.**, **Toshev J.** Kuchli buziluvchi giperbolik tipdagi tenglama uchun chegaraviy masala // Ilm-fan taraqqiyoti: Qarshi davlat universiteti professor-o'qituvchilarining ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. — Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2007. — B. 32–33.
3. **Oramov J.** Kuchli buziluvchi bir giperbolik tipdagi tenglama uchun chegaraviy masalalar // Ilm-fan taraqqiyoti. — I qism. — Qarshi: QDU, 2005. — B. 4–6.
4. **Нахушев А. М.** О некоторых краевых задачах для гиперболических уравнений и уравнений смешанного типа // Дифференциальные уравнения. — Минск, 1969. — Т. 5. — С. 44–59.

O‘SIMLIKLARDA ANTOTSIAN RANGNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI

Tursunov Yaxyo Baxodirovich
Solijonova Shahzodaxon Lutfillo qizi
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu ishda o‘simliklarda uchraydigan antotsian pigmentlarini ajratib olishning zamonaviy texnologiyalari o‘rganildi. Antotsianlar — flavonoidlar guruhiga mansub suvda eruvchan pigmentlar bo‘lib, ular o‘simliklarning qizil, binafsha va ko‘k ranglarini hosil qiladi va yuqori antioksidant xususiyatlari sababli oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetologiya sanoatida qadrlanadi. Tadqiqotning maqsadi antotsianlarni samarali, xavfsiz va ekologik barqaror usullar orqali ajratib olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot antotsian ajratib olishning optimallashtirilgan, ekologik xavfsiz va sanoatga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan texnologik yechimlarini taklif etadi. Ushbu texnologiyalar yuqori sifatli tabiiy rang beruvchilarni ishlab chiqarishga keng imkoniyat yaratadi.*

Kalit so'zlar*: antotsian, ekstraksiya, xromatografiya, spektrofotometriya, organik solvent, pektinaza, sellulaza, filtrlash, sentrifugatsiya, purifikatsiya, kvantifikatsiya, identifikatsiya, harorat, metallar.*

Kirish. Antotsianlar — o'simliklarda qizil, binafsha va ko‘k ranglarni beruvchi suvda eritiladigan flavonoid guruhiga mansub pigmentlar bo‘lib, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida tabiiy rang beruvchi va biologik faol komponent sifatida keng qo‘llanilmoqda. Antotsianlarni yuqori hosildorlik, stabillik va tozalikka erishgan holda ajratib olish va tahlil qilish uchun muhimi zamonaviy, ekologik jihatdan barqaror va reproduktsiyalanadigan ekstraksiya-purifikatsiya protokollaridir. [3]

Vazifalar:

1. 1.Antotsianlarni ekstraksiya qilish uchun eng mos solvent va yordamchi texnologiyalarni solishtirish (acidified methanol/ethanol, suv, ultrasoud (UAE), mikroto‘lqin (MAE), pressurized liquid extraction (PLE), supercritical CO_2 va enzimatik yordamli ekstraksiya).
2. Tozalash bosqichlarini optimallashtirish (SPE, adsorbsion resinlar, likvid-likvid ekstraksiya, kolonn-xromatografiya).
3. 3.Kontentni aniqlash va sifat nazoratini tashkil etish (pH-differential spektrofotometriya, HPLC-DAD/MS, LC-MS/MS).
4. 4.Metodlarning iqtisodiy va ekologik tahlilini o‘tkazish hamda tavsiyalar ishlab chiqish. [1]

Metodologiya

1. Materiallar tayyorlash: Tanlangan o‘simbop material (masalan, qizil karam, qora uzum, ko‘k karam yoki gul qopqoqlari) tozalab, quritiladi va mayda maydalab olinadi; zarur hollarda -5°C yoki -20°C da saqlash.
2. Ekstraksiya usullari (sintetik protokol):
   - Konvensional solvent ekstraksiyasi: 70% etanol yoki 0.1% HCl bilan acidified methanol (MeOH:HCl 99:1) kabi solventlardan foydalanish; nisbat 1:10 (w/v), 2-24 soat davomida 4°C da aralashtirish. Organik solventlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur.[7]
   - UAE (Ultrasonik yordamli ekstraksiya): yuqoridagi solventlar bilan 20–40 kHz ultratovush, 15–30 daqiqa, past harorat (yo‘qotishni kamaytirish). UAE samaradorlikni oshiradi va ekstraksiya vaqtini qisqartiradi.[1]
   - MAE (Mikroto‘lqin yordamli ekstraksiya): qisqa vaqt (30–180 s) ichida yuqori samaradorlik; baholashda termal degradatsiyani inobatga olish kerak.[11]
   - PLE (Pressurizatsiyalangan suyuqlik ekstraksiyasi): suv/etanol kombinatsiyasida yuqori harorat va bosimda ekstraksiya, yuqori hosildorlik uchun mos. [9]

- Enzimatik va yashil ekstraksiya: pektinaza yoki cellulaza yordamida hujayra devorini buzish, keyin suv yoki etanol bilan ekstraksiya — ekologik va oziq-ovqatga mos usullar. [1]
- Supercritical CO_2: odatda polяp pigmentlarni olish uchun ko-solvent (etanol) bilan birga qo‘llanadi; solventsiz alternativ sifatida ko‘riladi, lekin kompleks sozlamalarni talab qiladi.[1]

3. Filtrlash va konsentratsiya: ekstraktlarni sentrifugatsiya va filtrlash orqali tozalashtirib, rotary evaporator yordamida konsentratsiya qilish (past harorat).

4. Tozalash (purifikatsiya): SPE kartuşlar yoki poliaromatik adsorbent rezinlar (XAD-seriya) bilan oldindan tozalash; kerak bo‘lsa, kolonn-xromatografiya; yuqori tozalik uchun HPLC-preparativ usullar.[2]

5. Kvantifikatsiya va identifikatsiya:

- pH-differential spektrofotometriya — umumiy monomerik antotsian miqdorini tez va oddiy aniqlash uchun standart usul. Bu metodda pH 1.0 va pH 4.5 buferlarida absorbans o‘lchanadi.[6]
- HPLC-DAD va LC-MS/MS — individual antotsian molekulalarini ajratish va identifikatsiya qilish uchun zarur (retention time, UV-Vis spektrogramma, MS/MS fraqmentatsiyasi). Standartlarga solishtirish bilan kvantifikatsiya. [12]

6. Barqarorlik va formulalash: pH, yorug‘lik, harorat va metallar ta’sirini baholab, stabilizatsiya uchun komplekslar (poliol, kislota, metallar), nanoenkapsulyatsiya yoki liposomal formulalar taklif etiladi. [3]

Kutiladigan natijalar va muhokama

- UAE va PLE ko‘pincha konvensional solvent ekstraksiyasiga nisbatan yuqori hosildorlik va qisqaroq vaqtni taqdim etadi, lekin haroratga sezgirligi tufayli MAE dozalashiga ehtiyot bo‘lish lozim. [1]
- Etanol va suv-etanol aralashmalari, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik jihatdan afzaldir; acidified methanol esa laboratoriya miqyosida yuqori ekstraksiya samaradorligi bilan mashhur. [7]

▪ Tozalash bosqichida rezinli adsorbentlar va SPE HPLC oldi talqinlari sifatida samarali: tozalash darajasini oshirib, analitik aniqlikni yaxshilaydi.[2]

Xulosa va tavsiyalar

- Laboratoriya va sanoat uchun eng balanslangan yo‘l — suv/etanol (50–70%) asosida acidifikatsiya (pH ≈1–2) bilan boshlang‘ich ekstraksiya va UAE yoki PLE yordamida optimallashtirish. Keyin SPE/rezin bilan tozalash va HPLC-DAD/MS bilan identifikatsiya. [1]
- Oziq-ovqat mahsulotlariga tatbiq etishda etanol va suv asoslari afzal; me’yoriy masalalarda solvent qoldiqlariga e’tibor qaratilsin.
- Metodlarni validatsiya qilish (linearlik, aniqlik, takrorlanish, LOD/LOQ) va pH-differential usul bilan umumiy kontentni tez baholash tavsiya etiladi. [6]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Tena N., et al.** Up-To-Date Analysis of the Extraction Methods for Anthocyanins // Foods. — 2022.
2. **Tan J., et al.** Extraction and purification of anthocyanins: A review. — 2022.
3. **Mattioli R., et al.** Anthocyanins: A comprehensive review of their chemical properties and health effects // Nutrients. — 2020.
4. **De Barros G. L., et al.** Anthocyanin extraction methods: synthesis of morpho-anatomical knowledge for decision-making based on decision tree // Journal of Food Measurement and Characterization. — 2024.
5. **Nollet L. M. L., Otles S.** (eds.). Handbook of Analysis and Extraction Methods of Anthocyanins. — 2025.
6. **Jungmin L., et al.** Determination of total monomeric anthocyanin pigment content of fruit juices, beverages, natural colorants and wines by the pH differential method: collaborative study. — 2005.
7. **Taghavi T., et al.** Comparing pH differential and methanol-based methods for anthocyanin determination. — 2021–2022.

8. **Yu Y., et al.** Extraction of bioactive phenolics from various anthocyanin sources. — 2024.
9. **Nthimole C. T., et al.** Exploring the extraction and application of anthocyanins in food industry. — 2024.
10. **Vizzotto G., et al.** Anthocyanin extraction methods. — 2024.
11. **Nasim M., et al.** Comparison of different green extraction methods used for the extraction of anthocyanin from red onion skin. — 2024.
12. **Yashin A. Ya., et al.** Determination of anthocyanins by HPLC methods. — 2025.

DESTRUKTURATSIYALANGAN POLIMERLARNI MODIFIKATSIYALASH JARAYONI TAHLILI

Tursunboyev Alisher Qurbonmurod o‘g‘li
Maxmudov Rafiq Amanovich
Buxoro davlat trexnika universiteti

Annotatsiya: *Yopishish, kimyoviy qarshilik, issiqlik barqarorligi, elektr o'tkazuvchanligi, sovuqqa chidamliligi, reologiya, biologik parchalanishga chidamlilik, ultrabinafsha nurlanishi, radiatsiya nurlanishi, tashqi ko'rinishi, namlikka chidamliligi, yong'inga chidamliligi, korroziyaga qarshi, ishqalanishga qarshi xususiyatlari va boshqalar kabi funktsional xususiyatlar ta'siri bo'yicha tahlillar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *polipropilen, polietilen, poliolefinlar, modifikatsiya, korroziya, reologiya, payvandlash.*

Bugungi kunda, polipropilen va polietilen kabi neft-kimyo sanoati mahsulotlari eng ko'p talab qilinadigan asosiy polimer materiallari hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish joizki, ushbu polimerlar ushbu toifadagi korxonalarda polimer mahsulotlarini

ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Bu neft-kimyo sanoatining yuqori rentabellikka ega ekanligidan va tegishli sohalarga multiplikator ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Shuning uchun davlat to'liq siklli neft-kimyo ishlab chiqarish korxonalarining samarali ishlashi uchun sharoitlarni tartibga solib nazorat qilib boradi. Biroq, bu sanoat poliolefinlarining asosiy navlarini, asosan polietilen va polipropilenni, uzoq muddatda esa polietilen tereftalat, stirol va boshqa ba'zi mahsulotlarni ishlab chiqarishga tegishli ekanligidan dalolat beradi. Poliolefinlar past sirt energiyasiga va turli sirtlarga zaif yopishishga ega ekanligi ma'lum, bu ularning amaliy qo'llanilishini sezilarli darajada cheklaydi [1].

Shu bilan birga, ilg'or polimer ishlab chiqarish texnologiyalari modifikatsiyaga qaratilgan bo'lib, sanoat polimer navlariga asoslangan sifat jihatidan yangi sirt xususiyatlariga ega materiallarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu xususiyatlar ko'pincha ko'plab texnik sohalardagi mahsulotlarning ishlash xususiyatlarini belgilaydi. Sirt qatlamlarining tuzilishi katalitik jarayonlarda muhim rol o'ynaydi va adsorbsiya, filtrlash va boshqa texnik operatsiyalarning borishini ham belgilaydi. Hozirgi vaqtda bir qator tadqiqotlarda ta'kidlangan turli xil modifikatsiya usullari ma'lum [3], bu esa yaxshilangan yopishishga ega polimer materiallar, ion almashinuvi materiallari, sellektiv katalizatorlar va boshqa materiallarni ishlab chiqarish imkonini beradi [2]. Shu munosabat bilan, materiallarning sirt xususiyatlarini o'zgartirishga imkon beradigan asosiy polimer navlarini modifikatsiyalash uchun innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va sanoatda joriy etish foydali va iqtisodiy jihatdan foydali degan xulosaga kelindi.

Sirtga turli xil materiallarni qo'llashda, asosga kuchli yopishish, qovushqoqlikga bardoshlilik, qattiqlik va korroziyaga qarshi xususiyatlarni oshirish uchun operatsion talablarga javob beradigan kompozit tashqi qatlam yaratiladi [4]. Yangi kompozit qoplamalarni muvaffaqiyatli qo'llash texnologiyasini takomillashtirishni talab qiladi.

Qoida tariqasida, modifikatsiya polimerning kimyoviy va supramolekulyar tuzilishini o'zgartirish orqali uning funktsional xususiyatlarini yaxshilash, shuningdek, ikkilamchi polimerlarning texnologik xususiyatlarini tiklash uchun

ularni ekologik jihatdan qayta ishlash muammolarini hal qiladi. Polimer modifikatsiya usullari turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi [5]:

- sodir bo'layotgan jarayonlarning tabiatiga ko'ra [2], modifikatsiya an'anaviy ravishda supramolekulyar strukturaning o'zgarishiga olib keladigan fizik va asl polimer tarkibiga turli funktsional guruhlarni kiritishni o'z ichiga olgan kimyoviy jihatga bo'linadi;

- bosqichlar soniga ko'ra, modifikatsiya ko'pincha bir bosqichli bo'ladi, ammo bir qator hollarda galogenlash, sulfoxlorlash, fosfonlash yoki oksidlanish shaklida oraliq faollashuv bilan ikki bosqichli modifikatsiya ko'proq mos keladi [1];

- yopishish, kimyoviy qarshilik, issiqlik barqarorligi, elektr o'tkazuvchanligi, sovuqqa chidamliligi, reologiya, biologik parchalanishga chidamlilik, ultrabinafsha nurlanishi, radiatsiya nurlanishi, tashqi ko'rinishi, namlikka chidamliligi, yong'inga chidamliligi, korroziyaga qarshi, ishqalanishga qarshi xususiyatlari va boshqalar kabi funktsional xususiyatlar ta'siri bo'yicha [1].

Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, modifikatsiya usullarining har biri faqat individual xususiyatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, ular bog'liq bo'lgan jarayonlarning fizik-kimyoviy tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi [6].

Boshlanish tabiati jihatidan farq qiluvchi payvandlash polimerizatsiyasi usullari [2] polimerlarning xususiyatlarini o'zgartirish uchun juda keng qo'llaniladi. Payvandlash polimerizatsiyasi paytida sirtda faol markazlar paydo bo'ladi, bu esa polimer zanjirining rivojlanishini boshlaydi. Bu faol markazlar nurlanish, plazma yoki fotoinduksiya natijasida hosil bo'lgan erkin radikallar yoki peroksidlardir.

Agar payvandlash qolipga solingan polimerga amalga oshirilsa, payvandlangan bo'laklar cho'zilishda ishtirok etmaydi va amorf fazada yo'nalishsiz qoladi. Shuning uchun, payvandlashning yuqori darajasida modifikatsiyalangan polimerning mexanik xususiyatlarining pasayishi kuzatiladi [7]. Qolipga solishdan oldin payvandlangan bo'laklar issiqlikka chidamli bo'lishi kerak, chunki keyingi qoliplash polimer eritmasidan amalga oshiriladi. Bu shuni ko'rsatadiki, payvandlash

polimerizatsiyasi qolipga solishdan keyin amalga oshirish texnologik jihatdan foydalidir [3].

Payvandlash polimerizatsiyasi usulining kamchiliklari orasida payvandlash jarayonining o'zi, nazorat qilish qiyin bo'lganligi sababli, ajratish qiyin bo'lgan gomopolimer va modifikatsiyalangan polimer aralashmasiga olib kelishini o'z ichiga oladi [8].

Payvand polimerizatsiyasining radikal mexanizmi uning aralashmalar mavjudligiga sezgirligini ko'rsatadi, bu esa boshlang'ich polimerning yuqori darajadagi tozaligini va payvandlash jarayonini inert muhitda o'tkazish zarurligini talab qiladi [9]. Boshlang'ich polimerlarda stabilizatorlarning mavjudligi payvandlashni taqazo qiladi, shuning uchun polimerni to'liq tozalash juda muhimdir; aks holda, parchalangan polimer aralashmasini hosil qilish xavfi mavjud.

Mutaxassislarning [9] fikriga ko'ra, kelajakda hozirda sof shaklda qo'llaniladigan polimerlarning aksariyati payvand polimerlari shaklida modifikatsiyalanishi mumkin. Bu allaqachon payvand polimerlari sifatida faol ishlatiladigan polivinilxlorid va polistirol uchun ham amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Назаров В. Г.** Поверхностная модификация полимеров. — М.: МГУП, 2008. — 474 с.
2. **Повстугар В. И., Кодолов В. И., Михайлова С. С.** Строение и свойства поверхности полимерных материалов. — М.: Химия, 1988. — 192 с.
3. **Сирота А. Г.** Модификация структуры и свойства полиолефинов. — Л.: Химия, 1984. — 152 с.
4. **Бородин И. Н.** Порошковая гальванотехника. — М.: Машиностроение, 1990. — 240 с.
5. **Кочнев А. М.** Модификация полимеров. — Казань: Казан. гос. технол. ун-т, 2002. — 379 с.

6. **Кочнев А. М., Заикин А. Е., Галибеев С. С., Архиреев В. П.** Физикохимия полимеров. — Казань: Фэн, 2003. — 512 с.

7. **Gupta B., Anjum N.** Development of membranes by radiation grafting of acrylamide into polyethylene films: Characterization and thermal investigations // J. Appl. Polym. Sci. — 2001. — Vol. 82. — P. 2629–2635.

8. **Каргин В. А.** Синтез и химические превращения полимеров: избранные труды. — М.: Наука, 1981. — 393 с.

9. **Иванов В. С.** Радиационная химия полимеров. — Л.: Химия, 1988. — 320 с.

POLIMERLARNI MODIFIKATSIYALASH USULLARI VA QO‘LLANILISH SOHALARI

Tursunboyev Alisher Qurbonmurod o‘g‘li
Maxmudov Rafiq Amanovich
Buxoro davlat trexnika universiteti

Annotatsiya: *kimyoviy modifikatsiyalashda polimerning kimyoviy tarkibi yoki molekulyar massasining o‘zgarishi ko‘pincha polimer tuzilishining juda sezilarli o‘zgarishi bilan birga keladi. Modifikatsiyalash polimer materiallar va buyumlarni iste’mol xususiyatlari - termik yoki kimyoviy ta’sirlarga chidamliligi, gidrofilligi (yoki gidrofobligi), sorbsion xususiyatlari o‘rganilgan.*

Kalit so’zlar: *modifikatsiyalash, elastikligi, gidrofilligi, sorbsion, termik, adgeziya,*

Polimerlarni modifikatsiyalash, polimerlar xossalarini yo‘naltirilgan holda o‘zgartirish. Polimerlarni strukturaviy va kimyoviy modifikatsiyalash farqlanadi. Strukturaviy modifikatsiyalash polimerning kimyoviy tarkibi va

molekulyar massasini saqlagan holda uning ustmolekulyar tuzilishini o‘zgartirishdan iborat; kimyoviy modifikatsiyalashda polimerning kimyoviy tarkibi yoki molekulyar massasining o‘zgarishi ko‘pincha polimer tuzilishining juda sezilarli o‘zgarishi bilan birga keladi. Modifikatsiyalash polimer materiallar va buyumlarni iste’mol xususiyatlari - termik yoki kimyoviy ta’sirlarga chidamliligi, gidrofilligi (yoki gidrofobligi), sorbsion xususiyatlari, bo‘yash va struktura hosil qilish qobiliyati, elastikligi, mustahkamligi, elastikligi, biologik faolligi, adgeziyasi, eruvchanligi, kristallanishi va boshqa ko‘plab funksional xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatish kompleksini yaxshilash imkonini beradi; bir qator hollarda modifikatsiyalash mexanik va fizik-kimyoviy xususiyatlarning anizotropiyasi paydo bo‘lishiga ham olib keladi.

Polimerlarni strukturaviy modifikatsiyalash qattiq polimer tanasiga tashqi mexanik ta’sirlar; suyuqlanmadan qattiq polimer tanasining struktura hosil bo‘lishining harorat-vaqt rejimini o‘zgartirish; polimer eritmalaridan qoplamalar, plyonkalar va tolalar hosil bo‘lishida erituvchi tabiati va uni olib tashlash rejimini o‘zgartirish; polimerga modifikatsiyalangan polimerning hosil bo‘lish kinetikasi va ustmolekulyar tuzilishining morfologiyasiga ta’sir qiluvchi boshqa moddalarning kichik miqdorlarini kiritish va boshqalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Modifikatsiyalashning bu turi tolalar sifatini yaxshilash, plastmassalarning zarbga chidamliligini oshirish, buyumlar tayyorlash jarayonlarida (masalan, ekstruziyalash, presslash, polimer qoplamalar hosil qilishda) polimerlar strukturasini rostlash va boshqa maqsadlarda qo‘llaniladi.

Polimerlarni kimyoviy modifikatsiyalash uchun allaqachon sintez qilingan polimerning kimyoviy o‘zgarishlari qo‘llaniladi, ular makromolekulalarning polimerlanish darajasini o‘zgartirmasdan (polimeranalogik o‘zgarishlar va ichki molekulyar reaksiyalar), uni oshirish (tikish, payvandlangan va blok-polimerlar sintezi) yoki kamaytirish (destruksiya) bilan sodir bo‘lishi mumkin.

Polimerlar va ularning quyi molekulyar analoglari funksional guruhlarining reaksion qobiliyati bir-biridan farq qiladi, chunki makromolekulalardagi funksional guruhning reaksiya tezligi va yo‘nalishiga uning asosiy zanjirga yaqinligi va qo‘shni boshlang‘ich yoki allaqachon reaksiyaga kirishgan guruhlar bilan o‘zaro ta’siri, zanjir konformatsiyasi va uning konversiya bilan o‘zgarishi, zanjirdagi elektrostatik o‘zaro ta’sirlar va makromolekulalarning ustki hosil bo‘lishi ta’sir qilishi mumkin. Polimeranalogik jarayonlar makromolekulaning reaksion qobiliyatli guruhlarini himoya qilish, taroqsimon polimerlarni sintez qilish, ion almashinuv xususiyatiga ega materiallarni ishlab chiqarish va boshqalar uchun ishlatiladi; ichki molekulyar reaksiyalar orqali modifikatsiyalash - issiqlikka chidamli polimerlarni (tutash qo‘shbog‘lar tizimi, ichki molekulyar sikllar bilan) olish uchun ishlatiladi.

Makromolekulalarda karrali bog‘lar, gidroksil, karboksil, karbonil, epoksid guruhlarining mavjudligi modifikator reagentlarning kichik konsentratsiyalarida ham makromolekulalarni tikish imkonini beradi. Bunday turdagi o‘zgarishlarga suyuq reaksion oligomerlarning qattiq erimaydigan va erimaydigan to‘rsimon polimerlarga qaytmas aylanishi (plastmassalarning qotishi) va elastik to‘rsimon polimerlar - rezinalarning olinishi (kauchuklarning vulkanizatsiyasi) kiradi. Ko‘ndalang bog‘larning zichligi, ularning kimyoviy tarkibi va taqsimlanishi, polimerning dastlabki molekulyar massasi va to‘rga kiruvchi polimer zanjirining tuzilishi olinadigan polimerlarning xossalari va ishlatilishini belgilaydi.

Payvand va blok-polimerlar monomerning polimer bilan o‘zaro ta’siri yoki har xil turdagi polimerlar yoki oligomerlarning o‘zaro ta’siri natijasida olinadi. U yoki bu komponent bilan boyitilgan mikrosohalarning mavjudligi tufayli payvandlangan va blok- polimerlar fizik-mexanik xossalarining additivligi bilan tavsiflanadi. Termodinamik jihatdan bir-biriga mos kelmaydigan komponentlardan tashkil topgan bunday polimerlar mikroqatlamlarga ajraladi (makroqatlamlarga ajraladigan gomopolimerlarning

mexanik aralashmalaridan farqli o‘laroq). Shuning uchun payvand va blok-polimerlar bir-biriga mos keladigan polimer sistemalar zarur bo‘lgan joylarda qo‘llaniladi.

Polimerlarning destruksiyasi, ya’ni polimer molekulyar massasining kamayishi odatda bir necha omillar: issiqlik, kislorod, mexanik kuchlanishlar, yorug‘lik va namlik va boshqalar birgalikda ta’sir etganda sodir bo‘ladi. Destruksiyadan molekulyar massani qisman kamaytirish uchun foydalaniladi, natijada polimerlarni qayta ishlash va amalda qo‘llash osonlashadi; undan polimerlarning kimyoviy tuzilishini aniqlash, tabiiy polimerlardan quyi molekulyar moddalar olish (masalan, sellyuloza yoki kraxmalning glyukozaga gidrolitik destruksiyasi) uchun foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Назаров В. Г.** Поверхностная модификация полимеров. — М.: МГУП, 2008. — 474 с.

2. **Повстугар В. И., Кодолов В. И., Михайлова С. С.** Строение и свойства поверхности полимерных материалов. — М.: Химия, 1988. — 192 с.

3. **Сирота А. Г.** Модификация структуры и свойства полиолефинов. — Л.: Химия, 1984. — 152 с.

4. **Бородин И. Н.** Порошковая гальванотехника. — М.: Машиностроение, 1990. — 240 с.

5. **Кочнев А. М.** Модификация полимеров. — Казань: Казан. гос. технол. ун-т, 2002. — 379 с.

6. **Кочнев А. М., Заикин А. Е., Галибеев С. С., Архиреев В. П.** Физикохимия полимеров. — Казань: Фэн, 2003. — 512 с.

7. **Gupta B., Anjum N.** Development of membranes by radiation grafting of acrylamide into polyethylene films: Characterization and thermal investigations // J. Appl. Polym. Sci. — 2001. — Vol. 82. — P. 2629–2635.

8. **Каргин В. А.** Синтез и химические превращения полимеров: избранные труды. — М.: Наука, 1981. — 393 с.

9. **Иванов В. С.** Радиационная химия полимеров. — Л.: Химия, 1988. — 320 с.

SOBOLEV FAZOSIDA KVADRATUR FORMULA XATOLIK FUNKSIONALINING NORMASI

Ulikov Shukurillo Shavkatovich

Saidmurodov Iftixor Abdumajid o‘g‘li

Oriental universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada* $W_2^{(2)}(0,1)$ *Sobolev fazosida, ya’ni [0,1] oraliqda ikkinchi tartibli umumlashgan hosilasi kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar sinfi uchun optimal kvadratur formulani qurish masalasi ko‘rib chiqiladi. Chiziqli uzluksiz funksionalning umumiy ko‘rinishi haqidagi Riss teoremasidan foydalanib, kvadratur formulaning xatolik funksionali uchun ekstremal funksiyani aniqlash masalasi oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalani yechishga keltiriladi. Ushbu chegaraviy masalani yechish orqali kvadratur formulaning xatolik funksionali uchun ekstremal funksiyaning aniq analitik ko‘rinishi olinadi. Bundan tashqari, Sobolev fazosida kvadratur formulaning xatolik funksionali normasining yopiq analitik ifodasi keltirib chiqariladi.*

Kalit so‘zlar: *Kvadratur formula, ekstremal funksiya, xatolik funksionali .*

Kirish. Masalani qo‘yilishi.

Integral ifodalarni sonli yaqinlashtirish masalalari hisoblash matematikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning samaradorligi kvadratur formulalarning aniqligi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, berilgan funksiyalar sinfi uchun optimal

kvadratur formulalarni qurish va ularning xatoliklarini qat'iy baholash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Sobolev fazosida kvadratur formulaning xatolik funksionali chiziqli uzluksiz funksional sifatida qaraladi va uning tahlilida Riss teoremasidan foydalanish muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv xatolik funksionalining ekstremal funksiyasini aniqlash masalasini oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalani yechishga keltirish imkonini beradi. Natijada kvadratur formulaning xatolik funksionalining ekstremal funksiyasi hamda uning normasi uchun analitik ifodalar olinadi. Mazkur ishda $W_2^{(2)}(0,1)$ Sobolev fazosida optimal kvadratur formulani qurish, xatolik funksionalining ekstremal funksiyasini topish va uning normasini analitik ko'rinishda aniqlash masalalari tadqiq etiladi.

Biz quyidagi ko'rinishda kvadratur formulani qaraymiz [1-2]

$$\int_0^1 \varphi(x)dx \cong \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\varphi(h\beta) \qquad (1)$$

bu yerda $k[\beta]$- (1) kvadratur formulaning hozircha noma'lum koeffitsiyentlari, $h=1/N,\quad N-$ natural son, integral ostidagi $\varphi(x)$ funksiya $W_2^{(2)}(0,1)$ fazoga tegishli. Bunda $W_2^{(2)}(0,1)$ fazo bu birinchi tartibli hosilasi absolyut uzluksiz va ikkinchi tartibli hosilasi $L_2(0,1)$ ga tegishli barcha funksiyalar sinfi. Ushbu $W_2^{(2)}(0,1)$ fazo

$$\langle \varphi,\psi \rangle_W = \int_0^1 (\varphi''\psi'' + \varphi'\psi'')dx. \qquad (2)$$

skalyar ko'paytmaga nisbatan Gilbert fazosi bo'ladi. Bu yerda (2)- skalyar ko'paytma yordamida norma quyidagicha aniqlanadi

$$\|\varphi\|_{W_2^{(2)}(0,1)} = \sqrt{\langle \varphi,\varphi \rangle} = \sqrt{\int_0^1 \left((\varphi'')^2 + (\varphi')^2 \right) dx} \qquad (3)$$

(1)-kvadratur formulaning xatoligi deb

$$\int_0^1 \varphi(x)dx - \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\varphi(h\beta) \qquad (4)$$

ayirmaga aytiladi va bu ayirmaga $W_2^{(2)}(0,1)$ fazosida aniqlangan quydagi xatolik funksionali mos keladi

$$\ell(x) = i_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\delta\left(x - h\beta\right), \tag{5}$$

bu yerda $i_{[0,1]}(x)$-[0,1] kesmaning xarakteristik funksiyasi, $\delta(x)$-Dirakning delta-funksiyasi.

Odatda, $\ell(x)$ funksionalning $\varphi(x)$ funksiyadagi qiymati quyidagicha aniqlanadi

$$\left(\ell, \varphi\right) = \int_{-\infty}^{\infty} \ell(x)\varphi(x)dx. \tag{6}$$

(6) tenglikka asosan, (5) formulani etiborga olib, (4) ayirma haqiqatdan ham, $\ell(x)$ xatolik funksionalining $\varphi(x)$ dagi qiymati ekanligiga ishonch hosil qilamiz, ya'ni

$$\left(\ell, \varphi\right) = \int_{-\infty}^{\infty} \ell(x)\varphi(x)dx = \int_{-\infty}^{\infty} \left(i_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\delta\left(x - h\beta\right) \right) \cdot \varphi\left(x\right)dx =$$

$$= \int_{-\infty}^{\infty} i_{[0,1]}(x)\varphi(x)dx - \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\delta\left(x - h\beta\right) \cdot \varphi\left(x\right)dx = \int_{0}^{1} \varphi(x)dx - \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\varphi\left(h\beta\right).$$

Demak,

$$(\ell, \varphi) = \int_{0}^{1} \varphi(x)dx - \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\varphi\left(h\beta\right) \tag{7}$$

(1) kvadratur formulaning (7) xatoligi $W_2^{(2)*}(0,1)$ fazosida chiziqli funksionalni aniqlaydi,

bu yerda $W_2^{(2)*}$ fazo $W_2^{(2)}$ fazoga qo'shma fazo. U holda, Koshi-Shvars tengsizligidan xatolikning absolyut qiymati yuqoridan quyidagicha baholanadi:

$$\left|(\ell, \varphi)\right| \le \left\|\varphi \,|\, W_2^{(2)}(0,1)\right\| \cdot \left\|\ell \,|\, W_2^{(2)*}(0,1)\right\|$$

Bu tengsizlikdan biz (1) kvadratur formulaning (7) xatoligi $\ell(x)$ xatolik funksionalining

$$\left\|\ell \mid W_2^{(2)*}(0,1)\right\| = \sup_{\left\|\varphi \mid W_2^{(2)}(0,1)\right\|=1} |(\ell,\varphi)| = \sup_{\varphi,\|\varphi\|\neq 0} \frac{|(\ell,\varphi)|}{\left\|\varphi \mid W_2^{(2)}(0,1)\right\|}$$

normasi orqali baholanishini xulosa qilamiz.

Yuqoridagi tengsizlikdan ko‘rinadiki, (4) xatolikning absolyut qiymatini yuqoridan baholash uchun, (5) xatolik funksionalining normasini topish talab etiladi. Buning uchun esa mos ekstremal funksiyani aniqlash kerak. Quyida aynan shu ekstremal funksiyani aniqlash masalasini qaraymiz.

Ushbu masalani yechish uchun, exstremal funksiya ta’rifidan foydalanamiz. Ma’lumki, Koshi-Shvarts tengsizligini tenglikka aylantiruvchi $U_\ell(x)$ funksiyaga ekstremal funksiya deyiladi, ya’ni

$$(\ell,U_\ell) = \left\|\ell \left| W_2^{(2)*}(0,1)\right.\right\| \cdot \left\|U_\ell \left| W_2^{(2)}(0,1)\right.\right\|. \qquad (8)$$

$W_2^{(m)}(0,1)$ Gilbert fazosida chiziqli uzluksiz funksionalning umumiy ko‘rinishi haqidagi Riss teoremasidan foydalanib quyidagini yozamiz.

$$\left\|\ell \left| W_2^{(2)*}(0,1)\right.\right\| = \left\|U_\ell \left| W_2^{(2)}(0,1)\right.\right\|. \qquad (9)$$

Shuningdek, (8) va (9) dan quyidagi xulosaga ega bo‘lamiz:

$$(\ell,U_\ell) = \left\|\ell \left| W_2^{(2)*}(0,1)\right.\right\|^2. \qquad (10)$$

Boshqa tomondan, xuddi shu teorema bo‘yicha, $W_2^{(2)}(0,1)$ fazoning har qanday $\varphi(x)$ elementi uchun ushbu tenglikni olamiz

$$(\ell,\varphi) = \langle U_\ell,\varphi\rangle,$$

bu yerda

$$< U_\ell,\varphi >= \int_0^1 \left(\frac{d^2\varphi(x)}{dx^2} \cdot \frac{d^2U_\ell(x)}{dx^2} + \frac{d\varphi(x)}{dx} \cdot \frac{dU_\ell(x)}{dx} \right) dx. \qquad (11)$$

Aytaylik, $\varphi(x)$ funksiya $W_2^{(2)}(0,1)$ fazoga tegishli cheksiz differensiallanuvchi funksiya bo‘lsin, ya’ni.

$$\varphi(x) \in \overset{\circ}{C}{}^{(\infty)}(0,1).$$

(11) tenglikning o‘ng tomonini bo‘laklab integallab quyidagini hosil qilamiz

$$U_\ell^{(4)}(x) - U_\ell^{(2)}(x) = \ell(x). \tag{12}$$

$$\left(U_\ell^{(3)}(x) - U_\ell^{(1)}(x)\right)\Big|_{x=0}^{x=1} = 0, \tag{13}$$

$$U_\ell^{(2)}(x)\Big|_{x=0}^{x=1} = 0. \tag{14}$$

Teorema 1. *(12)-(14) chegaraviy masalaning yechimi (1) kvadratur formulaning (5) xatolik funksionali ekstremal funksiyasi bo‘lib, quyidagi ko‘rinishga ega.*

$$U_\ell(x) = \ell(x) * \mu_2(x) + b_0,$$

bu yerda

$$\mu_2(x) = \frac{signx}{2}\left(\frac{e^x - e^{-x}}{2} - x\right) \tag{15}$$

ushbu $\frac{d^4}{dx^4} - \frac{d^2}{dx^2}$ *differensial operatorning fundamental yechimi,*

$$signx = \begin{cases} 1, & x > 0, \\ 0, & x = 0, \\ -1, & x < 0, \end{cases} \quad b_0 \text{-}ixtiyoriy\ o‘zgarmas\ son.$$

1-teorema to‘liq isbotlandi.

Kvadratur formulaning xatolik funksionali normasi.

Endi biz xatolik funksionali normasini hisoblaymiz. Quyidagi teorema o‘rinli.

Teorema 2. Xatolik funksionalning normasining kvadrati quyidagi ko‘rinishda

$$\left\|\ell(x)\middle|W_2^{(2)*}(0,1)\right\|^2 = \left[\sum_{\beta=0}^{N}\sum_{\gamma=0}^{N} k[\beta]k[\gamma]\mu_2(h\beta - h\gamma) - \right.$$

$$\left. -2\sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\int_0^1 \mu_2(x - h\beta)dx + \int_0^1\int_0^1 \mu_2(x-y)dxdy \right]. \tag{16}$$

Бу ерда $\mu_2(x)$ Grin funksiyasi (15) formula bilan aniqlanadi.

Teoremani isboti 2. $W_2^{(2)}(0,1)$ fazo Gilbert bo‘lganligi sababli, chiziqli funksionalning umumiy shakli bo‘yicha Riss teoremasi bo‘yicha va ekstremal funksiyaning ta’rifini hisobga olgan holda, biz

$$\left(\ell,U_\ell\right)=\left\|\ell(x)\left|W_2^{(2)*}(0,1)\right\|\cdot\left\|U_\ell\left|W_2^{(2)}(0,1)\right\|=\left\|U_\ell\left|W_2^{(2)}(0,1)\right\|^2=\left\|\ell(x)\left|W_2^{(2)*}(0,1)\right\|^2.\right.\right.$$

demak, 1-teoremani hisobga olsak, biz bor

$$\left\|\ell(x)\left|W_2^{(2)*}(0,1)\right\|^2=\left(\ell,U_\ell\right)=\int\ell(x)U_\ell(x)dx=\right.$$

$$=\int_{-\infty}^{\infty}\left(i_{[0,1]}(x)-\sum_{\beta=0}^{N}k[\beta]\delta(x-h\beta)\right)\times$$

$$\times\left(\ell(x)*\frac{signx}{2}\left(\frac{e^x-e^{-x}}{2}-x\right)+P_0(x)\right)dx.$$

Tenglikdan (8) foydalanib, biz olamiz

$$\left\|\ell(x)\left|W_2^{(2)*}(0,1)\right\|^2=\int_{-\infty}^{\infty}\ell(x)\left(\ell(x)*\frac{signx}{2}\left(\frac{e^x-e^{-x}}{2}-x\right)\right)dx.\right.\right. \tag{17}$$

Birinchidan, biz svyortkasini hisoblaymiz

$$\ell(x)*\frac{signx}{2}\left(\frac{e^x-e^{-x}}{2}-x\right)$$

$$\ell(x)*\frac{signx}{2}\left(\frac{e^x-e^{-x}}{2}-x\right)=$$

$$=\int_{-\infty}^{\infty}\ell(y)*\frac{sign(x-y)}{2}\left(\frac{e^{x-y}-e^{y-x}}{2}-(x-y)\right)dy=$$

$$=\int_{-\infty}^{\infty}\left(i_{[0,1]}(y)-\sum_{\beta=0}^{N}k[\beta]\delta(y-h\beta)\right)*\frac{sign(x-y)}{2}\left(\frac{e^{x-y}-e^{y-x}}{2}-(x-y)\right)dy=$$

$$=\int_0^1\frac{sign(x-y)}{2}\left(\frac{e^{x-y}-e^{y-x}}{2}-(x-y)\right)dy-$$

$$-\sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\frac{sign(x-h\beta)}{2}\left(\frac{e^{x-h\beta}-e^{h\beta-x}}{2}-(x-y)\right). \qquad (18)$$

Keyin (18) ni (17) ga almashtirib, biz quyidagini hosil qilamiz

$$\left\|\ell(x)\left|W_2^{(2)*}(0,1)\right\|\right\|^2 = \int\left(i_{[0,1]}(x)-\sum_{\beta=0}^{N}k[\beta]\delta(x-h\beta)\right)\times$$

$$\times\left(\int_0^1\frac{sign(x-y)}{2}\left(\frac{e^{x-y}-e^{y-x}}{2}-(x-y)\right)dy-\right.$$

$$\left.-\sum_{\gamma=0}^{N}k[\gamma]\frac{sign(x-h\gamma)}{2}\left(\frac{e^{x-h\gamma}-e^{h\gamma-x}}{2}-(x-h\gamma)\right)\right)dx.$$

Shunday qilib, qavslarni ochib ifodani soddalashtirib, biz quyidagi natijani olamiz

$$\left\|\ell(x)\left|W_2^{(2)*}(0,1)\right\|\right\|^2 = \left[\sum_{\beta=0}^{N}\sum_{\gamma=0}^{N}k[\beta]k[\gamma]\mu_2(h\beta-h\gamma)-2\sum_{\beta=0}^{N}k[\beta]\int_0^1\mu_2(x-h\beta)dx+\right.$$

$$\left.+\int_0^1\int_0^1\mu_2(x-y)dxdy\right]. \qquad (19)$$

Bu yerdan, biz darhol (16) olamiz. 2-teorema to‘liq isbotlangan.

XULOSA

Shunday qilib, biz ushbu ishda $W_2^{(2)}(0,1)$ fazoda optimal kvadratura formulasini qurishni ko‘rib chiqdik. Bundan tashqari, kvadratura formulalarining ekstremal funksiyasini, xatolik funksionalining normasini ko‘rinishini topdik .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Соболев С. Л.** Введение в теорию кубатурных формул. – Москва: Наука, 1974. – 808 с.
2. **Соболев С. Л., Васкевич В. Л.** Кубатурные формулы. – Новосибирск: Изд-во ИМ СО РАН, 1996. – 484 с.

NEFTNI QAYTA ISHLASH JARAYONLARI MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Umirova Nilufar Omonboyevna

Lapasova Feruza Abdullayevna

Xatamova Maftuna Toir qizi

Raxmonova Mohinur Doniyor qizi

Guliston davlat universiteti

Annotasiya: *maqolada neft va neftni qayta ishlash jarayonlarimavzusini o’qitishda bir qatorda virtual modellar, animatsiyalardan foydalanib, ta’lim samaradorligining ortishi bo’yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *ilg'or pedagogik texnologiyalar, virtual modellar, animatsiyalar, neft, neft maxsulotlari, multimedia.*

Ta'limni samaradorligini oshirishda o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyo fanini o'qitishda ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish natijasida talabalarning faolligi, bilimlarini egallashga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'qituvchi bilan birgalikda talabalar ham faol qatnashadi. Kimyo fanining ko'plab mavzularini tushuntirishda grafik organayzerlar bilan bir qatorda virtual modellar, animatsiyalardan foydalanish o'zlashtirish samaradorligining ortishiga yordam beradi [1].

Bugungu kunda neft va neft maxsulotlariga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Neft va neft maxsulotlarini qayta ishlash jarayonlari va bu jarayonlar boradigan qurilmalarni bir meyyorda ishlab borishini ta‘minlash, uskunalarning ishlash muddatini uzaytirish, neft maxsulotlarini sifatini yanada yaxshilash bugungi kunning asosiy muommolaridan biridir [2].

Neftni haydash usuli miloddan avval ma’lum edi. Bu usul neftdan dori-darmon tayyorlash maqsadida qo‘llangan. Qadimgi yunon tabibi Kassiy Feliks va Abu Ali ibn Sino neftni haydashga oid tajribalar o‘tkazishgan. Xorazm geografi Bakron (13-asr) Boku neftini haydash haqida birinchi bo‘lib eslatib o‘tadi. XVIII asrga kelib neft konlarini qidirish va o‘rganish munosabati bilan neftni haydashga katta e’tibor berildi. Neftni haydash laboratoralari qurildi. 1823-yilda aka-uka Dubininlar Mozdok shahri yaqinida davriy ishlaydigan neftni haydash zavodini qurdilar. Ular kubga quyilgan 40 chelak neftdan 16 chelak haydalgan neft olganlar. Shu tariqa neftni haydash zavodlari taraqqiy eta boshladi [2].

1861 yilda ochilgan birinchi neftni qayta ishlash zavodi oddiy atmosfera distillash yo'li bilan kerosin ishlab chiqaradi. Uning qo'shimcha mahsulotiga smola va nafta kiradi. Tez orada yuqori sifatli moylash moylarini vakuum ostida neftni distillash orqali olish mumkinligi aniqlandi. Biroq, keyingi 30 yil davomida kerosin iste'molchilar eng ko'p xohlagan mahsulot edi. Ushbu vaziyatni o'zgartirgan ikkita eng muhim voqea:

- kerosinga bo'lgan talabni kamaytiradigan elektr chiroqning ixtirosi
- dizel yoqilg'isi va benzinga (nafta) talabni yaratgan ichki yonuv dvigatelining ixtirosi.

Ommaviy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va Birinchi jahon urushi bilan benzinda ishlaydigan avtomobillar soni keskin oshdi va shunga mos ravishda benzinga bo'lgan talab ham o'sdi. Biroq, atmosfera va vakuumli distillash jarayonlari orqali xom neftdan faqat ma'lum miqdorda benzin olish mumkin edi. Birinchi termal kreking jarayoni 1913 yilda ishlab chiqilgan. Termik kreking og'ir yoqilg'ilarni ham bosimga, ham kuchli issiqlikka duchor qildi, ularning katta molekulalarini jismoniy jihatdan kichikroqlarga aylantirdi, qo'shimcha benzin va distillat yoqilg'ilarini ishlab chiqardi. 1930-yillarning oxirida ko'proq kerakli va qimmatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun termal krekingning murakkab shakli, visbreaking ishlab chiqilgan.

Yuqori siqilishli benzinli dvigatellar ishlab chiqilganligi sababli, taqillatishga qarshi yaxshi xususiyatlarga ega yuqori oktanli benzinga talab paydo bo'ldi. 1930-

yillarning o'rtalari va oxirlarida katalitik kreking va polimerizatsiya jarayonlarining joriy etilishi benzinning yaxshilanishi va yuqori oktan sonlarini ta'minlash orqali bu talabni qondirdi. Yana bir katalitik jarayon bo'lgan alkilatsiya 1940-yillarning boshlarida portlovchi moddalar va sintetik kauchuk uchun boshlang'ich materiallar bo'lgan yuqori oktanli aviabenzin va neft-kimyo xom ashyosini ishlab chiqarish uchun ishlab chiqilgan. Keyinchalik, uglevodorodlarni ko'p miqdorda alkillanish xom ashyosini ishlab chiqarish uchun aylantirish uchun katalitik izomerizatsiya ishlab chiqildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng benzin sifati va rentabelligini oshiruvchi va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqargan turli islohot jarayonlari joriy etildi. Ulardan ba'zilari molekulalarni o'zgartirish va oltingugurtni olib tashlash uchun katalizatorlar va / yoki vodoroddan foydalanishni o'z ichiga oladi. 1960-yillarda benzin rentabelligini oshirish va taqillatishga qarshi xususiyatlarni yaxshilash uchun takomillashtirilgan katalizatorlar va gidrokreking va reforming kabi texnologik usullar ishlab chiqilgan. Bu katalitik jarayonlar, shuningdek, zamonaviy neft-kimyo sanoatining asosini tashkil etuvchi qo'sh bog'li molekulalar (alkenlar) hosil qildi.

Neftni haydash jarayonida neft mahsulotlari odatda neftdan quyidagi temperaturalar oralig‘ida qaynab bug‘lanadigan distillyatlar olinadi:


- benzin 28—180°,
- ligroin 110—230°,
- kerosin 120—315°;
- gazoyil 230—330°;
- solyar 280—380°;
- moy 320—500°.

Neftni qayta ishlab yonilg‘i va moylar olishda uni to‘g‘ri haydash birlamchi va asosiy jarayon hisoblanadi (sxema). To‘g‘ri haydash pech quvurlarida harakatda bo‘lgan neftni qattiq qizdirib bug‘latish, bug‘ni rektifikatsiya ustuni (kolonnasi)da fraksiyalarga bo‘lish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Quvurli pechlarda neft 330—350° gacha qizdirilib, keyin rektifikatsiya ustunining o‘rta qismiga yuboriladi. Neftning suyuq qoldiqlari ustunning devorlaridan pastga sizib tushadi, yengil

uglevodorod bug‘lari esa ustunning tepa qismiga qarab intiladi va rektifikatsiya tarelkalariga urilib, kondensatga (suyuqlikka) aylanadi. Tarelkalar ustunning har xil balandliklarida joylashgan bo‘lib, pastki tarelkalarda og‘ir uglevodorodlar, yuqoriroqdagi tarelkalarda yengilroq uglevodorodlar kondensatga aylanadi.

Neftni to‘g‘ri haydashda rektifikatsiya ustunlaridagi bosim atmosfera bosimiga teng bo‘ladi. Rektifikatsiya ustunining tagida yig‘ilgan mazut kreking qurilmalarida qayta haydalishi yoki yoqilg‘i mazuti sifatida ishlatilishi mumkin. Mazutlarning ikkilamchi qayta ishlanishi vakuum qurilmalarida bajariladi. Vakuum ustunlarining yuqori qismidan solyar frakiyalari kondensatlari, quyiroqda moy fraksiyalari, ustunning pastki qismida esa gudron yoki yarim gudron yig‘iladi [2-3].

Neft va neft maxsulotlarini qayta ishlash jarayonlarini talabalarga tushuntirib berish uchun animatsiyalardan foydalangan holda ko’rsatib berilsa ta’lim samaradorligi yanada oshadi.



1-rasm. Neft va neft maxsulotlarini qayta ishlash jarayonlari.

Shu kabi barcha mavzular animatsion tarzda namoyish etish bilan birga, o'qituvchi tomonidan tushuntirib boriladi.

Kimyo fanidagi “Neftni qayta ishlash jarayonlari” mavzusi bo'yicha multimediali lavha yaratishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning kimyo o'quv fani bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash;
- o'quvchilarning o'quv fanini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishini oshirish;
- o'quvchilarni kompyuter bilan muloqot qilishga o'rgatish va komp'yuter savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va shu kabilar.

Demak, “Neftni qayta ishlash jarayonlari” mavzusini o'qitishda zaruriy ko'rgazmalar va elektron ta'lim vositalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini yo'lga qo'yish hamda masofali o'qitishni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytish mumkinki biz yuqorida misol tariqasida yoritishga harakat qilgan yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalarni, shuningdek, global internet tarmog'i, mul'timedia tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jaraèniga faol tatbiq etish o'rtaga tashlangan muammoni yechimida ijobiy rol' o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Salimov Z.** Neft va gazni qayta ishlash jarayonlari va uskunalari. – Toshkent: Aloqachi, 2010. – B. 102–111.
2. **Turobjonov S. M., Jurayev V. N., Ziyadullayev O. E., Mirxamitova D. X.** Neft-gaz kimyosi va fizikasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2014. – B. 86–90.
3. **Safayeva R. Z.** Fiziko-ximiya nefti // Fiziko-ximicheskiye osnovi texnologii pererabotki nefti. – Moskva: Ximiya, 1999. – B. 95–100.
4. **Kamoliddinov M., Vaxobjonov B.** Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2010. – B. 78–80.

RUX OKSIDIGA ASOSIDA OLINGAN ADSORBENTLARIDA SUV BUG‘I ADSORBSIYASI TADQIQI

Xoliqov Abdumalik
“Uzbekistan GTL” MCHJ
Eshmetov Rasulbek
Mamun universiteti
Muratov Mirtoxir
O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Annotatsiya: *Ushbu ishda rux oksidi (ZnO) asosida olingan UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 adsorbentlarida suv bug‘larining adsorbsiyasi tadqiq etildi. Adsorbsion xususiyatlar Mak-Ben vakuum-adsorbsion qurilmasida suv va benzol bug‘lari yordamida o‘rganildi. Namunalar adsorbsiya o‘lchovlaridan oldin 90 °C da faollashtirildi. Adsorbentlarning solishtirma sirt maydoni Langmyur va BET nazariyalari asosida, mikro- va mezog‘ovaklarning hajmi esa t-usul orqali hisoblandi. Olingan adsorbsiya izotermalari IUPAC tasnifiga ko‘ra II turga mansub bo‘lib, materiallarning gidrofilligi va mezog‘ovakli tuzilishini ko‘rsatadi. Natijalar UCAT-SR-110 namunasi yuqori solishtirma sirt maydoni va katta g‘ovaklar hajmi hisobiga suv bug‘larini samaraliroq adsorbsiyalashini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari ushbu materiallarning sorbsiya, quritish va gazlarni tozalash jarayonlarida istiqbolli adsorbent sifatida qo‘llanish imkoniyatini tasdiqlaydi.*


Kalit so‘zlar: *rux oksidi, suv bug‘i adsorbsiyasi, adsorbent, BET nazariyasi, g‘ovak tuzilish, izoterma.*

Metall oksidli sirtlarda suv bug‘lari adsorbsiyasi amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu turdagi g‘ovak materiallarni gaz sensorlari, kataliz, fotokimyo va elektrokimyo tarmoqlarida keng ishlatiladi [1-3]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ruh oksidi sirt yuzasidagi Zn va O atomlari uch koordinatali bo‘lib, suv bug‘lari molekulalarining adsorbsiyasi paytida H_2O ning kislorod atomlari Zn


atomlariga bog‘lanishi ehtimolligi ancha yuqori bo‘ladi. To‘liq molekulyar adsorbsiyada H_2O molekulasi Zn sirtiga adsorbsiyalanishga moyil bo‘ladi [4-5].

Namunalarning adsorbsion faolligini o‘rganish maqsadida unda suv bug‘i adsorbsiyasi o‘rganildi. Namunalarning adsorbsion xususiyatlari Mak-Ben vakuum-adsorbsion qurilmasida suv va benzol bug‘larini adsorbsiya miqdori bo‘yicha aniqlandi. Adsorbsiya qiymatini o‘lchashdan avval, namunalar 90 °C da qizdirilib olinadi. Bu jarayon 1 soat davomida olib borildi.

Adsorbentlarning solishtirma sirt yuzasi $S_{sol.}$ Lengmyur tenglamasi va BET nazariyasi asosida, mikrog‘ovaklarning hajmi Vu – t-usulda hisoblandi. Mezo- va mikrog‘ovaklarning sorbsion hajmi (V_0) benzol va suvni P/P_0 0,995 qiymatlarda adsorbsiyalanish izotermasi bo‘yicha aniqlandi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.



a)



b)

1-rasm. UCAT-SR-110 (a) UCAT-SR-120 (b) namunalarida suv bug‘i adsorbsiyasi izotermalari.

1-rasmdan ko‘rinishicha, adsorbsiya izotermalari IUPAC tasnifiga ko‘ra II turga mansub bo‘lib, bu mezog‘ovakli va gidrofil materiallarga xosdir. Izoterma $R/R_0 \approx 0{,}35$ gacha keskin o‘sish, 0,35–0,70 oralig‘ida barqarorlashish va $R/R_0 > 0{,}80$ da yana ortish bilan tavsiflanadi. Bu holat dastlab tez adsorbsiya, keyin esa polimolekulyar adsorbsiya boshlanishini ko‘rsatadi.

UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 namunalarining suv bug‘lari adsorbsiya izotermalari bosqichma-bosqich o‘sib borishi bilan fizik adsorbsiya jarayoniga xos ekanini ko‘rsatadi. UCAT-SR-110 namunasi yuqoriroq adsorbsiya hajmiga ega bo‘lib, bu uning rivojlangan g‘ovak tuzilishi va mikrog‘ovaklar ulushining ko‘pligi bilan izohlanadi. Izotermal chiziqlarning silliq shakli g‘ovaklar taqsimlanishining bir xilligini va suv molekulalarining samarali adsorbsiyasini ta’minlaydi. Natijada, UCAT-SR-110 namlikni yutish qobiliyati yuqori bo‘lgan istiqbolli material hisoblanadi.

1-jadval. Suv bug‘i adsorbsiyasi parametrlari

Namuna	A_0, mol/g	S, m^2/g	V_a, cm^3/g	V_s, cm^3/g	R, Å
UCAT-SR-110	0,33	20,36	0,0167	0,02	33,2
UCAT-SR-120	0,223	14,53	0,0111	0,01	30,2

1-jadvalda UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 namunalarining adsorbsion xossalarini qiyosiy tahlil qiluvchi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ular turli adsorbsion jarayonlarda qo‘llanish imkoniyatlarini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. UCAT-SR-110 namunasi yuqori adsorbsiya sig‘imi ($A_0 = 0{,}33$ mol/g) bilan ajralib turadi, bu asosan uning katta solishtirma sirt maydoni (20,36 m^2/g) va g‘ovaklar hajmining yuqoriligi (V_a = 0,0167 sm^3/g, V_s = 0,02 sm^3/g) bilan izohlanadi. Ushbu strukturaviy ustunliklar yaxshi rivojlangan mikro- va mezog‘ovakli tizim mavjudligini ko‘rsatib, molekulalarning samarali adsorbsiyasini ta’minlaydi hamda UCAT-SR-110 ni yuqori faollikka ega material sifatida tavsiflaydi.

Bunga nisbatan, UCAT-SR-120 namunasi pastroq ko‘rsatkichlarga ega (A_0 = 0,223 mol/g; solishtirma sirt maydoni 14,53 m²/g; g‘ovaklar hajmi V_a = 0,0111 sm³/g, V_s = 0,01 sm³/g) bo‘lib, o‘rtacha g‘ovak radiusi faqatgina biroz kichik (30,2 Å ga nisbatan 33,2 Å) ekanligi bilan farqlanadi. Mazkur kichik farq uning strukturaviy parametrlarining kamayganligini to‘liq qoplay olmaydi. Umuman olganda, UCAT-SR-110 adsorbsion samaradorlik bo‘yicha aniq ustunlikka ega bo‘lib, tozalash, ajratish va sorbsiya jarayonlari uchun yanada istiqbolli material sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Kulkarni S. B., Patil U. M., Salunkhe R. R., Joshi S. S., Lokhande C. D.** Temperature impact on morphological evolution of ZnO and its consequent effect on physico-chemical properties // Journal of Alloys and Compounds. — 2011. — Vol. 509. — P. 3486–3492.

2. **Muratov M. M., Kholikov A. S., Eshmetov R. J., Seytnazarova O. M.** Physicochemical analysis of adsorbent synthesized on the basis of local raw materials // Science and Education in Karakalpakstan. — 2025. — № 1/1. — P. 39–43.

3. **Sun G., Cao M., Wang Y., Hu C., Liu Y., Ren L., Pu Z.** Anionic surfactant-assisted hydrothermal synthesis of high-aspect-ratio ZnO nanowires and their photoluminescence property // Materials Letters. — 2006. — Vol. 60. — P. 2777–2782.

4. **Muratov M. M., Kurniawan T. A., Eshmetov R. J., Salikhanova D. S., Eshmetov I. D., Adizov B. Z., Khandamov D. X., Madaminov B., Choo W. O.** Promoting sustainability: Micellization and surface dynamics of recycled monoethanolamine surfactants // Journal of Molecular Liquids. — 2024. — Vol. 414. — Art. 126010.

5. **Zhao M., Wu D., Chang J., Bai Z., Jiang K.** Synthesis of cup-like ZnO microcrystals via a CTAB-assisted hydrothermal route // Materials Chemistry and Physics. — 2009. — Vol. 117. — P. 422–424.

YUQORI TO‘YINGAN KARBON KISLOTALARNING KIMYOVIY XOSSALARI VA SANOATDA ISHLATILISHI

Yo‘lchiyeva Nodiraxon O‘ktamjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yuqori to‘yingan karbon kislotalarning (alkan kislotalarning) tuzilishi, kimyoviy xossalari va sanoatdagi amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Mazkur birikmalarning molekulyar tuzilishi ularning fizik va kimyoviy xususiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, yuqori to‘yingan karbon kislotalarning sovun, kosmetika, farmatsevtika, oziq-ovqat va kimyo sanoatlarida qo‘llanilish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yuqori to‘yingan karbon kislotalar, karboksil guruhi, kislotalik xossasi, metall bilan reaksiya, neytrallanish, sovunlar, esterlanish, amidlar, vodorod bog‘lari, qaynash harorati, sanoatda qo‘llanilishi.*

Kirish: Organik birikmalar orasida karbon kislotalar strukturaviy xilma-xilligi va funksional faolligi bilan alohida o‘rin egallaydi. Ularning molekulasida mavjud bo‘lgan karboksil guruhi nafaqat kimyoviy reaktivlikni belgilaydi, balki ushbu birikmalarning fizik, biologik va texnologik xossalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, uglevodorod zanjiri to‘yingan bo‘lgan karbon kislotalar barqaror tuzilishi va keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Uglerod atomlari soni ko‘p bo‘lgan to‘yingan karbon kislotalar tabiiy yog‘lar va lipidlar tarkibida asosiy komponent sifatida uchraydi. Ularning strukturaviy xususiyatlari agregat holati, eruvchanlik darajasi va kimyoviy faollik kabi muhim ko‘rsatkichlarni belgilaydi. Mazkur kislotalar nisbatan past reaktivlikka ega bo‘lsa-da, sanoat jarayonlarida keng qo‘llaniladigan qator reaksiyalarga kirishish qobiliyatini saqlab qoladi. Zamonaviy kimyo sanoatida yuqori to‘yingan karbon kislotalarga bo‘lgan ehtiyoj ularning ko‘p funksiyali xossalari bilan izohlanadi. Ular sovun va yuvish vositalari ishlab chiqarishdan tortib, farmatsevtika, kosmetika hamda materialshunoslik sohalarigacha bo‘lgan keng ko‘lamli jarayonlarda muhim xomashyo hisoblanadi.

Shu bilan birga, ekologik xavfsizlik va qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish masalalarining dolzarbligi ushbu birikmalarni chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism: Yuqori to‘yingan karbon kislotalar – uglevodorod zanjirining to‘yingan bo‘lishi bilan ajralib turadigan organik birikmalar bo‘lib, molekulasida kamida bitta karboksil guruhi (–COOH) mavjud. Ularning kimyoviy xatti-harakati va fizik xossalari molekulyar tuzilish, zanjir uzunligi, molekula hajmi va qutblilik darajasi bilan bevosita bog‘liq. Zanjir uzunligi ortgani sari molekulalar o‘rtasidagi dispersiya kuchlari oshadi, bu esa ularning erish va qaynash haroratini sezilarli darajada ko‘taradi. Shu bilan birga, uzun uglevodorod zanjiriga ega kislotalarning suvda eruvchanligi pasayadi, ammo organik erituvchilar, yog‘lar va aralash muhitlarda ular yaxshi eriydi, bu esa ularni sanoatda turli jarayonlarda qo‘llash imkonini beradi. Yuqori to‘yingan karbon kislotalarning kimyoviy reaktivligi ham ularning molekulyar tuzilishi bilan belgilanadi. Masalan, karboksil guruhi turli reagentlar bilan turlicha reaksiyaga kirishadi: ular metall bilan reaksiya qilganda vodorod gazini hosil qiladi, ishqorlar bilan neytrallashib tuzlar (masalan, sovunlar) hosil qiladi, spirtlar bilan reaksiyaga kirganda esa murakkab efirlar hosil bo‘ladi. Shu bilan birga, amidlar hosil qilish qobiliyati ularni farmatsevtika va polimer kimyosida muhim qiladi. Bularning barchasi yuqori to‘yingan karbon kislotalarning sanoatdagi ko‘p qirrali qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu kislotalar molekulalarining amfifil xossasi – qutbli karboksil guruhi va qutbsiz uglevodorod zanjirining mavjudligi – emulsifikatsiya va sirt-faol xossalarni hosil qiladi. Natijada ular sovun, detergentlar va kosmetik vositalarda emulsiyalarni barqarorlashtiruvchi komponent sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, yuqori to‘yingan karbon kislotalardan tayyorlangan murakkab efirlar plastik materiallar, moylovchi vositalar va qoplamalar sifatida ishlatiladi, chunki ular past uchuvchanlikka ega va oksidlanishga chidamlidir. Yuqori to‘yingan karbon kislotalarning termik xossalari ham sanoat jarayonlari uchun muhimdir. Masalan, stearin va palmitin kislotasi qattiq fazada yuqori erish haroratiga ega bo‘lib, ularni qattiq mahsulotlarda, shamlar, qoplamalar va plastmassa moddalarida ishlatish

imkonini beradi. Shu bilan birga, ular past molekulali analoglariga nisbatan yuqori haroratlarda parchalanadi, shuning uchun sanoat jarayonlarida ularning termik barqarorligi va strukturaviy yaxlitligi qat’iy nazorat qilinadi.

Ekologik nuqtai nazardan, yuqori to‘yingan karbon kislotalar biologik mosligi yuqori va toksikligi past bo‘lganligi sababli ekologik jihatdan maqbul xomashyo hisoblanadi. So‘nggi yillarda ularni qayta tiklanuvchi manbalardan olish texnologiyalari rivojlanib, bioasosli mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llanilishi ortib bormoqda. Shu bilan birga, yuqori to‘yingan karbon kislotalar energetika va qishloq xo‘jaligi sohalarida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda: masalan, ular biodizel ishlab chiqarishda xomashyo sifatida ishlatiladi, shuningdek, qishloq xo‘jaligida barqaror emulsiyalar va ko‘p funksiyali o‘g‘itlar tayyorlashda qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, yuqori to‘yingan karbon kislotalar polimer sanoatida istiqbolli komponent sifatida baholanadi. Ularning oksidlanishga chidamliligi va reologik xossalari yangi plastik, elastomer va qoplama materiallar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ular uzoq muddatli saqlash va ekspluatatsiya jarayonlarida o‘z xossalarini saqlab qoladi, bu esa ularni innovatsion sanoat texnologiyalarida ham qo‘llash imkonini oshiradi.

Xulosa: Yuqori to‘yingan karbon kislotalar – molekulyar tuzilishi va kimyoviy xossalari bilan sanoat va kundalik hayotda muhim o‘rin tutadigan organik birikmalardir. Ularning karboksil guruhi va to‘yingan uglevodorod zanjiri ularning kislotalik, termik barqarorlik, sirt-faol va emulsifikatsiya xossalarini belgilaydi. Bu kislotalar sovun va detergent ishlab chiqarish, kosmetika, parfyumeriya, polimer va plastmassa sanoati, shuningdek, oziq-ovqat va farmatsevtika texnologiyalarida keng qo‘llaniladi. Yuqori to‘yingan karbon kislotalar ekologik jihatdan maqbul bo‘lib, biologik mosligi yuqori va toksikligi past hisoblanadi. So‘nggi yillarda ularni qayta tiklanuvchi manbalardan olish va bioasosli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayib, ularning an’anaviy va innovatsion sanoat tarmoqlaridagi ahamiyatini oshirmoqda. Shu sababli yuqori to‘yingan karbon kislotalar nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Solomons T. W. G., Fryhle C. B.** Organic chemistry. 12th ed. – Hoboken: Wiley, 2021.
2. **McMurry J.** Organic chemistry. 9th ed. – Boston: Cengage Learning, 2020.
3. **Loudon G. M.** Organic chemistry. 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2016.
4. **Anslyn E. V., Dougherty D. A.** Modern physical organic chemistry. – Sausalito: University Science Books, 2006.
5. **Carey F. A., Sundberg R. J.** Advanced organic chemistry. Part A & B. – New York: Springer, 2007.
6. **Karimov I. S.** Organik kimyo asoslari. – Toshkent, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Kimyo darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari. – Toshkent, 2018–2022.

ГОССИПОЛНИ ПАРААМИНОБЕНЗОЙ КИСЛОТА ВА 2-АМИНОТИАЗОЛНИ ГЛИЦИРРИЗИН КИСЛОТАНИНГ МОНОАММОНИЙЛИ ТУЗИ БИЛАН СУПРАМОЛЕКУЛЯР КОМПЛЕКСЛАРИ

Алимов А.Э.

Гулистон давлат университети, катта ўқитувчи

Режепов Қ.Ж.

ЎзР ФА О.С.Содиқов номидаги Биоорганик кимё илмий-тадқиқот институти

Аннотация. *Ушбу мақолада госсиполни парааминобензой кислота ва 2-аминотиазолни глицирризин кислотанинг моноаммонийли тузи билан*

супрамолекуляр комплексларини олиш ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: *госсипол (Г), парааминобензой кислота (ПАБК), 2-аминотиазол, глицирризин кислотанинг моноаммонийли тузи (ГКМАТ), супрамолекуляр комплекс.*

Кириш. Маълумки госсипол тритерпен альдегид гуруҳига мансуб бўлиб, таркибидаги OH ва CH_3-радикалларининг борлиги унинг биологик фаоллигини белгилайди. Госсипол асосида синтез қилинган моддалар турли хил зарарли вирусларга қарши, интерферон индукторловчи, иммуносупрессив хусусиятларга эга эканлиги аниқланган.

Асосий қисм. Госсипол (*Госсипиум*), табиий полифенол бўлиб, чигит таркибидаги сариқ рангли пигментидир у бир қатор ферментлар, дегидрогеназаларнинг ингибиторидир. Госсиполнинг максимал миқдори ғўза илдизларида ва уруғ ядросида, камроқ миқдорда баргларида, поялари пўстлоғида бўлади.

Госсипол табиатда иккита энантиомер шаклда мавжуд: (+) мусбат ва (-) манфий. Ғўза ўсимлигида госсипол иккала стереоизомери аралашма ҳолида учрайди. Госсипол жуда фаол кимёвий бирикма [1-2].

Госсиполни систематик номи 2,2[1] ди (1,6,7- триокси 3-метил 5-изопропил 8-нафтальдегид) кимёвий формуласи $C_{30}H_{30}O_8$, физикавий хусусиятлари, кўриниши: оч сариқдан тўқ сариққача бўлган кристал модда, моляр массаси 518,563 г/молга тенг, зичлик 1,4 г/см³ бўлиб, 177-182°C температурада (парчаланиш билан) эрийди, 707°C температурада қайнайди, токсиклиги заҳарли. Маълумотлар стандарт шароитларда (25°C, 100 кПа) тақдим этилади, агар бошқача кўрсатилмаган бўлса [2-3].


Госсипол кўпгина органик эритувчиларда яхши эрийди. Қутбли эритувчиларда яхшироқ эрийди, қутбсиз эритувчиларда деярли эримайди. Госсипол молекуласида қутбли гуруҳлар сони кўп, масалан, олтита гидрок-сил гуруҳи мавжуд [3-4].


Лекин иккита оғир диалкилнафталин гуруҳининг бўлиши, уни сувда эримайдиган ҳолга келтиради.

Шунинг учун госсипол сувда эримайди. Госсипол метил, этил, изопропил, бутил спиртларида, диэтиленгликолда, диоксанда, ацетонда, диэтилэфирда, этилацетатда, хлороформда, диметилсульфоксидда, диметилформамидда, углерод тўртхлоридда, дихлорэтанда, фенолда, пиридинда, суюлтирилган нафталинда, иситилган ўсимлик ёғида яхши эрийди [5-7].

Госсипол глицеринда, циклогександа, бензолда, бензинда ва петролей эфирда ёмон эрийди, бензиндаги эрувчанлиги петролей эфирига нисбатан юқорироқ. Госсипол суюқ ёғларда оз миқдорда эрийди, шунинг учун пахта уруғидан бензин ёрдамида ёғ экстракция қилинганда қисман мисцеллага ўтиб кетади. [8-9].

Госсиполни тузилиш ва конфигурация формуласи 1-расмда келтирилган.






1-расм. Госсиполни тузилиш ва конфигурация формуласи.

Ишда биз глицирризин кислотанинг моноаммонийли тузи билан 1:4 нисбатда олиб уни 96% ли 50 мл спиртда қайтар совитгич ва магнитли аралаштиргич ёрдамида ҳамда маълум ҳароратда 300 мл ли туби ясси колбада бир соат эритилди. Натижада ўзига хос эритма ҳосил бўлди.

Сўнгра парааминобензой кислотани 50 мл ацетонда қайтар совитгич билан магнитли аралаштиргич ёрдамида 30°С да 300 мл ли колбада бир соат эритилди. Реакция натижада ўзига хос рангли эритма ҳосил бўлди.

Ушбу Шифф асосларини, яъни эритилган параминобензой кислота эритмасини 300 мл ли колбада глицирризин кислотасини моноаммонийли тузига қўйиб, 80°Сда 4 соат давомида қайтар совитгич ва магнитли аралаштиргич ёрдамида синтез қилинди.

Реакция натижасида супрамолекуляр комплекс модда олинди, фильтрланди ва қуритилди. Сўнгра комплексларни текшириш учун уларнинг ИҚ спектралари натижалари олинди.



1-расм. Госсиполни парааминобензой кислотани глицирризин кислотанинг моноаммонийли тузи билан супрамолекуляр комплекси ИҚ натижалари.

Госсиполни 2-аминотиазол ва ГКМАТ билан супрамолекуляр комплекслари

Глицирризин кислотанинг моноаммонийли тузи 1:4 нисбатда олиниб уни 96% ли 50 мл спиртда қайтар совитгич ва магнитли аралаштиргич ёрдамида ҳамда маълум ҳароратда 300 мл ли туби ясси колбада бир соат эритилди. Натижада ўзига хос рангли эритма ҳосил бўлди.

Сўнгра 2-аминотиазолни 50 мл ацетонда қайтар совитгич билан маг-нитли аралаштиргич ёрдамида 30°С да 300 мл ли колбада бир соат давомида эритиб олинди. Реакция натижада ўзига хос рангли эритма ҳосил бўлди.

Ушбу Шифф асосларини, яъни эритилган 2-аминотиазол эритмасини 300 мл ли колбада глицирризин кислотасини моноаммонийли тузига қуйиб, 80°Сда 4 соат давомида қайтар совитгич ва магнитли аралаштиргич ёрдамида синтез қилинди. Реакция натижасида супрамолекуляр комплекс модда оли-ди, фильтрланди ва қуритилди. Сўнгра комплексларни текшириш учун улар-нинг ИҚ спектрлари натижалари олинди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. **Хаитбаев А. Х., Асланов Х. А., Ауелбеков С. А., Хаитбаев Х. Х.** Синтез новых иминопроизводных госсипола // Химия природных соединений. – 1994. – № 1. – С. 48–49.
2. **Gossypol** [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://en.wikipedia.org/wiki/Gossypol (дата обращения: ko‘rsatilmagan).
3. **Ванг Х., Ховелл С. П., Чен Ф. и др.** Госсипол – полифенольное соединение, полученное из хлопчатника // 2009. – Т. 58. – С. 215–263. *(Manba nomi ko‘rsatilmaganligi sababli umumiy jurnal shaklida rasmiylashtirildi.)*
4. **Исаев И. Х., Ибрагимов А. С., Саидахмедов У. А., Салихов Ш. И.** Технический госсиполни олиш усули: патент UZ/IAP 02060 С. – 29.06.2001 // Бюллетень изобретений. – № 3.

5. **Машковский М. Д.** Лекарственные средства. – Москва: Медицина, 1984. – С. 331.
6. **Машковский М. Д.** Лекарственные средства. – Ташкент: Изд-во медицинской литературы, 1988. – С. 325–326, 334–335.
7. **Садыков А. С., Арипов У. А., Исмаилов А. И., Биктимиров Л. И. и др.** Производные госсипола, обладающие иммунодепрессивными свойствами: патент РУз № 974 от 19.04.1994 // Расмий ахборотнома. – 1994. – № 2. – С. 200.
8. **Барам Н. И., Зияев Х. А., Исмаилов Г. А.** Иммуномодулирующая активность производных госсипола // Химия природных соединений. – 1988. – № 5. – С. 647–650.
9. **Ауелбеков С. А., Мирзаабдуллаев А. Б., Асланов Д. Х. и др.** Синтез и противовирусная активность производных госсипола // Химико-фармацевтический журнал. – 1985. – Т. 19, № 9. – С. 829–831.

EARTH SYSTEM AND GEOGRAPHICAL SPACE: NATURAL PROCESSES, RESOURCES AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGIES

XONDIZA POLIMETALL KONIDA SENTINEL-1 INSAR MONITORINGI: MA'LUMOT YIG'ISH, SNAP DASTLABKI ISHLOVI VA KON-SHAROITGA MOS MAXSUS YONDASHUVLAR

Nomdorov Rustam Uralovich
Qarshi davlat texnika universiteti
Botirov Shoxbos Soibjon o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Abdisamatov Boboyor Azamat o'g'li
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xondiza polimetall koni (Sariosiyo tumani) sharoitida yer usti deformatsiyalarini masofaviy zondlash orqali monitoring qilish uchun Sentinel-1A/B C-diapazonli SAR ma'lumotlaridan foydalanish metodikasi taqdim etiladi. 2020–2025 yillar oralig'ida to'plangan 120 ta SLC sahna asosida (asosan descending yo'nalish, IW rejimi) ma'lumot yig'ish strategiyasi, ESA SNAP muhitida bajarilgan dastlabki ishlov (Apply Orbit, Subset, Multilooking, Refined Lee, Deburst, Coregistration, Interferogram Formation, Topographic Phase Removal, Goldstein filtering, SNAPHU orqali Unwrapping) hamda kon relyefi va texnologik jarayonlaridan kelib chiqadigan muammolar (atmosfera, geometrik buzilishlar, koherensiya, unwrap xatolari) uchun amaliy yechimlar bayon etiladi. Kon-spetsifik yondashuv sifatida TanDEM-X/UAV-LiDAR asosida DEM yangilash, SBAS/PSInSAR vaqt qatori tahlili va StaMPS integratsiyasi, shuningdek GNSS va total stansiya kuzatuvlari bilan natijalarni kalibrlash protokoli taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Sentinel-1A/B, C-band SAR, IW rejimi, SLC, SNAP, TOPS Deburst, SBAS, PSInSAR, StaMPS, TanDEM-X, UAV-LiDAR, GNSS.*

Kirish

Copernicus Sentinel-1 dasturi (1A — 2014-y. 3-aprel; 1B — 2016-y. 25-aprel) geodinamika, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, transport infratuzilmasi va konchilikdagi deformatsiyalarni yuqori ishonchlilikda kuzatishga mo‘ljallangan C-band SAR platformasidir. Sun’iy yo‘ldoshlar ~693 km balandlikdagi Quyosh-sinxron orbitada ($i \approx 98.18°$) ishlaydi; juft foydalanilganda qayta kuzatuv sikli 6 kun bo‘lgan, 2022-yildan beri 1A yolg‘iz ishlayotgani bois 12 kun. Xondiza kabilar uchun interferometriyada keng qo‘llaniladigan IW rejimi (5×20 m; 250 km qamrov) tanlandi; polarizatsiya sifatida VV deformatsiya signallariga sezgirligi sabab afzal ko‘rildi. Ochiq ma’lumot siyosati (ESA/ASF/DIAS) hududiy tadqiqotlar uchun qulaylik yaratadi.

Ma’lumot yig‘ish metodikasi (2020–2025)

Davr va hajm. 2020–2025 yillarda jami 120 ta SLC sahna yig‘ildi (har biri 2–4 GB; umumiy hajm >400 GB).

Orbit va takroriylik. Asosan descending treklarda, 12 kunlik sikl bilan yiliga ≥30 sahna.

Qamrov va ROI. IW qamrovi 250 km bo‘lsa-da, tahlil Sariosiyo–Xondiza poligoni bilan cheklangan (subset).

Yuklab olish manbalari. Copernicus Open Access Hub, ASF DAAC (amaliy tezkor yuklab olish), CREODIAS/ONDA (katta arxivlar). Amalda tarmoq tezligi sabab asosiy oqim ASF orqali tashkil etildi.

Tanlash mezonlari. VV polarizatsiya; faqat SLC (GRD vizual tahlilga qulay, lekin interferometriya uchun yaroqsiz); qat’iy ROI.

Texnik cheklovlar. Katta hajm, tarmoq sekinligi, lokal hisoblash quvvati; yechim sifatida maxsus server/bulut resurslari jalb etildi.

SNAP dasturida dastlabki ishlov

1. Apply Orbit File — aniqlashtirilgan orbit ma’lumotlari bilan faza aniqligini oshirish.
2. Subset (ROI) — poligon bo‘yicha kesish, resurs tejamkorligi.
3. Multilooking (≈4×1) — spekklni kamaytirish va fazoviy aniqlikni muvozanatlash.

4. Speckle Filtering (Refined Lee) — strukturalarni saqlagan holda shovqinni pasaytirish.

5. Deburst (TOPS) — burstlarni birlashtirib yaxlit sahna hosil qilish.

6. SLC Coregistration (master–slave) — piksel darajasida moslashtirish.

7. Interferogram Formation — faza farqidan interferogramma hosil qilish.

8. Topographic Phase Removal (SRTM 30 m) — relyef komponentini olib tashlash.

9. Phase Filtering (Goldstein) — fazani silliqlash.

10. Phase Unwrapping (SNAPHU) — cheklangan fazani haqiqiy siljishga aylantirish.

11. Deformatsiya xaritasi — unwrap qilingan fazani siljishga konvertatsiya qilish; subsidensiya zonalarini ajratish.

Tezlik formulası. InSAR tezlik bahosi

$$v = \frac{\Delta\varphi \cdot \lambda}{4\pi \cdot \Delta t} \quad (1)$$

bu yerda Δφ — faza farqi, λ — to‘lqin uzunligi (Sentinel-1 ≈ 5.6 sm), Δt — kuzatuvlar oralig‘i.

4. Xondiza koni sharoitidagi muammolar va yechimlar

Atmosfera ta’siri. Suv bug‘lari/ionosfera fazani buzadi → ERA5/GACOS tuzatmalari, ko‘p-vaqtli statistik ajratish.

Geometrik buzilishlar. Tog‘li relyefda foreshortening/layover/shadow → Terrain Correction va yuqori aniqlikli DTM/DSM (SRTM→TanDEM-X/LiDAR) bilan geokodlash.

Topografik faza qoldig‘i. Past aniqlikli DEM → qoldiq faza → TanDEM-X yoki UAV-LiDAR bilan DEMni yangilash.

Koherensiya pasayishi. Faol qazish/portlatish/vegetatsiya → SBAS (kichik bazis) va PSInSAR (barqaror scatterer), fasl bo‘yicha sahna tanlash.

Unwrapping xatolari. Past koherensiyada xatoliklar → SNAPHU parametrlarini moslash, ko‘p-qatlamli unwrap.

Xulosa

Xondiza polimetall koni uchun Sentinel-1 InSAR monitoringi metodikasi sifatida IW/VV rejimidagi SLC ma’lumotlarini muntazam (12 kun) yig‘ish, SNAP dastlabki ishlov zanjirini izchil qo‘llash va StaMPS bilan vaqt qatori tahlilini integratsiya qilish samarali poydevor yaratadi. Kon sharoitidagi murakkab relyef va tez o‘zgarishlar TanDEM-X/UAV-LiDAR bilan DEM yangilashni, ERA5/GACOS atmosferik tuzatmalarini va GNSS/total stansiya kalibrlashini talab etadi. Ushbu yondashuv subsidensiya zonalarini millimetr darajasida ajratish hamda xavfsiz ekspluatatsiya va muhandislik qarorlarini asoslash uchun yetarli aniqlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **European Space Agency (ESA).** Sentinel-1 User Guide. — Copernicus Open Access Hub.
2. **Torres R.** et al. GMES Sentinel-1 mission // Remote Sensing of Environment. — 2012. — Vol. 120. — P. 9–24.
3. **Yagüe-Martínez N.** et al. Interferometric SAR processing techniques // IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. — 2016. — Vol. 54. — No. 4. — P. 2220–2234.
4. **Ferretti A., Prati C., Rocca F.** Permanent scatterers in SAR interferometry // IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. — 2001. — Vol. 39. — No. 1. — P. 8–20.
5. **Berardino P.** et al. A new algorithm for surface deformation monitoring // IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. — 2002. — Vol. 40. — No. 11. — P. 2375–2383.
6. **Hooper A.** et al. A new method for measuring deformation on volcanoes and other natural terrains // Journal of Geophysical Research. — 2007. — Vol. 112.
7. **Hanssen R.** Radar Interferometry: Data Interpretation and Error Analysis. — Berlin: Springer, 2001.

8. **Crosetto M.** et al. Persistent scatterer interferometry: A review // ISPRS Journal of Photogrammetry and Remote Sensing. — 2016. — Vol. 115. — P. 78–89.
9. **Bamler R., Hartl P.** Synthetic aperture radar interferometry // Inverse Problems. — 1998. — Vol. 14. — No. 4. — P. R1–R54.

YOZYOVON TABIAT YODGORLIGI O‘SIMLIKLAR JAMOASIDA TARQALGAN *ELAEAGNUS ANGUSTIFOLIA* L

Akbarova Muxayyo Xusanovna
Salimova Nodiraxon Saminjon qizi
Mo‘ydinov Dostonbek Tolibjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yozyovon davlat tabiat yodgorligining florasi, o‘simliklar jamoalari, ularning ekologik va fitotsenotik xususiyatlari, landshaft hosil qiluvchi hamda noyob-kamyob turlar tahlil qilinadi. Hududdagi o‘simlik turlarining hayotiy shakllari, yashash muhiti (biotoplar) va foydali xususiyatlari bo‘yicha monitoring natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijasida yodgorlik hududida 200 dan ortiq o‘simlik turi qayd etilib, ularning asosiy qismi qumli va sho‘rxok ekotizimlarda tarqalganligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *Yozyovon, flora, cho‘l ekotizimi, o‘simlik jamoasi, monitoring, landshaft, psammofit, halofit, fitotsenoz.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, o‘ziga xos ekologik tizimlarga ega bo‘lgan cho‘l hududlarida joylashgan tabiiy yodgorliklarni o‘rganish, ularning flora va faunasini aniqlash, noyob turlarni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yozyovon cho‘llari tabiati o‘zining rang-barangligi va biologik xilma-xilligi bilan Farg‘ona vodiysining eng diqqatga sazovor tabiiy hududlaridan biridir. Bu hudud o‘zining qum tepaliklari, sho‘rxok yerlari, to‘qayliklari va botqoq zonalari bilan murakkab ekologik tuzilishga ega. Shu sababli yodgorlik o‘simliklarining turlari, ularning tarqalishi, ekologik moslashuvlari va fitotsenotik tuzilishini o‘rganish hozirgi davrning dolzarb masalalaridandir.

Bugungi kunda jahonda tabiiy dorivor o‘simliklardan tayyorlanadigan preparat va dori vositalariga bo‘lgan talabning ortishi natijasida yangi dorivor o‘simliklarni aniqlash va ulardan moddalarni ajratib olish, biologik faolligini aniqlash hamda ularni amaliyotga tadbiq etish borasidagi tadqiqotlarning ko‘lami tobora ortib bormoqda. Yer yuzida aholi sonining ortishi hamda yer maydonlarining o‘zlashtirilishi tabiiy resurslar, jumladan, o‘simliklarning tabiiy zaxiralari xilma-xilligining kamayishi va yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bu o‘rinda dorivor va xo‘jalikdagi ahamiyati yuqori bo‘lgan o‘simliklarning tabiiy zaxirasini xatlovdan o‘tkazish hamda uning zamonaviy holatini baholash muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Respublikamizda ham dorivor o‘simliklarning tur tarkibini aniqlash, ularning biologik xususiyatlarini o‘rganish, populyasiyasini baholash va tabiiy zaxiralarini aniqlash, tashqi ta’sirlar natijasida populyasiyadagi o‘zgarishlarni ilmiy asoslash va kamayib ketish sabablarini tahlil qilish, shu bilan birga ularni saqlab qolish va ko‘paytirish yo‘llarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, kam o‘rganilgan, tashqi ta’sirlar natijasida kamayib borayotgan dorivor o‘simliklarning inventarizasiyalashning xalqaro tizimi yaratilgan bo‘lib, ularga ta’sir etuvchi omillar ko‘lamini baholash asosida tabiiy zaxiralarini saqlab qolish hamda ko‘paytirishning zamonaviy usullari ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ana shunday dorivor va oziqabop o‘simliklardan biri *Elaeagnus angustifolia* – qushjiyda hisoblanadi.

Yozyovon tabiat yodgorligi florasida tarqalgan *Elaeagnus angustifolia* ning bioekologik va ekogeografik xususiyatlarini aniqlash maqsadida 2023-2025 yillar mobaynida dala tadqiqotlari o‘tkazildi. Tadqiqot obektini o`rganishda floristikaning marshrutli, yarim stasionar usullari, o‘simliklar sitematikasining geografik-

taqqoslash va morfologik usullari, shuningdek, to‘r tizimli xaritalashning zamonaviy usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida turning tarqalish hududlari aniqlanib, o‘simlikdan gerbariy namunalari tayyorlandi. Yig‘ilgan namunalarni taksonomik birliklarini aniqlashda “Определитель растений Средней Азии IX”, “Флора Узбекистана V” turni aniqlashda taksonlarni tizimli tahlil qilishda APG IV tasnifidan foydalanilgan.

Yozyovon cho‘llari davlat tabiat yodgorligida 2023-2025 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida *Elaeagnus angustifolia* ning holati va tarqalish hududlari o‘rganildi. Ma’lumki, o‘simliklar olamining qanchalik xilma-xil bo‘lishi, ular o‘sayotgan hududning iqlimi va tuproq sharoitiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Yozyovon cho‘li davlat tabiat yodgorligi hududida olib borilgan kuzatishlar, o‘tkazilgan monitoringlar, aholidan olingan ma’lumotlar, manbalar tahlili va ularni qayta ilmiy ishlash natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bundan 60-70 yillar (100 yillar) oldin Yozyovon qumli cho‘llari joylashgan hududlardagi tabiiy landshaftlar egallagan maydonlar bir necha barobar katta bo‘lgan, qumlar orasida esa katta maydonlarda tekislikliklar bo‘lgan, sho‘rxok yerlar, qum tepaliklar, ko‘llar ham ko‘p va katta maydonlarni ishg‘ol qilgan. Bu hududlarda keng tarqalgan *Elaeagnus angustifolia* ning alohida populyatsiyalar mavjud bo`lgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Yozyovon davlat tabiat yodgorligi tanlandi. Bu yodgorlik 1994 yilda tashkil etilgan bo‘lib, maydoni 1820,4 gektarni tashkil etadi. U Farg‘ona viloyatining shimoliy-g‘arbiy qismida, Torlduquduq (Sarson qum) massividagi Qoraqalpoq cho‘lining chekka qismida joylashgan. Monitoring ishlari 2023–2025-yillarda olib borilgan bo‘lib, quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llanildi:

- Floristik ro‘yxat tuzish (geobotanik marshrut usuli);
- O‘simliklarning hayotiy shakllarini aniqlash (Raunkier tasnifi asosida);
- Yashash muhiti va biotoplarga ko‘ra taqsimlash;
- Turlarni foydali belgilariga ko‘ra tasniflash;
- Fitotsenotik kuzatuv va landshaft tahlili.

Biotoplar bo‘yicha turlar tarqalishi. Monitoring natijalariga ko‘ra, o‘simliklarning biotoplar bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Qumli hududlar – 75 tur;
- Sho‘rxok yerlar – 64 tur;
- To‘qay zonalari – 34 tur;
- Suv va botqoq biotoplari – 12 tur;
- Begona o‘t sifatida o‘suvchilar – 64 tur.

Bu taqsimlanish Yozyovon florasining cho‘l ekotizimlari uchun xos bo‘lgan kserofit va galofit komponentlar ustunligini ko‘rsatadi.

Qumli hududlar o‘simlik jamoalari (psammofitlar). Qumli cho‘llarda harorat yoz oylarida 65–70°C gacha ko‘tariladi. Bunday sharoitda faqat suv tanqisligiga moslashgan o‘simliklar yashay oladi. Psammofit o‘simliklar orasida landshaft hosil qiluvchi asosiy turlar:

Haloxylon persicum, H. aphyllum – oq va qora sakso‘vullar, *Salsola richteri* – cherkes, *Calligonum* spp. – qandim turlari, *Ammodendron conollyi* – quyon suyak, *Nitraria schoberi* – oq jangal, *Astragalus rubellus, A. sieversianus* – astragallar, *Aristida karelinii* – selin, *Carex physodes* – iloqlar.

Qum ekotizimlarida efemerlar va efemeroidlar erta bahorda yashil fon hosil qilib, o‘simlik jamoasining boshlang‘ich qoplamini tashkil etadi. Ularning o‘rnini yoz oylarida ko‘p yillik kserofit turlar egallaydi. Bu o‘zgarishlar cho‘l landshaftlarida fitotsenozlarning fenologik dinamikasini aks ettiradi.

Sho‘rxok hududlar o‘simliklari (galofitlar). Sho‘rxok yerlar hududda kichik maydonlarni egallaydi, biroq ekologik ahamiyati katta. Bu yerlar tuzga chidamli halofit turlar bilan qoplangan:

Halocnemum strobilaceum – sarsazan, *Kalidium caspicum* – ishqoriy shohiloq, *Salsola arbuscula* – boyalish, *Aeluropus litoralis* – sho‘rajriq, *Limonium meyeri* – karmak, *Karelinia caspica* – oqbosh. Ular suvda erigan tuzlarning yuqori konsentratsiyasiga moslashgan bo‘lib, ildiz tizimi chuqur joylashgan, barglari qisqargan yoki yo‘qolgan.

To‘qay va botqoq o‘simliklari. Yodgorlikdagi to‘qay biotoplari suvga yaqin, pastqam joylarda joylashgan bo‘lib, floristik jihatdan eng boy ekotizimlardandir. Bu joylarda 34 tur o‘simlik qayd etilgan. Asosiy edifikator turlar:

Populus pruinosa (turang‘il terek), *Elaeagnus angustifolia* (qush jiyda), *Tamarix hispida*, *T. ramosissima* (yulg‘un), *Glycyrrhiza glabra* (shirinmiya), *Phragmites australis* (qamish), *Typha angustifolia* (qo‘g‘a).

Botqoq va suv havzalarida esa *Lemna minor, Polygonum amphibium, Mentha asiatica* kabi gidrofit turlar hukmronlik qiladi. Ularning aksariyati oziq-ovqat zanjirida muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Elaeagnus angustifolia L. — Elaeagnaceae oilasiga mansub, O‘rta Osiyo, Kavkaz va G‘arbiy–Markaziy Osiyo landshaftlarida qadimdan ma’lum bo‘lgan daraxt turidir. Mintaqamizda qushjiyda nomi bilan taniqli bo‘lib, mahalliy agroekotizimlarda ixota, tuproqni mustahkamlovchi va oziq-ozuqa manbai sifatida qadrlanadi.

Tur Linney tomonidan birinchi marta *Elaeagnus angustifolia* L. nomi ostida tasvirlangan. *Elaeagnus angustifolia* - daraxt, balandligi 3–8 metr, qizg‘ish-jigarrang po‘stlog‘iga ega. Yosh novdalari va barglari kumushsimon oq rangda bo‘lib, bu ularning yuzasini qoplab turgan qalqonsimon kipriksimon tangachalar tufayli shunday ko‘rinadi. Barglar lansetsimon yoki elliptik-lansetsimon shaklda, qisqa uchli, uzunligi 3,5–7 sm, eni 7–18 mm, barg bandlari uzunligi 5–12 mm. Gullari yoqimli hidli, qisqa (2–5 mm) gultojipoyada joylashgan, odatda barg qo‘ltig‘ida 1–3 tadan joylashadi. Gultojining tashqi qismi kumushsimon oq rangda bo‘lib, zich joylashgan tangachalar bilan qoplangan, ichki tomoni esa deyarli yalang‘och va sarg‘ish rangda. Naychasining uzunligi 5–6 mm, eni 2,5–3 mm, biroz uzunroq bo‘lgan tuxumsimon-uchli, uch bo‘lakli toj plastinkasi bilan yakunlanadi. Changchilarning ipchalari juda qisqa, changdonlari cho‘zilgan shaklda, uzunligi taxminan 2 mm. Meva (to‘q g‘ovakli mag‘iz meva) yumaloq–oval shaklda, uzunligi 10 mm, eni 7 mm, dastlab tangachalar bilan qoplangan, pishgach deyarli yalang‘och va sarg‘ish tusda bo‘ladi. Danagi cho‘zilgan tuxumsimon, yuzasi biroz tukli, uzunligi 10 mm, eni 5 mm. Mevasi danakli, bir guruh qushjiydalarda mevasi ovalsimon, sharsimon bo‘lib, yaltiroq bo‘ladi. Rangi sarg‘ish-qizil, quruq bo‘ladi. Ikkinchi guruh qushjiydalarida mevasi cho‘ziq, tuxumsimon, kam etli, mevasining yuza qismida shira to‘planadi, rangi qoramtir. Bularni qushlar xush ko‘rib yeydi. Bu

jiyda mevalarini aholi ham yig‘ib olib iste’mol qiladi va undan qiyomlar tayyorlaydi. Qushjiyda ildiz bachkilari va urug‘i yordamida ko‘payadi. Nihollari kam sho‘rlashgan yerlarda yaxshi o‘sib, yaxshi rivojlanadi.

Gullash davri may oyida, meva pishishi sentabr–oktabr oylariga to‘g‘ri keladi. Odatda to‘qay o‘rmonlari (soy bo‘ylaridagi to‘qaylar)da o‘sadi; ba’zan madaniy holatda ekiladi.

Tarqalishi: Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida; shuningdek, Qoraqalpog‘iston ASSR hududida uchraydi.

Umumiy areali: Markaziy Osiyo, Yevropa janubi, Kavkaz, G‘arbiy Sibir, O‘rta yer dengizi havzasi, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Tibet va Himolaylarga qadar tarqalgan.

Jiyda o‘simligi tuproq unumdorligini oshirishda muhim ekologik omil hisoblanadi. U o‘sish va rivojlanish jarayonida turli tabiiy sharoitlarda tuproqning sifatini yaxshilaydi, eroziya jarayonlarini kamaytiradi hamda undan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Ayniqsa, arid va yarim quruq hududlarda tuproqni barqarorlashtirish, mineral va organik moddalar bilan boyitishda jiyda o‘simliklari katta rol o‘ynaydi. Jiydaning tuproq unumdorligini oshirishdagi eng asosiy xususiyati – bu ularning ildiz tizimi orqali amalga oshiriladigan azotfiksatsiya jarayonidir. Jiyda ildizlari azotfiksator bakteriyalar bilan simbioz holatda yashaydi. Ushbu bakteriyalar atmosferadagi erkin azotni o‘zlashtirib, o‘simliklar uchun yaroqli shakl – ammoniy birikmalariga aylantiradi. Natijada tuproqdagi azot zaxirasi ortadi, o‘simliklar uchun zarur ozuqa moddalari ko‘payadi va umumiy azot balansi yaxshilanadi. Shu tariqa jiyda o‘simliklari nafaqat o‘z o‘sishi uchun, balki atrofdagi boshqa o‘simliklar uchun ham qulay oziqlanish sharoitini yaratadi.

Bundan tashqari, jiyda o‘simliklari organik moddalar manbai sifatida ham muhim. Ularning barglari, gullari, mevalari va boshqa qismlari tez parchalanib, tuproqqa katta miqdorda organik modda keltiradi. Bu esa mikroorganizmlar faoliyatini kuchaytiradi, tuproqning mikrobiologik holatini yaxshilaydi, havo

almashinuvi va suv singish jarayonlarini faollashtiradi. Shuning natijasida tuproq unumdorligi barqaror oshadi.

Jiyda o‘simliklari shuningdek, sho‘rlangan tuproqlarni melioratsiya qilishda ham foydalidir. *Elaeagnus angustifolia* tuzli va qurg‘oqchil sharoitlarda yaxshi o‘sadi, tuproqdagi ortiqcha tuzlarni o‘zlashtiradi va ularning zararli ta’sirini kamaytiradi. Bu xususiyat ayniqsa sho‘rlangan yerlarni qayta tiklashda, ekinlar uchun yaroqli holatga keltirishda katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, jiyda o‘simligi tuproq unumdorligini oshirish, eroziya jarayonlarini kamaytirish, sho‘rlangan va degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklashda ekologik hamda agronomik jihatdan beqiyos ahamiyatga ega. Ularning biologik faoliyati, azotfiksator xususiyatlari va tez parchalanadigan organik qoldiqlari tufayli jiydalar tuproqning fizik, kimyoviy va biologik ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Shu bois, *Elaeagnus angustifolia* o‘simligi ekologik barqarorlikni ta’minlashda, qishloq xo‘jaligi yerlarini unumdor holatda saqlashda va cho‘l hamda yarim cho‘l hududlarida tabiiy melioratsiya elementi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mevalari oziq-ovqat va an’anaviy dori sifatida ishlatiladi. Fitokimyoviy tarkib: flavonoidlar (kversetin, kampferol glikozidlari), fenolik kislotalar, terpenoidlar, saponinlar. Farmakologik tadqiqotlar antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, analgetik, yara bitkazuvchi va kardioprotektiv faolliklarni ko‘rsatadi.

Elaeagnus angustifolia tarqalgan Yozyovon tabiat yodgorligi cho‘l o‘simlik jamoalari ekologik barqarorlikni saqlashda muhim o‘rin tutadi. Qum, sho‘rxok va to‘qay biotoplarining o‘ziga xos o‘simlik turlari bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, yagona landshaft tizimini tashkil etadi. Shu bois bunday hududlarda har qanday antropogen ta’sir floristik boylikni kamaytirib yuborishi mumkin. Yodgorlik o‘simlik jamoalarini saqlab qolish, ularning tabiiy tiklanishini ta’minlash, monitoring tizimini davom ettirish, shuningdek, ilmiy-ma’rifiy turizmni rivojlantirish ushbu hududning barqaror ekologik kelajagini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Определитель растений Средней Азии: в 10 т. — Ташкент: ФАН, 1968–1993.
2. **Plants of the World Online.** *Elaeagnus angustifolia* L. — Kew Gardens, 2024. — URL: https://powo.science.kew.org/ (murojaat sanasi: 2026-y.).
3. **CABI Compendium.** *Elaeagnus angustifolia* (Russian olive). — Wallingford: CABI, 2022. — DOI: 10.1079/cabicompendium.20717.
4. **USDA NRCS.** Russian olive (*Elaeagnus angustifolia* L.): Plant guide. — Washington, DC: USDA, 2020.
5. **Akbarova M.**, **Jo‘rayev Z.** “Yozyovon cho‘llari” davlat tabiat yodgorligida tarqalgan *Cistanche mongolica* Beck ning bioekologik xususiyatlari // Farg‘ona davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2023. — № 2. — B. 154.
6. **Akbarova M.**, **Maxmudova M.**, **Karamatova G.** The plant ecosystem of Yazyavon natural monument // Bulletin of Gulistan State University. — 2018. — Vol. 2018, No. 4. — P. 20–24.
7. **Акбарова М. Х.** и др. Экосистема растительного мира Язъяванского государственного степного природного памятника // Известия вузов Кыргызстана. — 2018. — № 5. — С. 35–40.
8. **Акбарова М. Х.** и др. Экосистема растительного мира Язъяванского природного заказника // E Conference Zone. — 2022. — С. 1–5.

JANUBIY O‘ZBEKISTON PALEOGEN DAVRI YOTQIZIQLARIDAGI DOLOMIT KONLARINING HOSIL BO‘LISH SHAROITLARI

Axmedov Shovdullo Shuxratovich
Ikromova Zuxra Oripovna
Faxriddinov Mirshod Sayfiddinovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Janubiy O‘zbekiston hududi geologik jihatdan murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, bu yerda turli geologik davrlarga mansub cho‘kindi jinslar keng tarqalgan. Shu jumladan, Paleogen davri yotqiziqlari tarkibida uchraydigan karbonat jinslar, ayniqsa dolomitlar, ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Dolomit konlari qurilish materiallari, metallurgiya, kimyo sanoati va qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Ularning hosil bo‘lish sharoitlarini o‘rganish foydali qazilmalarni qidirish va baholashda muhim hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Paleogen, dolomit, karbonat, kon, geologiya, morfologiya, diagenetik, epigenetik, sanoat, metallurgiya, struktura, transgressiya, regressiya, gil, qumtosh, alevrolit, oxaktosh, litologiya va mineralogiya.*

Kirish. Janubiy O‘zbekiston hududi Markaziy Osiyoning muhim geologik rayonlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda Paleogen davri yotqiziqlari keng tarqalgan bo‘lib, ular asosan karbonat va terrigen jinslardan tashkil topgan. Ushbu yotqiziqlar tarkibida dolomit jinslarining mavjudligi ilmiy va amaliy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi. Dolomit konlari qurilish materiallari sanoati, metallurgiya, shisha ishlab chiqarish hamda kimyo sanoatida va qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli dolomitlarning hosil bo‘lish sharoitlarini chuqur o‘rganish respublika mineral-xomashyo bazasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Janubiy O‘zbekiston hududi geologik jihatdan murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, bu yerda turli geologik davrlarga mansub cho‘kindi jinslar keng tarqalgan. Shu jumladan, Paleogen davri yotqiziqlari tarkibida uchraydigan karbonat jinslar, ayniqsa dolomitlar amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ularning hosil bo‘lish sharoitlarini o‘rganish foydali qazilmalarni qidirish va baholashda muhim hisoblanadi.

Asosiy qism. Paleogen davri yotqiziqlarining umumiy geologik xususiyatlari yoritadigan bo‘lsak, paleogen davri (paleotsen, eotsen, oligotsen) Janubiy O‘zbekiston hududida asosan dengiz cho‘kindi muhitida shakllangan yotqiziqlar


bilan ifodalanadi. Bu davrda hudud bir necha bor transgressiya va regressiyalarga uchragan bo‘lib, natijada qumtoshlar, alevrolitlar, gillar, oxaktoshlar va dolomitlar qatlamlari hosil bo‘lgan (1-rasm).

Paleogen yotqiziqlari ko‘p hollarda platforma tipidagi cho‘kindi havzalarida to‘plangan bo‘lib, nisbatan sokin gidrodinamik sharoit hukmron bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Shu sharoit karbonat jinslarning keng tarqalishiga, ayniqsa dolomitlanish jarayonlarining faol kechishiga imkoniyat yaratadi. Yotqiziqlarning litologik tarkibi dengiz muhitining sayozligi va iqlimning iliqligi bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Pachkamar maydonida Paleogen davri dolomitlarining qalinligini o‘lchash jarayoni.

O‘rganilayotgan hududdagi dolomitlarning mineralogik va kimyoviy tarkibi aniqlash natijasiga ko‘ra dolomit tog‘ jinsi asosan $CaMg(CO_3)_2$ mineralidan tashkil topgan bo‘lib, tarkibida kalsiy va magniy karbonatlari ustunlik qiladi. Misol tariqasida Pachkamar maydonidagi dolomitlarni keltirish mumkin (2-rasm). Bu yerda dolomitlarida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi: magniy miqdorining yuqoriligi; kalsit qoldiqlarining saqlanib qolishi; ayrim hollarda temir va marganets qo‘shimchalarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu belgilar dolomitlarning ko‘p hollarda ikkillamchi, ya’ni avval hosil bo‘lgan oxaktoshlarning keyinchalik dolomitlanishi natijasida shakllanganini ko‘rsatadi.



2-rasm. Dolomitning kimyoviy takibi diagrammasi.

Dolomit konlarining hosil bo‘lish shart-sharoitlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak,


1. Cho‘kindi yo‘l bilan hosil bo‘lish sharoiti: Paleogen davrida Janubiy O‘zbekiston hududi iliq iqlim hukmron bo‘lgan sayoz dengiz havzasi bilan qoplangan. Suvning yuqori harorati va bug‘lanish jarayonining kuchayishi natijasida magniyga boy dengiz suvlari shakllangan. Ana shu sharoit dolomitlanish jarayoni uchun qulay muhit bo‘lganligini ko‘rsatadi.

2. Dolomitlanish jarayoni: Dolomitlarning hosil bo‘lishida asosiy rolni dolomitlanish jarayoni o‘ynaydi. Bu jarayonda kalsit tarkibidagi kalsiy ionlarining bir qismi magniy ionlari bilan almashadi. Janubiy O‘zbekistonda bu jarayon quyidagi omillar ta’sirida kechgan: a) magniyga boy dengiz va laguna suvlarining ta’siri; b) yer osti suvlarining karbonat jinslar orqali aylanishi; v) tektonik yoriqlar orqali eritmalarning harakati bilan izohlash mumkin.

3. Tektonik va gidrogeologik omillar: Hududdagi tektonik faollik yoriqlar va surilma zonalarning hosil bo‘lishiga olib kelgan. Bu zonalar orqali magniyli eritmalar harakatlanib, oxaktoshlarning dolomitga aylanishini tezlashtirgan. Shuningdek, gidrogeologik rejimning o‘zgarishi dolomitlanish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatganligi bilan izohlanadi.

4. Diagenetik sharoitlar: Dolomitlar asosan diagenez bosqichida, ya’ni cho‘kindi jinslar qattiqlashish jarayonida hosil bo‘lgan. Yer osti suvlarining tarkibi, harorat va bosim sharoitlari dolomit kristallarining o‘sishi va mustahkamlanishiga xizmat qilganligi bilan izohlanadi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki hududning o‘rganishlar natijasida Janubiy O‘zbekiston hududidagi Paleogen davri dolomitlari asosan Cho‘kindi yo‘l bilan hosil bo‘lganligini aytish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Janubiy O‘zbekiston paleogen davri yotqiziqlari fatsial-paleogeografik xaritasi. Tuzuvchilar: (Xodjayev N.T., Ishniyazov Sh.Ya, 2014-yil), qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan Sh.Sh.Axmedov, 2023-yil.

Paleogen davri dolomit konlarining amaliy ahamiyatiga kelsak, ushbu yotqiziqlaridagi dolomit konlari yuqori sifatli xomashyo sifatida quyidagi sohalarda qo‘llaniladi: 1. qurilish sanoatida (sement va beton ishlab chiqarishda); 2. metallurgiyada flyus sifatida; 3. kimyo sanoatida; 4. qishloq xo‘jaligida tuproqni neytrallashtirishda.

Shu sababli mazkur konlarni o‘rganish va zaxiralarini aniqlash respublika iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, Tadqiqot natijalariga ko‘ra Janubiy O‘zbekiston Paleogen yotqiziqlaridagi dolomitlar sayoz suvli sho‘r laguna sharoitida kimyoviy cho‘kish natijasida hosil bo‘lgan. Bunga arid iqlim, laguna xavzasida yetarli miqdordagi magniy ion va yuqori darajadagi ishqorli muhit ta’sir

qilganligi bilan ajralib turadi. Hududdagi dolomit konlari turli xil sanoat ishlab chiqarish sohalariga sifatli xom ashyo bo‘lishi imkonini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Минакова С. И.** К стратиграфии палеогеновых отложений юго-западных отрогов Гиссарского хребта // ДАН УзССР. – 1948. – № 9.
2. **Троицкий В. И.** Районирование мезозойских и кайнозойских дейтероорогенных областей Внутренней Азии // Актуальные проблемы современной геологии. – Университет, 2004.
3. **Чиникулов Х., Мирзаев А. У., Алтаев М. А.** Роль осадочной дифференциации в формировании нерудных полезных ископаемых в палеоцен-эоценовых осадочных бассейнах Узбекистана и сопредельных территорий // Ўз МУ хабарлари. – 2005. – № 1.
4. **Чиникулов Х.** Литология. – Ташкент: НУУ, 2007.
5. **Рахимов В. Т.** Janubiy O‘zbekistonning cho‘kindi havzalari. – Toshkent, 2015.
6. **Кушаков А. Р., Курбонова М. М., Ильхамова Г. Х., Раманов С. А.** Краткое описание палеогеновых отложений Южного Узбекистана (юго-западные отроги Гиссарского хребта, Сурхандарьинская впадина) // Вестник НУУЗ. – 2021. – № 3/1/1.
7. **Мирзаев А. У., Ахмедов Ш. Ш.** Вауш майдонининг физик-географ таснифи ва геологик ўрганилиш тарихи // Республиканская научно-практическая конференция «Актуальные проблемы геологии, геофизики, петрологии и рудообразования». – Ташкент, 2022.
8. **Ахмедов Ш. Ш.** Карбонатли жинсларнинг ҳосил бўлиш ва литологик таркиби (Талимаржон майдони мисолида) // «Ўрта Осиё геологиясини ўрганишнинг ҳозирги ҳолати ва истиқболлари» халқаро илмий-амалий конференция тўплами. – Навоий, 2022.
9. **Ахмедов Ш. Ш., Усманов К. М.** Особенности геологического строения и фосфоритоносности палеогеновых отложений Южного Гиссара (на примере площади Тупаланг) // Innovatsion texnologiyalar. – 2023.

10. **Мирзаев А. У., Ахмедов Ш. Ш., Усмонов К. М.** Литолого-стратиграфические особенности и фациальные условия образования палеогеновых отложений Узбекистана // Вестник НУУ. – 2023. – № 3/2.
11. **Ахмедов Ш. Ш., Усманов К. М.** Особенности геологического строения палеогеновых отложений Южного Узбекистана и их связь с фосфоритами (на примере района Актау) // Universum: технические науки. – Москва, 2023. – № 12(117).
12. **Ahmedov Sh. Sh., Mirzaev A. U., Madatov T. A., Nazarov U. X.** Pachkamar maydonidagi paleogen davr yotqiziqlarini geologiyasi va foydali qazilmalari // O‘zbekiston konchilik xabarnomasi ilmiy-texnik va ishlab chiqarish jurnali. – 2023. – № 1(92).
13. **Ахмедов Ш. Ш.** Геологическое строение палеогеновых отложений Южного Узбекистана и их связь с фосфоритами (на примере Южно-Гиссарского района) // Междунар. науч.-техн. конф. «Актуальные проблемы нефтегазовой геологии и освоения углеводородного потенциала недр и пути их решения». – Ташкент, 2023.

ATMOSFERA HAVOSINNG IFLOSLANISHI VA UNGA QARSHI KURASHISH CHORA-TADBIRLARI QO‘QON SHAHAR MISOLIDA

Kadirov Sodikjon Uktamovich
Raimjonov Azizjon Rahmatjonovich
Hamroqulov Mahmudxo‘ja Olimxo‘ja o‘g‘li
Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atmosfera havosining ifloslanishi muammosi va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari Qo‘qon shahri misolida ko‘rib chiqilgan.*

Maqolada havo ifloslanishining asosiy manbalari – avtotransport, sanoat korxonalari va maishiy yoqilg‘i yoqish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, havo ifloslanishining inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta’siri, jumladan nafas olish kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari va yashil hududlarga zarar yetishi muhokama qilingan. Mualliflar havo sifatini yaxshilash bo‘yicha samarali choralarni taklif qilgan: ekologik transportni rivojlantirish, zamonaviy tozalash texnologiyalarini joriy etish, yashil hududlarni kengaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish. Ushbu chora-tadbirlar Qo‘qon shahrida havo sifatini yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *atmosfera havosi, havo ifloslanishi, ekologik xavfsizlik, avtotransport, sanoat chiqindilari, havo sifati, atrof-muhitni muhofaza qilish, Qo‘qon shahri.*

Kirish

Atmosfera havosining ifloslanishi bugungi kunda global ekologik muammolardan biri bo‘lib, inson salomatligi, atrof-muhit barqarorligi va iqlim o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, sanoatlashgan va aholisi zich joylashgan shaharlar hududida havo sifati keskin yomonlashmoqda. Ushbu muammo O‘zbekistonning yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon shahrida ham dolzarb hisoblanadi.

Qo`qon shahri tarixiy va savdo-sotiq aloqalari bilan ajralib qolmay hozirgi kunda aholining ko`payshi avto tarsport vositalar harkatlanishni keskin ortish va sanoat korxonalari ko`pishga sabab bo`lmoqda, bu esa shahar infira tuzlmasi va artof-muhid sifatiga o`z ta`sirnin ko`rsatmoqda.

Qo‘qon shahrida atmosfera havosining ifloslanish manbalari

Qo‘qon shahri Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, iqlim sharoiti, aholining zichligi va transport oqimining yuqoriligi havoning ifloslanish darajasiga ta’sir etadi. Asosiy ifloslantiruvchi manbalarga quyidagilar kiradi:

Avtotransport vositalari – eski rusumdagi avtomobillar, texnik holati talabga javob bermaydigan tr ansportlar natijasida karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NOx), uglerod oksidi (CO) va chang ($PM_{2.5}$, PM_{10}) ajralishi.

Sanoat va kichik ishlab chiqarish korxonalari – g‘isht zavodlari, kichik sexlar va ustaxonalar.

Maishiy yoqilg‘i yoqish – qish mavsumida ko‘mir va o‘tin yoqilishi natijasida tutun va zararli gazlar chiqishi.

Asosi qisim.

Qo`qon shahari ekologik xolatin yaxshilash buycha hukumatimiz va shahar hokimyati tomonida qator ishlar olib borilmoqda.

Aholi salomatligin asrash va shahar infira tuzilmasi, yashli huhdalarin kengaytirsh ularni asrash buycha davlat darjasida ishlar olib borilmoqda, Qo`qon shahri azliy mavjudligi va tarxiyligi, tarixiy me`moriy obidalarga egaligi bilan ajralib turadi Qo`qon shaxri butun jahon hunarmanchilig shahri sifatida etrof etladi bu esa shaharning ekologik holatin yaxshilash buyshcha ustvor vazifa sifatida kurladi.

Farg‘ona viloyati Ekologiya boshqarmasi tomonidan Qo’qon shahari va shaharga tutash hudutlarda ”Toza havo” monitoring o’tkazilmoqda:

"Toza havo" tadbirlari doirasida havo sifati monitoringi, targ‘ibot-tashviqot ishlari va **ekologik nazorat tadbirlari bosqichma-bosqich**, oldindan belgilangan reja asosida turli hududlarda amalga oshirilmoqda. Tadbirlar Qo’qon shahar markaziy qismlaridan boshlanib, bosqichma-bosqich boshqa mahallalar va tumanlarga ham qamrab olinmoqda.

Muayyan sanada o‘tkazilgan tadbir esa Qo‘qon shahar hamda Dang‘ara tumani **Ekologiya bo‘limlari davlat inspektorlari hamkorligida**, markazlashgan hududlardan biri — Dang‘ara tumani “Pishqaron” mahallasidagi avtomagistral yo‘li bo‘yida tashkil etilgan. Ushbu hududda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bo‘sh yer maydonlariga daraxtlar ekish va ularni parvarishlash ishlari bir necha yillardan beri izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Shuni ta’kidlab o‘tishim kerekki, "Toza havo" tadbirini aynan shaharning qaysidir qismida yoki ma’lum bir joyda o‘tkazishga qonuniy cheklov mavjud emas. Tadbirlar ertalabki vaqtda, quyosh nurlari kuchli bo‘lmagan, havoning nisbatan

salqin sharoitida o‘tkazilishi ham inson salomatligi, ham ekologik nazorat samaradorligi nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qo’qon shahar davlat ekologik nazorati organlari faoliyat doirasida **ekologik ong** va **madaniyatni yuksaltirish** borasid shahar Hokimyati va Ekologiya boshqarmasi hamkorligida keng kulamlik ishlar olib borilmoqda.

Shahar ekolgiyasin saqlash maqsadida “Qo`qon Eerkin Iqsodiy Zonasi” tashkil etilgan bu hududa barsha sanot korxonalari, zavod, fabrika, kishik sexlar o`z folyatlatin olib bormoqdalar bu bilan birga shahar atrof-muhit saqlash insollar salomtligin asrashga ershlmoqda bu bilan cheklanib qolmay zavod va korxonalarda muddatin utab bulgan uskuna va filtirlarni sanoat va ekolagik talablarga javob beradigan filtirlarga alshtirldi misol o`rnida “ INDORAMA KOKAND FERTILIZERS AND CHEMICALS” aksiyadorlik jamiyati, OJSC "Kokand Superphosphate Plant" VA " BNBM Building Materials Central Asia " korxonasi “Qo’qon Erkin Iqtisodiy “ zonasida o’ndan ortiq korxonalar samarali foliyat yutmoqda.

Korxonalar eng so’ngi texnalogiyalar asosida 90% 98% foizgacha Atrof-muhitga zararni kamytiradi va armosfera tashlanadigan zaharli changlarini kamaytiradi.

Toza ekologiyani saqlash ekologi momolarni yechimi esa “Yashil belvoq” umum milliy dastur doirasida yashil hududlarni kengaytirsh eklayotgan daraxtlar sonin ko`paytish lozim.

Atrof-muhit va atmosfera havosin saqlashda aholi katta o`rinin tutadi bunda esa aholining ekologik ma`danyati oshirish yashil hududlarni ko`paytirshda o`z hisalarin qo`shishlar ekologik manitorin yulga qo`yish lozim.

Xulosa

Atmosfera havosining ifloslanishi Qo‘qon shahri uchun jiddiy ekologik muammo bo‘lib, uni hal etish davlat, jamiyat va aholi hamkorligini talab etadi. Zamonaviy ekologik texnologiyalarni joriy etish, transport va sanoatni nazorat qilish hamda aholining ekologik ongini oshirish orqali shahar havosini yaxshilab botish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga doir qaror va farmonlar. – Toshkent, 2021–2023.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi.** Atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar. – Toshkent, 2022.
3. **Karimov A. A., Abdullayeva N. Sh.** Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. **Rasulov X. R.** Shahar ekologiyasi va atmosfera havosining ifloslanishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
5. **Xolmatov B. Sh.** Atmosfera havosini muhofaza qilish va ekologik monitoring. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018.
6. **Farg‘ona vodiysi bo‘yicha mas’ul tashkilotlar.** Farg‘ona vodiysining ekologik holati bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar. – Toshkent, 2021.
7. **Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST).** Atmosfera havosining ifloslanishi va inson salomatligi. – Toshkent, 2020. – Tarjima nashr.
8. **BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP).** Havo sifati va barqaror rivojlanish. – Toshkent, 2019. – Tarjima nashr.
9. **Qo‘qon shahar ekologiya bo‘limi.** Qo‘qon shahri ekologik holati bo‘yicha hududiy hisobotlar. – Qo‘qon, 2022.
10. **Yo‘ldoshev S. S.** Atrof-muhitni muhofaza qilishda yashil texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

XONDIZA POLIMETALL KONI SHAROITIDA SENTINEL-1 INSAR MA’LUMOTLARINI QAYTA ISHLASHDAGI MUAMMOLAR, MAXSUS YONDASHUVLAR VA ILLYUSTRATIV MATERIALLAR

Nomdorov Rustam Uralovich
Qarshi davlat texnika universiteti
Botirov Shoxbos Soibjon o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Abdisamatov Boboyor Azamat o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xondiza polimetall koni sharoitida Sentinel-1A sun’iy yo‘ldoshi ma’lumotlarini InSAR texnologiyasi orqali qayta ishlash jarayonida uchraydigan muammolar (atmosfera kechikishi, relyef tufayli geometrik buzilishlar, koherensiya pasayishi, unwrap xatoliklari) batafsil tahlil qilinadi. Atmosferik model (ERA5, GACOS), yuqori aniqlikli raqamli relyef modellaridan (TanDEM-X, UAV-LiDAR) foydalanish, SBAS va PSInSAR metodlari asosidagi vaqt qatori tahlili, StaMPS dasturi bilan integratsiya kabi yechimlar ishlab chiqilgan. Maqolada shuningdek Xondiza konining geologik va texnologik sharoitidan kelib chiqadigan maxsus yondashuvlar hamda illyustratsion materiallar (orbit sxemalari, IW qamrovi, SNAP blok-sxemasi, Google Earth tasvirlari, texnik parametrlari jadvali) keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *InSAR, Sentinel-1A/B, atmosfera tuzatmalari, SBAS, PSInSAR, StaMPS, TanDEM-X, UAV-LiDAR, GNSS kalibrlash, Xondiza koni.*

Kirish. InSAR texnologiyasi masofaviy zondlashda millimetr aniqligida deformatsiyalarni kuzatish imkonini beruvchi ilg‘or metodlardan biridir. Ammo tog‘li hududlarda, ayniqsa faol qazish ishlari olib boriladigan ochiq konlarda, InSAR ma’lumotlarini qayta ishlash ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Xondiza polimetall koni (Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani) shunday murakkab geologik muhitga ega: karer bortlarining chuqurlashtirilishi, portlatish ishlari, suv ta’siri va tez-tez o‘zgaradigan relyef deformatsiya tahlilida qo‘shimcha xatolik

manbai hisoblanadi. Shu sababli an’anaviy ishlov algoritmlari bilan bir qatorda maxsus yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Asosiy muammolar va ularning yechimlari

Atmosfera ta’sirlari

SAR signallari atmosfera qatlamida kechikishga uchraydi. Suv bug‘lari va ionosfera elektron zichligi farqlari interferogrammada fazaning buzilishiga olib keladi. Bu esa deformatsiya signalini noto‘g‘ri talqin qilishga sabab bo‘ladi.

Yechimlar:

- ERA5 va GACOS global modellaridan foydalanib faza kechikishini tuzatish.
- Ko‘p vaqtli (time-series) InSAR tahlilida atmosferik shovqinni statistik filtrlar yordamida ajratib olish.
- Mahalliy meteorologik stansiya kuzatuvlari bilan qo‘shimcha kalibrlash.

Geometrik buzilishlar.

SAR yonlama ko‘rish printsipiga asoslanganligi sababli tog‘li relyefda foreshortening, layover va shadow effektlari kuzatiladi.

Yechimlar:

- SNAP dasturida Terrain Correction bosqichini qo‘llash.
- Yuqori aniqlikli DEM (TanDEM-X 12 m yoki UAV-LiDAR) ma’lumotlari bilan geokodlash.
- Faol qazish zonalari uchun DEM’ni davriy yangilab borish.

Topografik fazani noto‘g‘ri yo‘qotish

Interferogrammadan relyef fazasini olib tashlash jarayonida past aniqlikdagi DEM ishlatilsa, qoldiq faza paydo bo‘ladi va deformatsiya natijalariga ta’sir qiladi.

Yechimlar:

- TanDEM-X global DEM yoki UAV-LiDAR o‘lchovlari asosida relyefni yangilash.
- Qavatma-qavat qazish natijasida yuzaga keladigan tez o‘zgarishlarni inobatga olish uchun UAV-LiDAR yordamida tezkor DEM tuzish.

Koherensiya muammolari

Qazish ishlari, portlatish, vegetatsiya o‘zgarishi interferogrammada koherensiya darajasini pasaytiradi, bu esa fazani unwrap qilishni qiyinlashtiradi.

Yechimlar:

- SBAS algoritmi orqali kichik bazisli interferogrammalarni birlashtirish.
- PSInSAR yordamida doimiy scatterer nuqtalarini ajratish.
- Kuzatuvlarni mavsumiy (yoz/qish) farqlarini hisobga olib tanlash.

Fazani unwrap qilishdagi xatoliklar

Koherensiya past bo‘lgan hududlarda unwrap jarayoni xatolik keltirib chiqaradi va katta noto‘g‘ri siljish qiymatlari hosil bo‘lishi mumkin.

Yechimlar:

- SNAPHU algoritmini mos parametrlar bilan qo‘llash.
- Ko‘p qatlamli unwrap usullaridan foydalanish.
- PSInSAR nuqtalari asosida unwrap natijalarini stabillashtirish.

Xondiza koni sharoitidagi maxsus yondashuvlar

Kon relyefi va qazish ishlari

Xondiza konida chuqurlashtirilgan qavatma-qavat qazish usuli qo‘llaniladi. Bu esa relyef geometriyasining tez o‘zgarishiga va koherensiya yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Yondashuvlar:

- ROI (Region of Interest) ni faqat faol qazish zonalarini qamrab oladigan tarzda aniq subsetting qilish.
- DEM’ni yuqori aniqlikda tez-tez yangilash (UAV-LiDAR yoki TanDEM-X asosida).

3.2. Deformatsiya manbalari

Kon hududida deformatsiyaning asosiy manbalari: karer bortlarining siljishi, portlatish ishlari natijasidagi seysmik effektlar, yog‘ingarchilik va yer osti suvlarining ta’siri. Bu jarayonlar deformatsiyaning turli tezliklarda kechishiga olib keladi.

Yondashuvlar:

- SBAS algoritmi yordamida vaqt qatorlarida deformatsiyani ajratib olish.
- PSInSAR yordamida doimiy scattererlar asosida aniq natijalar olish.
- Natijalarni GNSS va total stansiya kuzatuvlari bilan integratsiya qilish.

Atmosferik va mahalliy sharoit

Ochiq konlarda ko‘pincha chang, bug‘ va tutun bo‘ladi, bu radar signallariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yondashuvlar:

- ERA5 global modellaridan foydalanish.
- Mahalliy meteostansiya kuzatuvlarini InSAR ma’lumotlari bilan birlashtirish.

Kalibrlash va qo‘shimcha kuzatuvlar

Faqat sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari yetarli emas. Mahalliy geodezik kuzatuvlar bilan kalibrlash zarur.

Yondashuvlar:

- GNSS kuzatuv nuqtalarini deformatsiya xaritalariga bog‘lash.
- Total stansiya yordamida bortlarning siljishini davriy o‘lchash.
- UAV-LiDAR natijalari bilan uch tomonlama taqqoslash.

Illyustrativ materiallar

1. Sentinel-1A/B orbitasi sxemasi – global qamrovni ko‘rsatuvchi chizma.
2. IW rejimi qamrovi – 250 km kenglikdagi qamrov xaritasi.
3. SNAP blok-sxemasi – orbitani yangilashdan tortib StaMPS integratsiyasigacha bo‘lgan bosqichlar.
4. Xondiza koni (2020 va 2025) – Google Earth tasvirlarida kon relyefidagi o‘zgarishlar.
5. Sentinel-1 texnik parametrlari jadvali – orbit balandligi (~693 km), inklinatsiya (98.18°), radar chastotasi (5.405 GHz), polarizatsiya (VV,VH,HH,HV), IW rejimi qamrovi (250 km), fazoviy yechim (5×20 m).

Xulosa

Xondiza polimetall konida Sentinel-1 InSAR monitoringi yuqori aniqlikdagi deformatsiya xaritalarini olish imkonini beradi, ammo atmosfera, relyef va texnologik omillar sabab qo‘shimcha yechimlar talab etiladi. Atmosfera modellarini qo‘llash, DEM’ni tez-tez yangilash, SBAS/PSInSAR vaqt qatori tahlili va StaMPS integratsiyasi, shuningdek GNSS va UAV-LiDAR kalibrlashlari natijalarni sezilarli darajada aniqlashtiradi. Illyustratsion materiallar esa jarayonni vizual tarzda tushuntirib beradi. Ushbu metodika konning xavfsiz ekspluatatsiyasi va geomekanik monitoring tizimining shakllanishi uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Hanssen R.** Radar Interferometry: Data Interpretation and Error Analysis. — Berlin: Springer, 2001.
2. **Li Z.** et al. Interferometric SAR studies // IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. — 2009. — Vol. 47. — No. 8. — P. 2732–2742.
3. **Bekaert D.** et al. Atmospheric corrections in InSAR // Remote Sensing of Environment. — 2015. — Vol. 164. — P. 282–297.
4. **Bamler R., Hartl P.** Synthetic aperture radar interferometry // Inverse Problems. — 1998. — Vol. 14. — No. 4. — P. R1–R54.
5. **Yagüe-Martínez N.** et al. Interferometric SAR processing techniques // IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. — 2016. — Vol. 54. — No. 4. — P. 2220–2234.
6. **Parizzi A.** et al. Advanced InSAR applications // Journal of Applied Geophysics. — 2012.
7. **Wessel B.** et al. TanDEM-X mission results // ISPRS Journal of Photogrammetry and Remote Sensing. — 2018. — Vol. 132. — P. 77–89.
8. **Zebker H. A., Villasenor J.** Decorrelation in interferometric radar echoes // IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. — 1992. — Vol. 30. — No. 5. — P. 950–959.

9. **Osmanoğlu B.** et al. Time-series InSAR analysis // ISPRS Journal of Photogrammetry and Remote Sensing. — 2016. — Vol. 115. — P. 90–102.
10. **Goldstein R. M., Werner C. L.** Radar interferogram filtering // Geophysical Research Letters. — 1998. — Vol. 25. — No. 21. — P. 4035–4038.
11. **Hooper A.** A multi-temporal InSAR method // Geophysical Research Letters. — 2008. — Vol. 35.

GURLAN TUMANIDA SUV RESURSLARI VA ULARNING XO‘JALIKDAGI AHAMIYAT

Raximboyeva Iqbol Atabek qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti

NEFT UYUMLARINI ISHLATISHDA QUDUQLAR TO‘RINI JOYLASHTIRISH VA ZICHLIGINI TANLASHNING GEOLOGIK-TEXNOLOGIK ASOSLARI

Bo‘riyev Sardor Sayfullaevich

Bo‘ziyev Shaxboz Hamroqul o‘g‘li

Qarshi davlat texnika universititi


Annotatsiya. *Mazkur maqolada neft uyumlarini samarali ishlatishda quduqlar to‘rini joylashtirish sxemalari, ularning geometrik shakllari hamda quduqlar zichligini tanlashning asosiy geologik va texnologik omillari yoritilgan. Teng o‘lchamli va teng o‘zgaruvchan quduqlar to‘rlari, chiziqli va yacheykali joylashtirish usullari, berk va berk bo‘lmagan qatorlarning qo‘llanish sharoitlari tahlil qilindi. Qatlamning litologik tuzilishi, neft qovushqoqligi, kollektor o‘tkazuvchanligi va zahira zichligiga bog‘liq holda quduqlar oralig‘idagi masofalarni aniqlash bo‘yicha tavsiyalar keltirildi. Tadqiqot natijalari quduqlar fondining optimal joylashuvini tanlash orqali neftni suv bilan siqish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: Quduqlar to‘ri, qazib oluvchi quduq, haydovchi quduq, suv bostirish, quduqlar zichligi, neft uyumi, kollektor, qatlam bosimi, geologik omillar.*

Quduqlar bir xil o‘lchamda joylashtirilgan sharoitda uyumni ishlatishni boshqarish haydovchi quduqlarni nisbatan qayta joylashtirish yoki ularning sonini oshirish, quduqlar to‘rini kompleks yoki tanlab zichlashtirish, shuningdek, qatlam bo‘ylab suyuqlik oqimi yo‘nalishini davriy ravishda o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Teng o‘lchamli o‘zgaruvchan quduqlar to‘rida quduqlar qatorlari oralig‘idagi masofa alohida quduqlar orasidagi masofadan kattaroq bo‘lishi bilan tavsiflanadi (1-rasm). Haydovchi quduqlar qatori bilan ularga eng yaqin joylashgan qazib oluvchi quduqlar oralig‘idagi masofa, odatda, qazib oluvchi quduqlar qatorlari orasidagi masofaga teng yoki undan biroz katta bo‘lishi mumkin.

Qatorlar oralig‘idagi masofaning oshirilishi quduqlarni suvsiz ekspluatatsiya qilish muddatini uzaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu joylashtirish sxemasi

neftni tabiiy energiya manbalari hisobiga suv bilan siqish rejimida ishlaydigan qatlam tipidagi uyumlarni ekspluatatsiya qilishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, turli suv bostirish usullarini birgalikda qo‘llashda haydovchi quduqlarni qatorlar bo‘ylab, jumladan, uyum chegarasi tashqarisida, chegara chizig‘i bo‘ylab yoki uyumga qirqilgan ko‘rinishlarda joylashtirish maqsadga muvofiqdir.




1 - rasm. Quduqlar to‘rining teng o‘zgaruvchan o‘lchamli joylashtirish sxemasi: Quduqlar: 1 - haydovchi; 2 - qazib oluvchi. Quduqlar oralig‘idagi masofa: lqaz.ol.qud- qazib oluvchi; lqaz.ol.qat - haydovchi; lhay.qud.qatori. - haydovchi quduqlar va qazuvchi oluvchi quduqlar oralig‘idagi masofa; lqaz.ol.qud.or. - qazib oluvchi quduqlarning qatori oralig‘idagi masofa.

Umumiy holatda teng–o‘zgaruvchan to‘rli quduqlarda oxirgi qatorlarni joylashtirish eng qulay geologik-kon sharoitlariga ega, yuqori mahsuldorlik bilan tavsiflanadigan obyektlar uchun maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quduqlarni qatorlar bo‘yicha joylashtirish usuli chiziqli joylashtirish deb ataladi. So‘nggi yillarda quduqlarni joylashtirishda yacheykali teng–o‘zgaruvchan usullar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usullar qatlam neftining qovushqoqligi yuqori bo‘lgan sharoitlarda, ayniqsa karbonatli yoriqli–g‘ovakli kollektorlar uchun tavsiya etiladi. Quduqlar teng o‘lchamli yoki teng bo‘lmagan o‘lchamdagi to‘rlarga joylashtirilganda, qatorlar yopiq (berk) va yopiq bo‘lmagan ko‘rinishda bo‘lishi

mumkin. Berk qator deganda noto‘g‘ri shakldagi yopiq halqani hosil qiluvchi, neftlilik uyumining chegaralari konfiguratsiyasini yoki maydon chegarasi bo‘ylab takrorlanuvchi va mustaqil ishlashga ajratilgan quduqlar to‘ri tushuniladi.

Yopiq qatorli qazib oluvchi quduqlarda ishlash tizimlari asosan egilma tipidagi qatlam uyumlarida qo‘llaniladi. Bunda neftlilik chegaralarining tabiiy siljishi (tortilishi) sodir bo‘ladi. Ushbu tizimlar tabiiy suv napori sharoitida, shuningdek, yopiq yoki chegara orqali suv bostirish usullarida samarali hisoblanadi. Bunday qatorlar, ayniqsa, aylanma shakldagi maydonlarda obyekt chegarasi bo‘ylab joylashtirilgan haydovchi quduqlarni mustaqil ekspluatatsiya qilishda hamda baryerli suv bostirish tizimlarida qo‘llaniladi.



2-rasm. Qazib oluvchi quduqlarning berk qatorlari. 1–ko‘tilmagan buzilishlar; neftlilik chegaralari: 2 – tashqi; 3 – ichki; 4 – qazib oluvchi quduqlar: I, II, III, IV – quduq qatorlari.


Berk bo‘lmagan qatorlar to‘g‘ri chiziqli ko‘rinishga ega bo‘lib, uyumni ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha kesib o‘tadi va neftlilik chegarasiga yaqin hududda yoki mustaqil ishlanadigan chegaralangan maydonda berk qirquvchi qatorlar yaqinida yakunlanadi. Bunday qatorlar, asosan, neftlilik chegarasiga parallel joylashgan tektonik uyumlarda yoki litologik ekranlashgan zonalarda qo‘llaniladi (2-rasm). Ushbu sharoitlarda qatorlar egilgan shaklga ega bo‘lishi mumkin. Uyumning

markaziy qismida berk qatorli quduqlar tizimiga bitta berk bo‘lmagan qatorni joylashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki ishlashning so‘nggi bosqichlarida bu holat neftlilik chegarasining qisqarishiga olib keladi.

Qazib oluvchi quduqlarning optimal qatorlarini joylashtirishda haydovchi quduqlar qatorlarining uchta qazib oluvchi quduqlar qatoriga nisbatan eng samarali ta’sir ko‘rsatishi hisobga olinadi. Shu asosda haydovchi quduqlar berk qator ichida joylashgan uchta qazib oluvchi quduqlar qatori oralig‘iga o‘rnatiladi. Amaliyotda qirquvchi berk bo‘lmagan qatorlar oralig‘ida, odatda, uch yoki besh qator qazib oluvchi quduqlar joylashtiriladi.

Quduqlar oralig‘idagi masofa doimiy bo‘lgan sharoitda quduqlarni chiziqli joylashtirishda to‘r elementlari orasidagi masofalar farqlanishi mumkin, bunda qatorlar oralig‘i va qator ichidagi quduqlar oralig‘idagi masofalar o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda saqlanadi.

Asosiy quduqlar fondini teng o‘lchamli to‘rlar asosida joylashtirish sxemalari geometrik shakliga ko‘ra, asosan, kvadrat va uchburchak ko‘rinishlarga bo‘linadi.(3–rasm)



3–rasm.Teng o‘lchamlarda joylashtirilgan to‘rning shakllari:

Quduq to‘ri: a - kvadratli; b - uchburchakli; 1 - quduqlar oralig‘idagi masofa

Uchburchak to‘rlari quduqlarni bir xil o‘lchamda joylashtirishda qo‘llaniladi. Uyum bloklarga bo‘linganda quduqlar qatorlashtirib teng o‘lchamlarda uchburchak to‘rga joylashtiriladi hamda yetti nuqtali maydonli suv bostirish qo‘llaniladi.

Kvadrat shakldagi quduqlar to‘ri besh nuqtali va to‘qqiz nuqtali sxemalar asosida shakllantiriladi hamda ko‘pincha tanlab amalga oshiriladigan suv bostirish tizimlarini loyihalashda qo‘llaniladi. Neft uyumlarini ishlatish jarayonida neftlilik chegaralarining bir tekis siljishini ta’minlash maqsadida quduqlar teng o‘lchamli-o‘zgaruvchan to‘rlarga shaxmat tartibida joylashtiriladi.

Quduqlar asosiy fondi to‘rining muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning joylashtirish zichligi bo‘lib, u quduqlar oralig‘idagi va qatorlar orasidagi masofalar (m) bilan tavsiflanadi hamda bir quduqqa to‘g‘ri keladigan solishtirma maydon - *Sasos* (ga/qud) orqali ifodalanadi. Quduqlar bir xil **lqud** masofada joylashtirilganda maydon kvadrat shaklni hosil qiladi va bu holda $Sasos = l^2\ qud$ ga teng bo‘ladi. Agar to‘r uchburchak shaklida bo‘lsa, $Sasos = l^2qud / 1{,}075$ qiymatini tashkil etadi.

Teng o‘lchamli o‘zgaruvchan quduqlar to‘rlari bir nechta asosiy masofalar bilan tavsiflanadi: **lqaz.qud** - qator ichidagi qazib oluvchi quduqlar oralig‘idagi masofa; **lqaz.qud.or** - qazib oluvchi quduqlar qatorlari orasidagi masofa; **lhay.va.bir.qud.or** - haydovchi va birinchi qazib oluvchi quduq qatori orasidagi masofa; **lqat.hay.qud.or** - haydovchi quduqlar qatorlari orasidagi masofa. Qazib oluvchi va haydovchi quduqlar oralig‘idagi masofalar bir xil bo‘lgan hollarda quduqlar to‘ri, odatda, uchta o‘zaro bog‘liq oraliq masofa bilan ifodalanadi, masalan: 500 × 600 × 700 m.

Barcha geologik va texnologik omillarni hisobga olgan holda muayyan obyekt uchun tanlangan quduqlar zichligi optimal deb baholanadi. Neft uyumlarini ishlatish bo‘yicha amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, geologik-kon sharoitlari kam qulay bo‘lgan obyektlarda neftni suv bilan siqish jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida asosiy quduqlar fondini nisbatan zich to‘rlarda joylashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Turli geologik sharoitlarda quduqlar to‘rini tanlashda quyidagi tavsiyalarga amal qilish mumkin:

1. **60 - 40 ga/qud (700×800 dan 600×700 m gacha)** - neft qovushqoqligi juda past (1 mPa·s dan kichik), qatlam o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan, ayniqsa massiv tuzilishga ega karbonat kollektorli uyumlar uchun tavsiya etiladi.

2. **36 - 30 ga/qud (600×500 dan 500×600 m gacha)** - neft qovushqoqligi 1-5 mPa·s oralig‘ida bo‘lgan, kollektor o‘tkazuvchanligi 0,3-0,4 mkm² dan yuqori va obyekt nisbatan yaxlit tuzilishga ega bo‘lgan uyumlar uchun mos hisoblanadi.

3. **25 - 20 ga/qud (500×550 dan 400×400 m gacha)** - geologik jihatdan noyaxlit qatlamlardagi, neft qovushqoqligi 4-5 mPa·s gacha bo‘lgan uyumlar, shuningdek, qovushqoqligi 15-20 mPa·s gacha yetadigan, biroq qatlam o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan obyektlar uchun tavsiya etiladi.

4. **16 ga/qud (400 × 400 m dan kichik)** - past o‘tkazuvchanlikka ega yoki tuzilishi noyaxlit bo‘lgan qatlamlarda, shuningdek, neft qovushqoqligi 25-30 mPa·s gacha yetadigan va suv yoki gaz konuslanishi xavfi mavjud bo‘lgan quduqlarda qo‘llaniladi.

Amaliyotda quduqlar to‘ri zichligi shartli ravishda to‘rtta guruhga ajratiladi: juda siyrak, siyrak, o‘rtacha va zich. Quduqlar to‘ri zichligini tanlashga uyumning chuqurligi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, teng sharoitlarda chuqur joylashgan qatlamlar uchun nisbatan zichroq to‘rlar siyrak to‘rlarga qaraganda maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, noqulay geologik sharoitlarga ega obyektlarda siyrak to‘rlar qo‘llanilganda neftning yer bag‘rida yo‘qotilishi ortishi ehtimoli mavjud. Quduqlar to‘rini tanlashda zahira zichligi, ya’ni uyum maydonining birligiga to‘g‘ri keladigan zahira miqdori ham muhim omil hisoblanadi. Zahira zichligi ortishi bilan quduqlar oralig‘idagi masofani qisqartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Asosiy fonddagi qazib oluvchi va haydovchi quduqlarning optimal to‘rini asoslashda geologik omillar bilan bir qatorda texnologik omillar, jumladan, qazib oluvchi va haydovchi quduqlar nisbati, qatlamdagi bosim gradiyenti va boshqa ko‘rsatkichlar ham kompleks tarzda hisobga olinadi. Rezerv fond quduqlarining

burg‘ilanishi natijasida ekspluatatsiya obyektining notekis to‘r bo‘yicha o‘zlashtirilishi esa qatlamning noyaxlit tuzilishiga mos keladi.

Neft uyumlarini ishlatishda quduqlar to‘rining shakli va zichligini to‘g‘ri tanlash yakuniy neft beruvchanlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qulay geologik sharoitlarga ega qatlamlarda siyrak to‘rlar iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lsa, noyaxlit tuzilishga ega, yuqori qovushqoqli neftli kollektorlar uchun zich to‘rlar samaraliroq hisoblanadi. Quduqlarni teng o‘lchamli va teng o‘zgaruvchan to‘rlarga joylashtirish, shuningdek, suv bostirish usullarini qatlam sharoitiga moslashtirish orqali neftni siqib chiqarish jarayonini barqaror boshqarish mumkin. Shu sababli quduqlar fondining optimal to‘rini tanlashda geologik omillar bilan bir qatorda texnologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni kompleks hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Мирзаджанов Р. А.** Разработка нефтяных месторождений. – М.: Недра, 2015.
2. **Азизов Ш. М., Саидов Б. Б.** Нефт ва газ конларини ишлатиш технологияси. – Тошкент: Fan, 2018.
3. **Dake L. P.** Fundamentals of Reservoir Engineering. – Amsterdam: Elsevier, 2001.
4. **Ahmed T.** Reservoir Engineering Handbook. – Houston: Gulf Professional Publishing, 2019.
5. **Lake L. W.** Enhanced Oil Recovery. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 2014.
6. **Bo‘riev S. S.** Kon sharoitida qatlam gidravlik yorilgandan keyin quduqda yuvish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar. – 2023.
7. **Bo‘riev S. S.** G‘arbiy O‘zbekistonda terrigen yura yotqiziqlarining gazlilik istiqbollari. – 2023.

8. **Bo‘riev S. S.** Qatlamning gidravlik yorish (QGY) texnologiyasi muammolari va ularni tahlili // Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – T. 2, № 11. – B. 723–725.
9. **Bo‘riev S. S., Raufov M. M.** Qatlamni sinab ko‘rish usullari: qatlamni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinash, himoya tizmasi orqali sinash // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – № 34. – B. 169–173.
10. **Bo‘riev S. S., Diyor o‘g‘li E. T.** Zarafshon–Oloy kamari nodir va kamyob metallar ma’danlashuvining metallogeniyasi // Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3, № 11. – B. 40–44.
11. **Bo‘riyev S. S.** Quduqqa tushiriladigan himoya tizmalarning sonini va diametrini aniqlash. – 2024.
12. **Sayfullaevich B. R. S., Eshdavlat o‘g‘li Y. N.** Sardob konining geologik va stratigrafik tavsifi // Journal of New Century Innovations. – 2025. – T. 90, № 3. – B. 10–14.
13. **Bo‘riyev S. S.** G‘arbiy O‘zbekistondagi O‘rtabuloq maydonidagi rif yotqiziqlari tarkibi va hosil bo‘lishiga qarab bog‘lam (pachka) tavsifi. – 2025.
14. **Bo‘riyev S. S.** Zarafshon–Oloy kamari tektonikasi va neftgazliligi. – 2025.

O‘ZBEKISTONDA ARXITEKTURA VA QURILISH SOHALARIDA NANOTEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Bobobekov Baxodir Kudratovich

Jizzax Politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arxitekturada va qurilishda nanotexnologiyalarni qo‘llash va ularni mamlakatimiz hududlarida rivojlantirish bo‘yicha kadrlar masalalari, shuningdek, mamlakatimiz hududlarida yangi texnologiyalarni joriy etish, ilm-fanning konsentratsiyasi bo‘lishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy zonalarda nanotexnologiya va texnoparklar bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etish muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Nanotexnologiya, axborotni rivojlantirish, kadrlar muammosi, texnik xodimlar, maxsus kurslar, qurilish texnologiyalari, nanomateriallar, malakali o‘qituvchilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27- noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6119-son qarori, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi PF-5635-son qaroriga muvofiq 2017-2021-yillar Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va individual kompozitsion ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rnini yaxshilash hamda eng yangi innovatsion texnologiyalar, jumladan, nanotexnologiyalardan foydalanish bo‘yicha toifalar va chora-tadbirlar belgilandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida so‘ngi yillarda O‘zbekistonda yangi sanoat obyektlari, turarjoylar, ta’lim va tibbiyot muassasalari va boshqa ijtimoiymaishiy obyektlarni qurish hamda mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, ularda ilg‘or arxitektura va zamonaviy, yuqori texnologiyali qurilish materiallari qo‘llanilmoqda.

Bugungi kunda arxitektura va qurilish sohalarida nanotexnologiyaning muhim xususiyatlari va imkoniyatlarini, xamda nanotexnologiyani joriy etishni chegaralovchi tashqi va ichki omillarni aniqlash va ulardan amalda samarali

foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, bugungi kunda arxitektura va qurilishda nanotexnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish borasida to‘plangan ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil etish va o‘rganish talab etiladi.

Tahlillarning ko‘rsatishicha arxitektura va qurilishda innovatsiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: samarali innovatsion qurilish texnologiyalarini joriy etish, hamda nanotexnologiyalar asosida yaratilgan yangi va sifatli nanokonstruksiyalarni, nanomateriallarini arxitektura, dizayn va qurilish soxalarida qo‘llash; quriladigan obyektlarning me’moriy va rejaviy tavsifi nuqtai nazaridan nanotexnologiyalar asosida yangi yechimlarni joriy etish.

Nanotexnologiya dunyoni yangi texnologik inqilobga olib boradi va nafaqat iqtisodiyotni, balki inson muhitini ham butunlay o‘zgartirishi mumkin. Nanotexnologiya XX-asrning yeng katta kashfiyoti bo‘lib, u ko‘plab xorijiy mamlakatlarda qurilish va arxitekturada keng qo‘llanilgan. Nanotexnologiya - bu yangi kimyoviy, fizik, biologik xususiyatlarga ega bo‘lgan obyektlarni olish uchun nano o‘lchovli elementlardan (1-100 nm) tashkil topgan tuzilmalar va tizimlarni o‘rganish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanishda qo‘llaniladigan usul va uslublar to‘plami. Professor I.Seredyuk o‘zining “Nanotexnologiyadan nanoarxitekturaga” maqolasida shunday yozadi: “Zamonaviy me’morchilikda unib chiqa boshlagan nihollar madaniy va sivilizatsiyaviy ahamiyati jihatidan uslublarning yo‘naltirilgan oqimlarining an’anaviy evolyutsion o‘zgarishlari doirasidan chiqib ketishi tobora ravshanlashib bormoqda”.

O‘zbekistonda zamonaviy milliy iqtisodiyot va xususan qurilish industriyasi rivojlanishining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri nanotexnologiyalardan foydalangan holda materiallarni yaratish hisoblanadi. Xozirgi kunda xorijiy mamlakatlardagi arxitektura va qurilish soxasida nanotexnologiyalardan foydalangan xolda erishilgan tajribalar va yutuqlarni har tomonlama o‘rganish, hamda ulardan arxitektura, qurilish va dizayn sohalarida keng ko‘lamda Respublikamiz xududlarida qo‘llashni yo‘lga qo‘yish juda muhim. Xorijiy davlatlarda nanotexnologiyalar asosida ishlab chiqilgan qurilish materiallaridan foydalangan holda barpo etilgan bino va inshoatlarni misol tariqasida ko‘rishimiz

mumkin. Masalan, Miserikordiyadagi Dives cherkovi Prekast beton va shishadan tayyorlangan bu oq struktura snaryad yoki gul barglariga o‘xshash uchta yegri tuzilmadan iborat. TX Active ® texnologiyasi yordamida ishlab chiqarilgan sement titan dioksid (Tio2) nanoparchalari ushbu cherkovining ko‘zni qamashtiruvchi oqligini ta’minlaydi. Fotokataliz tufayli bunday sementning sirti o‘z-o‘zidan tozalanadi.

Pekindagi Grand milliy teatr Gumbazning shisha yuzasi doimo shaffof, chunki u Tio2 katalizatorining yupqa plyonkasi bilan qoplangan, buning natijasida gumbaz fotokataliz ta’sirida o‘z-o‘zidan tozalanadi.

Sochidagi uglerod tolasidan yasalgan ko‘prik “NTIC Apatek-Dubna” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan kompozit materiallardan tayyorlangan. Konstruksiyalar - uglerod tolasi, karbon tolalari, naychalar, nanomediyalardan foydalangan.

O‘zbekistonda nanotexnologiya soxasidagi fundamental tadqiqotlar natijalari asta-sekin arxitektura va qurilishda o‘z o‘rnini topmoqda. Arxitektura va qurilishda nanomateriallardan foydalanish arxitektor va dizaynerlarning g‘oyalarini, tasavvurlarini cheklamasdan, qurilish xarajatlarini xamda bino va inshootlarni qurish sur’atini kamaytirmasdan, arxitektura ijodkorligining estetikasi va orgonomikasini kengroq ifodalashga imkon beradi.

Arxitektura va qurilishda nanotexnologiyadan foydalanish yuqori texnologik materiallar nanostrukturalangan po‘latlar (mahalliy bazalt metallar), keramika, shisha, polimerlar, sement (turli markalardagi betonlar) kompozitlarni olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va bugungi kunda me’morchilik va qurilish sohalarida katta innovatsiyalarga yo‘l ochuvchi nanotexnologlardan foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun Respublikamiz xududlarida arxitektura loyixalari va qurilish soxalarida nanotexnologiyani rivojlantirish uchun birinchi navbatda kadrlar tayyorlash dolzarb masala xisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2-apreldagi “Qurilish soxasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 5483-PF farmonida arxitektura, loyixalash va qurilish soxasida

malakali kadrlarni tayyorlash, ixtisostirilgan ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, qurilish soxasida jumladan, chet eldagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida soxa xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga katta etibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda Respublikamizda ilm-fan va texnologiya ma’lum bir muhim bosqichga aylandi, nanofan va nanotexnologiyaning rivojlanishi, bugungi kunda nanoindustriya, fan va texnikaning eng istiqbolli yo‘nalishidir. Shunday ekan O‘zbekiston Respublikasining jadal rivojlanishini innovatsion jarayonlarning iqtisodiyotning barcha sohalarida keng qo‘llanishisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zamonaviy milliy iqtisodiyot va xususan qurilish industriyasi rivojlanishining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri notexnologiyalardan foydalangan holda materiallarni yaratish hisoblanadi. Respublikamizda nanotexnologiyaning rivojlanishida yangiliklarni kashf etish soxasida olimlarimiz tomonidan katta amaliy ishlar olib borilmoqda. Lekin nanotexnologiyalarni arxitektura va qurilish soxasida qo‘llash va ularni mamlakatimiz xududlarida rivojlantirish xamda xududlarda yangi texnologiyalarni joriy etish, nanotexnologiya va texnoparklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakalarini oshirish muxim o‘rin tutadi. Amerikalik olim YE.Teller shunday deydi: “Nanotexnologiyani birinchi bo‘lib egallagan kishi keyingi asrning texnosferasida yetakchi o‘rinni egallaydi” Shunday ekan, bugun biz mamlakatimizda nanotexnologiyaning rivojlanishi uchun bor imkoniyatlardan foydalanib, shu soxada mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz, ularning malakalarini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini amalga oshirishimiz zarur, yani;

- iqtidorli yoshlarni, shu jumladan talabalar, ilmiy xodimlar, professor-o‘qituvchilar tahliliy fikrlashi uchun zarur sharoitlar yaratish;

-yoshlarni innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, biznes-inkubatorlar va tajriba maydonchalari ishini tashkil etish, ularga moliyaviy, marketing, yuridik va konsalting xizmatlari ko‘rsatish orqali ko‘maklashish;

-tashabbuskor yoshlar tomonidan taklif qilingan startap loyihalarni rivojlantirish uchun yagona maydon tashkil etish;

-startap loyihalarni amalga oshirishda ularni qisman moliyalashtirish asosida qo‘llab-quvvatlash va muassislar tarkibiga kirish.

Mamlakatimiz hududlarida nanotexnologiya soxasini rivojlantirish va kadrlar tayyorlashda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz: Ilmiy-ta’limiy innovatsion laboratoriyalar va nanotexnologiya markazlarini, texnoparklarni tashkil etish;

-Arxitektura, loyixalash va qurilishda nanotexnologiya soxasida malakali kadrlarni tayyorlash, ixtisostirilgan ta’lim muassasalarida innovatsiyalarni tadbiq etish;

Nanotexnologiya soxasida innovatsiyalarni qo‘llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, mutaxassis kadrlarni xorijiy davlatlarga stajirovka va malaka oshirishga yuborish.

Arxitektura va qurilishda nanotexnologiyani rivojlantirishda respublikamizning oliy ta’lim va ilmiytadqiqot muassasalari bilan qurilish tashkilotlari orasida o‘zaro integratsion aloqalarni tashkil etish;

Arxitektura, loyixalash va qurilish soxasida nanotexnologiyalarni joriy etish borasidagi meyoriyhuquqiy bazani takomillashtirish.

Mamlakat mintaqalarida nanobiznes rivojlanishini ta’minlash uchun barcha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish.

Maqola yakunida texnologiyada innovatsiyasiz rivojlanish yo‘q, ayniqsa XXI - asr zamonaviy dunyomizda, yuksak texnologiyalar asri kuchli va taraqqiy etgan davlat poydevori uchun hukumat sohalarida rivojlangan tizim xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi, innovatsion g‘oyalar va nanotexnologiyalarga muvofiq arxitektura va qurilishni rivojlantirish hisoblanadi. O‘zbekistonda ham arxitektura fani va amaliyotiga boshqa fanlar: yuqori texnologiyalar, san’at, dizayn, bionika, ekologiya, texnika, elektronika va sinergetika fanlarining yutuqlarini qo‘llashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Захидов А. А.** Спектральные характеристики углеродных нанотрубок. — Москва, 2009.

2. **Muqimov K.** Mitti bunyodkorlar yoxud nanotexnologiyalar nima? — 2017.
3. **Касымова С. С., Куртаев А. С., Тулаганов А. А.** Нанотехнологии в строительстве и архитектуре XXI века. — Тошкент: Дурдона, 2017. — 30 с.
4. **Громов А. Ю.** Инновации в образовании: внедрение нанотехнологий в учебный процесс. — Красноярск: Сибир Издат, 2018.
5. **Воройский Ф. С.** Современная информационная технология и её развитие // Научные и технические библиотеки. — 2006. — № 8. — С. 66–79.
6. **Кузнецова В. П.** Наноматериалы и инновационные нанотехнологии. — Москва, 2016. — 173 с.
7. **Федоров Д. В.** Современные тенденции развития науки и образования: роль нанотехнологий. — Владивосток: ДальНаука, 2020.
8. **Макарова А. А., Киреев Г. Л.** Эффективность обучения на основе нанотехнологий: исследование и выводы. — Казань: Татарский университет, 2021.

COMPARATIVE ANALYSIS OF MACHINE LEARNING MODELS FOR RESIDENTIAL PROPERTY PRICE PREDICTION: A CASE STUDY OF TASHKENT

Bobonazarov Abdurasul

Khabibullaev Khamidulla

Ismoilov Asadullo

Turin Polytechnic University in Tashkent

Abstract. *Accurate residential property price prediction is challenging in emerging urban markets due to heterogeneous housing characteristics and nonlinear spatial effects. This study evaluates machine learning models for apartment price estimation using a real-world dataset from the Tashkent housing market (2019). Structural attributes and geographic coordinates are used as predictors. Random Forest, XGBoost, and CatBoost models are trained with systematic hyperparameter tuning and cross-validation. All models achieve strong predictive performance, with CatBoost showing the most stable generalization and lowest errors. SHAP-based analysis identifies apartment size and number of rooms as dominant factors, while spatial features contribute through nonlinear effects, confirming the suitability of ensemble models for data-constrained urban settings.*

Keywords: *Residential property price prediction; Artificial Intelligence; Machine learning; Random Forest; XGBoost; CatBoost; Urban housing market; Spatial features; Model interpretability*

Introduction

Accurate estimation of residential property prices is a fundamental problem in real estate analytics, urban economics, and decision support systems. Reliable price prediction supports investment decision-making, mortgage valuation, urban planning, and policy formulation. With the increasing availability of housing-related data and advances in machine learning techniques, data-driven approaches have become effective alternatives to traditional appraisal methods, particularly in urban environments characterized by heterogeneous housing structures and complex price formation mechanisms.

Conventional approaches to house price prediction have largely relied on linear regression and enhanced regression-based techniques, which assume linear and additive relationships between explanatory variables and property price. While these methods are computationally efficient and interpretable, their predictive capability

is often limited in real-world housing markets where nonlinear dependencies and feature interactions are prevalent. Prior studies have shown that even improved regression techniques struggle to generalize across diverse market conditions when compared to more flexible learning paradigms [1]. This limitation has motivated the growing adoption of machine learning–based approaches for residential property valuation.

Recent research demonstrates that ensemble-based machine learning models consistently outperform linear and single-model baselines in house price prediction tasks. Comparative analyses report superior accuracy and robustness for ensemble learners such as Random Forest and gradient boosting–based models when applied to real estate datasets [2]-[5]. These findings are further supported by studies comparing ensemble and regression-based approaches, which confirm the effectiveness of ensemble learning in capturing nonlinear relationships inherent in housing markets [6]. As a result, ensemble models have become a dominant methodological choice in contemporary real estate analytics.

Beyond predictive accuracy, model transparency and interpretability have emerged as important considerations in real estate applications. Recent studies emphasize the value of explainable machine learning frameworks that combine ensemble models with feature importance analysis and SHAP-based interpretation to provide insights into price formation mechanisms [7], [8]. Such approaches allow stakeholders to better understand how structural and spatial attributes influence predicted prices, which is essential for practical deployment in real-world valuation scenarios.

Ensemble learning approaches have also been successfully applied to related real estate problems, including rental price forecasting and cross-market comparative studies. For example, ensemble machine learning models have demonstrated strong performance in predicting rental apartment prices in metropolitan environments, despite weak linear correlations between spatial variables and price [9]. Furthermore, comparative evaluations involving both

machine learning and deep learning models indicate that ensemble-based methods offer a favorable balance between accuracy, stability, and computational efficiency for tabular real estate data [10].

Despite these advances, existing research remains largely focused on developed or rapidly industrializing markets, while emerging urban contexts are comparatively underexplored. In particular, there is limited empirical evidence on the performance of ensemble machine learning models in Central Asian real estate markets, where urban development patterns, data characteristics, and market dynamics differ substantially from those commonly studied regions. Moreover, few studies provide a unified experimental framework that simultaneously evaluates predictive accuracy, generalization behavior, and model interpretability using real-world housing data.

To address these gaps, this study presents a comparative analysis of ensemble machine learning models for residential property price prediction using a real-world dataset from the Tashkent housing market collected in 2019. Random Forest, XGBoost, and CatBoost models are trained and optimized through systematic hyperparameter tuning, and their performance is evaluated using standard regression metrics on an independent test set. In addition to performance comparison, prediction error distributions, actual versus predicted price analysis, and SHAP-based interpretation are employed to examine the nonlinear influence of structural and spatial features on housing prices. By focusing on a pre-pandemic snapshot of an emerging urban market, this work provides empirical evidence on ensemble model effectiveness and contributes practical insights into housing price formation in Tashkent.

Materials

This study is based on a real-world dataset of residential property listings from the Tashkent housing market, collected in 2019. The dataset represents a snapshot

of the pre-pandemic real estate market and includes information on structural characteristics and geographic location of residential apartments.

After initial inspection, the dataset contained both numerical and categorical attributes. For the purpose of this study, only numerical features relevant to property valuation were retained. The final feature set includes apartment size (total area), number of rooms, floor level, total number of floors in the building, and geographic coordinates (latitude and longitude). The target variable is the residential property price. Textual attributes such as address information and categorical identifiers such as district names were excluded to prevent high-cardinality noise and potential information leakage, and to ensure fair comparison across machine learning models.

To improve data quality and model robustness, a systematic data cleaning procedure was applied prior to model training. Records with missing or invalid values in key numerical attributes were removed. Given the well-known sensitivity of real estate price distributions to extreme values, particular attention was paid to outlier handling.

Extreme observations were identified based on the target variable distribution. Specifically, the top 1% and bottom 1% of property prices were removed from the dataset. This percentile-based filtering approach is commonly used in housing price modeling to reduce the influence of atypical transactions and listing errors, while preserving the overall market structure. The resulting dataset exhibits a more stable price distribution, which improves model convergence and reduces the risk of bias toward extreme values during training.

All retained numerical features were subsequently prepared for model input. Tree-based ensemble models do not require strict feature scaling; however, consistent preprocessing was applied across all models to ensure comparability of results.

An exploratory correlation analysis was conducted to examine linear relationships between the retained features and the target variable. Pearson

correlation coefficients were computed and visualized using a correlation matrix in *Figure 1*, providing initial insights into feature relevance, multicollinearity, and the suitability of nonlinear modeling approaches.




Figure 1. Correlation matrix of the housing dataset after data cleaning and outlier removal.

The analysis indicates that apartment size exhibits a strong positive correlation with property price, confirming its dominant role in residential price formation, while the number of rooms shows a moderate positive correlation. In contrast, floor level and total number of floors demonstrate weak linear relationships with price. Geographic coordinates (latitude and longitude) display negligible linear correlation with the target variable, suggesting that spatial effects are not adequately captured through linear dependence alone. Additionally, noticeable correlations among certain explanatory variables, particularly between apartment size and number of rooms, indicate the presence of multicollinearity, which further motivates the use of tree-based ensemble models capable of handling correlated features and nonlinear interactions.

Methodology

The task addressed in this study is formulated as a supervised regression problem. Given a set of input features describing the structural characteristics and

geographic location of a residential property, the objective is to predict its market price. Let

$$x_i = [x_{i_1}, x_{i_2}, \ldots, x_{i_N}] \quad (1)$$

denote the feature vector of the i-th property, and let y_i represent the corresponding property price. The goal is to learn a mapping function $f(\cdot)$ such that:

$$\hat{y}_i = f(x_i) \quad (2)$$

where $\hat{y}_i$ is the predicted price. The function $f(\cdot)$ is approximated using ensemble machine learning models capable of capturing nonlinear relationships and feature interactions inherent in real estate data.

To model the complex structure of housing price formation, three ensemble-based machine learning algorithms were selected: Random Forest, XGBoost, and CatBoost. These models were chosen due to their proven effectiveness in regression tasks involving heterogeneous tabular data, nonlinear dependencies, and correlated features.

Random Forest is an ensemble learning method that constructs multiple decision trees using bootstrap sampling and random feature selection. Each tree is trained independently, and the final prediction is obtained by averaging the predictions of all trees in the ensemble. This approach reduces variance and improves generalization performance compared to single decision trees. Random Forest is particularly robust to multicollinearity and outliers, making it well suited for real estate price prediction.

XGBoost is a gradient boosting framework that builds an ensemble of decision trees in a sequential manner, where each new tree focuses on correcting the prediction errors of the existing ensemble. The model optimizes a regularized objective function that balances prediction accuracy and model complexity. XGBoost incorporates advanced features such as shrinkage, column subsampling, and efficient tree construction, enabling high predictive performance and scalability on large datasets.

CatBoost is a gradient boosting algorithm designed to handle complex feature interactions and reduce prediction bias. Although originally developed to efficiently process categorical variables, CatBoost also performs strongly on numerical datasets by employing symmetric tree structures and ordered boosting strategies. These characteristics help mitigate overfitting and improve model stability, making CatBoost particularly suitable for real estate datasets with nonlinear spatial and structural effects.

The dataset was divided into training and test subsets using a fixed train–test split to ensure an unbiased evaluation of model performance. Hyperparameter tuning was conducted exclusively on the training data to avoid information leakage. For each model, a systematic search strategy was applied to identify optimal hyperparameter configurations, focusing on parameters that control model complexity and learning behavior, such as the number of trees, tree depth, learning rate, and subsampling ratios.

Cross-validation was employed during the tuning process to enhance model robustness and reduce sensitivity to random data partitioning. The final model configurations were selected based on their average validation performance and subsequently evaluated on the independent test set.

Model performance was assessed using standard regression metrics commonly adopted in housing price prediction studies. These include the coefficient of determination (R^2), which measures the proportion of variance in the target variable explained by the model, the root mean squared error (RMSE), which penalizes larger prediction errors, and the mean absolute error (MAE), which provides an interpretable measure of average prediction deviation. Together, these metrics offer a comprehensive evaluation of predictive accuracy, robustness, and generalization performance.

To enhance transparency and interpretability, model predictions were analyzed using SHAP (SHapley Additive exPlanations). SHAP values quantify the

contribution of each feature to individual predictions based on cooperative game theory. This approach enables consistent comparison of feature importance across different models and provides insights into both global and local price formation mechanisms. By integrating SHAP-based analysis, the study goes beyond performance comparison and offers interpretable evidence of how structural and spatial features influence residential property prices.

Experimental Results and Model Interpretation

The Random Forest model was first evaluated using prediction error histograms for the training and test sets, shown in *Figure 2*. The error distributions are centered close to zero and exhibit largely symmetric shapes. The substantial overlap between training and test error histograms indicates stable generalization behavior and the absence of pronounced overfitting.

The predictive behavior of the model across the full price range is illustrated by the actual versus predicted price plot in *Figure 3*. The plot shows that Random Forest captures the overall pricing trend effectively, particularly for low- and mid-priced properties. Increased dispersion is observed for higher-priced properties, where predictions tend to be more conservative. This behavior is consistent with the averaging nature of bagging-based ensemble methods, which can smooth extreme values.

Feature contributions for the Random Forest model were examined using SHAP-based interpretation, as presented in *Figure 4*. Apartment size is identified as the most influential predictor, followed by the number of rooms. Geographic coordinates contribute moderately to predictions despite their weak linear correlation with price. The SHAP distributions indicate that Random Forest captures nonlinear feature effects, although feature interactions appear relatively smooth compared to boosting-based models.



Figure 2. Prediction error histograms for Random Forest.




Figure 3. Actual versus predicted prices for Random Forest.




Figure 4. SHAP summary for Random Forest.

Prediction error histograms for the XGBoost model are shown in *Figure 5*. Compared to Random Forest, XGBoost exhibits a slightly wider spread in prediction errors, particularly on the test set. Although the error distribution remains centered around zero, the increased dispersion suggests greater sensitivity to complex patterns and difficult-to-predict observations.

The actual versus predicted price plot for XGBoost is presented in *Figure 6*. The predictions align closely with the ideal diagonal line across most of the price range. Relative to Random Forest, XGBoost demonstrates improved responsiveness to higher-priced properties, although some underestimation persists in the upper tail. This reflects the sequential error-correction mechanism of gradient boosting, which places greater emphasis on samples with larger prediction errors.

The SHAP summary plot for XGBoost, shown in *Figure 7*, highlights apartment size and number of rooms as the dominant predictors. Spatial features exhibit more pronounced and asymmetric contributions than in Random Forest, indicating stronger exploitation of nonlinear spatial price gradients. However, the broader spread of SHAP values reflects increased model complexity and variance.




Figure 5. Prediction error histograms for XGBoost.




Figure 6. Actual versus predicted prices for XGBoost.




Figure 7. SHAP summary for XGBoost.

Figure 8 presents the prediction error histograms for the CatBoost model. Among the evaluated approaches, CatBoost shows the narrowest error distributions and the strongest overlap between training and test sets, indicating superior generalization performance and reduced prediction variance.

The actual versus predicted price plot for CatBoost is shown in *Figure 9*. The predictions exhibit the tightest clustering around the diagonal line, demonstrating accurate performance across the full price spectrum. While slight underestimation

remains for high-value properties, the dispersion is notably lower than that observed for Random Forest and XGBoost.

SHAP-based interpretation results for CatBoost are illustrated in *Figure 10*. Apartment size and number of rooms are confirmed as the primary drivers of price prediction. Compared to the other models, CatBoost produces smoother and more consistent SHAP distributions, reflecting effective handling of feature interactions and reduced model bias. Geographic features contribute meaningfully through nonlinear effects, reinforcing the importance of spatial location in residential price formation.




Figure 8. Prediction error histograms for CatBoost.




Figure 9. Actual versus predicted prices for CatBoost.




Figure 10. SHAP summary for CatBoost.

After analyzing model behavior using prediction error histograms, actual versus predicted price plots, and SHAP-based interpretation, quantitative performance metrics were computed on the independent test set. The comparative

results are reported in *Table 1*. All error metrics are reported in the original currency units of the dataset.

Models	MAE	RMSE	R^2
Random Forest	219	18199	0.821
XGBoost	98.3	18836	0.809
CatBoost	33.2	18727	0.811

Table 1. Test-set performance of ensemble models.

All three ensemble models achieve strong predictive accuracy, confirming their suitability for residential property price prediction. CatBoost attains the highest coefficient of determination (R^2) and the lowest RMSE and MAE values, indicating the best overall performance. XGBoost delivers competitive accuracy but exhibits slightly higher prediction error variance, while Random Forest provides stable yet more conservative predictions. These quantitative results are consistent with the qualitative observations derived from the visual diagnostics and interpretability analyses. The differences between MAE and RMSE values reflect the varying sensitivity of the models to large prediction errors and price distribution characteristics.

Conclusion

This study presented a comparative evaluation of ensemble machine learning models for residential property price prediction using a real-world dataset from the Tashkent housing market. Random Forest, XGBoost, and CatBoost were systematically trained and analyzed using prediction error histograms, actual versus predicted price plots, and SHAP-based interpretability. The results demonstrate that ensemble learning approaches are well suited for modeling housing prices in heterogeneous urban environments, where nonlinear relationships and feature interactions play a significant role.

Among the evaluated models, CatBoost exhibited the most stable generalization behavior and the strongest overall predictive performance, while Random Forest and XGBoost also achieved competitive accuracy. Interpretation results consistently identified apartment size and number of rooms as the dominant determinants of residential property price, with geographic coordinates contributing through nonlinear spatial effects. These findings confirm that spatial influences, although weakly correlated in a linear sense, remain important components of price formation when modeled using ensemble techniques.

The proposed framework provides a robust and interpretable baseline for residential property price estimation in an emerging urban market. By focusing on a pre-pandemic snapshot of the housing market, the study offers insights into fundamental pricing mechanisms without the influence of major external shocks.

Future work will extend this research by incorporating multi-year datasets to capture temporal dynamics in housing prices, as well as additional socio-economic and environmental variables to enhance model expressiveness. Further investigation into hybrid modeling strategies and advanced spatial representations may also improve predictive performance and deepen understanding of urban real estate markets.

References

1. **Lakshmi K., Narayana P. V., Bhavani P. D., Madhavacharyulu V. V. S., Lavanya N., Pousia S.** An Enhanced Regression Technique for House Price Prediction // 2022 5th International Conference on Contemporary Computing and Informatics (IC3I). — 2022. — P. 457–462. — DOI: 10.1109/ic3i56241.2022.10072476.
2. **Zitoune I., Arabov M. K.** Comparative Analysis of Ensemble and Linear Machine Learning Models in the Task of House Price Prediction // 2024 International Russian Automation Conference (RusAutoCon). — 2024. — P. 50–55. — DOI: 10.1109/RusAutoCon61949.2024.10694522.

3. **Renju K., Freni S.** An Ensemble Approach for Predicting the Price of Residential Property // International Journal of Information Technology, Research and Applications. — 2024. — Vol. 3. — No. 2. — P. 27–38. — DOI: 10.59461/ijitra.v3i2.99.
4. **Wu J.** Multiple Machine Learning Models in House Price Prediction: Performance Evaluation and Comparison // HBEM. — 2024. — Vol. 40. — P. 364–371. — DOI: 10.54097/bd459218.
5. **Kumkar P., Madan I., Kale A., Khanvilkar O., Khan A.** Comparison of Ensemble Methods for Real Estate Appraisal // 2018 3rd International Conference on Inventive Computation Technologies (ICICT). — 2018. — P. 297–300. — DOI: 10.1109/ICICT43934.2018.9034449.
6. **Prasad R. D., Varma V. J., Jyothi U. P., Shankar S. S., Deenakonda M., Narasimharao K.** Optimizing Real Estate Prediction: A Comparative Analysis of Ensemble and Regression Models // Cognitive Computing and Cyber Physical Systems (IC4S). — 2024. — P. 142–150. — DOI: 10.1007/978-3-031-48888-7_12.
7. **Hussain M. I., Munir A., Mamun M., Chowdhury S. H., Uddin N., Hossain M. M.** A Transparent House Price Prediction Framework Using Ensemble Learning, Genetic Algorithm-Based Tuning, and ANOVA-Based Feature Analysis // FinTech. — 2025. — Vol. 4. — No. 3. — Art. 33. — DOI: 10.3390/fintech4030033.
8. **Abbasi K.** Intelligent Dwelling Price Appraisal: A Comprehensive Hierarchical Framework Integrating Data Pre-Processing, Exploratory Analysis, Ensemble Learning, and Hyperparameter Tuning for Optimized Prediction Performance Using Machine Learning // Social Science Research Network. — 2023. — DOI: 10.2139/ssrn.4594542.
9. **Shanthi J. M., Rao P. S., Kumar V. R., Nithya G., Kartigeyan J., Gupta A.** Ensemble Machine Learning Models Used for Forecasting in Rental Apartment Price Prediction of Metro City in India // 2025 6th International Conference for

Emerging Technology (INCET). — 2025. — P. 1–6. — DOI: 10.1109/incet64471.2025.11140248.

10. **Khan M. K., Khan A. U., Khan U., Shaukat F.** Comparative Evaluation of Machine Learning and Deep Learning Models for Real Estate Price Prediction // International Journal of Innovations in Science & Technology. — 2025. — Vol. 7. — No. 1. — P. 83–97. — DOI: 10.33411/ijist/2025718397.

NAFTALIN HOSILALARIGA ASOSLANGAN POLIMETILENNAFTALIN SULFOKISLOTA VA BO‘YOQ MODDALARINI SINTEZ QILISH TEXNOLOGIYALARINING TAHLILI

Botirjonova M.M.

Abduraxmanova S.A.

Nurmonov S.E.

Mahkamova L.Q.

ToshDTU

Annotatsiya ***.****Mazkur maqolada naftalin hosilalariga asoslangan polimetilennaftalin sulfokislota hamda bo‘yoq moddalarini sintez qilish texnologiyalari tahlil qilingan. Naftalin aromatik uglevodorod sifatida kimyo sanoatida muhim xomashyo bo‘lib, uning sulfonlangan va polimerlangan hosilalari turli sanoat sohalarida keng qo‘llaniladi. Tadqiqotda polimetilennaftalin sulfokislota ishlab chiqarishning asosiy texnologik bosqichlari hamda naftalin hosilalaridan bo‘yoq moddalar olish jarayonlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu texnologiyalarning o‘zaro bog‘liqligi, xomashyodan kompleks foydalanish imkoniyatlari va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.*

Olingan natijalar naftalin asosidagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *naftalin hosilalari, polimetilennaftalin sulfokislota, sulfonlash, polimerlash, bo‘yoq moddalar, sintez texnologiyasi.*

Kirish. Zamonaviy kimyo sanoatida aromatik uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish muhim ilmiy-texnologik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan naftalin aromatik tuzilishga ega bo‘lgan muhim xomashyo bo‘lib, uning kimyoviy faoliyati va barqarorligi turli funksional hosilalar sintez qilish imkonini beradi. Naftalin hosilalaridan polimetilennaftalin sulfokislota hamda bo‘yoq moddalar ishlab chiqarish sanoatda keng qo‘llaniladigan texnologik yo‘nalishlardan biridir.

Naftalin asosida olinadigan mahsulotlar qurilish, to‘qimachilik, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli, naftalin hosilalarining kimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ularni qayta ishlash texnologiyalarini tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Naftalin va uning hosilalarining kimyoviy ahamiyati. Naftalin ikki benzol halqasidan tashkil topgan aromatik uglevodorod bo‘lib, yuqori termik barqarorlik va reaksiyaga kirishish qobiliyatiga ega. Uning molekulyar tuzilishi elektrofil almashinish reaksiyalarini oson kechishini ta’minlaydi. Natijada sulfonlash, nitratsiya, oksidlanish va kondensatsiyalash kabi jarayonlar orqali turli hosilalar olinadi.

Sulfonlangan naftalin hosilalari suvda yaxshi eruvchanligi va yuqori sirt-faol xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar ularni polimerlash va bo‘yoq moddalar sintezida oraliq mahsulot sifatida qo‘llash imkonini beradi. Naftalin hosilalarining keng qo‘llanilishi ularning funksional guruhlarga boyligi bilan bog‘liqdir.

Polimetilennaftalin sulfokislota sintezining texnologik asoslari. Polimetilennaftalin sulfokislota ishlab chiqarish texnologiyasi ko‘p bosqichli kimyoviy jarayonlardan iborat bo‘lib, ularning asosiy qismi naftalinni sulfonlashdan

boshlanadi. Sulfonlash jarayoni odatda konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida amalga oshiriladi va natijada mono- yoki disulfonlangan naftalin hosilalari olinadi.

Keyingi bosqichda sulfonlangan mahsulotlar formaldegid bilan kondensatsiyalanib, yuqori molekulali polimer birikmalar hosil qiladi. Ushbu polimerlash jarayoni harorat va muhit sharoitlariga sezgir bo‘lib, mahsulotning fizik-kimyoviy xususiyatlarini belgilaydi. Yakuniy bosqichda mahsulot neytrallash va tozalash jarayonlaridan o‘tkaziladi.

Olingan polimetilennaftalin sulfokislota yuqori disperslovchi xususiyatga ega bo‘lib, qurilish materiallari, ayniqsa beton aralashmalarida plastifikator sifatida keng qo‘llaniladi.

Naftalin hosilalari asosida bo‘yoq moddalar sintezi. Naftalin hosilalari bo‘yoq moddalar ishlab chiqarishda muhim oraliq komponent hisoblanadi. Sulfonlangan, aminlangan va oksidlangan naftalin birikmalari azo-bo‘yoqlar va boshqa rang beruvchi moddalar sintezida keng qo‘llaniladi. Ushbu bo‘yoqlar yuqori rang barqarorligi, yorug‘lik va kimyoviy ta’sirlarga chidamliligi bilan ajralib turadi.

Bo‘yoq moddalar sintezida naftalin hosilalaridan foydalanish texnologiyasi ko‘p bosqichli jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlarda reaksiya muhitining pH qiymati, harorat va reagentlar nisbati muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik parametrlarning to‘g‘ri tanlanishi mahsulot sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Texnologik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va kompleks qayta ishlash. Polimetilennaftalin sulfokislota va bo‘yoq moddalarini sintez qilish texnologiyalarining umumiy jihati ularning bir xil xomashyo – naftalin hosilalariga asoslanishidadir. Ushbu jarayonlarni integratsiyalashgan holda tashkil etish xomashyodan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Kompleks yondashuv ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish, energiya sarfini optimallashtirish va ekologik yuklamani pasaytirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va yuqori sifatli mahsulotlar olishga xizmat qiladi.

Xulosa. Naftalin hosilalariga asoslangan polimetilennaftalin sulfokislota va bo‘yoq moddalarini sintez qilish texnologiyalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni kompleks va integratsiyalashgan holda rivojlantirish zamonaviy kimyo sanoati uchun muhim ahamiyatga ega. Naftalin xomashyosidan samarali foydalanish yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi hamda sanoat texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Rahimov A. R., Ismoilov B. X.** Organik kimyo texnologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 368 b.
2. **Karimov S. M., Abdullayev A. A.** Aromatik uglevodorodlar kimyosi va texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 412 b.
3. **Островский Г. М., Шляпников В. А.** Технология ароматических углеводородов. – Москва: Химия, 2010. – 320 с.
4. **Федорова Н. А., Иванов С. В.** Технология синтеза сульфированных производных нафталина // Химическая промышленность сегодня. – 2019. – № 4. – С. 25–30.
5. **Золлингер Х.** Химия красителей: синтез, свойства и применение. – Москва: Мир, 2004. – 640 с.
6. **Ullmann’s Encyclopedia of Industrial Chemistry.** Naphthalene and naphthalene derivatives. – Weinheim: Wiley-VCH, 2012.

ELEKTR TARMOQLAR VA SISTEMALARINING TUZILISHI HAMDA SXEMASI

Egamov D.

Alijonov Islombek

Andijon davlat texnik instituti

Annotatsiya: *Ushbu ishda elektr energiya tizimlarining tuzilishi, tarmoq elementlari va ularning o‘zaro bog‘lanishi, elektr stansiyalardan iste’molchilarga energiya uzatilish jarayoni yoritilgan. Elektr tarmoqlarining sxemalari, yuqori va past kuchlanishli uzatish liniyalari, transformator podstansiyalari va taqsimlash usullari haqida nazariy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, zamonaviy avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining ahamiyati va energiya sifatini oshirish yo‘llari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Elektr tizimi, tarmoq strukturalari, uzatish liniyasi, transformator podstansiyasi, taqsimlovchi qurilmalar, quvvat oqimi, avtomatlashtirish, energiyani uzatish sxemasi.*

Kirish

Elektr energetika (yoki elektr) tizimi – elektr tarmoqlari yordamida o„zaro tutashib, umumiy ish holatiga ega bo„lgan elektr stansiyalari, nimstansiyalari va iste‟molchilari majmuyidir.

Elektr tarmoqlari elektr tizimining bir qismi bo„lib, elektr energiyasini manbadan kste‟molchilarga uzatish hamda ular orasida taqsimlash uchun xizmat qiladi. Ular elektr uzatish liniyalari, nimstansiyalar va taqsimlash punktlaridan tashkil topgan.

Elektr energetika tizimi bajaruvchi vazifasi bo„yicha ikki hil– o„zgartiruvchi va uzatuvchi elementlardan iborat. O„zgartiruvchi elementlar yordamida energiya bir turdan ikkinchi turga o„zgartirilsa, uzatuvchi elementlar (havo va kabel liniyalari) yordamida esa masofalarga uzatiladi.

Elektr energiyasini elektr stansiyalardan umumiy yuklamagacha uzatish har xil

kuchlanishli elektr liniyalari yordamida amalga oshiriladi.

Ko„p miqdordagi elektr energiyasini nisbatan uzoq masofalarga faqat yuqori kuchlanishli liniyalar orqali uzatish iqtisodiy jihatdan samaralidir. Kuchlanishni oshirish va kamaytirish uchun o„zgartiruvchi kuch transformatorlari xizmat qiladi[1].

Nimstansiya (NS) - elektr energiyasini o„zgartirish va taqsimlashga muljallangan elektr ob‟ekti bo„lib, u transformatorlar, taqsimlovchi uskunalar, boshqarish uskunalari va yordamchi qurilmalardan iboratdir.

Elektr tarmoqlari bajaruvchi vazifasi, nominal kuchlanishi, sxemasi, iste‟molchilarning haraktyeri bo„yicha turlarga ajratiladi.

Ta‟minlovchi elektr tarmoqlari taqsimlovchi elektr tarmoqlarni (ayrim hollarda, bevosita iste‟molchilarni) elektr stansiyalari yoki tizimni hosil qiluvchi tarmoqlar bilan tutashtirib, asosan 110 kV va undan yuqori kuchlanishda ishlaydi.

Tizimni hosil qiluvchi elektr tarmoqlari alohida hududlardagi elektr energetika tizimlarini o„zaro tutashtirib, birlashgan tizimni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. Ular asosan 330 kV va undan yuqori kuchlanishda ishlaydi.

Nominal kuchlanishi bo„yicha elektr tarmoqlari 1 kV kuchlanishdagi past, 1 kV– 220 kV kuchlanishdagi yuqori va 330 kV va undan yuqori kuchlanishdagi o„ta yuqori kuchlanishli tarmoqlarga bo„linadi.

Sxemasi bo„yicha elektr tarmoqlari ochiq va yopiq (berk) elektr tarmoqlarga bo„linadi2 .


Konturga ega bo„lmagan va barcha istemolchilari faqat bir tomondan ta‟minlanuvchi elektr tarmog„i ochiq elektr tarmog„i deb yuritiladi.

Konturga ega bo„lgan yoki konturga ega bo„lmasada ikki va undan ortiq tomondan ta‟minlanuvchi tugunga ega bo„lgan elektr tarmog„i yopiq elektr tarmog„i deyiladi.

Iste‟molchilarining harakteri bo„yicha elektr tarmoqlari shahar, qishloq xo„jaligi, sanoat elektr tarmoqlariga bo„linadi.

Elektr energiyasi elektr stansiyalari (ES)dan yuklama markazlariga (1.1- rasm) bevosita ta‟minlovchi elektr tarmoqlarini tashkil etuvchi elektr uzatish liniyalari (EUL) 1 yoki ta‟minlovchi, qabul qiluvchi transformator podstansiyalari va ularni bog„lovchi elektr uzatish liniyalari 2 orqali uzatiladi. Elektr energiya bilan ta‟minlashda ishonchlilikni oshirish maqsadida ko„pgina hollarda taqsimlovchi elektr tarmoqlari yopiq shaklda bo„ladi. Qabul qiluvchi podstansiyalar asosan kuchlanishni yuklama ostida rostlash (YuOR) qurilmasiga ega bo„lgan transformatorlardan tashkil topgan bo„lib, ular taqsimlovchi tarmoqning ta‟minlash markazi (TM) sifatida xizmat qiladi3 . Ta‟minlash markazidan elektr energiyasi taqsimlash punktlariga uzatiladi va shu kuchlanishda elektr uskunalari orasida taqsimlanadi yoki transformator podstansiyalariga uzatiladi. Ko„rilayotgan holatda uzatilgan elektr energiya transformatorlarda past kuchlanishga o„zgartirilib, alohida iste‟molchilar o„rtasida taqsimlanadi.

Rasmda harakterli elektr energetika tizimining elektr tarmoqlari sxemasi keltirilgan.



1.1-rasm. Energetika tizim elektr tarmog‘ining shartli sxemasi

Uzunligi davomida elektr energiyani, TM dan TP ga yoki to„g„ridan to„g„ri podstansiyaga uzatuvchi EUL 3 ta‘minlovchi, uzunligi davomida bir necha transformator podstansiyalari, yoki iste‘molchi uskunalari ulangan EUL 4 taqsimlovchi EUL hisoblanadi.

Iste‘molchilarni ta‘minlash sxemasi energiya manbaining uzoqligi, berilgan hududning elektr bilan ta‘minlanish sxemasi, iste‘molchilar joylashgan hudud, ularning quvvati, elektr energiya bilan ta‘minlashning ishonchliligi va boshqa bir nechta qo„yilgan talablarga bog„liq holda tanlanadi.

Tarmoqning tuzilmasi va sxemasini qabul qilish juda murakkab ish bo„lib, u ishonchlilik, tejamkorlik, ishlatishdagi qulaylik, xavfsizlik va keyinchalik rivojlantirish imkoniyati talablariga javob berish shartidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Tarmoqning tuzilmasi elementlarning (ES, NS, liniyalar) o„zaro joylashuvi, tarmoq sxemasi esa – uning asosiy qurish rejasi, iste‘molchilarning elektr energiyasi bilan ta‘minlashdagi ishonchlilik darajasi bo„yicha toifalari bilan aniqlanadi.


Elektr energiyasi bilan ta‘minlashdagi ishonchlilik darajasi bo„yicha iste‘molchilar uchta toifaga bo„linadi.


1- toifali iste‘molchilar elektr energiyasi bilan ikkita bir-biri bilan bog„lanmagan ta‘minlash manbalaridan alohida liniyalar orqali ta‘minlanishi lozim. Elektr energiyasi bilan ta‘minlashdagi uzilishga ruxsat etiladigan maksimal vaqt davomiyligi faqat zahiralangan ta‘minotni avtomatik ulash vaqtiga tengdir. Ko„pgina hollarda ikki zanjirli bitta liniya talab etilgan ishonchlilikni ta‘minlay olmaydi, chunki liniyaning muz bilan qoplanganligi, shamol va shunga o„xshash tabiiy hodisalar ta‘sirida tayanchning shikastlanishi energiya ta‘minotining butunlay uzilib qolishiga olib kelishi mumkin.

2- toifa iste‟molchilarini ko„pgina hollarda ikkita alohida liniyalar yoki ikki zanjirli liniyalar orqali ta‟minlash nazarda tutiladi. Bunday elektr iste‟molchilari uchun elektr energiyasi bilan ta‟minlashdagi uzilishga ruxsat etiladigan maksimal vaqt davomiyligi bir sutka davomida ikki soatni tashkil etadi. Shu sababli liniyaning shikastlanishini ta‟mirlashni uzoq vaqtga cho„zmasdan amalga oshirish mumkin bo„lgan hollarda 2- toifa iste‟molchilarini bitta bir zanjirli liniya orqali ta‟minlashga ham ruxsat etiladi.

3- toifa iste‟molchilari uchun energiya ta‟minotini bitta liniya orqali amalga oshirish yetarli hisoblanadi. Bunday elektr iste‟molchilari uchun elektr energiyasi bilan ta‟minlashdagi uzilishga ruxsat etiladigan maksimal vaqt davomiyligi 24 soatga teng

Zahira sifatida qo„shimcha liniya yoki transformator podstansiyalariga ega bo„lgan elektr tarmog„i zahiralangan, ega bo„lmagan elektr tarmog„i esa zahiralanmagan elektr tarmog„i deb yuritiladi. 1 va 2- toifa iste‟molchilarini ta‟minlash bo„yicha yuqoridagi talablarga javob beruvchi sxema zahiralangan, 3-toifa iste‟molchilarini ta‟minlash bo„yicha ko„rsatilgan talablarga javob beruvchi sxema esa zahiralanmagan elektr tarmog„i hisoblanadi





1.2-rasm. Elektr tarmoqlarning harakterli bir chiziqli sxemalari (TP – transformatorli podstansiya): a) - ikki tomondan ta‟minlanuvchi elektr tarmog„i, b) - ikki zanjirli magistral elektr uzatish liniyasi, v) - sodda yopiq (xalqasimon) elektr tarmog„i, g) - murakkab yopiq elektr tarmog„i, d) - bir chiziqli sxemalari

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Xodjayev B.** Elektr energetika tizimlari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
2. **Mirzaev A.** Elektr tarmoqlari va elektr stansiyalari. — Toshkent: Toshkent Energetika instituti, 2020.
3. **Rasulov A., Karimov S.** Elektr energetikasi asoslari. — Toshkent: TATU nashriyoti, 2018.
4. **Kunduzov S. M.** Elektr uzatish liniyalari va podstansiyalar: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2017.
5. **Fayziyev N.** Elektr ta’minoti va taqsimlash tizimlari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2021.

6. **Stevenson W. D.** Power System Analysis. — New York: McGraw-Hill Publishing, 2015.
7. **Weedy B. M., Cory B.** Electric Power Systems. — London: Wiley-Blackwell, 2012.
8. **Glover J., Sarma M.** Power System Analysis and Design. — Boston: Cengage Learning, 2018.
9. **IEEE Power & Energy Society.** Texnik standartlar va ilmiy materiallar.
10. **O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi.** Elektr tarmoqlari ekspluatatsiyasi bo‘yicha metodik qo‘llanmalar va hisobotlar (2016–2023-yillar).

YASHIL ARXITEKTURA VA BARQAROR SHAHARSOZLIK: ZAMONAVIY URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA ENERGIYA SAMARADOR YECHIMLAR

Janizaqov Abduvahob Esirgapovich

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishda yashil arxitektura va barqaror shaharsozlik tamoyillarining o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, xususan Abu Ali ibn Sinoning shaharsozlik va mikroiqlimga oid qarashlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi. Yashil binolarning energiya samaradorligi, ekologik barqarorligi va inson salomatligiga ijobiy ta’siri yoritildi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak me’mor va muhandis-quruvchilarni ekologik*

va energiya tejamkor loyihalashga yo‘naltirishda muhim ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *yashil arxitektura, barqaror shaharsozlik, urbanizatsiya, energiya samaradorligi, ekologik dizayn.*

Kirish.

Bugungi kunda dunyo miqyosida urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi shahar muhitining ekologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholi sonining o‘sishi, sanoatlashuv, transport tizimlarining kengayishi natijasida tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, havoning ifloslanishi va yashil hududlarning qisqarishi kuzatilmoqda. Shu sababli shahar va tumanlarni rejalashtirishda ilmiy asoslangan, ekologik barqaror va inson salomatligiga qulay sharoit yaratishga qaratilgan yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shaharsozlikni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish, urbanizatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish va aholining yashash sifatini oshirish masalalari doimiy ravishda ilgari surib kelinmoqda. Bu borada “yashil” arxitektura va barqaror shaharsozlik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida shahar va turar joylarni joylashtirishda mikroiqlim, shamol yo‘nalishi, quyosh nuri va havoning tozaligiga alohida e’tibor qaratgan. Uning qarashlari bugungi zamonaviy yashil arxitektura tamoyillari bilan uyg‘un ekanligini ko‘rish mumkin.

Asosiy qism.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- tarixiy-tahliliy metod (Ibn Sino asarlari va klassik manbalarni o‘rganish);
- normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish (PQ-4477, PQ-436 qarorlari);
- tizimli va kompleks yondashuv orqali yashil arxitektura tamoyillarini o‘rganish;
- taqqoshlama metod asosida xalqaro va milliy tajribani solishtirish;

- ilmiy adabiyotlar va statistik ma’lumotlarni umumlashtirish.

Ushbu metodlar yashil arxitektura va barqaror shaharsozlikning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yashil arxitektura quyidagi asosiy natijalarga erishishni ta’minlaydi:

- binolarning energiya sarfini 20–40 foizgacha kamaytirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish;
- suv resurslarini tejash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish;
- shahar muhitida yashil maydonlar ulushini oshirish;
- inson salomatligi va yashash sifatini yaxshilash.

Aniqlanishicha, binolarda issiqlik izolyatsiyasi, tabiiy yoritish va shamollatish tizimlarining to‘g‘ri loyihalanishi energiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Quyosh panellari, yomg‘ir suvlarini yig‘ish tizimlari va ekologik qurilish materiallaridan foydalanish muhim amaliy natijalar bermoqda.

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha karbonat angidrid chiqindilarining qariyb uchdan bir qismi binolar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa arxitektura va qurilish sohasining ekologik muammolarni hal etishdagi mas’uliyatini oshiradi. Yashil arxitektura faqatgina texnologik yechim emas, balki inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi falsafiy yondashuv sifatida ham qaralishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “yashil iqtisodiyot” strategiyasi doirasida yashil shaharlar, bog‘ va parklar tizimini kengaytirish, energiya samarador binolar qurish muhim vazifalardan biri etib belgilangan. Bu jarayonda me’mor va muhandis-quruvchilarning roli beqiyosdir.

Bugungi kunda dunyoda ijtimoiy xarakterga asoslangan, ekologik va iqtisodiy ustuvorlikka qaratilgan barqaror shaharsozlik deb nomlangan samarador yo‘nalish faol rivojlanmoqda. Uning bosh maqsadi tejamkor shaharsozlik va aqlli arxitekturani uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan.

“Barqaror arxitektura” tushunchasini “ekologik toza, barqaror, aqlli arxitektura” deb tushinish joizdir. Ya’ni uyg‘unlashgan yondashuv orqali makon, materiallar va energiyani optimallashtirishga intiladigan yashil arxitekturadir.

Yashil arxitektura - bu tabiatni, atrof-muhitni va arxitekturani uyg‘unlashtirishga qaratilgan zamonaviy loyihalash tendentsiyasidir. Yashil arxitektura “Barqaror arxitektura”ning insonlar va tabiat o‘rtasida muvozanatni ta'minlash, energiya va suv resurslaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan kontseptsiyadir.

Yashil binolar atrof-muhitga minimal ta'sir ko‘rsatgan holda ularni iloji boricha hayotiy qilish uchun loyihalashtiriladi, quriladi va ta'mirlanadi. Bunda e'tibor tabiiy resurslarni oqilona ishlatish, chiqindilarning atrof-muhitga zararli ta'sirini susaytirish, tabiatga salbiy ta'sir ko’rsatmasdan qurilish uchun kerakli ashyolar bilan ta'minlashga yo’naltiriladi.

Bir qarashda, "Yashil" arxitektura shunchaki integratsiyalashgan tabiiy komponentga ega arxitektura bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo agar biz ushbu kontseptsiyani chuqurroq ko‘rib chiqsak, ham muhandislik, ham arxitektura va landshaft echimlarining o‘zaro uyg‘unlashgan energiya tejamkor va ekologik arxitektura degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Energiya samaradorligi har qanday yashil binoning asosiy komponentidir. Bu omil atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiradigan energiya resurslaridan foydalanishga qaratilgan. Isitish, sovitish va shamollatish odatda binoning eng katta energiya xarajatlari hisoblanadi. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish ularni kamaytirishga yordam beradi. Misol uchun, quyosh panellarini o‘rnatish orqali biz tabiiy quyosh energiyasidan foydalanishimiz mumkin. Sifatli, izolyatsiyalangan derazalardan foydalanish va ularni to‘g‘ri joylashtirish ham bir xil darajada muhimdir, chunki derazalar kunduzgi yorug‘likdan foydalanishni optimillashtirishga imkon beradi elektr yoritgichlar, shu bilan birga salqin havoda quyosh issiqligini oshirishga imkon beradi.

Insonning atrof-muhitning ifloslanish muammosini hal qilishga qodirligi va “Yashil” arxitektura kelajak arxitektura tushunchasi ekanligi endilikda hech kimda shubha tug‘dirmaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yashil arxitektura va barqaror shaharsozlik zamonaviy urbanizatsiya sharoitida ekologik muammolarni hal etishning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu konsepsiya tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va inson salomatligini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Kelajakda yashil arxitektura tamoyillarini keng joriy etish bo‘lajak me’mor va muhandislarning asosiy kasbiy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Ibn Sino A. A.** Tib qonunlari. — Toshkent: Fan, 1993.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son qarori.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2023 yildagi PQ-436-son qarori.
4. **Yeang K.** EcoDesign: A Manual for Ecological Design. — Hoboken: Wiley, 2006.
5. **Rogers R.** Sustainable Architecture. — London: Routledge, 2015.
6. **United Nations.** Sustainable Cities and Communities. — New York, 2020.

GEOLOKATSIYAGA ASOSLANGAN AHOLI MUROJAATLARINI (SVETOFOR, CHIQINDI, DARAXT, GAZ VA INTERNET NOSOZLIKLARI) XUSUSIYATLAR ORQALI TAHLIL QILISH MODELI

Mallayev Oybek Usmankulovich

Alfraganus universiteti

Gazatov Jamoliddin Abduvoidovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi texnika universiteti

Aliyev Jaloliddin Kokand oglu

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi texnika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada geolokatsiyaga ega aholi murojaatlarini (matn, foto/video, hujjat, geolokatsiya) fazoviy-vaqtli xususiyatlar (density, frequency, age, crowd-signal, context, season, evidence) asosida tahlil qilish yondashuvi sifatida taqdim etiladi. Tadqiqotda 5 turdagi real muammolar: (1) svetofor ishlamasligi, (2) chiqindilar vaqtida olib ketilmasligi, (3) daraxtlarning mayib qilinishi, (4) gaz yetishmovchiligi, (5) internet uzilishi ko‘rib chiqildi. Har bir muammo uchun mos xususiyatlar kombinatsiyasi tanlanib, qoidaviy (rule-based) ustuvorlashtirish modeli va klasterlashga asoslangan indikatorlar orqali tezkor-ustuvor murojaatlar ajratildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, crowd-signal va vaqt oynasi bilan boyitilgan fazoviy zichlik indikatorlari tezkor xavfli holatlarni yuqori aniqlikda aniqlaydi, chiqindi va gaz kabi kumulyativ muammolarda esa age, frequency, season xususiyatlari rejalashtirishni sezilarli yaxshilaydi. Ushbu yondashuv smart-city hamda oliy ta’lim infratuzilmalarida servis boshqaruvi uchun universal metod sifatida qo‘llanishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *geolokatsiya, murojaatlar, case-study, hotspot, crowd-signal, rule-based model, smart-city*

Kirish. Aholi murojaatlarini raqamli kanallar orqali qabul qilish kengaygani sari muammolarni tezkor hal qilish uchun “qayerda?”, “qanchalik ko‘p?”, “qachondan beri?” va “qancha odam tasdiqladi?” kabi savollarga ilmiy asoslangan javob berish talab etiladi. An’anaviy matnli yondashuvlar muammoning fazoviy tabiati va jamoaviy tasdiqlanishini yetarli hisobga olmaydi. Shu sababli geolokatsiyadan xususiyatlar ajratib olish va ularni muammo turiga mos kombinatsiyada qo‘llash - boshqaruv samaradorligini oshiruvchi muhim ilmiy yo‘nalishdir.

Mazkur ishning maqsadi: 5 ta amaliy muammo sinfi bo‘yicha geolokatsion xususiyatlar (features)ning qo‘llanish mexanizmini ishlab chiqish va qoidaviy qaror modelini taklif etish.

Asosiy qism. Ma'lumot tuzilmasi. Har bir murojaatning matematik ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$a_i = \langle p_i, t_i, u_i, e_i, c_i \rangle$$

bu yerda $p_i = (lat, lon), t_i$ — vaqt, u_i — foydalanuvchi, e_i — dalil (foto/video/hujjat), c_i — muammo sinfi.

Geolokatsiya murojaatlaridan ajratib olinadigan xususiyatlar quyidagicha amalga oshiriladi:

- Spatial Density: $Density_r(p_i)$ - radius **r** ichidagi murojaatlar soni.
- Frequency: $Freq\Delta t(p_i)$ - vaqt oynasida murojaatlar soni.
- Age/Recency: $Age = t_{now} - t_i$.
- Crowd-signal: $Crowd(p_i)$ - shu hududdan turli foydalanuvchilar soni.
- Context: zona turi (chorraha, turar joy, park, kampus…).
- Season: mavsumiy omil (qish/yoz…).
- Evidence: dalil kuchi (0/1/2).

Geolokatsiya murojaatlaridan ajratib olinadigan xususiyatlar asosida Qoidaviy (rule-based) ustuvorlik modeli ishlab chiqildi. Har bir muammo sinfi uchun "feature kombinatsiyasi" bilan prioritet belgilanadi:

Decision = f(Density, Freq, Age, Crowd, Context, Season, Evidence)

Decision = f(Density, Freq, Age, Crowd, Context, Season, Evidence)

Decision = f(Density, Freq, Age, Crowd, Context, Season, Evidence)

Muammo sinflari uchun qoida parametrlari sifatida quyidagilar tanlandi:

- Svetofor: tezkor xavf → (crowd + density + recency).
- Chiqindi: kumulyativ muammo → (age + frequency + context).
- Daraxt: dalilga bog'liq → (evidence + context + crowd).
- Gaz: mavsumiy kritik → (season + density + crowd + age).
- Internet: qisqa vaqtli uzilish → (time-window + crowd + density).

Natijalar

Svetofor ishlamasligi bo‘yicha murojaatlardan aniqlangan xususiyatlar va erishilgan natijalar quyidagicha:

Qo‘llangan features: Density, Crowd, Age, Time-window, Hotspot Natija: qisqa vaqt ichida ko‘p tasdiqlangan nuqtalar “tezkor xavf” sifatida ajratildi.

Qoidaviy natija misoli, agar 60 daqiqa ichida Crowd ≥ 3 va Density(≤100m) ≥ 3 bo‘lsa → TEZKOR.

Chiqindi vaqtida olib ketilmasligi bo‘yicha qo‘llangan features: Age, Frequency, Context, Season. Natija: 3 kundan oshgan va haftalik takrorlangan nuqtalar “rejalashtirilgan xizmat” uchun ajratildi.

Daraxtlarning qirqilishi bo‘yicha qo‘llangan features: Evidence, Context, Crowd, Accuracy. Natija: foto/video bo‘lgan, park/eko-zonadagi murojaatlar nazoratga tez chiqdi.

Gaz yetishmovchiligi bo‘yicha Qo‘llangan features: Season, Density, Crowd, Age. Natija: qish mavsumida hududiy klasterlash asosida kritik zonalar ajratildi.

Internet ishlamasligi bo‘yicha qo‘llangan features: Crowd, Density, Time-window, Context. Natija: 30–60 daqiqada ko‘p foydalanuvchi tasdiqlagan uzilishlar “operator nosozligi” sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammo sinflari “fazoviy-vaqtli tabiati” bo‘yicha farqlanadi: svetofor va internet — tezkor, chiqindi — kumulyativ, daraxt - dalilga sezgir, gaz - mavsumiy kritik. Shu bois universal bitta metrika o‘rniga, muammo sinfiga mos feature kombinatsiyasi qo‘llanganda boshqaruv qarori ishonchliroq bo‘ladi. Ayniqsa Crowd-signal sohta murojaatlarni kamaytirishga xizmat qiladi, Age + Frequency esa xizmat ko‘rsatish grafigini optimallashtirishga yordam beradi.

Xulosa. 5 turdagi amaliy muammo bo‘yicha tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, geolokatsiyadan ajratib olinadigan xususiyatlar muammo turiga mos tanlansa tezkor xavfli murojaatlar tez ajratiladi, kumulyativ muammolar rejalashtirishga o‘tadi, dalilli murojaatlar nazoratni tezlashtiradi, mavsumiy muammolar prognozga qulay bo‘ladi. Keyingi ishlarda qoidaviy modelni ML bilan gibridlashtirish (rules +

classifier), parametrlarni ma’lumotdan o‘rganish hamda tashkilotlar bo‘yicha avtomatik yo‘naltirishlar tadqiqot qilib ko‘riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Zaynitdinov Kh. N., Koroboev Zh. F., Artikova M. A., Sadullaev S. S.** Problems Electronic Government System in Uzbekistan // Intellect-Info Scientific-Practical Journal. — Tashkent, 2013. — № 3–4. — P. 13–19.
2. **Mallaev O., Gazatov J., Aliyev J.** Algorithm for forming a geo-map of citizen appeals using artificial intelligence // E3S Web of Conferences. — 2025. — Vol. 627. — Art. 04018. — GEOTECH-2025. — DOI: 10.1051/e3sconf/202562704018.
3. **Mallaev O., Azimov B., Muslimjon K., Kamola A.** Algorithm for Digital Processing of Seismic Signals in Distributed Systems // Lecture Notes in Computer Science. — 2023. — Vol. 13741. — P. 586–593.
4. **Batty M., Axhausen K., Giannotti F. et al.** Smart cities of the future // The European Physical Journal Special Topics. — 2012. — Vol. 214, № 1. — P. 481–518.
5. **Goodchild M. F.** Citizens as sensors: the world of volunteer geography // GeoJournal. — 2007. — Vol. 69, № 4. — P. 211–221.
6. **Devlin J., Chang M.-W., Lee K., Toutanova K.** BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding // Proceedings of NAACL-HLT. — 2019.
7. **Weinberger K., Dasgupta A., Langford J., Smola A., Attenberg J.** Feature hashing for large scale multitask learning // Proceedings of ICML. — 2009.
8. **Amershi S., Begel A., Bird C. et al.** Guidelines for Human-AI Interaction // Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction. — 2019. — Vol. 3 (CSCW). — Art. 72.
9. **Mehrabi N., Morstatter F., Saxena N., Lerman K., Galstyan A.** A Survey on Bias and Fairness in Machine Learning // ACM Computing Surveys. — 2021. — Vol. 54, № 6.

10. **Janssen M., Estevez E., Janowski T.** Interoperability in Big, Open, and Linked Data — Organizing Principles for Smart Government // Government Information Quarterly. — 2014. — Vol. 31. — P. S1–S5.

TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA UCH O‘LCHOVLI GRAFIKA DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Musurmankulov Qilichbek Uralovich

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanishning dolzarbligi, pedagogik ahamiyati hamda metodik asoslari yoritilgan. Uch o‘lchovli modellashtirish dasturlarining o‘quv jarayonida qo‘llanilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, fazoviy tafakkurini rivojlantirish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish yo‘llari va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya ta’limi, uch o‘lchovli grafika, 3D modellashtirish, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, kasbiy kompetensiya.*

Kirish

Hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalar jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ham zamonaviy dasturiy vositalardan, xususan uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanish dolzarb masala sanaladi.

Texnologiya fani mazmunan loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish va amaliy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarning texnik va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda 3D texnologiyalarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy talablar

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishni, balki innovatsion va raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olishni ham talab etadi. Texnologiya fani o‘qituvchilari esa ishlab chiqarish, texnika va dizayn bilan bog‘liq bilimlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishi zarur.

Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv reja va dasturlarni zamon talablariga moslashtirish, axborot texnologiyalariga asoslangan fanlarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Uch o‘lchovli grafika dasturlarining ta’limdagi ahamiyati

Uch o‘lchovli grafika dasturlari (AutoCAD, SketchUp, Blender, 3ds Max va boshqalar) real obyektlarning virtual modellarini yaratish, ularni tahlil qilish va

vizual ko‘rinishda namoyish etish imkonini beradi. Ta’lim jarayonida ushbu dasturlardan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- fazoviy tasavvurni rivojlantiradi;
- loyihalash va konstruksiyalash ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi;
- o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini oshiradi.

Texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanish metodikasi

Uch o‘lchovli grafika dasturlarini o‘qitish metodikasi bosqichma-bosqichlik va tizimlilik tamoyillariga asoslanishi lozim. Dastlab talabalar grafik muharrirlarning interfeysi, asosiy buyruqlari va funksiyalari bilan tanishtiriladi. Keyingi bosqichlarda esa murakkab obyektlar yaratish, modellarni tahrirlash va texnik hujjatlar tayyorlash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Mazkur jarayonda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

- amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish;
- loyiha asosida o‘qitish;
- mustaqil va ijodiy topshiriqlar berish;
- fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish.

Metodikani takomillashtirish yo‘llari

Texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

- o‘quv dasturlariga zamonaviy 3D texnologiyalarni keng joriy etish;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish;
- amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlarini ko‘paytirish;

- ta’lim jarayonini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash.

Bu chora-tadbirlar bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda uch o‘lchovli grafika dasturlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq mos keladi. Uch o‘lchovli modellashtirish dasturlari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash va ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. **Azizxo‘jayeva N. N.** Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.
3. **Polat E. S.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Moskva.
4. 3D modellashtirish va kompyuter grafikasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.
5. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llashga oid ilmiy maqolalar.

AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA AVTOMOBILLARNING TEXNIK HOLATINI DIAGNOSTIKA QILISH

Muxammadiyev Umarali Sheraliyevich

Eshimov Sodiq Saydulla o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada avtotransport korxonalarida avtomobillarning texnik holatini diagnostika qilish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari kompleks ravishda tahlil qilinadi. Transport vositalarining texnik holatini o‘z vaqtida va aniq baholash ularning ishonchli ishlashini ta’minlash, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish hamda texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Tadqiqot davomida mexanik, elektron va kompyuter diagnostikasi usullari o‘zaro solishtirilib, ularning aniqlik darajasi, vaqt sarfi va iqtisodiy samaradorligi baholandi. Zamonaviy kompyuter diagnostikasi tizimlari (OBD-II, skanerlar va sensor tizimlari)dan foydalanish nosozliklarni erta aniqlash imkonini berishi, ta’mirlash muddatlarini qisqartirishi va avtoparkning texnik tayyorgarlik koeffitsiyentini oshirishi asoslab berildi. Olingan natijalar avtotransport korxonalarida diagnostika jarayonlarini raqamlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *diagnostika, texnik holat, kompyuter diagnostikasi, sensor tizimlari, texnik xizmat, avtotransport korxonasi.*

Kirish

Avtotransport korxonalarida transport vositalarining texnik holati ularning harakat xavfsizligi, ishonchliligi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi omillardandir. Ekspluatatsiya jarayonida paydo bo‘ladigan yashirin nosozliklar, agarda ular o‘z vaqtida aniqlanmasa, avariyalar, rejadan tashqari ta’mirlash ishlari va katta moliyaviy yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi [1]. Diagnostika jarayoni shuning uchun texnik xizmatning strategik qismiga aylangan.

Zamonaviy avtomobillarda boshqaruv bloklari (EBU), sensor tarmoq tizimlari, telematika va murakkab mexatronik elementlar qo‘llanadi. Bu holat an’anaviy mexanik diagnostika usullarining chegaralarini cheklaydi va **sensorlarni, kompyuter asosidagi skanerlarni hamda raqamli texnologiyalarni jamlagan diagnostika tizimlarini qo‘llashni talab qiladi** [2]. Masalan, OBD-II (On-Board Diagnostics II) tizimi hozirgi kunda standart diagnostika interfeysi sifatida qabul

qilingan bo‘lib, u dvigatel va avtoelektronika holatini real vaqt rejimida kuzatishga imkon beradi [4].

Shuningdek, so‘nggi ishlar avtomobil diagnostikasida *sun’iy intellekt, bulutga ulangan IoT-monitoring*, sensor birikmalarni birlashtirish va *predictive maintenance* yondashuvlari orqali xavfsizlik, aniqlik va samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilganini ko‘rsatmoqda. Masalan, bir tadqiqot OBD ma’lumotlarini IoT va AI bilan birlashtirib, texnik holatni oldindan bashorat qilish imkoniyatini topgan [4]. Shu sababli mexanik, elektron va kompyuter diagnostikasi usullarini integratsiyalash **zamonaviy ilmiy-amaliy vazifa**ga aylanmoqda.

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usullari

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — avtotransport korxonalarida avtomobillarning texnik holatini diagnostika qilish jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy diagnostika usullari va jihozlarining samaradorligini baholash hamda texnik xizmat ko‘rsatish tizimini optimallashtirishdan iborat.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- avtomobil tizimlarining texnik holatini baholashda qo‘llaniladigan diagnostika ko‘rsatkichlarini aniqlash va tasniflash;
- mexanik, elektron va kompyuter diagnostikasi usullarining imkoniyatlarini solishtirish;
- zamonaviy diagnostika vositalari — OBD-II skanerlari, sensor tizimlar, telematik monitoring vositalari va diagnostika stendlari — ning aniqlik darajasi, vaqt samaradorligi va iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish;
- diagnostika jarayonini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayonida turli diagnostika usullari sinovdan o‘tkazildi. An’anaviy mexanik diagnostika tizimlarida qo‘l o‘lchovlari, vizual tekshiruv va funksional sinovlar ishlatilgan bo‘lsa, elektron diagnostika zamonaviy OBD-II interfeysli skanerlar orqali o‘tkazildi. Kompyuter asosidagi diagnostika shuningdek sensor tarmoqlari va real vaqt ma’lumotlarni yig‘ish platformalaridan foydalangan holda bajarildi [3].

Shuningdek, diagnostika jarayonida statistik tahlil, vaqt-xarajat tahlili va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari baholandi. Zamonaviy yondashuvlar shuni ko‘rsatdiki, OBD-II va ularga integratsiyalangan smart sensorlar yordamida texnik holatni aniqlash samaradorligi an’anaviy usullarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, nosozliklarni erta aniqlash va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi [4].

Tadqiqot natijalar

Quyidagi jadvalda avtotransport korxonalarida qo‘llaniladigan uch turdagi diagnostika — mexanik, elektron va kompyuter — turlarining kengaytirilgan samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan. Jadvalda aniqlik darajasi, vaqt sarfi, xizmat narxi, nosozliklarni erta aniqlash darajasi va inson omili bilan birga **qo‘shimcha parametrlar** — texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligi, qo‘llash tavsiyalari va amaliy cheklovlar kiritildi.

Diagnostika turi	**Aniqlik darajasi (%)**	**O‘tkazish vaqti (min)**	**Xizmat narxi (ming so‘m)**	**Nosozlikni erta aniqlash**	**Inson omili**	**Amaliy cheklovlar**
Mexanik	65–70	25–35	20–30	Past	Yuqori	Aniqlik past, yashirin nosozliklarni aniqlash qiyin [4]
Elektron	80–85	15–20	30–40	O‘rtacha	O‘rtacha	Murakkab tizimlarda qisman

						cheklangan, dasturiy yangilanish talab qilinadi [6]
Komputer	92–97	5–10	40–60	Yuqori	Past	Jihoz narxi yuqori, operatorni o‘qitish talab etiladi, dasturiy ta’minot yangilanishi zarur [3]

Mexanik diagnostika oddiy vositalar va texnik o‘lchovlar yordamida amalga oshiriladi. Aniqlik darajasi past bo‘lishiga qaramay, oddiy xizmat ko‘rsatish va vizual tekshiruvlarda qo‘llash mumkin [4]. Shu bilan birga inson omili yuqori bo‘lgani sababli xatolik ehtimoli katta va yashirin nosozliklarni aniqlash qiyin.

Elektron diagnostika sensor tizimlari va avtomobil elektron boshqaruv bloklariga bog‘langan qurilmalar orqali o‘tkaziladi [6]. Aniqlik darajasi mexanik usullarga nisbatan yuqori, vaqt sarfi kamayadi, lekin murakkab tizimlarda to‘liq aniqlikni ta’minlash qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli elektron diagnostikani **oraliq samaradorlik va tezkor tekshiruvlar** uchun tavsiya etiladi.



1-rasm. Elektron diagnostika

Kompyuter diagnostikasi — OBD-II interfeysi, IoT monitoring va sun’iy intellekt yondashuvlari yordamida amalga oshiriladi. Aniqlik darajasi eng yuqori (92–97%), vaqt sarfi minimal va inson omiliga bog‘liqlik kam[3]. Ushbu yondashuv ekspluatatsiya xarajatlarini 10–15% ga, ta’mirlash vaqtini 20–25% ga qisqartiradi. Shuningdek, predictive maintenance orqali nosozliklarni erta aniqlash va avtoparkning uzluksiz ishlashini ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga jihozlar narxi yuqori, operatorni o‘qitish zarur va dasturiy ta’minotning muntazam yangilanishi talab qilinadi.



2-rasm. OBD-II interfeysi

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, **kompyuter diagnostikasi eng samarali usul** bo‘lib, zamonaviy avtotransport korxonalarida asosiy vosita sifatida ishlatilishi maqsadga muvofiq[2]. Mexanik va elektron diagnostika esa **komplementar vositalar** sifatida, oddiy va tezkor tekshiruvlarda qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan

birga, texnik xizmat samaradorligini oshirish va nosozliklarni erta aniqlash uchun, barcha uch diagnostika turi integratsiyalashgan yondashuvda qo‘llanishi tavsiya etiladi[3]. Avtotransport korxonalarida avtomobillarning texnik holatini diagnostika qilish jarayonini takomillashtirish texnik xizmat sifatini oshiradi, nosozliklarning oldini oladi va avtoparkning ishonchli ishlashini ta’minlaydi. Kompyuter diagnostikasi tizimlaridan keng foydalanish texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Raximov B. B.** Avtotransport vositalarining texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tahlil qilish. — Toshkent: TTESI, 2021.
2. Automotive diagnostics: A technical analysis and integrated systems approach // Modern American Journal of Engineering, Technology, and Innovation. — 2025.
3. From reactive to predictive: A synthesis of digital technologies in modern vehicle health monitoring // American Journal of Applied Science and Technology. — 2025.
4. **Xalilova D. B.** Avtomobilni umumiy texnik tekshirish va uning zamonaviy yondashuvlari. — 2025.
5. **Nazirjonov X. A.** Avtomobil elektr va elektron jihozlarini umumiy diagnostika qilish // Journal of New Century Innovations. — 2025.
6. **Xurboyev O. Y.** Avtomobillarning yurish qismlariga texnik xizmat ko‘rsatish va diagnostikasi // Modern Education and Development. — 2025.

ELEKTR O‘TKAZUVCHI UGLEROD TO‘LDIRUVCHILAR ASOSIDA QAVARIQLANUVCHI POLIMER KOMPOZITLAR UCHUN KENGAYTIRILGAN GRAFIT TAYYORLASH VA QO‘LLANILISHI

Ovlayev Jamshid Oktamovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada elektr o‘tkazuvchi uglerod to‘ldiruvchilar asosida qavariqlanuvchi polimer kompozitlar uchun kengaytirilgan grafit tayyorlash. Uglerodli to‘ldiruvchilarning strukturaviy xususiyatlari, ularni polimer matritsaga kiritish texnologik bosqichlari hamda olingan kompozit materiallarning elektr o‘tkazuvchanlik xossalari o‘rganilgan. Tajriba natijalari uglerod to‘ldiruvchilarning bir tekis taqsimlanishi kompozitlarning elektr-fizik xossalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *polimer kompozit, uglerod to‘ldiruvchi, qavariqlanuvchi, elektr o‘tkazuvchanlik, perkolyatsiya, texnologiya.*

Qavariqlanuvchi (intumescent) bo‘yoqlar passiv yong‘in himoyasining eng samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning ishlash tamoyili issiqlik ta’sirida tez kengayib, koks qatlamli o‘siq hosil qilishga tayanadi. Zamonaviy konstruktsiyalarda, ayniqsa po‘lat inshootlar va neft-gaz infratuzilmasida, asosiy mezon po‘lat sirtining 500 °C kritik haroratga yetishini imkon qadar kechiktirish va issiqlik oqimini pasaytirishdir. Shunga muvofiq, polimer kompozit qoplamalar asosidagi qavariqlanuvchi tizimlar adgeziya, kimyoviy barqarorlik va yuqori haroratlarda strukturasaqlanishi bilan ajralib turadi [1].

Adabiyotlarda intumescent kompozit qoplamalar odatda uch funksional blokdan tashkil topadi: kislotali manba (fosforli komponent), uglerod manbai (polimer matritsasi) hamda gaz hosil qiluvchi modda (azot, fosfor va b/sh). Bunday kompozit materillar koks strukturasini zichlashtirib, issiqlik barqarorligini oshirishi qayd etilgan; gaz hosil qiluvchi modda (azot, fosfor va b/sh) qo‘shimchalar esa kengayish kinetikasini jadallashtiradi - natijada kompozit materillarni harorat ta’sirida qavariqlanish strukturada barqaroro koks hosil bo’lishini ta’minlaydi [2].

Toshkent kimyo texnologiy ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimlari tomonidan qavariqlanuvchi polimer kompozitlar uchun kengaytirilgan grafit tayyorlash va qo‘llanilishi o’rganildi. Ushbu ishda qavariqlanuvchi (intumescent) polimer kompozitlarda koks qatlamini mexanik mustahkamlash va issiqlik oqimini pasaytirish maqsadida kengaytirilgan grafit olishning qisqa, amaliy jihatdan qulay yo‘li tadqqi qilindi. Jarayon grafitni oddiy sharoitda kislotalar aralashmasi bilan ishlov berish va oksidlovchilar bilan past haroratda (<10 °C) oksidlash orqali interkalatsiya – oksidatsiya bosqichlaridan iborat bo‘lib, ushbu bosqichlar nazorat ostida aralashtirish va ekzotermik jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Olingan reaksiya mahsulotini neytrallash (pH) va bir necha bosqichli yuvish va quritishdan iborat tadqiqotlardan kiyin kengaytirilgan grafit hosil bo’ladi. Olingan kengaytirilgan grafit tarkibidagi kislotali manbasi va gaz hosil qiluvchilar bilan sinergiya berib, qalinroq, zichroq va mexanik barqaror koks qatlamli to‘siq hosil bo‘lishini ta’minlaydi; natijada issiqlik o‘tkazuvchanlik pasayadi, qavariqlanish samarasi va yong‘inga bardoshlilik ko‘rsatkichlari yaxshilanadi. kengaytirilgan grafitning dispersiyasini yaxshilash qoplamani bir jinsliligi va uzoq muddatli barqarorlikni oshiradi. Qo’yidagi rasmda polimer kompozit qoplamalarni harorat ta’sirida koks qatlam hosil qilish jarayoni aniqlangan.

Zamonaviy elektrotexnika, elektronika va antistatik materiallar ishlab chiqarish sohalarida elektr o‘tkazuvchi, yengil va mexanik jihatdan mustahkam materiallarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, elektr o‘tkazuvchi uglerod to‘ldiruvchilar asosida polimer matritsali kompozit materiallar yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Polimer materiallar yuqori dielektrik xossaga ega bo‘lib, ularning tabiiy elektr o‘tkazuvchanligi past hisoblanadi. Elektr o‘tkazuvchi uglerod to‘ldiruvchilarni polimer matritsaga kiritish orqali ushbu kamchilikni bartaraf etish mumkin. Biroq mavjud texnologiyalarda to‘ldiruvchilarning notekis taqsimlanishi va yuqori perkolyatsiya chegarasi muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur ishda elektr o‘tkazuvchi uglerod to‘ldiruvchilar asosida polimer kompozit materiallar olish texnologiyasini takomillashtirish maqsad qilib olindi.

Tadqiqot obyektlari va metodlari

Tadqiqot obyektlari sifatida:



1-rasim 500 C^0 oldin



2-rasim xarorat 500-C^0 chiqqan vaqt



3-rasm tayyor maxsulot

Rasmda kengaytirilgan grafit asosidagi qavariqlanuvchi (intumescent) polimer kompozit

qoplamaning yuqori harorat ta’sirida koks qatlam hosil qilishi jarayoni ko‘rsatilgan. Harorat

berilganda qoplama tez kengayib, ko‘p qavatli g‘ovak, ammo zich koks strukturasini hosil qiladi.

Ushbu koks qatlam issiqlik oqimini sezilarli darajada kamaytirib, po‘lat sirtining kritik 500 °C

haroratga yetishini kechiktiradi. Mazkur ishda koks qatlam hosil qilish uchun kengaytirilgan grafit olingan va uni akrel emulsiya asosidagi qavariqlanuvchi polimer kompozitlarini koks hosil qilishi ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Akril emulsiyasi asosidagi qavariqlanuvchi polimer kompozit tarkibiga kengaytirilgan grafit qo‘shilganda, koks hosil bo‘lish samaradorligi ortishi aniqlangan bo’lib kengaytirilgan grafit termik harorat ta’sirida tez kengayib, ko‘p qavatli struktura hosil qiladi; bu qatlam intumescent koks strukturasini mexanik jihatdan mustahkamlaydi va qavariq qatlamning mustahkamligini oshiradi.

Rasm 1. Uglerod asosidagi elektr o‘tkazuvchi to‘ldiruvchining umumiy ko‘rinishi.
(Uglerodli to‘ldiruvchining g‘ovakli va aglomeratsiyalangan struktura hosil qilishi kuzatiladi.)

Rasm 2. Uglerodli materialning yuqori harorat ta’sirida elektr o‘tkazuvchanligini tekshirish jarayoni. (Rasmda uglerod namunasi ochiq alangada qizdirilganda elektr o‘tkazuvchanlik xususiyatlarini saqlab qolishi ko‘rinadi.)

Rasm 3. Uglerod to‘ldiruvchining maydalangan va strukturalangan holati. (To‘ldiruvchining rivojlangan sirtga ega ekanligi perkolyatsiya tarmog‘i hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.)

Natijalar va muhokama

Tajriba jarayonida uglerod to‘ldiruvchilarning polimer matritsada taqsimlanish darajasi kompozit materiallarning elektr o‘tkazuvchanligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Uglerod to‘ldiruvchilar g‘ovakli va rivojlangan sirtga ega bo‘lgani sababli, past konsentratsiyalarda ham elektr o‘tkazuvchi tarmoq hosil qilish imkonini beradi.

Yuqori harorat ta’sirida o‘tkazilgan sinovlar uglerod to‘ldiruvchilarning termal barqarorligini tasdiqladi. Bu holat kompozit materiallarni yuqori harorat sharoitida ishlatish imkoniyatini kengaytiradi.

Takomillashtirilgan texnologiya asosida olingan kompozit materiallarda:Elektr o‘tkazuvchan- likning oshishi, perkolyatsiya chegarasining pasayishi strukturaviy barqarorlikning yaxshilanishi kuzatildi.

Xulosa

1. Elektr o‘tkazuvchi uglerod to‘ldiruvchilar polimer matritsali kompozit materiallar uchun samarali funksional komponent ekanligi aniqlandi.
2. Uglerod to‘ldiruvchilarning bir tekis taqsimlanishi elektr o‘tkazuvchanlikni sezilarli darajada oshiradi.
3. Takomillashtirilgan texnologiya asosida olingan kompozit materiallar elektrotexnika va antistatik sohalarda qo‘llash uchun istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Medentsev N. V., Nurkulov F. N.** Issledovaniye ognestoykikh pokrytiy, ispolzuyemykh dlya zashchity metallicheskikh konstruktsiy // Scientific review of the problems and prospects of modern science and education: 4th international scientific and practical conference. – Canada, 2025. – B. 24–26.
2. **Medentsev N. V., Nurkulov F., Jalilov A.** Olovbardosh qavariqlanuvchi akril sopolimerlarni elektron mikroskop va element analizlari asosida tadqiq etish // Uzbekistan–Japan international conference on energy–earth–environment–engineering. – Toshkent, 2023. – B. 139.
3. **Taherian R., Kausar A.** Electrical Conductivity in Polymer-Based Composites. – Elsevier, 2018.
4. **Djalilov A. T., Ovlayev J. O.** Kengaytirilgan grafit asosida qavariqlanuvchi polimer kompozit qoplamalarning koks qatlam hosil qilish jarayonini tadqiq etish // Международная научно-техническая конференция. – Toshkent, 2025.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA GEOLOGIK MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada geologik ma'lumotlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda seysmik yozuvlar, quduq ma'lumotlari, geokimyoviy va masofadan zondlash ma'lumotlarini qayta ishlashda mashinali o'rganish va chuqur o'rganish algoritmlarining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt yordamida murakkab geologik tuzilmalarni aniqlash, foydali qazilma konlarini bashoratlash, seysmik xavflarni baholash hamda geologik xaritalash jarayonlarini avtomatlashtirish mumkinligi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Natijalar an'anaviy tahlil usullari bilan solishtiriladi va SI texnologiyalarining ustun jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, geologik ma'lumotlar, mashinali o'rganish, seysmik tahlil, raqamli geologiya.*

Kirish. Zamonaviy geologiya fanida katta hajmdagi ma'lumotlar tez sur'atlar bilan ortib bormoqda. Seysmik tadqiqotlar, quduq ma'lumotlari, geokimyoviy tahlillar va sun'iy yo'ldosh tasvirlari natijasida hosil bo'ladigan ma'lumotlar an'anaviy usullar bilan to'liq va tez tahlil qilishni qiyinlashtirmoqda. Shu sababli geologiyada raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlar keng joriy etilmoqda.

Asosiy qism. So'nggi o'n yilliklarda geologiya fanida ma'lumotlar hajmi keskin oshdi. Seysmik tadqiqotlar, quduq ma'lumotlari, geokimyoviy tahlillar, masofadan zondlash, dron va sun'iy yo'ldosh texnologiyalari orqali olinayotgan ma'lumotlar petabayt darajasiga yetmoqda. Bunday katta hajmdagi va murakkab tuzilmadagi ma'lumotlarni an'anaviy usullar bilan tahlil qilish ko'p vaqt va resurs talab qiladi hamda inson omiliga bog'liq xatolar ehtimolini oshiradi.

Zamonaviy geologiya-qidiruv ishlari foydali qazilmalarni qidirish samaradorligini pasaytiradigan bir qator jiddiy cheklovlarga duch kelmoqda. Asosiy muammolardan biri dala tadqiqotlarining yuqori narxi va davomiyligi bo‘lib qolmoqda. Ekspeditsiyalarni tashkil etish, burg‘ilash ishlari, namunalar olish va ularni tahlil qilish nafaqat katta mablag‘ni, balki vaqtni ham talab qiladi. Shu bilan birga, hatto puxta rejalashtirilgan loyihalar ham ko‘pincha resurs bazasi to‘g‘risida kutilgan ma’lumotlarni keltirmasdan samarasiz tugaydi.

Shu sababli geologiyada “raqamli geologiya”, “aqlli geologiya” kabi tushunchalar shakllanmoqda. Ularning markazida sun’iy intellekt (SI) va mashinali o‘rganish texnologiyalari turadi. SI geologik jarayonlarni chuqurroq tushunish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash, bashorat qilish aniqligini oshirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy konchilik, neft-gaz qidiruvi, suv resurslarini boshqarish va ekologik monitoringda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

An’anaviy qidiruv usullari ko‘p jihatdan cheklangan geologik modellar va ekspert farazlari to‘plamiga tayanishi ham vaziyatni murakkablashtiradi. Bu esa natijalarni oldindan aytishni kamaytiradi. Ma’lumotlarni talqin qilishdagi xatolar, geologik xavflarni yetarlicha baholamaslik yoki burg‘ilash uchun noto‘g‘ri tanlangan maydonlar vaqt va mablag‘ yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Qarorlarning aniqligi va asoslanganligiga talab ortib borayotgan sharoitda bunday usullar yetarli darajada ishonchli emas.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi geologik markazlari va kompaniyalari seysmik tahlil, quduq ma’lumotlarini talqin qilish, foydali qazilma qidiruvi va tabiiy xavflarni baholashda sun’iy intellektdan faol foydalanmoqda. Bu esa geolog mutaxassislaridan yangi raqamli ko‘nikmalarni talab qilmoqda.

Sun’iy intellekt asosida geologik ma’lumotlarni tahlil qilish zamonaviy geologiya fanining eng muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda geologik tadqiqotlarda hosil bo‘layotgan ma’lumotlar hajmi keskin ortib bormoqda. Seysmik tadqiqotlar, geokimyoviy tahlillar, masofadan zondlash, dron va sun’iy yo‘ldosh texnologiyalari natijasida juda katta hajmdagi murakkab

ma’lumotlar yig‘ilmoqda. Bunday ma’lumotlarni an’anaviy usullar bilan qayta ishlash ko‘p vaqt, katta moliyaviy xarajat va yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Bundan tashqari, inson omiliga bog‘liq xatolik ehtimoli ham doimo mavjud bo‘ladi. Shu sababli geologiyada raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt va mashinali o‘rganish usullariga bo‘lgan ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda.

Borish qiyin bo‘lgan hududlarga kirishning cheklanganligi qo‘shimcha to‘siqqa aylanmoqda. Istiqbolli konlar tobora ko‘proq iqlim sharoiti og‘ir, relyefi murakkab yoki infratuzilmasi bo‘lmagan hududlarda topilmoqda. Bunday joylarda ishlash alohida tayyorgarlikni, katta logistika xarajatlarini talab qiladi va ko‘pincha xodimlar salomatligi va atrof-muhit uchun xavf tug‘diradi. Ba’zi hollarda klassik izlanishlarni o‘tkazish umuman mumkin bo‘lmay qoladi.

Bu omillarning barchasi sohaga bosimni kuchaytiradi va yangi, yanada samarali yondashuvlarga bo‘lgan talabni yaqqol ko‘rsatadi. Aynan shu nuqtada sun’iy intellekt degan javob tobora ko‘proq yangramoqda.

Geologik ma’lumotlar o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular turli shakl va formatlarda bo‘lishi mumkin: seysmik signallar, grafik va jadvallar, tasvirlar, spektral ma’lumotlar, vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlar va boshqalar. Ko‘pincha bu ma’lumotlar shovqinli, yetishmaydigan qiymatlarga ega va turli manbalardan olinganligi sababli bir-biriga mos kelmaydigan holatda bo‘ladi. Shuning uchun sun’iy intellektdan foydalanishdan oldin ma’lumotlarni tozalash, tartibga solish, normalizatsiya qilish, shovqinni kamaytirish, yetishmaydigan qiymatlarni tiklash va muhim belgilarni ajratib olish muhim bosqich hisoblanadi. To‘g‘ri tayyorlanmagan ma’lumotlar asosida qurilgan model noto‘g‘ri yoki ishonchsiz natija berishi mumkin, bu esa ilmiy xulosalarning noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

Sun’iy intellekt geologiya-qidiruv ishlari uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar ochib, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash va ilgari mutaxassislar e’tiboridan chetda qolgan qonuniyatlarni topish imkonini beradi. Sun’iy intellektni qo‘llash, ayniqsa, klassik usullar o‘z samaradorligini yo‘qotayotgan joylarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sun’iy intellekt tushunchasi kompyuter tizimlariga inson aqliga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va qaror qabul qilish qobiliyatini berishga qaratilgan texnologiyalar majmuasini anglatadi. Mashinali o‘rganish sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u algoritmlarga aniq qoidalarni berish o‘rniga, ularni ma’lumotlar asosida o‘rganishga imkon yaratadi. Geologiyada mashinali o‘rganishning nazoratli va nazoratsiz turlari keng qo‘llaniladi. Nazoratli o‘rganishda model oldindan belgilangan javoblarga ega bo‘lgan ma’lumotlar asosida o‘qitiladi va keyinchalik yangi ma’lumotlar uchun bashorat qiladi. Nazoratsiz o‘rganishda esa algoritm ma’lumotlarni o‘xshashliklariga qarab guruhlaydi va yashirin tuzilmalarni aniqlaydi, bu esa ilgari noma’lum bo‘lgan qonuniyatlarni ochishga yordam beradi.


Asosiy sohalardan biri geofizik va geokimyoviy ma’lumotlarni qayta ishlashdir. Bunday ma’lumotlar katta hajmda to‘planadi, ammo tarqoqligi va murakkabligi tufayli ularni talqin qilish uchun katta kuch talab etiladi. Mashinali o‘qitish algoritmlari turli parametrlar - masalan, magnit qabul qiluvchanlik, jinslarning zichligi va elementlar konsentratsiyasi o‘rtasidagi yashirin bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Bu anomaliyalarni ajratishni tezlashtiradi va dastlabki baholashning aniqligini oshiradi.

Sun’iy intellekt geologiyada turli yo‘nalishlarda samarali qo‘llanilmoqda. Foydali qazilma konlarini qidirishda geokimyoviy, geofizik va masofadan zondlash ma’lumotlari birgalikda tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt algoritmlari bu ma’lumotlar orasidagi murakkab bog‘liqliklarni aniqlab, kon mavjud bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan hududlarni belgilab beradi. Natijada qidiruv ishlari aniqroq rejalashtiriladi, keraksiz qazish ishlari kamayadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Ba’zi tadqiqotlarda sun’iy intellekt asosida qurilgan modellar an’anaviy geologik interpretatsiyaga nisbatan konni topish ehtimolini o‘nlab foizlarga oshirgani ko‘rsatilgan.

Seysmik tadqiqotlarda ham sun’iy intellekt katta ahamiyatga ega. Chuqur o‘rganish asosidagi neyron tarmoqlar seysmik signallardan foydali to‘lqinlarni avtomatik aniqlab, shovqinlardan ajrata oladi. Bundan tashqari, zilzila xavfini

baholashda tarixiy seysmik ma’lumotlar asosida modellar tuzilib, kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan kuchli zilzilalar ehtimoli baholanadi. Bu esa aholini ogohlantirish, xavfli hududlarni rejalashtirish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rishda muhim ahamiyatga ega. Real vaqt rejimida ishlaydigan sun’iy intellekt tizimlari zilzila boshlanishining dastlabki soniyalarida xavfli hududlarni aniqlab, avtomatik ogohlantirish berish imkonini ham yaratmoqda.

Yana bir istiqbolli yo‘nalish - konlarni modellashtirish va mineral resurslarni bashorat qilish. Algoritmlar konlar bo‘yicha tarixiy ma’lumotlarni tahlil qilish, hududning geologik tuzilishini, tog‘ jinslarining xususiyatlarini, geofizik signallarni va quduqlarning ekspluatatsion parametrlarini hisobga olish imkoniyatiga ega. Ushbu ma’lumotlar asosida sun’iy intellekt uch o‘lchovli modellarni yaratadi va resurslar mavjudligi ehtimoli yuqori bo‘lgan yangi hududlarni bashorat qilishga yordam beradi.



1-rasm. Geologik razvedkada sun’iy intellekt

(ma’lumotlarni qayta ishlashdan resurslarni prognozlashgacha)

Masofadan zondlash ma’lumotlarini tahlil qilishda ham sun’iy intellektning o‘rni beqiyosdir. Sun’iy yo‘ldosh va dronlar orqali olingan tasvirlar asosida yer

yuzasi relyefi, o‘simlik qoplami, tuproq holati, suv havzalari va ekologik jarayonlar kuzatiladi. Konvolyutsion neyron tarmoqlar bu tasvirlardan jins turlarini, yoriqlarni, tektonik tuzilmalarni va degradatsiyaga uchragan hududlarni avtomatik aniqlay oladi. Bu esa geologik xaritalash va ekologik monitoring jarayonlarini bir necha baravar tezlashtiradi. Avval oylar davom etgan xaritalash ishlari hozirda bir necha kun yoki hatto soatlar ichida bajarilishi mumkin.

Quduq ma’lumotlarini tahlil qilishda ham mashinali o‘rganish algoritmlari keng qo‘llanilmoqda. Quduqdan olingan fizik va kimyoviy ko‘rsatkichlar asosida jins turlari, g‘ovaklik darajasi, suyuqlik bilan to‘yinganlik holati aniqlanadi. Oldin bu ishlar ko‘p vaqt talab qilgan bo‘lsa, hozirda sun’iy intellekt yordamida avtomatik ravishda bajarilmoqda. Bu neft-gaz sanoatida qazish jarayonlarini samarali boshqarish, xavfsizlikni oshirish va iqtisodiy foydani ko‘paytirish imkonini bermoqda.

Sun’iy intellektning afzalliklari juda ko‘p. U katta hajmdagi ma’lumotlarni juda tez tahlil qiladi, inson sezmaydigan mayda bog‘liqliklarni aniqlay oladi, bashorat qilish aniqligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi. Biroq bu texnologiyaning muammoli tomonlari ham mavjud. Eng katta muammolardan biri sifatli va yetarli miqdordagi ma’lumotlarning yetishmasligidir. Ba’zi hududlarda tarixiy ma’lumotlar kam yoki tartibsiz saqlangan bo‘lib, bu sun’iy intellekt modellarini o‘qitishni qiyinlashtiradi.

Yana bir muhim muammo – sun’iy intellekt modellarining izohlanishi masalasidir. Ba’zi modellar, ayniqsa chuqur neyron tarmoqlar “qora quti” sifatida ishlaydi, ya’ni ular qanday qarorga kelganini tushuntirish qiyin. Bu esa ilmiy asoslash va amaliy qaror qabul qilishda muayyan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli so‘nggi yillarda izohlanadigan sun’iy intellekt (Explainable AI) yo‘nalishi rivojlanib, geologiyada ham qo‘llanila boshladi.

Sun’iy intellektdan foydalanishda etik va xavfsizlik masalalari ham muhim ahamiyatga ega. Natijalarga ko‘r-ko‘rona ishonib, inson nazoratini butunlay chetga surish katta xatoliklarga olib kelishi mumkin. Noto‘g‘ri tuzilgan model iqtisodiy zarar, ekologik muammolar va ijtimoiy oqibatlarga sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Shu bois sun’iy intellektdan foydalanishda inson nazorati, tekshiruv va ilmiy mas’uliyat doimo saqlanishi lozim.

Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida foydali qazilmalar, seysmik faol zonalar va ekologik muammolar mavjud. Bu hududda sun’iy intellektdan foydalanish geologik izlanishlar samaradorligini keskin oshirishi mumkin. Masalan, tog‘-kon hududlarida sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va geokimyoviy ma’lumotlar asosida kon topish ehtimoli yuqori bo‘lgan zonalarni aniqlash mumkin. Shuningdek, zilzila xavfi mavjud hududlarda real vaqt monitoring tizimlari joriy etilishi aholi xavfsizligini oshiradi.

Kelajakda sun’iy intellekt geologiyaning barcha sohalariga yanada chuqur kirib boradi. Raqamli konlar, aqlli quduqlar, real vaqt rejimida monitoring tizimlari, avtomatik geologik xaritalash va xavflarni baholash tizimlari keng joriy etiladi. Sun’iy intellekt dronlar, IoT qurilmalari, bulutli hisoblash va Big Data texnologiyalari bilan birlashib, geologik tadqiqotlarni butunlay yangi bosqichga olib chiqadi. Bu jarayonda geolog mutaxassislarining roli ham o‘zgaradi: ular nafaqat jinslarni tahlil qiluvchi olim, balki ma’lumotlar bilan ishlovchi raqamli mutaxassisga aylanadi.

Geologiya-qidiruv ishlarida sun’iy intellektni qo‘llashdagi hayratlanarli yutuqlarga qaramay, texnologiya hali ham e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan bir qator cheklovlarga duch kelmoqda. Asosiy muammolardan biri tor ixtisoslashgan geologik ssenariylar uchun o‘quv ma’lumotlarining cheklanganligidir. Mashinali o‘rganish algoritmlari yaxshi belgilangan ma’lumotlar massivlarini talab qiladi, ammo haqiqatda ko‘plab maydonlar mavjud ma’lumotlar to‘plamlarida o‘xshashi bo‘lmagan noyob tuzilishga ega. Bu murakkab yoki kam o‘rganilgan hududlarda bashoratlarning aniqligini pasaytiradi.

Sun’iy intellekt geologiya-qidiruv ishlarida samaradorlikni oshirishning kuchli vositasi sifatida allaqachon o‘z qiymatini isbotlagan. U ma’lumotlarni tezroq qayta ishlashga, qonuniyatlarni aniqroq aniqlashga va qaror qabul qilishda xavflarni kamaytirishga yordam beradi. Biroq, shuni tushunish muhimki, sun’iy intellekt kasbiy mulohazani almashtirish emas, balki uni kuchaytirishdir. Texnologiyalar

mutaxassislarning tajribasi va intuitsiyasi bilan bog‘liq holda ishlaganda haqiqiy samaradorlikka erishiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektning to‘liq integratsiyasi uchun, ayniqsa, kam o‘rganilgan hududlarda ochiq va ishonchli ma’lumotlar infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Sifatli geologik arxivlarga keng yo‘l ochilmasa, algoritmlarning imkoniyatlari cheklanishi muqarrar. Shuningdek, sun’iy intellektning qo‘llanilish chegaralarini yaxshiroq tushunish va uni geologiya-qidiruv ishlarida qo‘llash uchun axloqiy, huquqiy va texnologik asoslarni ishlab chiqish uchun ko‘proq amaliy va fundamental tadqiqotlar talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosida geologik ma’lumotlarni tahlil qilish zamonaviy geologiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu yondashuv yordamida katta hajmdagi va murakkab ma’lumotlar tez va aniq qayta ishlanadi, foydali qazilma konlarini aniqlash, seysmik xavflarni baholash va ekologik monitoring samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu sababli sun’iy intellekt geologiya fanining kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

Sun’iy intellekt murakkab ma’lumotlar ichidan yashirin qonuniyatlarni aniqlash, tezkor bashorat qilish va qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirish imkonini beradi. Bu esa geologik tadqiqotlarning aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Goodfellow I.**, **Bengio Y.**, **Courville A.** Deep Learning. — Cambridge: **MIT Press**, 2016.
2. **Bishop C.** Pattern Recognition and Machine Learning. — Berlin: **Springer**, 2006.
3. **Cracknell M.**, **Reading A.** Geological mapping using remote sensing and AI. — London: **Geological Society**, 2014.
4. **Zhang J.**, **Ma X.** Machine Learning in Seismic Interpretation. — Amsterdam: **Elsevier**, 2020.
5. **Abdukarimov A.** Geologiyada raqamli texnologiyalar. — Toshkent, 2021.

6. **Li S.**, **Zhang L.** Artificial Intelligence for Earth Sciences. — Berlin: **Springer**, 2022.
7. **Karimov O.** Geologik ma’lumotlarni tahlil qilish asoslari. — Toshkent, 2019.

XONDIZA POLIMETALL RUDALARIDAN OLINADIGAN RUX KONSENTRATLARI TARKIBIDAGI QO‘RG‘OSHIN MIQDORINI KAMAYTIRISHNING TEXNOLOGIK USULLARINI ILMIY TADQIQ ETISH

Xakimov Kamol Jurayevich
Abdisoatov Sardor Zulfiqor o‘g‘li
Yormatov Dostonbek Ashurmamat o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy ishda Xondiza polimetall rudalaridan olinadigan rux konsentratlari tarkibidagi qo‘rg‘oshin miqdorini kamaytirish masalalari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida rux va qo‘rg‘oshin minerallarining mineralogik xususiyatlari, ularning flotatsiya jarayonidagi xulq-atvori hamda selektiv ajralishiga ta’sir etuvchi texnologik omillar o‘rganildi. Flotatsiya muhitining pH ko‘rsatkichini boshqarish, qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlardan foydalanish va bosqichma-bosqich flotatsiya sxemasini qo‘llash orqali rux konsentratidagi qo‘rg‘oshin miqdorini me’yoriy darajagacha kamaytirish imkoniyati aniqlandi. Olingan natijalar taklif etilgan texnologik yechimlarning samaradorligini tasdiqlaydi va ularni sanoat sharoitida qo‘llash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Xondiza koni, rux konsentrati, qo‘rg‘oshin, flotatsiya, selektiv ajratish, polimetall ruda.*

Kirish. Rangli metallurgiya sanoatida polimetall rudalarni kompleks va samarali qayta ishlash muhim ilmiy-texnik vazifalardan biri hisoblanadi. Xondiza koni rux, mis va qo‘rg‘oshin kabi rangli metallar bilan bir qatorda nodir elementlarga boy bo‘lgan polimetall rudalari bilan ajralib turadi. Biroq ushbu rudalarning murakkab mineralogik tuzilishi boyitish jarayonida rux konsentratlari tarkibida qo‘rg‘oshin miqdorining ortib ketishiga sabab bo‘ladi.

Rux konsentratida qo‘rg‘oshinning yuqori miqdorda bo‘lishi metallurgik qayta ishlash jarayonida salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli rux konsentratlarida qo‘rg‘oshin miqdorini kamaytirishning samarali texnologik usullarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va mineralogik xususiyatlari

Tadqiqot obyekti sifatida Xondiza konidan olingan rux–mis–qo‘rg‘oshin tarkibli polimetall ruda namunalari tanlandi. Ruda tarkibidagi asosiy foydali minerallar sfalerit (ZnS), galenit (PbS) va xalkopirit ($CuFeS_2$) hisoblanadi.

Mineralogik tahlillar natijalari rux minerallarining ko‘pincha galenit bilan yaqin bog‘langan holatda uchrashini ko‘rsatdi. Bu holat flotatsiya jarayonida qo‘rg‘oshinning rux konsentratiga o‘tishiga sabab bo‘ladi.

Xondiza polimetall rudalaridagi asosiy minerallarning tarkibi va foiz ko‘rsatkichlari

Jadval 1

Mineral nomi	**Kimyoviy formula**	**Ruda tarkibidagi miqdori (%)**	**Izoh**
Sfalerit	ZnS	6,5–8,0	Ruxning asosiy manbai
Galenit	PbS	4,0–5,5	Qo‘rg‘oshin manbai
Xalkopirit	$CuFeS_2$	3,0–4,0	Yo‘ldosh mineral

Kvarts	SiO_2	12,0–15,0	Gang minerali
Karbonatlar	$CaCO_3$, $MgCO_3$	6,0–8,0	Gang minerali
Silikatlar	–	5,0–7,0	Gang minerali
Boshqa minerallar	–	50,0–55,0	Mayda tarqalgan komponentlar

Rux va qo‘rg‘oshin minerallarining flotatsiya jarayonidagi ajralish xususiyatlari

Flotatsiya jarayonida sfalerit faollashtiruvchi reagentlar ishtirokida yuqori flotatsiya qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, galenitning tabiiy flotatsiya faolligi yuqori bo‘lgani sababli selektiv ajratish qiyinlashadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, flotatsiya muhitining pH ko‘rsatkichini ishqoriy sohada ushlab turish galenit flotatsiya faolligini pasaytiradi, sfalerit esa barqaror flotatsiyalanadi.

Qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlarning flotatsiya jarayoniga ta’siri

Jadval 2

Reagent nomi	**Sarf miqdori (g/t)**	**Ta’sir mexanizmi**	**Natija**
Natriy sulfid	80–120	Galenit yuzasini passivlaydi	Pb flotatsiyasi kamayadi
Sink sulfat	150–250	Qo‘rg‘oshin faolligini bostiradi	Selektivlik oshadi
Ohak	500–800	pH ni oshiradi	Galenit faolligi pasayadi

Rux konsentratida qo‘rg‘oshin miqdorini kamaytirishning texnologik yechimlari

Rux konsentratlarida qo‘rg‘oshinni kamaytirish uchun maydalash, yanchish va flotatsiya jarayonlari optimal rejimda olib borilishi lozim. Qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlardan kompleks foydalanish selektivlikni oshiradi.

Bosqichma-bosqich flotatsiya sxemasini joriy etish orqali rux konsentratidagi qo‘rg‘oshin qoldiq miqdorini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Taklif etilgan texnologik rejimning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Jadval 3

Ko‘rsatkich nomi	**An’anaviy flotatsiya**	**Takomillashtirilgan flotatsiya**
Rux ajralishi (%)	82	91
Qo‘rg‘oshin miqdori (%)	2,3	0,4
Selektivlik darajasi	O‘rtacha	Yuqori
Texnologik samaradorlik	Past	Yuqori

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar Xondiza polimetall rudalaridan olinadigan rux konsentratlari tarkibidagi qo‘rg‘oshinni kamaytirish texnologik jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatdi. Rux va qo‘rg‘oshin minerallarining mineralogik bog‘langanligi flotatsiya jarayonida selektiv ajratishni murakkablashtirishi aniqlandi.

Flotatsiya muhitining pH ko‘rsatkichini ishqoriy sohada boshqarish hamda qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlardan kompleks foydalanish galenit flotatsiya faolligini pasaytirib, sfaleritning ustuvor ajralishini ta’minladi. Bosqichma-bosqich flotatsiya sxemasini qo‘llash orqali rux konsentratidagi qo‘rg‘oshin miqdori 2,0 % dan 0,4 % gacha kamaytirildi.

Taklif etilgan texnologik yechimlar rux konsentratlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi va ularni sanoat sharoitida qo‘llash uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Азизов Т. М., Каримов Ш. К.** Rangli metall rudalarini flotatsiya yo‘li bilan boyitish texnologiyasi. — Toshkent: Fan, 2018.
2. **Гришин А. А., Смирнов Ю. Н.** Современные методы снижения содержания свинца в цинковых концентратах // Металлургия. — 2019. — № 3. — С. 41–48.
3. **Шарипов Д. Х.** Технологические процессы переработки полиметаллических руд Узбекистана. — Ташкент: Институт горного дела, 2020.
4. **Finch J. A., Dobby G. S.** Froth Flotation: A Century of Innovation. — Colorado: SME, 1990.
5. **Wills B. A., Napier-Munn T. J.** Wills’ Mineral Processing Technology. — Oxford: Butterworth-Heinemann, 2006.
6. **Goncharov V. S.** Selective flotation and impurity reduction in zinc concentrates // Mining Industry Journal. — 2017. — № 5. — P. 33–39.
7. **Saidov Sh. R., Mirzaev F. B.** Metallurgik xomashyolarni kompleks qayta ishlash asoslari. — Toshkent: Universitet, 2015.

XONDIZA POLIMETALL RUDALARIDAN OLINGAN MIS KONSENTRATLARIDA QO‘RG‘OSHIN MIQDORINI KAMAYTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

Xakimov Kamol Jurayevich

Sardor Abdisoatov Zulfiqor o‘g‘li

Bekzod Soatov Shokir o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xondiza koni polimetall rudalaridan olinadigan mis konsentratlari tarkibidagi qo‘rg‘oshin miqdorini kamaytirishning texnologik usullari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Ruda mineralogik tarkibi, flotatsiya jarayonining asosiy omillari hamda qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlarning ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, flotatsiya muhitini optimallashtirish va bosqichma-bosqich flotatsiya qo‘llash orqali mis konsentratidagi qo‘rg‘oshin miqdorini 5%dan past darajaga tushirish imkoniyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xondiza koni, polimetall ruda, mis konsentrati, qo‘rg‘oshin, flotatsiya, selektiv ajratish.*

Kirish. Rangli metallurgiya sanoatida polimetall rudalarni kompleks qayta ishlash muhim ilmiy-texnik masalalardan biri hisoblanadi. Xondiza koni mis, rux, qo‘rg‘oshin hamda nodir metallarni o‘z ichiga olgan istiqbolli polimetall xomashyo manbai bo‘lib, uni samarali qayta ishlash sanoat uchun katta ahamiyatga ega. Biroq rudaning murakkab mineralogik tarkibi mis konsentratlari tarkibida qo‘rg‘oshin miqdorining ortib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Mis konsentratidagi yuqori miqdordagi qo‘rg‘oshin keyingi metallurgik qayta ishlash bosqichlarida texnologik muammolarni keltirib chiqaradi, energiya va reagentlar sarfini oshiradi hamda tayyor mahsulot sifatini pasaytiradi. Shu sababli mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdorini ilmiy asoslangan texnologik usullar orqali kamaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va Xondiza polimetall rudalarining mineralogik xususiyatlari

Xondiza koni polimetall rudalari murakkab mineralogik va strukturaviy xususiyatlarga ega bo‘lib, foydali komponentlarning o‘zaro zich bog‘langanligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, rudaning asosiy foydali minerallari xalkopirit ($CuFeS_2$), galenit (PbS) va sfalerit (ZnS)dan iborat bo‘lib, ular

ko‘pincha bir xil donalar tarkibida yoki zich paragenetik bog‘langan holatda uchraydi.

Mineralogik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, galenit donachalarining katta qismi xalkopirit bilan birgalikda mayda va o‘rta donador fraksiyalarda joylashgan. Bu holat yanchish jarayonida minerallarning to‘liq ochilishini murakkablashtiradi hamda flotatsiya jarayonida qo‘rg‘oshinning mis konsentratiga o‘tish ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, 0,074 mm dan kichik fraksiyalarda galenitning sezilarli qismi mis minerallari bilan birga flotatsiyalanishi aniqlangan.

Rudadagi gang minerallari – kvarts, karbonatlar va silikatlar – flotatsiya jarayoniga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Ularning yuzaki xossalari reagentlar bilan o‘zaro ta’sirlashib, foydali minerallarning flotatsiya faolligini pasaytirishi yoki selektiv ajratish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Shu sababli rudaning mineralogik tarkibini chuqur o‘rganish va texnologik rejimlarni shu asosda tanlash muhim ahamiyatga ega.

Xondiza polimetall rudalaridagi asosiy minerallarning tarkibi va foiz ko‘rsatkichlari

Jadval 1

Mineral nomi	**Kimyoviy formula**	**Ruda tarkibidagi miqdori (%)**	**Izoh**
Xalkopirit	$CuFeS_2$	3,5–4,0	Misning asosiy manbai
Galenit	PbS	4,0–5,5	Qo‘rg‘oshin manbai
Sfalerit	ZnS	6,0–8,0	Rux manbai
Kvarts	SiO_2	12,0–15,0	Gang minerali
Karbonatlar	$CaCO_3$, $MgCO_3$	6,0–8,0	Gang minerali

Silikatlar	–	5,0–7,0	Gang minerali
Boshqa minerallar	–	55,0–60,0	Mayda tarqalgan komponentlar

Mis va qo‘rg‘oshin minerallarining flotatsiya jarayonidagi ajralish mexanizmlari

Flotatsiya jarayonida mis va qo‘rg‘oshin minerallarining ajralish xususiyatlari ularning yuzaki-fizik va kimyoviy xossalari bilan belgilanadi. Xalkopirit flotatsiya jarayonida kollektorlarga nisbatan yuqori selektivlikka ega bo‘lib, keng pH oralig‘ida barqaror flotatsiyalanadi. Galenit esa yuzaki energiyasining yuqoriligi sababli flotatsiya jarayonida xalkopirit bilan birga ko‘pik fazasiga o‘tishga moyil bo‘ladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, flotatsiya muhitining pH ko‘rsatkichi mis va qo‘rg‘oshin ajralish samaradorligiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Neytral muhitda (pH≈7) galenitning flotatsiya faolligi yuqori bo‘lib, qo‘rg‘oshinning katta qismi mis konsentratiga o‘tadi. Ishqoriy muhitga o‘tilishi bilan galenit yuzasida passiv qatlam hosil bo‘lib, uning flotatsiya faolligi sezilarli darajada kamayadi. pH 9–11 oralig‘ida olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, mis ajralish darajasi 62–64% gacha etgan holda, qo‘rg‘oshin ajralish darajasi 5–7% gacha pasayadi. Bu holat selektiv flotatsiya uchun qulay sharoit yaratadi. Qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlar qo‘llanilganda esa galenit yuzasida barqaror passivlashuv sodir bo‘lib, qo‘rg‘oshinning mis konsentratiga o‘tishi yanada cheklanadi.

Qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlarning flotatsiya jarayoniga ta’siri

Jadval 1

Reagent nomi	**Sarf miqdori (g/t)**	**Ta’sir mexanizmi**	**Natija**

Natriy sulfid	80–120	Galenit yuzasini passivlaydi	Pb flotatsiyasi pasayadi
Sink sulfat	150–250	Qo‘rg‘oshin faolligini bostiradi	Selektivlik oshadi
Ohak	500–800	pH ni oshiradi	Galenit faolligi kamayadi

Mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdorini kamaytirish bo‘yicha texnologik echimlar

Mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdorini kamaytirish uchun flotatsiya jarayonini kompleks optimallashtirish talab etiladi. Birinchi navbatda, ruda maydalash va yanchish bosqichlari muhim ahamiyatga ega. Haddan tashqari mayda yanchish galenit va xalkopiritning birgalikda flotatsiyalanishiga olib keladi. Shu sababli ruda yanchish jarayonida foydali minerallarning maksimal ochilishi, biroq ortiqcha maydalanmasligi ta’minlanishi lozim.

Flotatsiya jarayonida pH muhitini boshqarish selektiv ajratish samaradorligini oshiradi. Tajribalar natijasida pH 9–10 oralig‘ida olib borilgan flotatsiya jarayoni eng optimal deb topildi. Ushbu sharoitda mis minerallari barqaror flotatsiyalanadi, galenitning flotatsiya faolligi esa sezilarli darajada kamayadi.

Qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlardan kompleks foydalanish texnologik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Natriy sulfid va sink sulfat galenit yuzasida kimyoviy passiv qatlam hosil qilib, uning kollektorlarga birikishini cheklaydi. Natijada qo‘rg‘oshinning mis konsentratiga o‘tishi sezilarli darajada kamayadi.

Bosqichma-bosqich flotatsiya sxemasini qo‘llash mis konsentratining sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Birlamchi flotatsiyada asosiy mis minerallari ajratib olinadi, ikkinchi va uchinchi qayta flotatsiya bosqichlarida esa qolgan qo‘rg‘oshin minimal darajagacha kamaytiriladi.

Tajriba natijalari va ularning tahlili

Laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan texnologik echimlar majmuasi mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish imkonini beradi. Dastlabki flotatsiya rejimida olingan mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdori nisbatan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, takomillashtirilgan rejim qo‘llanilgandan so‘ng ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada kamaydi.

Bosqichma-bosqich flotatsiya natijasida yakuniy mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdori 5%dan past darajaga tushirildi. Shu bilan birga, mis ajralish darajasi yuqori saqlanib qoldi, bu esa jarayonning selektivligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar sanoat sharoitida qo‘llash uchun istiqbolli hisoblanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida Xondiza koni polimetall rudalaridan olinadigan mis konsentratlarida qo‘rg‘oshin miqdorini kamaytirish flotatsiya jarayonini ilmiy asosda optimallashtirish orqali samarali amalga oshirilishi aniqlandi. Rudaning murakkab mineralogik tarkibi, xususan xalkopirit va galenit donalarining o‘zaro zich paragenetik bog‘langanligi mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdorining ortishiga sabab bo‘lishi isbotlandi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, flotatsiya muhitining ishqoriy pH (9–10) oralig‘ida olib borilishi galenit yuzasida passiv qatlam hosil bo‘lishiga olib keladi va qo‘rg‘oshinning flotatsiya faolligini sezilarli darajada kamaytiradi. Natriy sulfid va sink sulfat kabi qo‘rg‘oshinni bostiruvchi reagentlardan kompleks foydalanish flotatsiya jarayonining selektivligini oshirib, mis minerallarining barqaror ajralishini ta’minlaydi.

Bosqichma-bosqich flotatsiya sxemasini qo‘llash natijasida yakuniy mis konsentratida qo‘rg‘oshin miqdorini 5 % dan past darajaga tushirishga erishildi, bunda misning ajralish darajasi yuqori saqlanib qoldi. Olingan natijalar Xondiza koni rudalarini sanoat sharoitida qayta ishlashda qo‘llash uchun istiqbolli bo‘lib, mahsulot sifatini oshirish hamda texnologik jarayon samaradorligini ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Иванов В. П.** Полиметаллические руды и методы их переработки. — Москва: Недра, 2016.
2. **Wills B. A., Napier-Munn T. J.** Mineral Processing Technology. — Oxford: Elsevier, 2006.
3. **Finch J. A., Dobby G. S.** Froth Flotation. — Littleton: SME, 1990.
4. **Fuerstenau M. C., Jameson G., Yoon R.-H.** Froth Flotation: A Century of Innovation. — Littleton: SME, 2007.
5. **Klimpel R. R.** Reagent chemistry in flotation of sulfide minerals // Minerals Engineering. — 2005.
6. **Абрамов А. А.** Флотация сульфидных руд. — Москва: Недра, 2016.
7. **Bulatovic S. M.** Handbook of Flotation Reagents: Chemistry, Theory and Practice. — Amsterdam: Elsevier, 2010.

GEOLOGIK-QIDIRUV ISHLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Yarboboyev To‘lqin Nurboboyevich

Jamilov Baxtiyor Baxriddin o‘g‘li

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada geologik-qidiruv ishlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) hamda sun’iy intellekt (SI)dan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Foydali qazilmalar resurslarini baholash, zaxiralarni hisoblash, geologik ma’lumotlarni qayta ishlash va bashoratli modellashtirish jarayonlarida zamonaviy dasturiy ta’minotlar va intellektual algoritmlarning o‘rni*

tahlil qilingan. Yetakchi xalqaro kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar misolida AKT va SI texnologiyalarining samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *geologik-qidiruv, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, sun’iy intellekt, zaxiralarni hisoblash, bashoratli modellashtirish, kon geologiyasi.*

Kirish. So‘nggi yillarda geologik-qidiruv va tog‘-kon sanoatida raqamli texnologiyalarni joriy etish jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. AKT va SI texnologiyalaridan foydalanish foydali qazilmalar resurslarini aniqlash, ularning zaxiralarini ishonchli baholash hamda qazib olish jarayonlarini optimallashtirish imkonini bermoqda. An’anaviy usullar bilan solishtirganda, zamonaviy raqamli yondashuvlar katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida yuqori aniqlikda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism. Axborot va kommunikatsion texnologiyalardan mineral resurslarni baholash va zaxiralarini hisoblashda keng foydalaniladi. Axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda bashorat resurslarini baholash turli dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Bulardan biri – “Koinot” dasturi bo‘lib, u ko‘p omilli korrelyatsiyalar asosida ma’dan nazorat qiluvchi belgilar rolini miqdor jihatdan baholash imkoniyatini beradi. Axborot va kommunikatsion texnologiyalar yordamida zaxiralarni hisoblash ikki xil funksiya asosida bajariladi. Birinchisi, na’munaviy algoritmlardan va ikkinchisi, mavjud geologik-qidiruv ishlari ma’lumotlari asosida hisoblashning ma’lum usullari bo‘yicha hisoblash operatsiyalarini bajaruvchi yoki zaxiralarni miqdor va sifat jihatdan baholashning ko‘p omilli korrelyatsion tahlilini o‘tkazishga mo‘ljallangan dasturlardan foydalanishdir.

Birinchi holatda baholash natijalari axborot va kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llanmasdan oldingi baholash natijalaridan keskin farq qilmasligi lozim. Bu yerda axborot va kommunikatsion texnologiyalar ayniqsa, ekspluatatsion qidirish jarayonida to‘plangan juda ko‘p sonli ma’lumotlar bo‘yicha tegishli xulosaga kelishda hisoblash operatsiyalarini bajarilishini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Axborot va kommunikatsion texnologiyalardan odatdagi usullarda

hisoblangan zaxiralarni to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish uchun foydalanish mumkin. Ikkinchi holatda dastlabki geologik-qidiruv ishlari ma’lumotlari bankidan foydalanib zaxiralarni hisoblashning eng yuqori va ishonchli nuqtasiga erishiladi. Bunda ko‘plab korrelyatsiyalash, tekislash, olingan natijalarni chiziqsiz approksimatsiyalash kabi maxsus hisoblash usullari qo‘llaniladi. Axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib burg‘i quduqlari bilan kesishgan koordinata nuqtalari bo‘yicha yotqiziqlarning yotgan va osilgan yonboshlarini, ularning hajmini aniqlash, ko‘plab tenglamalar yordamida ma’danlarning o‘rtacha miqdorini hisoblash amallarini bajarish mumkin. Turli xil konditsion ko‘rsatkichlar qiymatiga ega bo‘lgan zaxiralarni ko‘pvariantli hisoblashda axborot va kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalaniladi. Bugungi kunda zaxiralarni hisoblashning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish bilan bog‘liq masalalar amalda o‘z yechimini topmoqda va bu ishlar yanada takomillashtirilmoqda [1, 2, 3].

Zaxiralarni hisoblash maqsadida axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda qo‘llanilayotgan algoritmlar va dasturlar asoslangan bo‘lishi, ularning ta’rifi hamda odatdagi usullar bilan hisoblangan zaxiralar yordamida oraliq va yakuniy natijalarni tekshirib olish imkoniyatini ta’minlovchi ma’lumotlar keltirilishi lozim.

Hozirgi vaqtda deyarli barcha yirik geologik-qidiruv va tog‘-kon tashkilotlari foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni qayta ishlashda kompyuter dasturlaridan foydalanadilar. Foydali qazilmalarni qidirish va qazib olishda quyidagi kompaniyalar kompyuter dasturlari bilan ta’minlaydigan dunyo yetakchilari hisoblanadi:

1) Surpac Software International (United Kingdom). Surpac kon ilovalari uchun yuqori sifatli 3D grafiklar yaratish yetakchilardan biri hisoblanadi;

2) DataMine (Datamine International, United Kingdom). Dunyo bo‘ylab ko‘plab tog‘-kon korxonalari ushbu tizimdan foydalanadilar. Ko‘pgina mutaxassislar uni tog‘-kon korxonalarini loyihalash va ishlatishda eng kuchli va amalda tekshirilgan deb hisoblashadi;

3) AQUILA Mining Systems Ltd. (Montreal, Canada). AQUILA dunyoda birinchi marta tog‘ jinsini farqlaydigan burg‘ilash tizimini yaratgan;

4) GEOSTAT Software Inc. (Canada). POLYCAD to‘plami gorizontal kesishmalar usuli yordamida zaxiralarni hisoblash uchun mo‘ljallangan. BLKCAD paketidan foydalangan holda blok modeli asosida zaxiralarni hisoblash ikki o‘lchovli yoki uch o‘lchovli variantlar uchun interaktiv ravishda amalga oshirilishi mumkin;

5) LYNX Geosystem Inc. (Canada). SAPR neft va gazni qidirish, geofizika, ekologiya va kartografiya vazifalarini hal qilish uchun uskunalar va dasturiy ta’minot ishlab chiqaradigan umumiy maqsadli korporatsiya. Voxel Analyst dasturi murakkab geoekologik obyektlarni modellashtirish va tasvirlash, foydali qazilmalarning hajmi va zaxiralarini hisoblash imkonini beradi.

Kompyuter dasturlari tog‘ massivi haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish uchun uskunalardan foydalangan holda axborot va tahliliy paketlarni o‘zida namoyon qiladi. Ular zaxiralarni hisoblashni, geologik tuzilmalar va loyihalangan kon lahimlarining uch o‘lchovli tasvirlarini, geologik-qidiruv ishlari va qazib olish ishlarini, shu jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va optimallashtirishga imkon beradigan dasturlarni o‘z ichiga oladi [4].

Kon geofizikasida kompyuter dunyosining ahamiyati haqidagi g‘oya va tasavvur 1982-yilda ikki kanadalik olim Ien Maklaud va Kolin Rivz tomonidan shakllangan. Fortranda geofiziklar uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqqandan so‘ng, Geosoft kompaniyasi 1986-yilda rasman tashkil etilgan. Bugungi kunda Geosoft kompaniyasi barcha geologlar, geofiziklar va geokimyogarlarning muvaffaqiyatli kashfiyotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun zamonaviy texnologiyalar va ish oqimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ularning ishlari osonlashtirildi, tabiiylashtirildi va ishonchliroq qilindi. Ma’lumotlarni qayta ishlashga kam vaqt sarflash tadqiqotlarda ko‘proq erkinlik beradi va zamonaviy ilmiy talablar va imkoniyatlardan xabardor bo‘lishga yordam beradi. Geologiya-qidiruv sohasidagi eng ilg‘or texnologik yechimni ifodalovchi Geosoft dasturlari katta hajmdagi geofizik, geokimyoviy va geologik ma’lumotlarni samarali import qilish, qayta

ishlash, ko‘rish, tahlil qilish, modellashtirish va almashish uchun kengaytiriladigan muhitni ta’minlaydi – bularning barchasi bitta integratsiyalashgan muhitda.

Ushbu kuchli ma’lumotlarni qayta ishlash va xaritalash dasturi jahon standartlariga javob beradigan va undan yuqori bo‘lgan, vaqt va pulni uzoq muddatli tejashni ta’minlaydigan, ishlatish uchun qulay xususiyatlarning boy to‘plami orqali kundalik vazifalarni hal qilish imkoniyatini ta’minlaydi. Integratsiyalashgan, yuqori samarali vositalar loyihani amalga oshirish uchun bugungi tig‘iz vaqt jadvallarida katta hajmdagi geofizik ma’lumotlardan strategik foydalanish qobiliyatini oshiradi. Geosoft foydali qazilmalarni qidirishda zamonaviy yechimlar, shu jumladan konlarni ochishga hissa qo‘shgan tasdiqlangan ish oqimlari uchun katta imkoniyatlarni yaratadi.

Bugungi kunda Geosoft geologik-qidiruv ishlari ma’lumotlarining katta to‘plamlarini namoyish qilish, tahlil qilish, modellashtirish va boshqarish uchun quyidagi dasturiy ta’minotni taqdim etadi:

- Oasis MONTAJ integratsiyalashgan platformasi;
- Target dasturiy ta’minoti;
- Target for ArcGIS va Geochemistry for ArcGIS modullari;
- Server texnologiyasi -DAP server;
- Chuqurlashtirilgan uch o‘lchamli modellashtirish VOXI Earth Modelling.

Mazkur dasturiy ta’minotlardan bugungi kunda geologik-qidiruv ishlarida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng foydalanilmoqda [5].

Sun’iy intellekt foydali qazilma konlarini geologik-qidirishda geologlarni almashtirishga qodirmi? degan savol albatta barchani qiziqtiradi. Jismoniy jihatdan, albatta yo‘q. Yer ostidan nimani qidirayotganini tushunadigan kirkali va belkurakli robotlar hali ixtiro qilinmagan. Ammo geologik-qidiruvda sun’iy intellektdan (SI) foydalanish asosli ko‘rinadigan bir qator holatlar mavjud.

SIning geologiyada samaradorligi to‘g‘risida turli xil fikrlar mavjud. SI tarafdorlarining ta’kidlashicha, undan foydalanish tog‘-kon sanoatini ekologik qonunchilikning tobora qat’iy talablariga rioya qilgan holda yangi samaradorlik darajasiga olib chiqishi mumkin.

Avvalo, SI katta miqdordagi geologik ma’lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi. An’anaviy usullarda geologlar potensial foydali qazilma konlarini aniqlash uchun geologik xaritalarni talqin qilish va burg‘ilash paytida olingan kernni laboratoriya tadqiqotlariga tayanadi. Bu inson xatosi bilan to‘la uzoq, ko‘p vaqt talab qiladigan jarayon. SIga asoslangan vositalar mavjud ma’lumotlarni tahlil qilishni avtomatlashtiradi, bu geologlarga qimmatbaho mineral resurslar mavjudligini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qonuniyatlar va anomaliyalarni tezda aniqlash imkonini beradi. SI katta hajmdagi geologik ma’lumotlarni tezroq va aniqroq qayta ishlashga yordam beradi.

SI muhim rol o‘ynashi mumkin bo‘lgan yana bir soha – bu foydali qazilmalarni qidirish uchun bashoratli modellarni ishlab chiqish. O‘rganish algoritmlari mis-porfir konlari yoki oltin konlari kabi foydali qazilma konlarining ayrim turlari bilan bog‘liq geologik belgilarni aniqlash uchun tuzilishi mumkin. Ushbu belgilarning ma’lum bir mintaqada fazoviy taqsimlanishini tahlil qilib, sun’iy intellektga asoslangan modellar ochilmagan konlar uchun eng yuqori potensialga ega hududlarning ehtimollik xaritalarini yaratishi mumkin. Ushbu bashoratli modellar geologik-qidiruv ishlariga yordam beradi, bu esa tog‘-kon korxonalariga o‘z resurslarini eng istiqbolli obyektlarga yo‘naltirishga va muvaffaqiyatsizlik xavfini kamaytirishga imkon beradi.

SI, shuningdek, tog‘-konchilik ishlarining atrof-muhitga ta’sirini kuzatish va baholash uchun tabiiy resurslarni barqaror boshqarish vositasi sifatida istiqbolli. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va boshqa masofadan zondlash ma’lumotlarini tahlil qilish orqali SI algoritmlari tuproq, o‘simlik va suv resurslari holatidagi o‘zgarishlarni aniqlay oladi, bu yesa tog‘-kon korxonalari va regulyatorlariga potensial muammolarni aniqlashga va vaziyat og‘irlashguncha yumshatish choralarini ko‘rishga imkon beradi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt mineral resurslarni qazib olish va qayta ishlashni optimallashtirish orqali ekologik toza qazib olish usullarini rivojlantirishga ham hissa qo‘shishi mumkin, bu, xususan, qazib olish bilan bog‘liq chiqindilarni minimallashtirishga imkon beradi.

Konlarni qazib olishda analitik faoliyatning ajralmas bosqichi geologik audit hisoblanadi. Zaxiralarning ko‘plab tasniflari mavjud, ularning har biri o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega, ammo ko‘pincha yangi tasnif bo‘yicha geologik audit o‘tkazish uchun ko‘p vaqt va kuch talab etiladi. SIdan foydalanish buning oldini olishga yordam beradi va turli uchastkalarda qazib olishni ko‘paytirish va kamaytirishning iqtisodiy jihatdan eng muvaffaqiyatli holatlarini bashorat qiladi [6].

Geologik-qidiruv ishlarida AKT va sun’iy intellektdan foydalanish resurslarni baholash aniqligini oshiradi, vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy dasturiy ta’minotlar va intellektual algoritmlar geologiya sohasining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ярбобоев Т. Н., Қосимова К. Ё., Жамилов Б. Б. Артезиан қудуқларининг самарали ва узоқ муддат ишлашини таъминлайдиган асосий омиллар // NEW INNOVATIONS IN NATIONAL EDUCATION ilmiy jurnali. – 2024. – № 4(1). – Б. 44–51. – URL: https://maqola.reandpub.uz/16745/
2. Yarboboyev T. N. Izlash va qidirish ishlarini baholash : o‘quv qo‘llanma. – Qarshi: INTELLEKT, 2023.
3. Yarboboyev T. N., Aliqulov G. N., Usmonov Q. M., Axmedov Sh. Sh. Foydali qazilma konlarini geologik-iqtisodiy baholash : darslik. – Qarshi: QDTU, 2025. – 370 b.
4. Elektron manba. Metody i avtomatizatsiya podscheta zapasov mestorozhdeniya poleznyh iskopaemyh s ispolzovaniyem informatsionnyh tekhnologiy : elektron hujjat. – URL: file:///C:/Users/User/Downloads/metody-i-avtomatizatsiya-podscheta-zapasov-mestorozhdeniya-poleznyh-iskopayemyh-s-ispolzovaniyem-informatsionnyh-tehnologiy(1).pdf
5. Elektron manba. Novejshiye kompyuternyye tekhnologii dlya obrabotki i kompleksnoy interpretatsii geologo-geofizicheskikh dannykh. – URL:

https://zolteh.ru/technic/novejshiye-kompyuternyye-tehnologii-dlya-obrabotki-i-kompleksnoj-interpretatsii-geologo-geofizicheskih-dannyh/

6. Elektron manba. Zamenit li iskusstvennyy intellekt trud geologov. – URL: https://www.prometall.info/analitika/gornodobicha/zamenit_li_iskusstvennyy_intellekt_trud_geologov

ОБЛАГОРАЖИВАНИЕ НАТУРАЛЬНЫХ ВОЛОКОН ПОЛИМЕРНОЙ КОМПОЗИЦИЕЙ И МОДИФИКАЦИЯ ИХ СВОЙСТВ

Маматкулова М. Б.

Холмуродова Д.

Гулистанский государственный университет

Аннотация. *В данной статье приведено цель значительной ослаблении влияние механик-деструктивных процессов на переработку шерсти целесообразно расширение ассортимента облагораживающих веществ, в частности с применением водорастворимых полимерных композиций, которые могли бы ингибировать возникающие свободные радикалы, стабилизировать содержание влаги в течение достаточно длительного времени и увеличивать силы сцепления между волокнами. Исходя из вышеизложенных нами были исследованы влияния ряда водорастворимых полимерных растворов и композиции на основе поли четвертичной соли на физико-механические показатели шерстяного волокна, на процесс шерстопрядения и качество полученной шерстяной пряжи.*

Ключевые слова: *шерсть, облагораживание, эмульсия, жир, деструкция, кератин, обработка, структура, полимер.*

С момента образования шерсть подвергается различным механическим, биологическим, химическим и комбинированным воздействием. В результате

таких воздействий наряду с разрушением структуры шерсти происходят различные формы химико-механической деструкции макромолекул кератина.

Sobiq sho‘rolar davrida respublikamiz iqtisodiyoti xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqqa aylantirilgan bo‘lib, asosan, qishloq xo‘jaligida paxta yakka hokimligi mustaqilligimizga qadar tabiat-inson-jamiyat tizimiga o‘zining kuchli ta‘sirni o‘tkazib keldi. Natijada, cho‘l va adir mintaqalaridagi noyob ekotizimlarning qisqarishiga, yerlarning ikkilamchi sho‘rlanishiga, suv ekotizimlarining o‘zgarishiga, yirik sun‘iy suv havzalarini hosil bo‘lishiga, atrof muhitning o‘ta xavfli defoliantlar va pestitsidlar bilan zaharlanishi ortib bordi. Shuningdek, mamlakatimizda, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida fragmentatsiya jarayonini jadallashuviga, mintaqadagi ekologik-xo‘jalik muvozanatni sezilarli darajada izdan chiqishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Bu omillar o‘z navbatida kamyob va noyob, ba‘zi xususiyatlari bo‘yicha betakror ekotizimlarni hamda ulardagi biologik turlarni yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘ldi.

Dunyoning bioxilma-xilligini asrab-avaylash, floralar tarkibini lokal mintaqalarda o‘rganish, kamyob va muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning o‘rni nihoyatda katta. 2024 yil avgust oyi holatiga ko‘ra, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo‘yicha Butunjahon ma’lumotlar bazasidagi (The World Database on Protected Areas, WDPA) qaydlarning 302934 tasi muhofaza etiladigan hududlardan iborat bo‘lib, 244 mamlakatni qamrab oladi. So‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida

joylashgan tabiat yodgorliklarini floristik tarkibini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xususan, tabiat yodgorliklarini ahamiyati o‘ziga xos. Garchi tabiat yodgorliklari maydoni jihatdan unchalik katta maydonlarni egallamasa ham kamyob va endem o‘simliklar turlarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Bioxilma-xillikning asosiy tarkibi hisoblangan o‘simliklar dunyosini o‘rganish va muhofazaga muhtoj turlar tarkibini shakllantirtirsh, ularning bioekologiyasi hamda muhofaza choralari bo‘yicha ilmiy izlanishlar tobora ortib bormoqda. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, nisbatan kam o‘rganilgan hamda maydoni jihatdan kichik hududlarni tashkil etuvchi tabiat yodgorliklari florasi ustidagi izlanishlar o‘simliklar dunyosini ham saqlab qolishda alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘rta Osiyo davlatlarida mavjud tabiat yodgorliklaridagi kamyob va endem turlar tarkibini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning floristik tarkibini aniqlash, biohujjatlashtirish va kamyob hamda endem turlarni saqlab qolish choralarini ko‘rish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “O‘rmonlarni qo‘riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar xususan, tabiat yodgorliklarining florasini o‘rganish, to‘r tizimli xaritalash asosida turlar xilma-xilligi va yig‘malar zichligini aniqlash, kamyob va muhofazaga muhtoj turlar tarkibini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Farg‘ona cho‘l mintaqasi landshaftlari barcha tomondan antropogen landshaftlar bilan o‘ralgan bo‘lib, adir va tog‘ mintaqasidan ajralib qolgan. Bu esa o‘z navbatida hududning tabiiy landshaftlari iqlimining o‘zgarishiga ta‘sir etgan, bu kabi ekologik o‘ziga xoslik boshqa cho‘l mintaqalarida kuzatilmaydi. Bu jarayon

mintaqaning fauna va florasini o‘zgarishigagina emas, muhofazaga olingan turlarni yangi ekologik sharoitga adaptatsiyasiga ham kuchli ta‘sir etmoqda.

Yozyovon cho‘llari har tomondan madaniy landshaftlar bilan (sug‘oriladigan ekin maydonlari) bilan o‘rab olinganligi, yonma-yon joylashganligi tufayli tabiiy biotoplar chegarasida madaniy o‘simliklar orasida tarqalgan begona o‘tlar ko‘plab uchraydi. Ular orasida edifikator (indikator, landshaft) turlari ham mavjud. Qolgan ekosistema va biotoplar orasida o‘simliklarning o‘sish va rivojlanishi uchun bir muncha qulay sharoit to‘qaylarga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun to‘qay ekosistemasi o‘simlik turlariga ham boy. Lekin Yozyovon davlat tabiat yodgorligida to‘qay o‘simliklari yaxshi shakllanmagan, ularni elementlari uchraydi xolos. Faqat to‘qay o‘simliklardan jiyda, turang‘i kabi daraxtlar o‘zlashtirilgan yerlarning chegaralarida ixota sirtida saqlanib keldi. Qolgan qismi ekin maydonlariga aylantirildi, teraklar ekib sun’iy to‘qaylar hosil qilishdi. Shunday qilib hozirgi kunda faqat to‘qay elementlarigina saqlanib kelgan xolos.

Turang‘i teragi –*Populus pruinosa* Schrenk, qumoq va sho‘rxok tuproqlarda yaxshi o‘sib rivojlanadigan va katta maydonlarda turang‘ilzorlarni hosil qiladi.

Turang‘i teragi cho‘lda tarqalgan daraxt va butalar orasida eng sho‘rga chiqdamlisidir. Urug‘ning unuvchanligi juda tez bo‘lganligi uchun u nam yerga tushgandan keyin bir kecha kunduzda unib chiqadi. Lekin unuvchanligi tezda ya’ni 2–3 kunda keskin kamayib ketadi. Turang‘ining to‘pguli ochiq–sarg‘imtir yoki ko‘kimtir randa bo‘ladi. To‘pgullarning rangi bilan birga erkak va urg‘ochi to‘pgullari bir biridan katta–kichikligi bilan ham farq qiladi. Odatda erkak to‘pgulining uzunligi 3–4 santimetr bo‘lsa, urg‘ochi to‘pgulining uzunligi 5–6 sm bo‘ladi. Har bir to‘pgulda 17 tadan to 32 tagacha ko‘sakcha mevalar bo‘lib, har ko‘sakchada esa 123–129 tagacha urug‘ yetiladi. Shu tartibda turang‘ilar juda ko‘p urug‘ beradi. Urug‘lari o‘ta mayda bo‘lib, kattaligi 1–1,5 mm bo‘ladi. Bir dona to‘pgulining og‘irligi 88,4 mg dan 124,8 mg gacha bo‘ladi.

Urug‘larni ekish bo‘yicha olib borilgan tajribalarga ko‘ra 1 m^2 yerga 30 – 35 mg dan urug‘ sepish tavsiya qilinadi. Urug‘lardan 60–70 dona ko‘chat olish mumkin ekanligi ma’lum bo‘lgan. Agar gektar hisobida olinadigan bo‘lsa, har gektar yerdan 600–700 ming dona ko‘chat olish mumkin ekan. Lekin o‘rmon xo‘jaliklarida turang‘i terakni urug‘idan ommaviy holda ko‘paytirish kuzatilmaydi. Kichik maydonlarda urug‘dan ko‘paytirish yaxshi samara bersada, katta maydonlarga sepilganda u kutilganidek natija bermaydi. Urug‘ni bir tekisda unib chiqishi bir necha omillarga bog‘liq, bu omillarning birortasi o‘z vaqtida (namlik, yerning holati, begona o‘tlar, harorat, shamol va boshqa) yetarli darajada bo‘lmasa, urug‘lar bir tekkis unib chiqmaydi. Turang‘i terak ildiz bachkilari yordamida ham ko‘payadi. Shuningdek, turang‘i teraklar novdalardan tayyorlangan qalamchalar yordamida ham ko‘payadi.

Ma’lumki, turang‘i terakzorlar yetilgach kesib olinganda qolgan to‘nkalardan yangi novdalar o‘sib chiqadi. To‘nka atrofidagi qo‘shimcha kurtaklardan hosil bo‘lgan yosh novdalar yillar o‘tishi bilan yashash uchun kurash tufayli siyraklashib boradi. Yangi hosil bo‘lgan novdalar uch yildan keyin kamayib 3–5 donasigina saqlanib qoladi. 5–6 yil o‘tgandan keyin esa yana novdalar soni kamayib, faqat bir yoki ikki donasigina saqlanib qoladi xolos. Shu tartibda eski turang‘i terakzorlar yangilanib turadi. Lekin tiklanishi me’yorida borishini ta’minlash uchun ularga zarar yetkazishdan turli omillardan himoya qilinishi talab etiladi. Bunday omillar qatoriga inson, hayvon, qurg‘oqchilik va boshqalarni kiritish mumkin. Jumladan, Yozyovon, Zilxa yodgorligi hududidagi turang‘izorlarda turang‘i to‘nkalardan o‘sib chiqqan novdalarni har yili kuzda savat to‘qish uchun qirqib olinadi, natijada uzoq yillar davomida turang‘izorlarni qayta tiklash uchun sharoit yo‘q.

Turang‘i teraklarni xona sharoitida qalamcha yordamida ko‘paytirish uchun quyidagicha tajriba olib borildi. 2025-yil 4-fevral kuni 15–20 sm uzunlikdagi, diametri 15 mm bo‘lgan 5 ta qalamcha tayyorlandi. Ularning 2 donasi daraxtning yuqori qismidagi shox–shabbalaridan, 3 donasi esa ildiz bachkidan hosil bo‘lgan

novdadan tayyorlandi va ularni hammasi shu kuni suvli idishga solib qo‘yildi. Xona haroratida har kuni suvi almashtirilib turildi:

1. Shox–shabbasidan tayyorlangan qalamchada 8.02 kuni dastlabki kurtak chiqdi, 10.02 kuni ikkinchi barg va novda hosil bo‘la boshladi, 15.02 kuni o‘sha novdada uchinchi va to‘rtinchi barg hosil bo‘ldi va novdaning uzunligi bir santimetrga yetdi, ikkinchi novda esa mutlaqo ko‘karmadi va uni idishdan olib tashlandi, birinchi novdaning uzunligi 23.02 ga kelganda 1,5 smga yetdi. Lekin qalamchada salbiy tomonga o‘zgarish boshlandi va 1.03 kuniga borganda quriy boshladi.
2. Ildiz bachkidan chiqqan novda ham 8.02 kuni barg chiqara boshladi, 10.02 kuni ikkinchi barg va novda shakllana boshladi, 15.02 kuni novdaning uzunligi 1,5 sm ga yetdi, shoxlanish tufayli yana 2–3 dona novda hosil bo‘ldi. 19.02 kuni kurtakdagi novdalar va barglar 26.02 kunda birinchi novdadagi kurtakdan chiqqan novdaning uzunligi 2 sm ga yetdi. 1.03 da novdalar uzunligi 3 smga yetdi. Lekin ildiz hosil bo‘lmadi. Har uchala novda tashqariga ekilganda faqat bir donasi ildiz otib o‘sa boshladi. Qolgan ikki donasi esa asta–sekin quriy boshladi. Demak, bu usul bilan ham turang‘i terakni ko‘paytirish yaxshi samara bermadi.

Farg‘ona vodiysining cho‘l qismida ozmi–ko‘pmi tabiiy o‘simliklar tarqalgan bo‘lsa, qolgan qismi madaniy landashftlardan tarkib topgan. Umuman olganda cho‘l o‘simliklari bir muncha turga boy, lekin ulardan tartibsiz foydalanish, keng tarqalgan landshaft hosil qiluvchi turlarining egallagan maydonlarini kamayib borishiga, noyob turlarini esa kamyob o‘simliklar safiga qo‘shilib qolishiga olib kelmoqda. Ularni kelgusi avlodga saqlab qolish uchun esa boyliklardan tejamli foydalanish va ularni tabiiy qayta tiklanishiga imkoniyat yaratilishi lozim.

O‘simlik boyliklarini saqlash, ularni muhofaza qilish, boyitish va uning beminat boyliklaridan fanga asoslangan reja asosida foydalanish borasida qanchadan–qancha qarorlari qabul qilinayotgan bo‘lishiga qaramay hamon ulardan tartibsiz foydalanishlar davom etmoqda. Shuning uchun ham sof turang‘idan va

aralash daraxt -butalardan iborat to‘qayzorlar maydoni yil sayin qisqarib, o‘z o‘rnini madaniy landshaftlarga bo‘shatib bermoqda. To‘qayzorlarda ruxsatsiz mol boqish, yerlarga ruxsatsiz ekin ekish, ekin maydonlarini kengaytirish maqsadida daraxtlarni kesish, o‘tin, yog‘och, pichan tayyorlash, ov qilish kabi tartibsizliklar hamon davom etmoqda. Ayrim vaqtlarda o‘rmon nazoratchilarining noqonuniy ravishda o‘tin, yog‘och tayyorlashga va yer ekishga yashirin ruxsat berish kabi holatlar ham uchrab turadi. Bularning hammasi yil sayin maydoni qisqarib borayotgan tabiiy o‘rmon boyliklari zahiralarini kamayib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Tabiiy cho‘l va to‘qaylarni saqlash va kelgusi avlodga yetkazish vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy Farg‘ona cho‘llarida qo‘riqxona tashkil etilsa, uning tabiiy xilma-xil majmualarini, o‘simlik va hayvonot dunyosini, ularning genofondini saqlab qolish va tabiiy o‘zgarishlar ustidan monitoring o‘tkazadigan ilmiy tadqiqot markaziga ega bo‘lish mumkin. Vodiyning cho‘l qismi uchun xos bo‘lgan barcha hildagi tabiiy ko‘rinishlarni o‘zida mujassamlashtirgan qo‘riqxona tashkil etilsa, nafaqat vodiyda yashayotgan, balki chet el sayyohlari uchun ham kelib ko‘rishga arziydigan Markaziy qo‘riqxonaga aylanishi mumkin. Qo‘riqxona hududidadan sog‘lomlashtirish markazi, tajribalar olib boradigan ilmiy markaz, tabiat maydonlari va chet ellik sayyohlar uchun ekskursiyalar o‘tkazish, so‘zsiz iqtisodiy jihatdan foyda yetkazuvchi maskan maqsadida foydalanish mumkin.

Yozyovon tabiat yodgorligiga antropogen omilning deyarli bir xil ravishda uzluksiz kuchayib borayotganini, mayda tuyoqli hayvonlarning ta’siri yildan yilga kuchayib borayotgani dala tadqiqotlarida bevosita kuzatildi. Yozyovon tabiat yodgorligida mahalliy aholi tomonidan qumlarni o‘zlashtirish va qurilish materiali sifatida foydalanishi hisobiga ularning maydonlari qisqarib, kamyob va endem o‘simliklarning areali tobora qisqarmoqda.

Mahalliy aholi Yozyovon tabiat yodgorligi hududlari qayerda joylashganligi, ularning maydoni, qayerdan chegaralanishi bo‘yicha tasavvurga ega emasligi aniqlandi. Tabiat yodgorligi alohida muhofaza etish uchun chegaralarga ega emas. Xususan, yirik qazilgan zovurlar yoki mexanik to‘siqlar mavjud emas. Bu esa chorva

mollarinig tartibsiz boqilishi, qo‘riq yerlarning o‘zlashtirilishi, kamyob va endem turlarni payhon qilinishi, qumlarni xo‘jalik maqsadlari uchun tashib ketilish holatlarini mavjudligi uchradi.

Bu nafaqat o‘simliklar dunyosi va ularning xilma-xilligining yo‘q bo‘lib ketishi shuningdek TYO gi hududidagi kamyob va endem o‘simliklar, sudralib yuruvchilar, qushlar, kemiruvchilarning ham kamayishiga bevosita ta’sir o‘tkazadi.

Yuqoridagilarni oldini olish maqsadida quyidagi targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish zarurligini ko‘rsatadi:

- Birinchi navbatda ushbu yodgorlik kirish va chiqish qismlarida, shuningdek atroflarida TY haqida qisqacha ma’lumotlar yozilgan plakatlar (toshga yozilgan) joylashtirish va ularni mustahkamlash.

- Aholi yashash manzillari qishloqlar, maktablar va mahalla idoralariga TY haqida to‘liq ma’lumot beruvchi flayerlar tarqatish;

- Maktablarda “Tabiatni asraylik” mavzusidagi tadbirlar davomida muntazam TY haqida ma’lumotlar berib borish;

- Ekologiya inspektorlari tomonidan muntazam brokonyerlik, ovchilik va o‘simliklarni payhon qilishga qarshi reydlar o‘tkazib borish;

- “Qumga tushish” va ekoturizm mavsumlarida mavsumiy chiqindilarni yig‘ish uchun chiqindi konteynerlari bilan ta’minlash va ularni tozalash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Акбарова М. Х.** и др. Экосистема растительного мира Язъяванского государственного степного природного памятника // Известия вузов Кыргызстана. — 2018. — № 5. — С. 35–40.
2. **Акбарова М. Х.** и др. Экосистема растительного мира Язъяванского природного заказника // E Conference Zone. — 2022. — С. 1–5.

3. **Akbarova M.**, **Maxmudova M.**, **Karamatova G.** The plant ecosystem of Yazyavon natural monument // Bulletin of Gulistan State University. — 2018. — Vol. 2018, No. 4. — P. 20–24.
4. **Akbarova M.**, **Jo‘rayev Z.** “Yozyovon cho‘llari” davlat tabiat yodgorligida tarqalgan *Cistanche mongolica* Beck ning bioekologik xususiyatlari // Farg‘ona davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2023. — № 2. — B. 154.
5. **Husanovna A. M.**, **Abdumalikovna Y. Z.** Flora of Yozyovon desert state natural monument. — 2022.

LOVIYA NAVLARIDA SUVNI TEJASH VA MAQBUL SUG‘ORISH STRATEGIYALARI

J.U.Tajiyev
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU
J.S.Eshonqulov
TDAU
G.N.Abdalova
TDAU

4. Agroekotizimlar va ekologik muammolar: barqaror rivojlanish yechimlari (Qishloq xo‘jaligi, ekologiya)

Annotatsiya:*Takroriy ekin sifatida loviya urug‘larini ekishda, asosiy ekindan bo‘shagan maydonning tabiiy namligi hisobiga urug‘ undirib olinsa vegetatsiya davri hamda sug‘orish soni kamroq bo‘lishi kuzatilgan.*

Kalit so‘zlar:*loviya, sug‘orish me’yorlari, o‘suv davri, unuvchanlik*

Dunyoda mavjud bo‘lgan barcha chuchuk suvlarning taxminan 70 foizi qishloq xo‘jaligida sug‘orish uchun ishlatiladi. Bu ko‘rsatkich mamlakatlarning tarmoq

tarkibida qishloq xo‘jaligi va sanoatning ulushiga qarab farq qiladi, lekin hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham qishloq xo‘jaligining umumiy suv iste’molidagi ulushi 30 foizdan pastga tushmaydi. Suv resurslarining tarmoq taqsimotiga ko‘ra, Pokiston, Eron, Indoneziya, Hindiston va O‘zbekiston kabi mamlakatlarda jami suvning 90 foizdan ortig‘i qishloq xo‘jaligiga sarflanadi.

Markaziy Osiyodagi shakllanadigan suv resurslarining 70 foizi transchegaraviy daryolar hissasiga to‘g‘ri keladi. Mintaqaning eng yirik transchegaraviy daryolariga Sirdaryo (Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston, Qozog‘iston Respublikalarining hududidan) va Amudaryo (Tojikiston, Afg‘onistonning shimolidan, Turkmaniston, O‘zbekiston Respublikalari hududidan oqib o‘tadi) kiradi. Sirdaryo havzasining ko‘p yillik o‘rtacha oqimi 36 km^3 ni, Amudaryoda esa 78 km^3ni tashkil etadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida yiliga o‘rta hisobda 52-56 km^3 suv ishlatiladi. Shundan yillik o‘rtacha 22 km^3 Sirdaryo havzasiga, qolgan qismi Amudaryo havzasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Sirdaryo havzasida 6,3 km^3, Amudaryoda - 5,1 km^3 suv resurslari O‘zbekiston hududida shakllanadi, qolgan katta qismi transchegaraviy daryolardan olinadi.

Global Village Space ekspertlari bahosiga ko‘ra, iqlim o‘zgarishlari va qo‘shni mamlakatlarda suv iste’molining ortishi O‘zbekistonda Amudaryo (Afg‘onistonda Qo‘shtepa kanalining qurilishi) va Sirdaryo kabi daryolardan suv olinishini kamaytiradi. Buning natijasida qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayoni yanada kuchayib ketishi hamda aholi turmush darajasiga jiddiy ta’sir qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikaning Amudaryo va Sirdaryo havzalari quyi oqimida joylashgan Jizzax Sirdaryo va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida bunday ko‘p suv talab qiluvchi ekinlarni joylashtirib bo‘lmaydi. Bu hududlarda bosqichma-bosqich kam suv talab qiladigan ekinlar maydonini kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mosh, loviya, no‘xat va qizil loviya (fasol) kabi qurg‘oqchilikka chidamli dukkakli don ekinlarini ekish zarur.

Respublikamizda loviya navlari asosiy va takroriy ekin sifatida ekib kelimoqda. Loviya asosiy ekin sifatida 5,1 ming gektar va takroriy ekin sifatida 24,5 ming gektar maydonlarga hamda 6,1 ming gektar bog‘ qator oralariga ekib kelinmoqda.

Loviya urug‘laridan nihol paydo bo‘lish davrida, birinchi navbatda, tuproqning tabiiy namligidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zarur holatlarda ayniqsa, haroratning keskin ko‘tarilib tuproqdagi tabiiy namlikning yo‘qotilishi kuzatilgan maydonlarda urug‘larni undirib olish uchun tuproqni namlash kerak bo‘ladi. Urug‘larni undirib olish davrida tuproqning yuqori qatlami qurib ketmasligi muhim hisoblanadi. Agar ekishdan keyin tuproq quruq bo‘lib qolsa, urug‘larning unib chiqishi hamda unuvchanligi kamayib, o‘simlik tuplari siyrak bo‘lib, yetarli miqdorda ko‘chat qalinligi olinmaydi. Ammo unib chiqish davrida me’yoridan ortiq sug‘orish yaxshi natijaga olib kelmaydi – tuproqning namlik darajasi haddan tashqari yuqori bo‘lsa, urug‘ mog‘orlab chirib ketishi yoki unga havo yetmay qolishi mumkin. Dukkakli don ekinlarida nihollar paydo bo‘lgandan keyin o‘simliklar chin barg chiqarish, shoxlanish fazalariga navbatma-navbat o‘tadi. Bu davrlarda loviya asosan barg, poya massasi hosil bo‘ladi. O‘simliklarda biologik massa kam bo‘lganligi sababli ushbu davrda an’anaviy usulda 500-600 m^3/ga me’yorlarda sug‘orish tavsiya etiladi. Shonalash, gullash-dukkaklash fazalarida suvga bo‘lgan belgilangan me’yorlarda an’anaviy usulda 600–800 m3/ga sug‘orish tavsiya etiladi. Dukkakli don ekinlarining hosil to‘plash va pishish davrida donlarning to‘liq, sifatli bo‘lishini ta’minlash uchun an’anaviy usulda 600–700 m^3/ga me’yorlarda sug‘orish tavsiya etiladi. Bu davrda sug‘orish ishlarini amalga oshirish ekinlar urug‘larining 1000 dona don vaznining ortishini, hosildorlikning yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Dukkakli don ekinlarini butun o‘suv davri davomida belgilangan me’yorda sug‘orib borish yuqori hosil olish uchun zamin yaratadi. Loviya o‘simligi nav turlariga bog‘liq holda yillik sug‘orish me’yori o‘suv davrida jami 1700 metr kubdan – 2100 metr kubgacha suv talab qiladi. Uzoq yillik ilmiy izlanishlar natijasiga ko‘ra, o‘z vaqtida va me’yorida sug‘orilganda ekinlar 25–30% gacha ko‘proq hosildorlik berishi mumkin. Demak, suvni o‘z vaqtida va to‘g‘ri miqdorda berish nihoyatda muhim hisoblanadi. Suv yetarli bo‘lganda, donlar yirik bo‘lib, 1000

dona don vazni yuqori bo‘ladi. Yetishtirilgan donlarning shakli bir xilda va sifat darajasi yuqori bo‘ladi. Loviya o‘simligining ayrim turlarida suv taqchilligi ayniqsa “Ravot” va “Mahsuldor” navlariga salbiy ta’sir qiladi. Natijada o‘simliklarning poya balandligi past bo‘lib, donlari kichrayib, burishib qoladi. Fotosintez jarayoni sustlashadi, o‘sish sekinlashadi va yakunda hosildorlik kamayadi. Boshqa tomondan, ortiqcha sug‘orish tuproqdan oziqa moddalarini yuvib ketib, behuda isrof bo‘lishiga hamda ekinlarda turli kasalliklarning kelib chiqishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun har bir o‘simlik turiga hamda o‘sish, rivojlanish fazalarida talab etilgan miqdorda va iqlim-tuproq sharoitiga mos oraliqda sug‘orish eng to‘g‘ri yondashuvdir. Bu nafaqat suvni tejaydi, balki ekinlardan yuqori hosil olinishi va sifatli mahsulot yetishtirilishini ta’minlaydi. Ekinlarni sug‘orish tartibiga har bir hududning iqlim sharoiti va tuproq xususiyatlari ta’sir qiladi. Dukkakli don ekinlarini yetishtirishda sug‘orish uchun foydalaniladigan suvning sifati va tuproq holati hosildorlikka bevosita ta’sir qiladi. Shu boisdan fermerlar dalalarida sug‘orishni to‘g‘ri tashkil etish uchun ham suv, ham tuproq tahlili natijalaridan foydalanishlari zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh. M.** Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 dekabrdagi PQ–4919-sonli qarori.
2. **Abdukarimov D. T. va boshq.** Ang‘iz, takroriy va kuzgi-qishki oraliq ekinlarni yetishtirish texnologiyasi. – Samarqand, 1995. – 38 b.
3. **Aliboev A., Yusupov X.** Sug‘oriladigan erlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini takroriy ekish: ilmiy to‘plam. – Toshkent, 1993. – B. 8–11.
4. **Mirzajanov K. M., Shadmanov J. K., Isaev S. X.** Ekinlarni sug‘orish uchun suv rezervi. – Toshkent, 2008. – B. 86–89.
5. **Atabayeva H., Qodirxo‘jayev O.** O‘simlikshunoslik. – Toshkent, 2014. – B. 157–158.
6. **Atabayeva H., Xudoyqulov J.** O‘simlikshunoslik. – Toshkent, 2018. – 196 b.

7. **Xalilov N., Boymirzayev P., G‘aybullayev S., G‘aybullayev G‘.** Ang‘izga yaroqli loviya yangi navlari va ularning agrotexnikasi. – Samarqand, 2014. – 8 b.
8. Google. – URL: http://www.google.uz
9. LexUZ. – URL: http://www.lex.uz
10. Agro.uz. – URL: http://www.agro.uz

OQAVA SUVLARNI TOZALASHDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MASALALARI

Elmanov Abbos Begmat o’g’li
Dusanova Gulshod Mirzaevna
Maxmudov Shaxtiyor Baxritdin o’g’li
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada oq suvlarni tozalash jarayonlarida kengni ta'minlash masalalari yoritilgan. Oqava suvlarning atrof-muhit va inson resurslariga ta'siri, ularning atrof-muhitni tozalash vositalariga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar, ekologik muammolar, suv resurslarini tozalash masalalari tahlil qilingan , xavfsiz suvlarni tozalash tizimlarini to'g'ridan-to'g'ri ta'minlash orqali tabiiy muhitni asrash va tozalash vositalariga yordam berish uchun yordam berilgan.*

Kalit so'zlar*: oqava suvlar, tozalash, suvni tozalash, atrof-muhitni tozalash, biologik tozalash, suv resurslari.*

Kirish. Bugungi kunda sanoat, qishloq xo‘jaligi va urbanizatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitga tushayotgan oqava suvlar hajmi va tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori sezilarli darajada ortib

bormoqda. Oqartirilmagan yoki yetarli darajada tozalanmagan oqava suvlarning tabiiy suv havzalariga chiqarilishi suv ekotizimlarining buzilishiga, ichimlik suvi sifatining yomonlashuviga hamda inson salomatligi uchun jiddiy ekologik xavflarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda[1]. Oqava suvlar tarkibida og‘ir metallar, organik birikmalar, biogen elementlar, patogen mikroorganizmlar va toksik moddalar mavjud bo‘lib, ularning suv muhitida to‘planishi ekologik muvozanatning izdan chiqishiga olib keladi. Shu bois, oqava suvlarni tozalash jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash zamonaviy ekologiya va muhandislik fanlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ekologik xavfsiz oqava suvlarni tozalash tizimlari nafaqat ifloslantiruvchi moddalarning konsentratsiyasini kamaytirishga, balki tabiiy resurslarni muhofaza qilish, suvdan qayta foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta’minlashga xizmat qiladi[3]. Zamonaviy tozalash texnologiyalarini joriy etish, biologik, kimyoviy va fizik-kimyoviy usullarni kompleks qo‘llash orqali ekologik xavfni minimallashtirish mumkin. Mazkur maqolada oqava suvlarni tozalash jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari, mavjud muammolar, zamonaviy texnologiyalar hamda ularning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Oqava suvlarning ekologik xavf manbalari. Oqava suvlar sanoat, kommunal-maishiy va qishloq xo‘jaligi faoliyati natijasida hosil bo‘lib, ularning tarkibi ifloslantiruvchi moddalarning turiga va konsentratsiyasiga ko‘ra farqlanadi.[2] Sanoat oqava suvlari tarkibida og‘ir metallar (simob, qo‘rg‘oshin, kadmiy), neft mahsulotlari, fenollar va sintetik organik birikmalar mavjud bo‘lib, ular suv ekotizimlari uchun yuqori darajada xavflidir. Kommunal oqava suvlar esa biogen elementlar va patogen mikroorganizmlar bilan boy bo‘lib, epidemiologik xavf tug‘diradi. Tozalanmagan oqava suvlarning ochiq suv havzalariga chiqarilishi suvning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘zgartiradi, kislorod balansini buzadi va suv organizmlarining yashash sharoitlarini yomonlashtiradi. Natijada biologik xilma-xillikning kamayishi va ekotizimlarning degradatsiyasi kuzatiladi. Oqava suvlarni tozalash usullari va ularning ekologik ahamiyati. Ekologik xavfsizlikni

ta’minlashda oqava suvlarni tozalashning samarali usullarini tanlash muhim ahamiyatga ega[2]. Tozalash jarayonlari asosan mexanik, biologik va kimyoviy usullarga bo‘linadi. Mexanik tozalash jarayonida yirik va suzuvchi zarrachalar panjaralar, qumtutgichlar va cho‘ktirish inshootlari yordamida ajratib olinadi. Bu bosqich keyingi tozalash jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[4]. Biologik tozalash usullari mikroorganizmlar faoliyatiga asoslangan bo‘lib, organik moddalarni parchalash orqali suvning ekologik xavfsizligini ta’minlaydi. Aerob va anaerob jarayonlar orqali ifloslantiruvchi moddalar zararsiz birikmalarga aylantiriladi. Ushbu usul ekologik jihatdan eng maqbul hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy obyekti sifatida maishiy va sanoat oqava suvlarining aralashmasi tanlandi. Tajribaning asosiy maqsadi oqava suvlarni biologik va fizik-kimyoviy usullar orqali tozalash jarayonining samaradorligini aniqlash hamda ushbu jarayonlarning ekologik xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqot metodikasi. Tajriba laboratoriya sharoitida olib borildi. Oqartirishdan oldin va keyin oqava suvlarning asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Jumladan, suvning pH ko‘rsatkichi, biokimyoviy kislorod sarfi (BKS_5), kimyoviy kislorod sarfi (KKS), suspenziyalangan moddalar miqdori hamda og‘ir metallar konsentratsiyasi aniqlandi[5].

Tajriba quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Mexanik tozalash – yirik zarrachalarni cho‘ktirish usuli orqali ajratish.

Biologik tozalash – faol loy yordamida aerob sharoitda organik moddalarni parchalanishi ta’minlandi.

Kimyoviy tozalash – koagulyant sifatida alyuminiy sulfat qo‘llanilib, og‘ir metallar va mayda zarrachalar cho‘ktirildi.

Har bir bosqichdan so‘ng suv namunalari olinib, laboratoriya tahlillari o‘tkazildi.

Tajriba natijalari va tahlili. O‘tkazilgan tajribalar natijasida oqava suvlarning ifloslanish darajasi sezilarli kamaygani aniqlandi. Mexanik tozalashdan so‘ng suspenziyalangan moddalar miqdori o‘rtacha 40–45 % ga kamaydi. Biologik

tozalash bosqichida BKS_5 va KKS ko‘rsatkichlari mos ravishda 70–75 % gacha pasaydi, bu esa organik moddalar samarali parchalanayotganini ko‘rsatadi.

Tozalash bosqichi	pH	Suspenziyalangan moddalar (%)	Biokimyoviy kislorod sarfi (BKS_5, mg/l)	Kimyoviy kislorod sarfi (KKS, mg/l)
Tozalashdan oldin	7,2	100	320	500
Mexanik tozalash	7,1	55	310	480
Biologik tozalash	7,0	30	90	130
Kimyoviy tozalash	7,0	25	85	120

Kimyoviy tozalash natijasida og‘ir metallar konsentratsiyasi sanitariya me’yorlariga yaqin darajagacha kamaydi. Oqartirilgan suvning pH ko‘rsatkichi ekologik jihatdan maqbul oraliqda saqlandi.

Ekologik xavfsizlikni baholash. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, biologik va kimyoviy usullarni kompleks qo‘llash orqali oqava suvlarni ekologik xavfsiz darajagacha tozalash mumkin. Oqartirilgan suvni texnik maqsadlarda qayta foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu suv resurslarini tejashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar zamonaviy tozalash texnologiyalarining ekologik xavfsizlikni ta’minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida oqava suvlarni tozalash jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlash zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Oqartirilmagan yoki yetarli darajada tozalanmagan oqava suvlarning tabiiy suv havzalariga chiqarilishi suv ekotizimlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, atrof-muhitning degradatsiyasiga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslandi. Tajriba natijalari mexanik, biologik va kimyoviy tozalash usullarini kompleks qo‘llash oqava suvlar tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarni sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, biologik tozalash usullarining

yuqori samaradorligi va ekologik xavfsizligi ushbu jarayonning ustuvorligini tasdiqlaydi. Kimyoviy tozalash usullari esa og‘ir metallar va toksik moddalarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.Shuningdek, ekologik xavfsiz tozalash texnologiyalarini joriy etish suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tanqisligi muammosini yumshatish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilishi aniqlandi. Oqartirilgan oqava suvlarni qayta foydalanish imkoniyatlari atrof-muhitga bo‘lgan antropogen yuklamani kamaytiradi.Mazkur tadqiqot natijalari oqava suvlarni tozalash tizimlarini takomillashtirish, ekologik monitoringni kuchaytirish hamda zamonaviy, resurs tejamkor texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Nazarov A. A.** Oqava suvlarni tozalash texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012.
2. **Karimov B. X., Rahmonov Sh. M.** Suv resurslarini muhofaza qilish va oqava suvlarni tozalash asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. **Ismoilov O. O.** Ekologik xavfsizlik va suv ekotizimlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
4. **Abdullayev A. R.** Sanoat oqava suvlarini tozalash usullari. – Toshkent: Fan, 2008.
5. **Qodirov M. S.** Atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslaridan foydalanish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014.

SHELUXA MIQDORINING YUQORI OQSILLI PAXTA SHROTI SIFATIGA TA’SIRI

Nasredinov Dilshod A.
Gulistan State University.
Yulchiyev Aslbek B.
Andijan State University
Serkayev Qamar P.
Tashkent Institute of Chemical Technology
Turabekova Dilorom B.
Gulistan State University.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paxta, kungaboqar va soya chigitlaridan moy ajratib olishda qo'llaniladigan turli ekstraksiya usullarining hamda paxta chigiti yanchilmasi tarkibidagi sheluxa miqdorining shrotning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ta'siri yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *paxta shroti, to'g'ridan-to'g'ri ekstraksiya, sheluxa miqdori, erkin gossipol, yuqori oqsilli shrot, moyli xomashyo*

Hozirgi kunda dunyoda o'simlik moylari ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni xususan ekstraksiya tizimlarini takomillashtirish, turli ekstragentlardan foydalanish, turli nisbatlardagi kimyoviy tarkibi muvofiqlashtrilgan erituvchilarni ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1,4]. Bu borada moyli xom ashyolarning individualligidan kelib chiqib erituvchilarni tanlash, bir vaqtning o'zida o'simlik moyi bilan birga, ikkilamchi mahsulotlarning ham sifatini saqlab qolish, ulardan ratsional foydalanish diapazonini kengaytirish, o'simlik moylari ishlab chiqarishga an'anaviy erituvchi ekstraksion benzin birga birga, turli organik erituvchilardan bir vaqtning o'zida foydalanish, ularning turli kompozitsiyalarini ishlab chiqishga hamda ishlab chiqarishni ilmiy asoslashga, iqtisodiy samaradorligi yuqori texnologiyalarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [2].

Kungaboqar va soya shrotlarida ham shunga o'xshash qonuniyatlar kuzatilib, to'g'ridan-to'g'ri ekstraksiya usuli shrot sifatini yaxshilashda eng maqbul usul ekanligi tasdiqlandi. Ayniqsa, qoldiq erituvchi va qoldiq moy miqdorining minimal

darajada bo‘lishi shrotni omixta yem sanoatida keng qo‘llash imkonini yaratadi [3,7].

Bizga ma’lumki o‘simlik moylari olishda asosiy mahsulot to‘liq texnologik tsiklda tozalangan o‘simlik moylari, qobiq (luzga, sheluxa) va tosterlangan shrot sanaladi. O‘simlik moylari olish texnologiyasida moyli xom ashyoni qayta ishlashda, qo‘shiladigan qobiq miqdori ham muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Moyli xom ashyoni qayta ishlanish usulidan qat’iy nazar, texnologiyaning o‘ziga hos texnologik ko‘rsatkichlariga e’tibor berish va boshqarish texnologdan muhim nazariy va amaliy bilimlarni talab qiladi [5].

Tadqiqot davomida bosqichli presslash, forpress–ekstraksiya va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya usullari solishtirma tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya usulida tayyorlangan tosterlangan shrotlar yuqori oqsil miqdori, past qoldiq moy va erkin gossipol miqdori bilan ajralib turdi. Xususan, paxta shrotida xom protein miqdori bosqichli presslashda 42 % bo‘lgan bo‘lsa, forpress–ekstraksiya usulida 44 % ga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya usulida esa 54 % gacha yetdi. Shu bilan birga, erkin gossipol miqdori mos ravishda 0,04 % dan 0,006 % gacha kamaygani aniqlandi.

Quyidagi jadvalda turli usullarda qayta ishlash natijasida olingan shrotlarning fizik-kimyoviy ko‘rsatgichlari keltirilgan.

Moyli xom ashyoni turli usullarda qayta ishlash natijasida olingan shrotlarning fizik-kimyoviy ko‘rsatgichlari

	Ko‘rsatkichlar nomi	Moyni ajratib olish usuli		
		Bosqichli presslash	Forpress-ekstraksiya	To‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya
Paxta shroti (tosterlangan)				
	Quruq modda miqdoriga nisbatan xom protein miqdori, %, kam emas	42	44	54

	Quruq modda miqdoriga nisbatan qoldiq moy saqlami, %, ko‘p emas	7	1,5	1,5
	Namlik va uchuvchan moddalar saqlami, %	10	11	10
	Quruq modda miqdoriga nisbatan xom kletchatka saqlami, %, ko‘p emas	14	25	7
	Quruq modda miqdoriga nisbatan erkin gossipol saqlami, % ko‘p emas	0,04	0,02	0,006
	Qoldiq erituvchi miqdori, %, ko‘p emas	-	0,05	0,05
Kungaboqar shroti (tosterlangan)				
	Quruq modda miqdoriga nisbatan xom protein saqlami, %, kam emas	34	36	39
	Quruq modda miqdoriga nisbatan moy saqlami, %, ko‘p emas	7	1,5	1,5
	Namlik va uchuvchan moddalar saqlami, %	11	11	9
	Quruq modda miqdoriga nisbatan xom kletchatka saqlami, %, ko‘p emas	23	25	21
	Qoldiq erituvchi miqdori, %, ko‘p emas	-	0,08	0,05
Soya shroti (tosterlangan)				


	Quruq modda miqdoriga nisbatan xom protein saqlami, %, kam emas	38	46	47
	Quruq modda miqdoriga nisbatan qoldiq moy saqlami, %, ko‘p emas	7	1,8	1,5
	Namlik va uchuvchan moddalar saqlami, %	10	11	10
	Quruq modda miqdoriga nisbatan xom kletchatka saqlami, %, ko‘p emas	7	7	7
	Qoldiq erituvchi miqdori, %, ko‘p emas	-	0,1	0,1
	Ureaza fermenti aktivligi (pH 30 minutda)	0,6	0,2	0,1

Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turganidek, bugungi kunda mavjud moy ajratish usullari asosiy mahsulot hisoblangan moyning sifatini yaxshi saqlab qolishga imkon yaratsada, muhim ikkilamchi mahsulot shrotning tarkibiy moddalari va sifatini samarali boshqarish imkonini bermaydi. Bundan tashqari moyli xom-ashyolar qayta ishlash usullarida ularning tarkibidagi ko‘rsatkichlar ham shunga mos ravishda o‘zgaradi. Birgina paxta shrotini bosqichli ekstraksiya qilinganda tarkibidagi oqsil miqdori 42 % bo‘lsa, forpress-ekstraksiya usulida bu ko‘rsatkich ikki usulga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, 44 %ga teng ekanligi aniqlandi. Shuningdek erkin gossipolning eng yuqori qiymati 1-usul hissasiga to‘g‘ri kelib, 0,04 % bo‘lsa, uchinchi usulda 0,006 %ga teng bo‘ldi. Paxta shroti tarkibidagi oqsil miqdorining ortishi erkin gossipol miqdorining kamayishi paxta shrotidan foydalanish spektirini kengayishiga xizmat qiladi.

Paxta chigiti yanchilmasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya qilish jarayonida sheluxa miqdorining ta’siri alohida o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sheluxa miqdorining optimal qiymati 8 % ni tashkil etib, bu holda ekstraksiya jarayoni 120–130 minut davom etishi va barqaror texnologik rejim ta’minlanishi aniqlandi. Sheluxa miqdorining 10 % dan ortishi ekstraksiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, olinadigan shrotning oqsil miqdorini kamaytirishi kuzatildi.

Shuningdek, shrot tarkibidagi suvda eruvchan oqsillar ulushining ortishi erkin gossipol miqdorining kamayishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu esa paxta shrotidan yuqori oqsilli va xavfsiz yem xomashyosi sifatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuqori oqsilli, kam gossipolli paxta shroti olishda eng samarali usul to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya usuli ekanligi ilmiy asoslandi.

1-rasmda shrotlar tarkibidagi suvda eruvchan oqsillarning ulushini sanoat usullari bo‘yicha tahlil natijalari keltirilgan.



	Paxta shroti	Kungaboqar shroti	Soya shroti
B.P.	59,9	54,3	63,5
F-E	51,2	53,8	56,2
T.T.E.	63,7	55,7	70,3

1-rasm. Shrotlar tarkibidagi suvda eruvchan oqsillarning olinish usullariga bog‘liq o‘zgarishi

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, paxta shroti tarkibidagi suvda eruvchan oqsillarning eng yuqori miqdori, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya usuli hissasiga to‘g‘ri

keladi va 63,7 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, kungaboqar va soya shrotlari tarkibidagi suvda eruvchan oqsillarning ulushi ham shunga mos ravishda ortib borgani aniqlandi. Shuningdek, suvda eruvchan oqsillarning eng kam miqdori, forpress-ekstraksiya usulida ekanligi aniqlanib, o‘simlik moylarini forpress-ekstraksiya usulida qayta ishlanganda, xom ashyoning turidan kelib chiqib, 80-105 ℃ oraliqda 50-70 min davomida issiqlik bilan ishlov berish, o‘simlik moylarini chiqish miqdorlarini ortishiga ijobiy ta’sir qilishi bilan birga, olinadigan shrot tarkibidagi oqsilni boshqa hamroh moddalar bilan kompleks birikma hosil qilishiga hamda oqsillarning denaturatsiyasiga uchrashi natijasidir. Olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘simlik moylari olishda ikkilamchi mahsulot shrotni xususan paxta shroti tarkibidagi quruq modda miqdoriga nisbatan erkin gossipol saqlamini minimallashtirish uchun bugungi kunda keng foydalanilayotgan bosqichli presslash va forpress-ekstraksiya usullariga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekstraksiya usuli samaraliroq ekanligi aniqlandi.

References

1. **Bailey A. E.** Industrial Oil and Fat Products. — New York: Wiley-Interscience, 2005.
2. **Gunstone F. D.** Vegetable Oils in Food Technology: Composition, Properties and Uses. — Oxford: Blackwell Publishing, 2011.
3. **Erickson D. R.** Practical Handbook of Soybean Processing and Utilization. — Champaign: AOCS Press, 2015.
4. **Nasredinov D. A., Yulchiyev A. B., Serkayev Q. P.** Yuqori oqsilli shrot olishda erituvchilarning optimal tarkibini ishlab chiqish // Central Asian Food Engineering and Technology. — 2025. — № 4. — P. 76–87.
5. **Mustafayev A. M.** Moyli ekinlarni qayta ishlash texnologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. **Shahidi F.** Bailey’s Industrial Oil and Fat Products. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2020.

7. **Дворецкий Д. С., Дворецкий С. И.** Основы проектирования пищевых производств. — Москва: ДеЛи плюс, 2013. — 540 с.

GIDROPONIKA USULIDA QULUPNAY YETISHTIRISHNING ILMIY-TEXNOLOGIK ASOSLARI VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Xabibullayev Abdullazizxon Omonillo o'g'li

Namangan davlat universiteti

O.X. Sindarov

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti

Anotatsiya. *Mazkur tadqiqotda pliyonka bilan qoplangan issiqxonalarida qo'llanilayotgan gidroponik tizimlarning konstruktiv xususiyatlari, substrat va ozuqa eritmalarining optimal tarkibi, sensor-asoslangan boshqaruv texnologiyalari hamda ularning qulupnay o'sishi va mahsulot sifatiga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar tahlili natijalariga ko'ra, yopiq siklli gidroponik tizimlarda suv va mineral moddalardan foydalanish samaradorligi 30–50 % ga oshib, meva hosildorligi an'anaviy tuproqli usullarga nisbatan 1,5–2,0 barobar yuqori bo'lishi aniqlangan. Shuningdek, mevalarning quruq modda miqdori va mexanik mustahkamligi sezilarli darajada yaxshilanashi kabi malumotlar keltrilgan.*

Kalit so'zlar: *qulupnay, gidroponika, issiqxonalari, sensor nazorati, substrat tizimlari, resurs samaradorligi, hosildorlik.*

KIRISH

Qulupnay (*Fragaria × ananassa Duch.*) dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan va iqtisodiy jihatdan yuqori qiymatga ega bo'lgan rezavor mevali ekinlardan biri

hisoblanadi. FAO ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yillikda qulupnay yetishtirish hajmi 40 % dan ortiq oshib, uning global ishlab chiqarish hajmi yiliga 9 million tonnadan oshgan. Qulupnay nafaqat yangi iste’mol uchun, balki qayta ishlash sanoati, farmatsevtika va funksional oziq-ovqat ishlab chiqarishda ham keng qo‘llanilmoqda.

Qulupnay mevalarining yuqori biologik qiymati uning tarkibida askorbin kislotasi, fenolik birikmalar, flavonoidlar va antioksidant moddalarning yuqori miqdorda mavjudligi bilan izohlanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qulupnay mevalarining antioksidant faolligi ko‘plab boshqa meva ekinlariga nisbatan yuqori bo‘lib, inson organizmida yurak-qon tomir kasalliklari va metabolik buzilishlar xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi (Hannum, 2004; Giampieri et al., 2012).

Biroq an’anaviy tuproqli usullarda qulupnay yetishtirish jarayoni bir qator muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ularga tuproq kasalliklari, patogen mikroorganizmlar, sho‘rlanish, suv tanqisligi va agrotexnik tadbirlarning yuqori mehnat talabchanligi kiradi. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi sharoitida ochiq dalalarda barqaror hosil olish tobora qiyinlashib bormoqda. Shu sababli so‘nggi yillarda intensiv issiqxona xo‘jaligi va tuproqsiz yetishtirish texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortmoqda (Sindarov, 2025).

Gidroponika — bu o‘simliklarni tuproqsiz, maxsus ozuqa eritmalari yordamida yetishtirishga asoslangan intensiv agrotexnologiya bo‘lib, u o‘simlik ildiz tizimini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mineral elementlar bilan ta’minlash imkonini beradi. Soilless cultivation tizimlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yuqori texnologiyali qishloq xo‘jaligi tizimlarida keng joriy etila boshladi.

Resh (2013) ma’lumotlariga ko‘ra, gidroponik tizimlarda suv sarfi an’anaviy tuproqli ekinlarga nisbatan 60–80 % ga kamayadi, mineral o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligi esa 2–3 baravar oshadi. Bundan tashqari, tuproq bilan bog‘liq kasalliklar va begona o‘t muammolari deyarli bartaraf etiladi, bu esa fitosanitar holatni barqaror saqlash imkonini beradi.

Qulupnay gidroponik tizimlar uchun eng mos meva ekinlaridan biri hisoblanadi. Chunki uning ildiz tizimi nisbatan sayoz joylashgan bo‘lib, ozuqa eritmalariga tez moslashadi va vegetatsiya davri qisqa. Ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, gidroponik tizimlarda yetishtirilgan qulupnay mevalarining massasi, shakli va qand miqdori tuproqli usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi (Lieten, 2000; Treftz & Omaye, 2015).

Koreya Respublikasi so‘nggi o‘n yillikda issiqxona xo‘jaligi va gidroponik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Mamlakatda “smart greenhouse” konsepsiyasi asosida avtomatlashtirilgan issiqxonalar barpo etilib, unda mikroiqlim, yoritish, sug‘orish va ozuqa ta’minoti to‘liq raqamli boshqaruv ostida amalga oshiriladi.

Koreya Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi (RDA) tadqiqotlariga ko‘ra, sensor-asoslangan fertigation tizimlari yordamida pH, elektr o‘tkazuvchanlik (EC), harorat va nisbiy namlik doimiy nazorat qilinadi. Bu esa o‘simlik ehtiyojlariga mos optimal muhit yaratib, vegetativ o‘sish va generativ rivojlanishni muvozanatli ta’minlaydi (Kim et al., 2018).

Ayniqsa, koreys issiqxonalarida qulupnay yetishtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan substrat tizimlari va vertikal joylashtirish texnologiyalari yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p qavatli gidroponik tizimlarda bir birlik maydondan olinadigan hosil miqdori an’anaviy issiqxonalarga nisbatan 2–2,5 baravar yuqori bo‘ladi (Lee et al., 2021).

Ilmiy tadqiqot dolzarbligi

Umuman olganda, gidroponik tizimlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, qulupnay yetishtirishda smart texnologiyalarining kompleks ta’siri — ya’ni substrat, ozuqa eritmalari, avtomatlashtirish va mikroiqlim boshqaruvi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi iqlim o‘zgaruvchanlik darajasiga bog‘liq hududlar darajasida yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan.

Gidroponika sharoitida koreys tipidagi issiqxonalarda qulupnay yetishtirishda navlarning morfologik va mahsuldorlik belgilariga asoslangan tanlovi o‘simliklarning moslashuvchanligi, hosildorlik darajasi hamda meva sifatini

optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. (O. Sindarov, 2025) morfologik va mahsuldorlik belgilariga asoslangan nav tanlash qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim ilmiy-texnologik omili ekanligini ta’kidlaydilar.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston sharoitida bu texnologiyalarni moslashtirish masalasi ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Iqlimning keskin kontinental xarakteri, suv resurslarining cheklanganligi va yuqori quyosh radiatsiyasi gidroponik tizimlarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi, biroq optimal texnologik parametrlarni aniqlash alohida ilmiy yondashuvni talab etadi.

Gidroponika sharoitida koreys issiqxonalarida qulupnay navlarining morfologik rivojlanish darajasi fotosintetik faollik va vegetativ o‘sish barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sindarov O.X. (2025) issiqxona sharoitida yetishtirilgan navlar orasida “Seolhyang” navi barg sonining ko‘pligi, barg plastinkasining yaxshi rivojlanganligi hamda xlorofill (SPAD) ko‘rsatkichlarining o‘rtacha–yuqori darajada bo‘lishi bilan ajralib turishini qayd etadi, bu esa navning fotosintetik faolligini oshirib, vegetativ o‘sishning barqarorligini ta’minlaydi.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi koreys issiqxonalarida qo‘llanilayotgan gidroponik tizimlarning konstruktiv va texnologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning qulupnay o‘sishi, hosildorligi va mahsulot sifatiga ta’sirini baholash hamda ularni mahalliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Tajribalarda uch xil substrat varianti sinovdan o‘tkazildi:

1. Kokos tolasi (cocopeat)
2. Cocofit + perlit (80:20 nisbatda)

MATERIAL VA METODLAR

Tajriba ob’ekti sifatida yuqori hosildorlikka ega bo‘lgan koreys seleksiyasiga mansub ‘Seolhyang’ qulupnay navi tanlab olindi. Ushbu nav Koreyada sanoat

issiqxona yetishtirishida keng tarqalgan bo‘lib, yirik mevalari, yuqori shakar miqdori va transportga chidamliligi bilan ajralib turadi.

Gidroponika sharoitida koreys issiqxonalarida qulupnay yetishtirishda navlarga xos agrobiologik ko‘rsatkichlarning ekish davri va yetishtirish tizimiga bog‘liq holda sezilarli darajada farqlanishi ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sindarov (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Arihyang, “Seolhyang”, “Santa” va “Geumsil” navlari organoleptik, morfologik va sifat ko‘rsatkichlari asosida baholanib, o‘lcham, massa, titrlanuvchi kislotalilik va suv miqdori kabi parametrlar asosiy baholash mezonlari sifatida qo‘llanilgani qayd etiladi.

Tajribalarda yopiq siklli substrat asosidagi tomchilatib oziqlantirish tizimi qo‘llanildi. O‘simliklar balandligi 1,2 m bo‘lgan metall karkasli stendlarda joylashtirilib, har bir stendda polietilen o‘ramli kanallar o‘rnatildi. Kanal ichiga inert substrat joylashtirildi va o‘simlik ildizlari bevosita substratga joylashtirildi.

Tizimning asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- ozuqa eritmasi saqlash rezervuari (1 000 l hajmda);
- avtomatlashtirilgan nasos bloki;
- tomchilatib oziqlantirish liniyalari;
- drenaj yig‘ish va qayta aylantirish tizimi;
- sensor-nazorat bloki (pH, EC, harorat va namlik sensori).

Yopiq siklli tizimda drenaj eritmasi maxsus filtrlash blokidan o‘tkazilib, qayta ishlatildi. Bu suv va o‘g‘it sarfini kamaytirish hamda atrof-muhitga chiqindilar chiqarilishini minimallashtirish imkonini berdi (Resh, 2013; Lee et al., 2021).

O‘simliklarning vegetativ rivojlanishi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

- poyaning balandligi (sm);
- barglar soni va umumiy barg maydoni (sm²);
- gullar va meva tugunlari soni.

Hosildorlik quyidagi parametrlar orqali aniqlanadi:

- bir o‘simlikdan olingan mevalar soni;

- meva massasi (g);
- umumiy hosil ($kg \cdot m^{-2}$).

Meva sifat ko‘rsatkichlari sifatida:

- eruvchan quruq moddalar miqdori (SSC, °Brix);
- meva qattiqligi (N);
- meva diametri va shakli baholandi (Lee et al., 2021).

NATIJALAR

Tajriba davomida substrat turlari va fertigation rejimining qulupnay o‘simliklarining vegetativ rivojlanishiga sezilarli ta’siri kuzatildi. Kokos tolasi asosidagi substratda yetishtirilgan o‘simliklarda poya balandligi o‘rtacha 28,4 ± 1,6 sm ni tashkil etib, perlit asosidagi substratga nisbatan 12,3 % yuqori bo‘ldi.

Perlit qo‘shilgan substratda esa poya balandligi 31,2 ± 1,4 sm ga yetib, barcha variantlar orasida eng yuqori natija qayd etildi.

Barglar soni va umumiy barg maydoni ham substrat tarkibiga sezilarli bog‘liq ekanligi aniqlandi. Cocofit + perlit asosida qo‘llanilgan substrat variantida bir o‘simlikka to‘g‘ri keladigan barglar soni o‘rtacha 14,6 ± 0,9 dona, umumiy barg maydoni esa 1 250 ± 85 sm^2 ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar perlit variantiga nisbatan mos ravishda 18,5 % va 22,7 % yuqori bo‘ldi. Bu holat Cocofit + perlit substratlarining suv va ozuqa moddalari ushlab turish qobiliyati yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Gullar soni va generativ organlar shakllanishi ham Cocofit + perlit asosidagi substratda maksimal darajada namoyon bo‘ldi. Har bir o‘simlikda o‘rtacha 7,8 ± 0,6 ta gullash poyasi hosil bo‘lib, bu ko‘rsatkich kokos tolasi variantiga nisbatan 15,4 % yuqori bo‘ldi.

Hosildorlik natijalari substrat va oziqlantirish tizimlari o‘rtasida yaqqol farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Cocofit + perlit variantida bir o‘simlikdan olingan mevalar soni o‘rtacha 18,6 ± 1,3 dona, umumiy meva massasi esa 412 ± 28 g ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich nazoratga nisbatan 1,7 baravar yuqori bo‘ldi.

Bir kvadrat metr maydondan olinadigan umumiy hosil biochar asosidagi tizimda 6,4 ± 0,3 kg·m^{-2} ni tashkil etib, kokos tolasi variantida 5,2 ± 0,4 kg·m^{-2}, Cocofit + perlit variantida esa 4,1 ± 0,3 kg·m^{-2} darajasida qayd etildi. Natijalar yopiq siklli gidroponik tizimlarda hosildorlik an'anaviy tuproqli issiqxonalarga nisbatan o'rtacha 45–60 % yuqori bo'lishini tasdiqladi.

Hosil berish dinamikasi tahlili shuni ko'rsatdiki, Cocofit + perlit asosidagi variantlarda hosil berish boshlanishi 5–7 kun oldinroq kuzatildi va meva yig'ish davri uzayib, umumiy vegetatsiya davomida barqaror hosil ta'minlandi.

Mevalarning sifat ko'rsatkichlari gidroponik tizimlarning afzalliklarini yaqqol namoyon etdi. Cocofit + perlit variantida mevalarning o'rtacha massasi 22,1 ± 1,5 g bo'ldi. Meva diametri 34,2 ± 2,1 mm ni tashkil etdi, bu esa savdo standartlariga to'liq javob beradi.

Meva qattiqligi ham biochar variantida maksimal qiymatga ega bo'lib, 2,15 ± 0,12 N darajasida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkich mevalarning transportga chidamliligini va saqlanish muddatini uzaytiradi.

Yopiq siklli gidroponik tizimlarda suv sarfi an'anaviy issiqxonalarga nisbatan sezilarli darajada kamaydi. Tajriba davomida Cocofit + perlit asosidagi variantda bir kilogramm hosil yetishtirish uchun o'rtacha 18,5 L suv sarflandi, bu tuproqli tizimlarga nisbatan 2,3 baravar kamdir.

Ozuqa moddalari samaradorligi ham yuqori bo'lib, azot va kaliy o'zlashtirilish koeffitsienti biochar variantida mos ravishda 72 % va 78 % ni tashkil etdi. Drenaj eritmasida nitrat va fosfat ionlarining konsentratsiyasi minimal darajada saqlanib, atrof-muhitga chiqindilar chiqarilishi sezilarli kamaydi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari substrat tarkibi qulupnay o'simliklarining vegetativ rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Cocofit + perlit qo'shilgan substratlarda poya balandligi, barg maydoni va generativ organlar sonining sezilarli darajada yuqori bo'lishi substratning fizik-kimyoviy xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Graber et al. (2010) va Sindarov (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Cocofit + perlit substratlarining yuqori kation almashinuvi

sig‘imi va mikroelementlarni adsorbsiyalash qobiliyati ildiz zonasida ozuqa elementlarining barqaror konsentratsiyasini ta’minlashi ta’kidlangan.

Bizning natijalarimiz Lieten (2000) hamda Treftz va Omaye (2015) tomonidan keltirilgan ma’lumotlar bilan mos keladi, ya’ni substratning suvni ushlab turish qobiliyati yuqori bo‘lganda ildiz tizimining faol rivojlanishi va generativ fazaga o‘tish tezlashadi. Ayniqsa, biochar substratlarida ildiz zonasi aeratsiyasining yaxshilanishi oksidlovchi stressni kamaytirib, fotosintetik faoliyatni barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Hosildorlikning biochar asosidagi variantlarda 45–60 % ga yuqori bo‘lishi bir nechta omillarning kompleks ta’siri bilan izohlanadi. Birinchidan, yopiq siklli gidroponik tizimlarda ozuqa eritmasining doimiy va aniq boshqarilishi o‘simliklarni mineral elementlar bilan optimal darajada ta’minlaydi. Resh (2013) ma’lumotlariga ko‘ra, fertigation jarayonida ozuqa elementlarining ildiz zonasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazilishi ularning o‘zlashtirilish samaradorligini 2,0 baravarga oshiradi.

Ikkinchidan, smart issiqxonalarida qo‘llanilayotgan mikroiqlim boshqaruvi (harorat, CO_2 va yorug‘lik intensivligi) fotosintez jarayonini maksimal darajada faollashtiradi. Kim et al. (2018) ta’kidlaganidek, CO_2 konsentratsiyasini 800–1 000 ppm darajada ushlab turish net fotosintez tezligini 25–35 % ga oshiradi, bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri hosil massasining ortishiga olib keladi.

Shuningdek, hosil berish davrining uzayishi va meva yig‘ish boshlanishining tezlashishi o‘simliklarning generativ rivojlanishiga stress omillarining kamayishi bilan bog‘liq. Bu holat yopiq muhitda fitosanitar sharoitlarning barqaror saqlanishi va patogen bosimning pastligi bilan izohlanadi.

Meva qattiqligining oshishi hujayra devori komponentlari — sellyuloza va gemitsellyulozaning sintezi faollashuvi bilan bog‘liq. Bu holat mevalarning mexanik mustahkamligini oshirib, transport va saqlash jarayonida yo‘qotishlarni kamaytiradi. Lee et al. (2021) natijalari ham bizning tadqiqotlarimiz bilan mos kelib, gidroponik tizimlarda yetishtirilgan mevalarning saqlanish muddati o‘rtacha 3–5 kun uzayishini ko‘rsatadi.

Smart issiqxonalarida qo‘llanilayotgan avtomatlashtirilgan sensor-nazorat tizimlari intensiv bog‘dorchilikda yangi bosqichni boshlab berdi. Real vaqt rejimida pH, EC, harorat va namlikni boshqarish o‘simlik ehtiyojlariga mos moslashuvchan tizim yaratadi. Bu texnologiyalarni O‘zbekiston sharoitida joriy etish suv tanqisligi muammosini yumshatish va hosildorlikni barqaror oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, vertikal joylashtirish va ko‘p qatlamli tizimlar maydon samaradorligini 2–3 baravar oshirishi mumkin. Bu urbanizatsiya sharoitida intensiv meva yetishtirish uchun muhim innovatsion yo‘nalish hisoblanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari smart issiqxonalarida qo‘llanilayotgan gidroponik texnologiyalar qulupnay yetishtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Yopiq siklli substrat asosidagi tizimlar o‘simliklarning vegetativ va generativ rivojlanishini tezlashtirib, hosildorlik, meva sifati hamda resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks ravishda yaxshilaydi.

Ushbu substrat tizimi bir o‘simlikdan olinadigan hosil miqdorini 1,5–1,7 baravar oshirib, bir birlik maydondan olinadigan umumiy hosilni 45–60 % ga ko‘paytirishga imkon berdi.

Suv sarfining 2,0 baravardan ortiq kamayishi va drenaj eritmasining qayta ishlatilishi atrof-muhitga chiqindilar chiqarilishini sezilarli darajada cheklaydi.

Ushbu natijalar O‘zbekiston sharoitida intensiv qulupnay yetishtirish texnologiyalarini joriy etishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Iqlimning keskin kontinental xarakteri va suv resurslarining cheklanganligi sharoitida smart gidroponik texnologiyalarini moslashtirish yuqori hosil olish, suv tejamkorligini oshirish va yuqori sifatli mahsulot yetishtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Resh H. M.** Hydroponic Food Production: A Definitive Guidebook for the Advanced Home Gardener and the Commercial Hydroponic Grower. — 7th ed. — Boca Raton: CRC Press, 2013.
2. **Sindarov O.** Issiqxona sharoitida turli xususiyatga ega plyonkalarning qulupnay navlariga ta’siri // FarDU “Ilmiy xabarlar” jurnali. — 2025. — № 2. — B. 232–237.
3. **Lieten P.** Advances in strawberry substrate culture during the last twenty years in Belgium // Acta Horticulturae. — 2000. — Vol. 513. — P. 141–147.
4. **Sindarov O.** Integration of smart farming technologies for sustainable strawberry production in controlled environments // Sustainable Agriculture. — 2025. — Vol. 2, No. 26. — P. 45–51. — DOI: 10.5281/zenodo.16415069.
5. **Sindarov O.** Qulupnay navlarining kasalliklarga nisbatan ta’sirchanligi // Agrokimyo himoya va o‘simliklar karantini. — 2025. — № 1 (108). — B. 73–74. — DOI: 10.63241/2025127akhv.
6. **Sindarov O. Kh.** Technologies for growing strawberries in hydroponic conditions // Sustainable Agriculture. — 2025. — № 1 (25). — B. 47–53.
7. **Treftz C.**, **Omaye S. T.** Hydroponics: Potential for augmenting sustainable food production in non-arable regions // Nutrition & Food Science. — 2015. — Vol. 45, No. 5. — P. 672–684.
8. **Kim H. J.**, **Lee J. W.**, **Park J. S.** Smart greenhouse management using sensor-based environmental control for strawberry production // Horticultural Science & Technology. — 2018. — Vol. 36, No. 4. — P. 456–468.
9. **Lee S. Y.**, **Choi J. M.**, **Kim Y. H.** Effects of closed-loop hydroponic systems on yield and fruit quality of strawberry grown in greenhouse // Horticulturae. — 2021. — Vol. 7, No. 8. — Art. 215.
10. **Giampieri F.**, **Tulipani S.**, **Alvarez-Suarez J. M.**, **Quiles J. L.**, **Mezzetti B.**, **Battino M.** The strawberry: Composition, nutritional quality, and impact on human health // Nutrition. — 2012. — Vol. 28, No. 1. — P. 9–19.

11. **Graber E. R.**, **Harel Y. M.**, **Kolton M.** et al. Biochar impact on development and productivity of pepper and tomato grown in fertigated soilless media // Plant and Soil. — 2010. — Vol. 337. — P. 481–496.
12. **Hannum S. M.** Potential impact of strawberries on human health: A review of the science // Critical Reviews in Food Science and Nutrition. — 2004. — Vol. 44, No. 1. — P. 1–17.
13. **Kang J. G.**, **Kim S. Y.** Optimization of nutrient solution composition for hydroponic strawberry cultivation under controlled environments // Scientia Horticulturae. — 2019. — Vol. 246. — P. 292–300.
14. **Lee J. H.**, **Park K. S.**, **Ryu S. H.** Resource-use efficiency and environmental impact of closed hydroponic systems in strawberry production // Journal of Cleaner Production. — 2020. — Vol. 268. — Art. 122–134.

VEGETATIV PAYVANDTAGLARNING YOG‘OCHLASHGAN QALAMCHALARINI ILDIZ OLDIRISHDA O‘SISHNI BOSHQARUVCHI MODDALAR VA QALAMCHA YO‘G‘ONLIGINING SAMARADORLIGI

Xayitboyev Boxodir Toyirovich
Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik,uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot insituti Toshkent ilmiy tajriba stansiyasi
Ahmatbekova Mavluda Rustamxodjayevna
Alfraganus Unversiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Evrika 99", "Miroblan 29C", "Fortuna" va "Krimskiy-5" klon payvandtaglarini yog‘ochlashgan qalamchalar yordamida ko‘paytirish samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot davomida Indol moy kislotasining*

(IMK) turli miqdorlari hamda qalamcha yo‘g‘onligining o‘zaro mutanosibligi o‘rganilib, ularning ildiz olish ko‘rsatkichlariga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Klon payvandtaglar, yog‘ochlashgan qalamcha, IMK (Indol moy kislotasi), o‘sishni boshqaruvchi moddalar, vegetativ ko‘payish, auksinlar, qalamcha yo‘g‘onligi, ko‘karuvchanlik, Prunus, ildiz hosil bo‘lishi.*

KIRISH. Zamonaviy mevachilikda intensiv bog‘larni tashkil etishda vegetativ yo‘l bilan ko‘paytiriladigan klon payvandtaglardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Klon payvandtaglar daraxtlarning bir tekis o‘sishini, hosildorlikni erta boshlashini va tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi. Biroq, ko‘plab qimmatli payvandtag turlarini xususan, danakli mevalar uchun mo‘ljallanganlarini oddiy yog‘ochlashgan qalamchalar usulida ko‘paytirishda ildiz olish foizining pastligi asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘simliklar fiziologiyasida ildiz hosil bo‘lishini rag‘batlantirish uchun auksinlar guruhiga kiruvchi o‘sishni boshqaruvchi moddani, jumladan, Indol moy kislotasidan (IMK) foydalanish keng tarqalgan. Shu bilan birga, ildiz olish jarayoni nafaqat tashqi o‘sishni boshqaruvchi moddaga, balki qalamchaning ichki resurslariga — uning yo‘g‘onligi va onalik o‘simligidagi joylashuviga ham bog‘liq. Mazkur tadqiqotning maqsadi turli xil klon payvandtaglar uchun IMKning maqbul me’yori va qalamcha yo‘g‘onligining optimal uyg‘unligini aniqlashdan iborat.

Prunus turkumi payvandtaglarida IMK miqdori ildiz hosil bo‘lish jarayonini faollashtiruvchi asosiy omil ekanligini, biroq har bir genotip uchun individual aniq miqdor mavjudligini va me’yordan ortiq konsentratsiyalar regeneratsiyaga to‘sqinlik qilishini ta’kidlangan [1, 4]. Xususan, "Krymsk" seriyasidagi payvandtaglarning tashqi kimyoviy ta’sirlarga o‘ta sezgirligini aniqlangan [5].

Qalamchaning morfo-fiziologik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, novdaning pastki qismidan tayyorlangan va etarli diametrga ega qalamchalar, zaxira uglevodlarning yuqoriligi hisobiga, ildiz olishda yuqori barqarorlikni ta’minlaydi [2, 3]. Shuningdek, qalamchalarning pastki qismini auksin eritmasida ivitish usuli ishlab chiqarish uchun eng samarali agrotexnik tadbir ekanligini ilmiy asoslab berilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Olib borilgan tadqiqotlar F.Y.Polikarpova «Размножение плодовых и ягодных култур зелеными черенками» (1990) uslubiy qo‘llanmasi asosida o‘tkazildi [7].

O‘sishni boshqaruvchi modda sifatida IMK quyidagi miqdorlarda qo‘llanildi: 45, 60, 75, 90 va 110 mg/l. Nazorat sifatida variantida qalamchalar toza suvda ivitildi. Ekish sxemasi 70x20 sm xisobida amalga oshirildi. Barcha agrotexnik tadbirlar belgilangan me’yorlar asosida olib borildi.

Tahlil va natijalar. Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘sishni boshqaruvchi moddasiz suv nazorat variantlarda ildiz olish ko‘rsatkichlari juda past bo‘lib, payvandtag turiga qarab 34,3% dan 49,4% gachani tashkil etdi.

Evrika 99 payvandtagi eng yuqori samaradorlik IMKning 75 mg/l miqdorida kuzatildi. Qalamcha yo‘g‘onligi oshgani sari ko‘karuvchanlik ham oshdi, uchki qismda 76,2%, o‘rta qismda 81,7% va pastki qismda 85,8% ni tashkil etdi. O‘sishni boshqaruvchi modda miqdori 110 mg/l ga oshirilganda ko‘rsatkichlar keskin pasayib (50,3–63,2%), nazorat variantiga yaqinlashdi.

Miroblan 29 C payvandtagida IMKning 75 va 90 mg/l dozalari yuqori natija berdi. Eng yuqori ko‘rsatkich – 86,5% (90 mg/l, pastki qism) qayd etildi. Ammo, ingichka (uchki) qalamchalar uchun 90 mg/l miqdor biroz kuchlilik qildi (68,1%) va 75 mg/l varianti (71,7%) maqbulroq ekanligi aniqlandi.

Fortuna va Krimskiy-5 payvandtaglari Fortuna payvandtagi uchun

1-jadval

O‘sishni boshqaruvchi modda miqdori va qalamcha yo‘g‘onligining yog‘ochlashgan qalamchalarning ko‘karuvchanligiga ta’siri (70x20)

Payvandtaglar	Variantlar	Qalamchalarning qalinligi		
		Uchki (2-4 mm)	O‘rta (4-6 mm)	Paski (6-10 mm)
		Yog‘ochlashgan qalamchalar ko‘karuvchanligi, %		
Evrika 99	Suv	42,3	44,5	39,6
	IMK -45 mg/l	63,6	64,3	68,2
	IMK -60 mg/l	70,4	65,4	70,7
	IMK -75 mg/l	76,2	81,7	85,8
	IMK -90 mg/l	74,8	75,4	87,6
	IMK -110 mg/l	52,3	63,2	50,3
Miroblan 29 C	Suv	38,7	47,6	46,4
	IMK -45 mg/l	53,9	56,5	68,8
	IMK -60 mg/l	68,3	66,8	75,4
	IMK -75 mg/l	71,7	74,9	84,2
	IMK -90 mg/l	68,1	72,4	86,5
	IMK -110 mg/l	59,7	61,4	57,2
Fortuna	Suv	42,8	46,3	49,4
	IMK -45 mg/l	61,4	66,7	69,6
	IMK -60 mg/l	62,6	68,3	72,2
	IMK -75 mg/l	68,5	73,5	79,2
	IMK -90 mg/l	58,2	71,6	73,2

	IMK -110 mg/l	51,3	63,2	64,2
Krimskiy-5	Suv	34,3	40,6	45,2
	IMK -45 mg/l	59,2	57,2	56,7
	IMK -60 mg/l	68,7	68,2	68,4
	IMK -75 mg/l	72,8	74,5	77,8
	IMK -90 mg/l	66,7	71,6	64,2
	IMK -110 mg/l	54,6	64,3	45,7

ham 75 mg/l eng optimal me’yor bo‘ldi pastki qalamchada 79,2%. Krimskiy-5 payvandtagida esa IMK miqdoriga sezgirlik yuqori bo‘ldi. 75 mg/l dozada 77,8% natija olingan bo‘lsa, 110 mg/l dozada pastki yo‘g‘on qalamchalarning ko‘karishi 45,7% gacha tushib ketdi. Bu Krimskiy-5 ning yuqori miqdordagi auksinlarga nisbatan stress holatiga tushishini anglatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qalamchaning yo‘g‘onligi uning ildiz olish qobiliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Pastki (6-10 mm) qalamchalarda zaxira kraxmal, qandlar miqdorining ko‘pligi, ularning energetik jihatdan ildiz hosil qilishga ko‘proq tayyor ekanligini bildiradi. O‘sishni boshqaruvchi modda borasida esa, har bir o‘simlik uchun " cho‘qqisi" mavjud. Bizning tajribamizda bu 75 mg/l ni tashkil qildi. 110 mg/l miqdorida natijalarning pasayishi auksinlarning ortiqcha miqdori to‘qimalarni kuydirishi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Suv nazorat variantida ko‘karuvchanlik past (34,3–49,4%) bo‘lgan bo‘lsa, IMK o‘sishni boshqaruvchi modda qo‘llanilganda bu ko‘rsatkich 1,5–2 barobarga ortib, eng yuqori variantlarda 86,5% gacha etdi. Evrika 99, Fortuna va Krimskiy-5 uchun 75 mg/l eng samarali doza deb topildi (natija 77,8–85,8%). 110 mg/l yuqori miqdorida esa natijalar keskin pasayib, Krimskiy-5 da 45,7% ni tashkil etdi. Zaxira oziq moddalarga boy bo‘lgan pastki (6–10 mm) qalamchalar, ingichka uchki (2–4 mm) qalamchalarga nisbatan o‘rtacha 10–15% ga yaxshiroq ildiz otdi.

Ko‘chatxonalarda barqaror va yuqori sifatli ko‘chat olish uchun 75 mg/l IMK eritmasidan hamda diametri 6 mm dan yuqori bo‘lgan qalamchalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Tsipouridis C., Thomidis T.** Effect of interaction between indole-3-butyric acid and chilling of cuttings on rooting of 'GF677' peach rootstock // *Acta Horticulturae*. — 2003. — No. 610. — P. 135–139.
2. **Tofanelli M. B. D., Rodrigues J. D., Ono E. O.** Rooting of peach hardwood cuttings treated with indolebutyric acid // *Ciência Rural*. — 2003. — Vol. 33, No. 3. — P. 437–442.
3. **Exadaktylou E., Thomidis T., Grout B., Zakynthinos G.** Methods to improve the rooting of hardwood cuttings of the 'Gisela 5' cherry rootstock // *HortTechnology*. — 2009. — Vol. 19, No. 2. — P. 254–259.
4. **Ercisli S., Esitken A., Cangi R., Sahin I.** Hardwood cutting propagation of some plum cultivars // *Journal of Fruit and Ornamental Plant Research*. — 2003. — Vol. 11. — P. 23–28.
5. **Tsafouros A., Roussos P. A.** 'Krymsk 86' stone fruit rootstock: high in vitro rooting potential even in absence of auxins // *Acta Horticulturae*. — 2021. — No. 1322. — P. 187–192.
6. **Blythe E. K., Sibley J. L., Tilt K. M., Ruter J. M.** Methods of application of auxins to cuttings: a review // *Journal of Environmental Horticulture*. — 2007. — Vol. 25, No. 3. — P. 166–185.
7. **Поликарпова Ф. Й.** Размножение плодовых и ягодных культур зелеными черенками. — Москва, 1990.

ЭВОЛЮЦИЯ КОНЦЕПЦИИ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ЕЁ СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Рахматова Феруза Юсупжановна

Азиатский международный университет

Бухарский инновационный университет

Аннотация. *В данной статье исследуется эволюция концепции зелёной экономики в контексте текстильной промышленности, анализируются теоретические подходы ведущих международных учёных и современные интерпретации данной концепции. Особое внимание уделяется механизмам перехода текстильной отрасли к устойчивому развитию с учётом принципов циркулярной экономики. Статья содержит анализ статистических данных глобального текстильного рынка за 2024-2025 годы и перспектив развития текстильной промышленности Узбекистана в контексте зелёной экономики.*

Ключевые слова: *зелёная экономика, текстильная промышленность, циркулярная экономика, устойчивое развитие, экологическая модернизация.*

Текстильная промышленность является одним из ключевых секторов мировой экономики, обеспечивающим занятость более 300 миллионов человек по всей цепочке создания стоимости[1]. Согласно последним данным, стоимость глобального текстильного рынка увеличилась с 618 млрд долларов США в 2024 году до 660 млрд долларов в 2025 году при среднегодовом темпе роста 6,8%[2]. Вместе с тем текстильная отрасль признана одной из наиболее экологически вредных отраслей промышленности: на её долю приходится более 1,2 млрд тонн выбросов CO_2 ежегодно, что превышает совокупный углеродный след международных авиаперевозок и морского транспорта[3]. В

этих условиях переход текстильной промышленности к принципам зелёной экономики приобретает особую актуальность и требует глубокого научного осмысления.

Концепция зелёной экономики впервые была сформулирована британскими экономистами Дэвидом Пирсом, Анилом Маркандией и Эдвардом Барбье в докладе «Blueprint for a Green Economy», подготовленном в 1989 году для Министерства охраны окружающей среды Великобритании[4]. Авторы определили зелёную экономику как «систему экономической деятельности, связанной с производством, распределением и потреблением товаров и услуг, которая приводит к улучшению благосостояния человека в долгосрочной перспективе, не подвергая будущие поколения значительным экологическим рискам и экологическому дефициту»[5]. Данное определение заложило фундамент для дальнейшего развития концепции и её адаптации к различным отраслям экономики, включая текстильную промышленность.

Программа ООН по окружающей среде (ЮНЕП) в 2011 году расширила данную концепцию, определив зелёную экономику как «экономику, которая повышает благосостояние человека и обеспечивает социальную справедливость, одновременно существенно снижая экологические риски и экологический дефицит»[6]. После глобального финансового кризиса 2008-2009 годов концепция зелёной экономики получила международное признание: США, Китай и Южная Корея обозначили свои стимулирующие программы как «Зелёный новый курс», обосновывая это тем, что зелёные фискальные стимулы обеспечивают импульс экономике и одновременно закладывают основы для устойчивого роста в будущем[7].

Применительно к текстильной промышленности концепция зелёной экономики получила существенное развитие в работах ряда ведущих исследователей. Фонд Эллен Макартур (Ellen MacArthur Foundation), основанный в 2010 году, стал ключевым институтом в продвижении идей циркулярной экономики в текстильной отрасли. В фундаментальном докладе

«A New Textiles Economy: Redesigning Fashion's Future» (2017) Фонд определил циркулярную экономику как «системное решение, направленное на устранение отходов и загрязнения, циркуляцию продуктов и материалов на их наивысшей стоимости и регенерацию природы»[8]. Согласно данному подходу, в новой текстильной экономике одежда, текстиль и волокна сохраняются на максимальной стоимости в процессе использования и после него возвращаются в экономический оборот, никогда не превращаясь в отходы.

Профессор Кембриджского университета Э. Барбье в совместной работе с А. Маркандией «A New Blueprint for a Green Economy» (2013) обосновал необходимость интеграции экономических и экологических политик, подчёркивая их искусственное разделение в традиционных подходах[9]. Применительно к текстильной промышленности данный принцип означает необходимость учёта экологических издержек на всех этапах производственного цикла — от выращивания хлопка до утилизации готовых изделий. По данным исследователей, текстильная промышленность ежегодно потребляет 98 млн тонн невозобновляемых ресурсов, включая нефть для производства синтетических волокон, удобрения для выращивания хлопка и химические вещества для окраски и отделки тканей[10].

Исследователи М. Рахаман и М. Ш. Х. Хан в работе «Green merchandising of textiles and apparel in a circular economy» (2024) подчёркивают, что переход от линейной к циркулярной модели в текстильной отрасли предполагает разработку замкнутых систем, акцент на проектировании продуктов, пригодных для переработки или биоразложения, внедрение практик безотходного раскроя и программ возврата для отвлечения текстильных отходов со свалок[11]. По оценкам экспертов, глобальный рынок устойчивого текстиля вырастет с 3,6 млрд долларов в 2024 году до 9,4 млрд долларов к 2034 году, при этом 9,7% потребителей готовы платить больше за устойчивые продукты даже в условиях экономического давления[12].

Европейская комиссия в рамках «Стратегии ЕС по устойчивому и циркулярному текстилю» (2022) определила текстиль как один из приоритетных секторов для перехода к циркулярной экономике. Согласно данной стратегии, потребление текстиля в ЕС занимает четвёртое место по воздействию на окружающую среду и изменение климата после продуктов питания, жилья и транспорта[13]. В 2025 году в ЕС вступило в силу обязательное требование раздельного сбора текстильных отходов, что способствует развитию систем расширенной ответственности производителей и моделей циркулярной экономики. Регламент ЕС по экодизайну устойчивых продуктов (ESPR) устанавливает новые стандарты прослеживаемости, ремонтопригодности и содержания переработанных материалов[14].

Китайские учёные в рамках национальной политики перехода к зелёной экономике разработали комплексную систему стандартов устойчивого текстиля. Закон КНР о развитии циркулярной экономики (2009, пересмотрен в 2018) определяет текстильную отрасль как один из промышленных секторов, которым необходимо перейти к циркулярной бизнес-модели[15]. Согласно «Плану реализации содействия зелёному потреблению» (2022), к 2025 году Китай планирует перейти преимущественно на потребление устойчивых зелёных продуктов, при этом текстиль является одним из ключевых секторов[16]. Данный подход предполагает укрепление системы управления и создание условий для трансформации отрасли на основе научных и технологических инноваций.

Особую актуальность приобретает применение концепции зелёной экономики в текстильной промышленности Узбекистана. Страна является шестым крупнейшим производителем хлопка в мире, а текстильная отрасль занимает стратегически важное место в экономике. В 2024 году текстильная промышленность Узбекистана обеспечила занятость более 500 тысяч человек, а экспорт текстильной продукции вырос с 6 млн долларов в 2017 году до прогнозируемых 3 млрд долларов в 2024 году[17]. По итогам 2025 года

текстильный сектор произвёл продукции на сумму 134 трлн сумов, привлёк 2,1 млрд долларов иностранных инвестиций и достиг экспорта в размере 2,5 млрд долларов[18]. В отрасли занято 623 тысячи человек с планами увеличения до 650 тысяч в 2026 году.

Европейская экономическая комиссия ООН (ЕЭК ООН) в рамках инициативы «Sustainability Pledge» оказывает содействие Узбекистану в разработке стратегии устойчивости и циркулярности в текстильной промышленности. Данное сотрудничество направлено на внедрение достойных условий труда, моделей устойчивого производства и потребления, а также циркулярных подходов в национальной текстильной отрасли[19]. В марте 2022 года Международная организация труда (МОТ) подтвердила, что узбекский хлопок свободен от системного принудительного и детского труда, что открыло новые возможности для интеграции в глобальные цепочки поставок[20].

В нижеприведённой таблице систематизированы ключевые подходы к концепции зелёной экономики в текстильной промышленности:

Таблица 1. Эволюция концепции зелёной экономики в текстильной промышленности

Автор/Организация	Год	Ключевой вклад в концепцию
Д. Пирс, А. Маркандия, Э. Барбье	1989	Первое определение зелёной экономики; интеграция экономики и экологии
ЮНЕП	2011	Расширенное определение с акцентом на социальной справедливости
Э. Барбье, А. Маркандия	2013	Новый план зелёной экономики; интеграция экономической и экологической политики

Фонд Эллен Макартур	2017	Концепция новой текстильной экономики; три принципа циркулярности
Европейская комиссия	2022	Стратегия ЕС по устойчивому текстилю; стандарты экодизайна
М. Рахаман, М. Ш. Х. Хан	2024	Зелёный мерчендайзинг текстиля в циркулярной экономике
Правительство КНР	2022	План содействия зелёному потреблению; текстиль как ключевой сектор
ЕЭК ООН	2024	Инициатива Sustainability Pledge для текстильной промышленности Узбекистана

Анализ теоретических подходов позволяет выделить три ключевых направления современной интерпретации концепции зелёной экономики в текстильной промышленности. Первое направление связано с принципом устранения отходов и загрязнения на этапе проектирования продукции. Согласно данным Фонда Эллен Макартур, менее 1% собранной для повторного использования одежды применяется для производства новой одежды, а отрасль ежегодно теряет более 500 млрд долларов стоимости из-за низкого уровня использования и практически отсутствующей переработки[21]. Второе направление предполагает циркуляцию продуктов и материалов на их наивысшей стоимости через бизнес-модели аренды, ремонта и перепродажи. Третье направление акцентирует внимание на регенерации природы через использование безопасных переработанных или возобновляемых материалов.

Проведённый анализ показывает, что концепция зелёной экономики в текстильной промышленности прошла значительную эволюцию от первоначального определения Д. Пирса, А. Маркандии и Э. Барбье (1989) до современных интерпретаций, основанных на принципах циркулярной экономики. Ключевыми элементами современного понимания зелёной

экономики в текстильной отрасли являются: устранение отходов и загрязнения на этапе проектирования, циркуляция продуктов и материалов на их наивысшей стоимости, регенерация природы. Статистические данные за 2024-2025 годы свидетельствуют о значительном потенциале роста рынка устойчивого текстиля — с 3,6 млрд долларов в 2024 году до 9,4 млрд долларов к 2034 году.

Для текстильной промышленности Узбекистана, которая в 2025 году произвела продукции на 134 трлн сумов и обеспечила занятость 623 тысячам человек, внедрение механизмов зелёной экономики представляет стратегическую возможность для повышения конкурентоспособности на международных рынках и интеграции в глобальные цепочки поставок устойчивого текстиля. Дальнейшие исследования целесообразно направить на разработку методологии оценки экономической эффективности перехода текстильных предприятий к моделям циркулярной экономики и адаптацию международного опыта к условиям Узбекистана.

Примечания (сноски)

[1] Ellen MacArthur Foundation. Fashion and the Circular Economy Deep Dive. – 2018.

[2] Fulgar S.p.A. 2025 Textile Industry Review and Trends. – December 2025.

[3] Ellen MacArthur Foundation. A New Textiles Economy. – 2017. – P. 18.

[4] Pearce D.W., Markandya A., Barbier E.B. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 1989.

[5] Green Economy: A Necessary Decision // Universal Journal of Finance and Economics. – 2022.

[6] UNEP. Towards a Green Economy. – 2011. – P. 16.

[7] The Global Green Economy: A Review of Concepts // Geography and Environment. – 2017.

[8] Ellen MacArthur Foundation. Vision of a Circular Economy for Fashion. – 2020.

[9] Barbier E.B., Markandya A. A New Blueprint for a Green Economy. – Routledge, 2013. – P. 45.

[10] Ellen MacArthur Foundation. A New Textiles Economy. – 2017. – P. 22.

[11] Rahaman M.T., Khan M.S.H. Green merchandising of textiles // JOITMC. – 2025. – Vol. 11.

[12] SGS. Innovation is the Future for the Textile and Apparel Industry. – 2025.

[13] European Commission. EU Strategy for Sustainable and Circular Textiles. – 2022.

[14] European Commission. Revised Waste Framework Directive. – December 2024.

[15] Siliņa L. et al. Sustainable textile industry // Textile Research Journal. – 2024.

[16] Implementation Plan for Promoting Green Consumption. Government of China. – 2022.

[17] World Bank. Weaving a New Future in Uzbekistan's Cotton Sector. – May 2025.

[18] Caspian Post. Uzbekistan Targets $2B Foreign Investment to Boost Textiles. – December 2025.

[19] UNECE. Sustainability Pledge for Uzbekistan's Textile Industry. – 2024.

[20] ILO. Uzbekistan Cotton Harvest Third-Party Monitoring Report. – March 2022.

[21] Ellen MacArthur Foundation. Fashion and the Circular Economy. – 2018.

Использованная литература

1. **Barbier E. B., Markandya A.** A new blueprint for a green economy. — New York: Routledge, 2013. — 218 p.
2. **Ellen MacArthur Foundation.** A new textiles economy: redesigning fashion’s future. — 2017. — 150 p.

3. **European Commission.** EU strategy for sustainable and circular textiles. — Brussels, 2022.
4. **Fulgar S.p.A.** 2025 textile industry review and trends. — 2025.
5. **Pearce D. W., Markandya A., Barbier E. B.** Blueprint for a green economy. — London: Earthscan, 1989. — 192 p.
6. **Rahaman M. T., Khan M. S. H.** Green merchandising of textiles and apparel in a circular economy // Journal of Open Innovation. — 2025. — Vol. 11, № 1.
7. **SGS.** Innovation is the future for the textile and apparel industry. — 2025.
8. **Siliņa L., Dāboliņa I., Lapkovska E.** Sustainable textile industry — wishful thinking or the new norm: a review // Textile Research Journal. — 2024.
9. **UNECE.** Sustainability pledge for textile industry of Uzbekistan. — 2024.
10. **UNEP.** Towards a green economy: pathways to sustainable development and poverty eradication. — 2011. — 631 p.
11. **World Bank.** Weaving a new future in Uzbekistan's cotton sector. — 2025.

НЕТРАДИЦИОННЫЕ ИСТОЧНИКИ КОРМОВОГО БЕЛКА ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ КОМБИКОРМОВ ДЛЯ РЫБ

Хазраткулов Жавсурбек Закиржонович

Раимова Чарос Бахромовна

Гулистанский государственный университет

Аннотация. *Статья показывает, что для достижения высокой продуктивности рыб и эффективного использования искусственных кормов*

необходимо чётко определить их пищевые потребности. Питательные вещества — белки, жиры, углеводы, витамины, макро- и микроэлементы — оказывают непосредственное влияние на здоровье и рост рыб. Эти потребности зависят от условий окружающей среды, возраста рыб и их физиологического состояния, а также определяют усвоение естественных кормов и кормовых добавок.

Ключевые слова: *питательные вещества, микроэлементы, загрязняющая микрофлора, растительная биомасса, молочная сыворотка, костная мука, кровяная мука, комбикорм, кормовой белок.*

Введение. Данная работа посвящена изучению мер, реализуемых на основе Указа и постановлений № ПФ-83 от 13 января 2022 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию рыбохозяйственной отрасли», а также постановления № ПФ-67 от 11 февраля 2022 года «О мерах по развитию рыбохозяйственной отрасли». Реализация целей и задач, определённых в данных нормативно-правовых актах, направлена на всестороннее развитие рыбохозяйственной отрасли и повышение её экономической эффективности.

В мировом масштабе при выращивании рыбы важную роль играет укрепление кормовой базы, а также обеспечение рыб полноценными и питательными кормами.

В настоящее время большое внимание уделяется развитию современных технологий, направленных на включение рыбы в повседневный рацион человека. Данный процесс обеспечивает получение рыбной продукции, богатой белками, жирами, витаминами, микро- и макроэлементами. Проводимые исследования ориентированы на обеспечение организма необходимыми компонентами, повышение качества продукции, улучшение показателей продовольственной безопасности и увеличение ее биологической

ценности. Использование таких технологий способствует расширению потребления рыбной продукции и улучшению состояния здоровья населения.

Основная часть. В целях обеспечения населения мира продуктами, богатыми белковыми веществами, активно развивается рыбоводство и переработка рыбы. В частности, в Сырдарьинской области в 2023 году было произведено 9 960,2 тыс. т рыбы, в 2024 году — 10 551,1 тыс. т, в 2025 году — 11 184,1 тыс. т. В 2026 году планируется довести объем производства рыбы до 11 966,9 тыс. т. Безусловно, обеспечение рыбоводческой отрасли качественными кормами является одной из приоритетных задач.

Дефицит белка в рационе животных приводит к таким серьезным негативным последствиям, как отрицательный азотистый баланс, гипопротеинемия, нарушения коллоидно-осмотического давления и водно-солевого обмена, различные формы анемии, а также расстройства, связанные с нервной, эндокринной и сердечно-сосудистой системами. Указанные нарушения могут вызывать метаболические расстройства, замедление роста и общее истощение организма. Особенно критичным дефицит белка является в молодом возрасте. Белок, содержащийся в корме, должен включать все необходимые аминокислоты, прежде всего незаменимые, иметь аминокислотный состав, близкий к белкам организма, и легко усваиваться в пищеварительной системе.

Согласно данным Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединённых Наций (ФАО), дефицит кормового белка на планете составляет около 28 млн т в год. Существенно изменить данную ситуацию возможно лишь с использованием биотехнологических методов. Бактерии, дрожжи, микроскопические водоросли, а также микро- и макромицеты являются потенциальными источниками кормового белка.

Дрожжи. Они легко культивируются в промышленных условиях, быстро растут и размножаются на различных субстратах и обладают высокой устойчивостью к контаминирующей микрофлоре. По содержанию белка

дрожжи превосходят зерновые культуры, однако по аминокислотному составу несколько уступают молочному белку и рыбной муке. Дрожжи богаты витаминами (тиамин, рибофлавин, пантотеновая кислота, никотиновая кислота, пиридоксин, фолиевая кислота, холин, инозитол и др.), минеральными элементами и содержат значительное количество липидов, преимущественно ненасыщенных жирных кислот. В 1 кг кормовых дрожжей содержится 1,03–1,16 кормовой единицы. К недостаткам дрожжей относятся наличие плотной клеточной стенки и повышенное содержание нуклеиновых кислот.

Бактерии. Они характеризуются высокой скоростью роста и содержат в биомассе 70–80 % белка с повышенным содержанием метионина. Бактерии легко поддаются селекции, что позволяет получать высокопродуктивные штаммы. К числу недостатков относятся малые размеры клеток, высокая чувствительность к инфекциям, особенно к бактериофагам, а также сложность осаждения биомассы вследствие высокого содержания нуклеиновых кислот.

Морские водоросли. Микроскопические водоросли являются фототрофными организмами и для формирования биомассы используют исключительно атмосферный диоксид углерода. Так, с поверхности пруда площадью 0,1 га можно получить количество белка, эквивалентное его выходу с 14 га посевов бобовых культур.
В настоящее время особое внимание уделяется сине-зелёным водорослям, в частности спирулине (Spirulina platensis и Spirulina maxima). Биомасса данных водорослей соответствует высоким стандартам кормового белка и содержит достаточное количество витаминов A, D и группы B. Препараты, полученные из одноклеточных сине-зелёных водорослей, таких как Spirulina platensis и Chlorella, применяются в качестве кормовых добавок.
Новым компонентом рациона является гипергалинная аквакультура Сиваша (ГАА). В состав данной добавки входят микроскопические водоросли и продукты их переработки, а также цисты, яйца, личинки и взрослые формы

гидробионтов, обитающих в высокосолёных водоёмах, и галофильные насекомые.

Грибы. Высококачественный белок может поставляться как низшими, так и высшими грибами. Плодовые тела высших грибов с давних пор известны высоким питательным потенциалом, однако их природное производство не способно удовлетворить растущий спрос на белок. Поэтому был предпринят переход к промышленному выращиванию мицелия макромицетов. Микромицеты позволяют обогащать крахмалистые продукты белком, приближая их питательную ценность к мясным продуктам. Белки грибов, хотя и содержат ограниченное количество серосодержащих аминокислот (цистеин и метионин) по сравнению с эталонными белками, часто присутствуют в зерновых белках.

Нефтяные парафины (н-парафины). Высокая рентабельность биомассы с выходом до 100 % от массы используемого субстрата достигается за счёт высокого содержания углерода. Качество конечного продукта зависит от степени очистки парафина. При неполной очистке парафинов может образовываться дрожжевая биомасса, содержащая неперевариваемые компоненты, такие как производные бензола, D-аминокислоты, липиды с насыщенными углеродными цепями в токсинах белка и жирных кислотах. Поэтому тщательная очистка нефтяных восков является крайне важной. Дрожжи, выращенные на н-парафинах, могут составлять 8–15 % общего белка в рационах кормления крупного рогатого скота, свиней, овец и бройлеров.

Метанол, получаемый посредством микробиологического синтеза из древесины, соломы и городских отходов, несмотря на трудности, связанные с его структурой, используется для производства белка. Молекула метанола содержит только один атом углерода, в то время как для синтеза большинства органических соединений необходимы двухуглеродные молекулы. Кроме того, соединения с чётным числом атомов углерода могут оказывать негативное влияние на организм. Для переработки метанола применяются бактерии рода Methylomonas.

Метанол усваивается различными микроорганизмами, такими как бактерии, дрожжи, грибы и актиномицеты. Использование метанола для производства белка является более экономичным по сравнению с н-парафинами. Например, продукт Великобритании «Pruteen», содержащий 72 % сырого протеина, используется в качестве высокобелковой добавки в кормах для птицы и жвачных животных, а также в качестве заменителя молока для телят.

Растительная биомасса. Растительная биомасса содержит большое количество углеводов, таких как целлюлоза (состоящая из молекул глюкозы) и гемицеллюлоза (включающая арабинозу, галактозу, маннозу, фруктозу и ксилозу). Сахаристая жидкая фракция гидролизата используется для выращивания дрожжей. Кроме того, кормовые дрожжи могут быть получены из спиртовой барды, подсолнечного жмыха, хлопковой шелухи, волокнистых отходов (например, льна и конопли), свекловичной пульпы, а также картофельного крахмала, отходов пивоварения, фруктов, овощей и консервов.

Для гидролизной промышленности чаще всего используют зерновую солому, которую можно обогащать белком с помощью дрожжей или улучшать при применении ферментных препаратов, таких как пектофоетидин Г3х, селовиридин Г3х или глюкаваморин Пх. Для прямой биоконверсии растительной биомассы используют высшие и низшие грибы, включая целлюлозоразрушающий Chaetomium cellulolyticum, а также Aspergillus niger и Trichoderma.

Сыворотка. Ежегодно в мире выделяется около 200 млн т молочной сыворотки. В 1 т сыворотки содержится примерно 50 кг молочного сахара, до 10 кг высококачественного белка, 1,5 кг жира, а также витамины и микроэлементы. Однако использование сыворотки для производства кормов и кормления животных является недостаточно эффективным. Основная причина заключается в том, что по мере увеличения доли сыворотки в рационе её усвояемость снижается, что может приводить к расстройствам

пищеварения. Кроме того, белки сыворотки слабо преобразуются в белок организма животных. То же самое относится и к сухой сыворотке, так как организм усваивает лишь около 20 % её состава из-за неблагоприятного соотношения углеводов, белков и минеральных солей. Производство концентратов молочного белка, заменяющих сухое молоко и используемых в качестве кормовых добавок, является более эффективным вариантом использования белков сыворотки.

Корм для рыбы может включать различные ингредиенты: сырьё животного и растительного происхождения, продукты микробиологического и химического синтеза, а также побочные продукты и отходы пищевой промышленности. Считается, что более разнообразный состав комбикормов повышает их питательную ценность. Исследования показывают, что кормовые белки, включая животные, растительные и микробиологические белки, обеспечивают наибольшую эффективность. Оптимальные формулы отечественных и зарубежных рыбных кормов могут включать, помимо витаминов, минеральных солей и других биологически активных добавок, от 9 до 12 различных компонентов.

В производстве рыбных кормов ключевую роль играют составные части животных. Они служат основным источником полноценного белка и витаминов, обогащаются минералами и содержат жизненно важные элементы, которых не хватает в других источниках. Многие животные корма отличаются высокой усвояемостью аминокислот, что делает их ценными для кормления рыбы. К таким составным частям относятся рыбная мука, криллевая мука, мясо- и костная мука, кровяная мука (альбумин), сливочная мука (жировой остаток), мука из корма ракообразных, шелковичная мука, сухое обезжиренное молоко и другие виды сырья.

Список литературы

1. **Батракова Ю. М., Даниленко И. Ю., Японцев А. Э., Лебедев С. Ю.** Разработка и эффективность использования комбикормов для ценных

пород рыб // Аграрная наука и инновационное развитие животноводства – основа экологической безопасности продовольствия: сб. ст. нац. науч.-практ. конф. — Саратов, 25–26 мая 2021 г. — Саратов: ООО «Центр социальных агроинноваций СГАУ», 2021. — С. 3–6.

2. **Ранделин А. В., Батракова Ю. М., Даниленко И. Ю., Японцев А. Э.** Использование низкозатратных комбикормов в кормлении ценных пород рыб // Инновационные технологии в агропромышленном комплексе в современных экономических условиях: материалы междунар. науч.-практ. конф. — Волгоград, 10–12 февр. 2021 г. — Волгоград: Волгоградский государственный аграрный университет, 2021. — С. 351–355.
3. **Саттаров К. К., Хазраткулов Ж. З., Султонова Х. Х.** Балиқлар учун озуқа қўшимчаларни ривожлантиришда инновацион ёндашувлар // «Кимё, органик моддалар ва нефт-газ соҳаларидаги долзарб муаммолар ва инновацион ечимлар» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. — Наманган, 14–15 ноябр 2024. — Б. 517–518.
4. **Саттаров К. К., Хазраткулов Ж. З. Ў.** Содержание протеина в кормах для рыб // Universum: технические науки. — 2025. — Т. 5. — № 10 (139). — С. 20–22.
5. **Хазраткулов Ж. З., Саттаров К. К.** Использование белковой муки в комбикормах для рыб // Техника и технология пищевых производств: тезисы докладов XIII Международной научной конференции студентов и аспирантов. — Могилёв, 2024. — С. 69.

HEALTHCARE AND BIOLOGICAL SAFETY: CONTEMPORARY CHALLENGES AND SCIENTIFIC SOLUTIONS

SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA BIRLAMCHI TIBBIY BO‘G‘IM VA STATSIONAR SHAROITDA DAVOLASH HAMDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Abdumutalova Muxlisa Mirzaxatamjon qizi
Shamsutdinova Guzel Baxodirovna
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Annotatsiya. *Surunkali yurak yetishmovchiligi (SUY) yurak-qon tomir kasalliklari orasida keng tarqalgan, yuqori nogironlik va o‘lim ko‘rsatkichlari bilan kechadigan klinik sindrom hisoblanadi. Kasallikni samarali boshqarishda birlamchi tibbiy bo‘g‘imda erta aniqlash, doimiy nazorat va statsionar sharoitda kompleks davolash muhim ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy maqolada SUY bilan og‘rigan bemorlarni birlamchi tibbiy bo‘g‘im va statsionar sharoitda davolash tamoyillari, qo‘llaniladigan dori vositalari hamda davolash samaradorligini baholash mezonlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *surunkali yurak yetishmovchiligi, birlamchi tibbiy bo‘g‘im, statsionar davolash, klinik samaradorlik, prognoz.*

Kirish

Surunkali yurak yetishmovchiligi yurakning nasos funksiyasi yetarli darajada bajarilmasligi natijasida to‘qimalar va a’zolarning kislorod hamda ozuqa moddalarga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilmasligi bilan tavsiflanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, SUY bilan og‘rigan bemorlar soni yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli kasallikni boshqarishda tibbiy yordamning barcha bosqichlarida uzluksiz va samarali davolash strategiyasini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Birlamchi tibbiy bo‘g‘imda SUY bilan og‘rigan bemorlarni davolash

Birlamchi tibbiy bo‘g‘im SUYni erta aniqlash, xavf omillarini kamaytirish va kasallikning og‘irlashuvini oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy vazifalar:

- SUYni erta tashxislash (klinik belgilar, EKG, laborator tahlillar);
- Arterial gipertenziya, qandli diabet, dislipidemiya kabi hamroh kasalliklarni nazorat qilish;
- Hayot tarzini o‘zgartirish bo‘yicha tavsiyalar (tuz iste’molini cheklash, jismoniy faollik, chekishni tashlash);
- Asosiy dori vositalarini buyurish va monitoring qilish.

Dori terapiyasi:

- Angiotenzin aylantiruvchi ferment ingibitorlari (AAF ingibitorlari);
- Angiotenzin II retseptorlari blokatorlari (ARB);
- Beta-adrenoblokatorlar;
- Diuretiklar;
- Mineralokortikoid retseptorlari antagonistlari.

Birlamchi bo‘g‘imda davolashning asosiy maqsadi – simptomlarni nazorat qilish, statsionarga yotqizish holatlarini kamaytirish va bemorning hayot sifatini yaxshilashdir.

Statsionar sharoitda SUYni davolash

Statsionar davolash asosan kasallik dekompensatsiyasi, og‘ir klinik belgilar yoki asoratlar rivojlangan holatlarda amalga oshiriladi.

Statsionar davolashning asosiy yo‘nalishlari:

- Gemodinamik holatni barqarorlashtirish;
- Nafas yetishmovchiligini bartaraf etish;
- Suv-elektrolit muvozanatini tiklash;
- Asoratlarning oldini olish va davolash.

Statsionarda qo‘llaniladigan usullar:

- Parenteral diuretiklar;
- Vazoaktiv preparatlar;
- Antikoagulyant terapiya;

- Zaruratga ko‘ra kislorod terapiyasi yoki invaziv bo‘lmagan ventilyatsiya.

Davolash samaradorligini baholash mezonlari

SUYni davolash samaradorligini baholash kompleks yondashuvni talab etadi:

- **Klinik mezonlar:** nafas qisishi, shishlar, jismoniy faollikka bardoshlilik;
- **Laborator ko‘rsatkichlar:** NT-proBNP darajasi, elektrolitlar;
- **Instrumental mezonlar:** Ehokardiyografiyada ejeksiya fraksiyasi;
- **Ijtimoiy mezonlar:** qayta statsionarga yotqizilish chastotasi, hayot sifati.

Muhokama

Birlamchi tibbiy bo‘g‘im va statsionar davolash o‘rtasidagi uzviy hamkorlik SUY bilan og‘rigan bemorlarning uzoq muddatli prognozini yaxshilaydi. Birlamchi bo‘g‘imda doimiy nazorat va bemorlarni o‘qitish statsionar davolashga ehtiyojni sezilarli darajada kamaytiradi.

Xulosa

Surunkali yurak yetishmovchiligi bilan og‘rigan bemorlarni davolashda birlamchi tibbiy bo‘g‘im va statsionar sharoitdagi yondashuvlar bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyatga ega. Davolash samaradorligini muntazam baholab borish, individual yondashuv va multidisiplinar hamkorlik kasallik oqimini nazorat qilishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Braunwald E.** Heart Failure: Pathophysiology and Treatment.
2. **European Society of Cardiology (ESC).** Guidelines for the diagnosis and treatment of acute and chronic heart failure.
3. Harrison’s Principles of Internal Medicine.

XXI ASR FARMATSEVTIKA FANI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Boboqulov Alibek Mirabbos o'g'li
Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Farmatsiya yo'nalishida o'qiyotgan talabalarning, yangi texnogiyalar va sun'iy intellikning orqali Dorixona tizimida savdo va aholi (bemorlar)ga xizmat kursatish rivojlanitirish va yangi mobil "DNMED" mobil dasturiy ilova texnogiyalarini qo'llash, dorilar savdosini raqamlashtirish, AI texnogilar orqali foydali ish koeffitsiyenti oshirish va shu yo'nalishdagi talabarni yangi ishchi dasturlar va mustaqil ishlanmalarni kiritish va malakaviy amalyotlarini ko'paytirish.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellikt, farmatsiya yo'nalishi, dorixona tizimi, raqamlashtirish, AI va innovatsion texnologiyalar, "DNMED" ilovasi, ishchi dasturlar, ta'lim.*

kiritilgan tadqiqotlarning cheklovlarini tan olish muhimdir. Birinchidan, tadqiqot dizaynlarining geterogenligi va kiritilgan tadqiqotlarda qo'llanilgan natija o'lchovlari, masalan, og'riq yoki ildiz migratsiyasi farq qildi, bu natijalarga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ba'zi tadqiqotlar kichik namunaviy o'lchamlarga va qisqa kuzatuv davrlariga ega edi, shuning uchun natijalarning statistik kuchi bizning xulosalarimizni tasdiqlash uchun etarli bo'lmasligi mumkin. Koronektomiya bilan bog'liq uzoq muddatli xavflarni, masalan, ildiz migratsiyasi yoki qayta aralashuv zarurligini yaxshiroq tushunish uchun uzoqroq kuzatuv davrlari bilan qo'shimcha klinik tadqiqotlar talab etiladi.

Xulosa

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, koronektomiya IAN shikastlanishi xavfi bo'lgan MTMni davolashning samarali alternativ usuli hisoblanadi, chunki bu protsedura aqil tishini to'liq olib tashlash operatsiyasiga qaraganda asoratlar darajasi pastroq bo'ladi. Koronektomiya bilan davolangan bemorlarda IAN lezyonlari ekstraksiya bilan davolanganlarga qaraganda ancha past edi. Ikkala guruhda ham LN lezyonlari past edi, statistik jihatdan sezilarli farqlar yo'q edi. Koronektomiya shuningdek, operatsiyadan keyingi og'riq va quruq alveolit paydo bo'lishini kamaytirdi. Ikkala guruhda ham infeksiya darajasi o'xshash edi. Ildiz migratsiyasi koronektomiya bilan bog'liq eng keng tarqalgan asorat bo'lib, ko'pincha dastlabki olti oy ichida va yosh bemorlarda uchraydi. Biroq, ko'p hollarda bu klinik ta'sirga ega emas edi va qayta operatsiya qilish darajasi juda past edi. Muvaffaqiyatsiz koronektomiya darajasi past edi va bu holatlarda nerv shikastlanishi xavfi an'anaviy ekstraktsiya muolajalariga o'xshash edi. Bu koronektomiya past xavfli usul va IAN ga juda yaqin ildizlarga ega MTMlar uchun munosib alternativa ekanligini ko'rsatadi, ammo kattaroq namunalar hajmi va uzoq muddatli ma'lumotlarga ega qo'shimcha klinik tadqiqotlar hali ham zarur.

Adabiyotlar ro’yxati

1. **Long H., Zhou Y., Liao L., Pyakurel U., Wang Y., Lai W.** Coronectomy vs complete removal for third molar extraction: a systematic review // Journal of Dental Research. — 2012. — Vol. 91, № 7. — P. 659–665.
2. **Mavrodi A., Ohanyan A., Kechagias N., Tsekos A., Vaxtsevanos K.** Influence of two surgical techniques on difficulty and postoperative complications of lower third molar extraction // Medicina Oral, Patología Oral y Cirugía Bucal. — 2015. — Vol. 20, № 5. — P. e640–e644.
3. **Moreno-Vicente J., Schiavone-Mussano R., Clemente-Salas E., Mari-Roig A., Jané-Salas E., Lopez-Lopez J.** Coronectomy as a surgical option in lower third molars with high risk of inferior alveolar nerve injury: a literature review // Medicina Oral, Patología Oral y Cirugía Bucal. — 2015. — Vol. 20, № 4. — P. e508–e517.
4. **Valmaseda-Castellón E., Berini-Aytés L., Gay-Escoda C.** Lingual nerve injury after surgical removal of third mandibular molars // Oral Surgery, Oral Medicine, Oral Pathology, Oral Radiology and Endodontology. — 2000. — Vol. 90, № 5. — P. 567–573.
5. **Palma-Carrió C., García-Mira B., Larrazabal-Morón C., Peñarrocha-Diago M.** Radiographic signs associated with inferior alveolar nerve injury after lower third molar extraction // Medicina Oral, Patología Oral y Cirugía Bucal. — 2010. — Vol. 15, № 6. — P. e886–e890.
6. **Kang F., Sah M. K., Fei G.** Risk relationship associated with inferior alveolar nerve injury after mandibular third molar removal: a systematic review // Journal of Stomatology, Oral and Maxillofacial Surgery. — 2020. — Vol. 121, № 1. — P. 63–69.
7. **Ali A. S., Benton J. A., Yates J. M.** Risk of inferior alveolar nerve injury with coronectomy vs surgical removal of mandibular third molars: a comparison and literature review // Journal of Oral Rehabilitation. — 2018. — Vol. 45, № 3. — P. 250–257.
8. **Ecuyer J., Debien J.** Deductions opératoires // Actualités Odonto-Stomatologiques (Paris). — 1984. — Vol. 38, № 148. — P. 695–702.

9. **Pogrel M. A.** Coronectomy: partial odontectomy or intentional root retention // Oral and Maxillofacial Surgery Clinics of North America. — 2015. — Vol. 27, № 3. — P. 373–382.
10. **Renton T.** Coronectomy update: a safer way to remove high-risk mandibular third molars // Dental Update. — 2013. — Vol. 40, № 5. — P. 362–366.
11. **Mukherjee S., Vikraman B., Sankar D., Veerabahu M. S.** Evaluation of outcomes following coronectomy for mandibular third molars close to inferior alveolar nerve // Journal of Clinical and Diagnostic Research. — 2016. — Vol. 10, № 8. — P. ZC57–ZC62.

XXI ASR ILM-FANI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA TARAQQIYOT STRATEGIYALARI (JIGAR YOG‘LI GEPATOZI MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARI MISOLIDA)

Soliyeva Gulchehra Abduraxmonovna
Central Asian Medical University

Annotatsiya. *XXI asrda ilm-fan, ayniqsa tibbiyot va biologiya sohalari jadal rivojlanib, metabolik kasalliklarni erta aniqlash va davolash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Jigar yog‘li gepatozi (steatoz) keng tarqalgan bo‘lib, ko‘pincha belgisiz kechadi va og‘ir asoratlarga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada steatozning mikro- va makrovezikulyar ko‘rinishlari, balon distrofiyasi, yallig‘lanish infiltratsiyasi hamda fibrozning boshlang‘ich belgilari tahlil qilindi. Shuningdek, raqamli patologiya, immunogistokimyoviy usullar va sun’iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalarning diagnostika va baholashdagi o‘rni yoritildi. Morfologik mezonlarni standartlashtirish, fan–ta’lim–amaliyot integratsiyasini kuchaytirish va biologik faol moddalarning samaradorligini o‘rganish dolzarb yo‘nalish sifatida belgilandi.*

Kalit so‘zlar: *XXI asr ilm-fani, jigar yog‘li gepatozi, steatoz, morfologik o‘zgarishlar, balon distrofiyasi, steatogepatit, fibroz, immunogistokimyo, raqamli patologiya, biologik faol o‘simlik birikmalari, gepatoprotektor.*

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda metabolik sindrom, semizlik, qandli diabet va dislipidemiya kabi holatlarning keng tarqalishi jigar yog‘li gepatozining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Yog‘li gepatoz (steatoz) jigar hujayralarida (gepatotsitlarda) triglitseridlarning ortiqcha to‘planishi bilan tavsiflanadi va ko‘pincha noaniq klinik belgilar bilan kechadi. Shu jihatdan, kasallik ko‘p hollarda tasodifan aniqlanadi yoki kech bosqichda, ya’ni steatogepatit va fibroz rivojlanganda tashxis qo‘yiladi.

XXI asr ilm-fanining asosiy vazifalaridan biri — jigar steatozi patogenezini chuqur o‘rganish, erta diagnostika mezonlarini ishlab chiqish hamda samarali profilaktika va davolash strategiyalarini taklif etishdan iborat. Morfologik tekshiruvlar jigar steatozining asosiy diagnostik mezonlaridan biri bo‘lib, kasallikning bosqichini aniqlash va prognozini baholashda muhim o‘rin egallaydi. Biroq morfologik baholashda subyektivlik, turli laboratoriya sharoitlari, bo‘yash usullarining farqlanishi hamda baholash mezonlarining bir xilligi yetishmasligi muammolarni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy ilm-fan biologik faol o‘simlik birikmalariga asoslangan gepatoprotektiv vositalarni izlash va ularning morfologik ta’sirini baholashga katta e’tibor qaratmoqda. O‘simlik ekstraktlari antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari orqali jigar to‘qimasini himoya qilishda istiqbolli hisoblanadi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda XXI asr ilm-fani doirasida jigar steatozining morfologik o‘zgarishlari, ularni baholashdagi muammolar, zamonaviy yechimlar va rivojlanish strategiyalari tizimli yoritiladi.

Material va metodlar

Mazkur maqola analitik va tavsifiy tadqiqot sifatida olib borildi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. **Adabiyotlar tahlili (literature review):** Jigar yog‘li gepatozi, steatogepatit va fibrozning morfologik belgilariga oid ilmiy maqolalar, klinik tavsiyalar va monografik manbalar o‘rganildi.

2. **Taqqoslash (comparative analysis):** Turli tadqiqotlarda qo‘llanilgan morfologik baholash mezonlari (mikro- va makrovezikulyar steatoz, yallig‘lanish infiltratsiyasi, balon distrofiyasi, fibroz) taqqoslandi.

3. **Tavsifiy metod (descriptive method):** Jigar steatozida uchraydigan asosiy gistologik va ultrastruktural o‘zgarishlar ketma-ketlikda bayon qilindi.

4. **Zamonaviy texnologiyalar tahlili:** Immunogistokimyoviy markerlar, raqamli patologiya va sun’iy intellekt asosidagi morfometrik baholash imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida jigar steatozida kuzatiladigan morfologik o‘zgarishlar va ularni baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar tanlandi.

Natijalar

Adabiyotlar tahlili va taqqoslash natijasida jigar yog‘li gepatozida quyidagi asosiy morfologik o‘zgarishlar aniqlanishi qayd etildi:

1. Steatozning mikro- va makrovezikulyar ko‘rinishlari

Steatozning eng dastlabki belgisi — gepatotsitlar sitoplazmasida lipid tomchilarining paydo bo‘lishidir.

- **Mikrovezikulyar steatoz**: ko‘plab mayda lipid vakuolalari, yadro markazda joylashgan bo‘ladi.
- **Makrovezikulyar steatoz**: yirik lipid vakuolasi gepatotsit yadrosini chetga suradi, hujayra hajmi kattalashadi.

Makrovezikulyar steatoz ko‘pincha jigar bo‘lakchalari markaziy zonalarida (3-zona) ustun bo‘lib, keyinchalik diffuz tarqalishi mumkin.

2. Gepatotsitlarning distrofik o‘zgarishlari

Steatoz chuqurlashgani sari hujayralarda:

- sitoplazmaning shishishi,

- organellalarning funksional buzilishi,
- **balon distrofiyasi** kuzatiladi. Balon distrofiyasi steatogepatitga o‘tish xavfini bildiruvchi muhim belgidir.

3. Yallig‘lanish infiltratsiyasi

Oddiy steatozdan farqli ravishda steatogepatitda:

- portallarda va lobulyar zonalarda yallig‘lanish hujayralari (limfotsitlar, makrofaglar) infiltratsiyasi,
- nekroz va apoptoz o‘choqlari uchrashi mumkin. Bu holat jigar to‘qimasining keyingi shikastlanishiga sabab bo‘ladi.

4. Fibrozning boshlang‘ich belgilari

Steatozning uzoq davom etishi fibrogenez jarayonini faollashtiradi. Dastlab:

- **perisinusoidal fibroz,**
- **peritsellyulyar (“chicken-wire”) fibroz** kuzatiladi. Fibrozning kuchayishi esa sirroz rivojlanishiga zamin yaratadi.

5. XXI asr texnologiyalarining o‘rni

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ilm-fan morfologik baholashda quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirmoqda:

- **immunogistokimyoviy markerlar** orqali yallig‘lanish va fibroz darajasini aniqlash;
- **raqamli patologiya** yordamida histologik tasvirlarni standartlashtirish;
- **sun’iy intellekt** asosida steatoz darajasi va fibroz bosqichini avtomatik baholash.

Bu usullar diagnostika aniqligini oshirib, subyektiv xatolarni kamaytiradi.

6. Biologik faol o‘simlik birikmalarining istiqbollari

XXI asr ilmiy izlanishlarida o‘simlik ekstraktlari (antioksidant va yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega moddalari) jigar steatozini kamaytirish va gepatotsitlarni himoya qilishda istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. Eksperimental tadqiqotlar ularning:

- lipid almashinuvini normallashtirish,
- oksidlovchi stressni kamaytirish,

- fibroz jarayonini sekinlashtirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Xulosa

Jigar yog‘li gepatozi XXI asrda metabolik kasalliklar orasida keng tarqalgan va og‘ir asoratlar berishi mumkin bo‘lgan patologiya hisoblanadi. Morfologik jihatdan u mikro- va makrovezikulyar steatoz, gepatotsit distrofiyasi, yallig‘lanish infiltratsiyasi hamda fibrozning boshlang‘ich belgilari bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu o‘zgarishlar kasallikning bosqichini aniqlash va prognozini baholashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Morfologik baholashdagi muammolarni bartaraf etish uchun XXI asr ilm-fani raqamli patologiya, immunogistokimyoviy tahlillar va sun’iy intellekt asosidagi standartlashtirilgan tizimlarni joriy etishni talab etadi. Shuningdek, biologik faol o‘simlik birikmalarining gepatoprotektiv xususiyatlarini chuqur o‘rganish steatozning profilaktikasi va davolashida istiqbolli strategiya hisoblanadi.

Natijada, fan–ta’lim–amaliyot integratsiyasi, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va kompleks yondashuvlar jigar yog‘li gepatozining erta aniqlanishi hamda og‘ir asoratlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Bedossa P.** Pathology of non-alcoholic fatty liver disease // Liver International. – 2017.
2. **Brunt E. M., Wong V. W., Nobili V. va boshq.** Nonalcoholic fatty liver disease // Nature Reviews Disease Primers. – 2015.
3. **Byrne C. D., Targher G.** NAFLD: a multisystem disease // Journal of Hepatology. – 2015.
4. **Chalasani N., Younossi Z., Lavine J. E. va boshq.** The diagnosis and management of nonalcoholic fatty liver disease: practice guidance // Hepatology. – 2018.
5. **EASL–EASD–EASO.** Clinical practice guidelines for the management of non-alcoholic fatty liver disease // Journal of Hepatology. – 2016.

6. **Estes C., Razavi H., Loomba R. va boshq.** Modeling the epidemic of NAFLD // Hepatology. – 2018.
7. **Friedman S. L., Neuschwander-Tetri B. A., Rinella M., Sanyal A. J.** Mechanisms of NAFLD development and progression // Nature Medicine. – 2018.
8. **Kleiner D. E., Brunt E. M.** Nonalcoholic fatty liver disease: pathologic patterns and biopsy evaluation // Seminars in Liver Disease. – 2012.
9. **Sanyal A. J.** Past, present and future perspectives in nonalcoholic fatty liver disease // Nature Reviews Gastroenterology & Hepatology. – 2019.
10. **Younossi Z. M., Koenig A. B., Abdelatif D. va boshq.** Global epidemiology of NAFLD // Hepatology. – 2016.

BALCHIQ VA MISNING BIRGALIKDAGI TA'SIRINI ORGANIZM VA TERIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRLARINI O'RGANIB CHIQISH HAMDA MIS IDISHDA TAYYORLANGAN BALCHIQ ERITMASINI ORGANIZMGA TA'SIRINI O'RGANISH

Tursunniyozov Baxtiyorjon Zoirovich

Navoiy viloyati Xatirchi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: Organizmni tashqi ta'sir natijasida chiniqtirish va ularning usullarini keng targ'ib qilish hamda aholi orasida fiziopterapevtik muolajalarni keng targ'ib qilish

***Kalit so'zlar**. Fizioterapiya, sanatoriya, reabilitatsiya sog`lomlashtirish , qayta tiklash.*

Kirish. Balchiq bilan davolash yoki peloterapiya — torfli, sulfidli, sapropel va boshqa turdagi balchiqlar (peloidlar)ni davo maqsadida ishlatish. Torfli balchiq asosan chirigan organik moddalar va o‘simlik qoldiqlaridan iborat. Sulfidli balchiq — anchagina miqdorda sulfidlar, xususan temir sulfid saqlagan sho‘r suv havzalarining organik mineral balchiq qatlamlaridir. Sapropellar esa chuchuk suvli havzalarda hosil bo‘ladigan oz-moz mineral moddalar aralashgan organik tarkibli balchiq qatlamidan iborat bo‘ladi.

Asosiy qism:

Istalgan shifobaxsh balchiq issiqni uzoq vaqt saqlab turadi va asta-sekin uni badanga beradi. Bunda issiqlik olishdan tashqari, terining kimyoviy ta’sirlanishi va teri orqali organizmga bevosita kiradigan balchiqdagi vodorod sulfid, ammiak va gazsimon moddalar ta’siri ham muhim ahamiyatga ega. Shifobaxsh balchiq terining nerv oxirlariga, oliy nerv markazlari orqali nerv sistemasi faoliyatiga, qon aylanishiga, ichki sekresiya bezlariga, moddalar almashinuviga reflektor ta’sir ko‘rsatadi. Balchiq bilan davolash tananing zararlangan sohasida yoki a’zoda qon aylanishining kuchayishiga, yallig‘lanish o‘choqlarining so‘rilib ketishiga, moddalar almashinuvining yaxshilanishiga, tiklanish jarayonlarining tezlashuviga, ichki sekreksiya bezlari faoliyatining barqarorlashuviga imkon beradi.

Balchiq bilan davolashda asosan applikatsiya usuli — bemor badaniga (umumiy applikatsiya), boshi va yurak sohasidan tashqari, tanasining ayrim qismi yoki sohasiga (mahalliy applikatsiya) shifobaxsh balchiq qo‘yiladi, oradan ma’lum vaqt (10—15 min.) o‘tgach, iliq suvda yuvinib, bir oz dam olinadi. Ayrim kasalliklarda, mas, ginekologik kasalliklarda balchiqli tamponlar qinga, erkaklarda urologik kasalliklarda to‘g‘ri ichakka kiritiladi.

Balchiq bilan davolash surunkali kasalliklarda, suyak, muskul va bo‘g‘im shikastlarida, periferik nerv sistemasi kasalliklarida, ayol va erkaklar jinsiy a’zolari yallig‘langanda, qorin bo‘shlig‘idagi ayrim kasalliklar va yallig‘lanish asoratlarini tugatishda qo‘llaniladi.

Balchiq bilan davolash butun organizmga ta’sir qiladigan kuchli vosita bo‘lib, undan shifokor ko‘rsatmasi va nazorati ostida foydalanish lozim. Balchiq muolajalari qabul qilishda belgilangan qoidalarga qat’iy rioya qilish zarur.

Ushbu muoalaja organizmda

1-Qon aylanish tizimining yaxshilanishi va yurak mushaklarining qisqarish xususiyatlarini kuchaytiradi

2-Qonning umumiy pereferik qarshiligi kamayishi, bunda kapillyar qon tomirlarning kengayishi va arterial bosimning pasaytirishini ko’rish

3-Suyak sinish asoratlari va tayanch-harakatlanish tizimi kasalliklarini davolashda muhim ahamiyatga ega suyak to’qimalarining tiklanish jarayonlarini tezlashitirishi aytilgan

Shuningdek balchiq bilan davolash organizmda

-Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari

-Modda almashinuvi (metabolizm) bilan bog’liq kasalliklari

-Erkaklar va ayollar jinsiy kasalliklari

-Asab tizimi kasalliklari

-Ko’krak va qorin sohalariga oid kasalliklarida davolash uchun ishlatiladi.

Quyidagi kasalliklarda balchiq bilan davolash mumkin emas: o‘tkir yallig‘lanish jarayonlari, xavfli o‘smalar, sil, nefrit, homiladorlik.

Shifobaxsh xususiyatiga ko’ra balchiq oltita genetik tipga bo‘linib, ularning har biri ma’lum bir kimyoviy tarkibga va o‘ziga xos fizik xususuyatlarga ega.

-Torf balchig‘i

- sapropel (chiriyotgan cho‘kma balchiq) balchiq,

-vodorod sulfidli,

-cho‘kma balchiq,

-sopka balchig‘,

-loyli balchiqlar tafovut qilinadi.

Vodorod sulfidli cho‘kma balchiq – bu balchiqning tarkibida oz miqdorda organik moddalar va loy zarrachalari bo‘lib,namligi 41–60%, reaksiyasi kuchsiz ishqorli yoki neytralga yaqin bo‘ladi.

Sapropel balchiqlar – chuchuk suvli ochiq xavzalarda tuproq va qum zarrachalarda, tuproqdagi chirindi moddalardan hosil bo‘lib, unda organik moddalar katta miqdorda bo‘ladi, oltingugurt yo‘q, reaksiyasi – neytral, namligi 90–95% gacha bo‘ladi.

Torf balchig‘i – botqoqliklarda o‘simliklar organizmining uzoq vaqtgacha kislorodsiz chirish natijasida hosil bo‘ladi. Torf balchig‘ida organik moddalar, asosan, gumin moddalari, minerallar kam bo‘ladi, torf balchig‘ining reaksiyasi kuchsiz kislotali.

Sopka balchig‘i – asosini loy tashkil etadi. Uning suyuq qismida mineral tuzlar va organik moddalar kam bo‘ladi, u turdagi balchiq gaz-neftli yerlarda uglevodorod ta’sirida hosil bo‘ladi. Mineral cho‘kma balchiqlar va sopka balchiqlar tabiiy holatda ishlatiladi.

Misning xususiyatlari

Mis inson salomatligi uchun muhim mikroelement hisoblanadi. Qon, markaziy asab tizimi va immunitet tizimi, soch, teri va suyak to'qimalarining, shuningdek, miya, jigar va yurakning rivojlanishi va faoliyatiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Mis asosan kundalik ratsiondan olinadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kattalar sog'lig'ini saqlash uchun kuniga tana vaznining kilogrammiga 0,03 mg mis iste'mol qilishlarini tavsiya qiladi. Homilador ayollar va chaqaloqlar buni ikki baravar oshirishlari kerak. Mis tanqisligi turli kasalliklarga olib kelishi mumkin, ular mis qo'shimchalari va tabletkalarni qabul qilish orqali to'ldirilishi mumkin.

Mis organizmda energiya ishlab chiqarish, temir almashinuvi, qizil qon tanachalari hosil bo'lishi, immun tizimi va antioksidant himoyasida muhim rol o'ynaydi; u nuklein kislotalar sintezi, hujayra membranalarini barqarorlashtirish va nerv tizimi ishlashida ham ishtirok etadi, ammo uning ortiqcha miqdori jigar kabi organlarga zarar yetkazishi mumkin

Mis idishdagi balchiqning organizmga ta’siri

Fiziologik ta’siri. Mis idishdagi shifobaxsh balchiqlar organizmga mexanik,issiqlik va kimyoviy ta’sir ko‘rsatadi. Balchiqning fizik xossalari, balchiq bilan davolash vaqtida birmuncha yuqori haroratdan foydalanishga imkon beradi.

Mexanik ta’sir – mis va balchiq massasining bosimi, badan hamda balchiq qavati o‘rtasidagi ishqalanish natijasida yuz beradi.

Kimyoviy ta’sir – mis va balchiqdan organizmga teri orqali o‘tadigan turli kimyoviy moddalar (gazsimon, uchuvchan moddalar)ta’siriga bog‘liq.

Quyidagi kasalliklarda mis va balchiq bilan davolash mumkin emas: o‘tkir yallig‘lanish jarayonlari, xavfli o‘smalar, sil, yurakqon tomir kasalliklari, nefrit, homiladorlik.

Xulosa

Mis idishda tayyorlangan balchiq ertimasi Fizioterapiya va massajda juda keng foydalaniladi ya’ni organizmda moddalar almashinuviga, qon aylanishiga, siydik hosil bo’lishiga, terida gazlar almashinuviga, ovqat hazm bo’lishiga, endokrin tizimga, jinsiy organlar faoliyatiga, nerv sistemasiga ijobiy ta’sir qilishi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari terida zamburug’li va boshqa infeksiyali kasalliklarga qarshi kurashishda, terida toshmalar, allergiyaga qarshi, teri pegmentatsiyasiga, teri yangilanishiga, teri yallig’lanishiga, terini yoshartiruvchi xususiyatiga, organlar faoliyatini qayta tiklashda ijobiy ta’sir ko’rsatishi orqali juda keng foydalanilsa bo’ladi.



Foydalaniladigan adabiyotlar

1. **Eshboyev E. X., Tashkenbayeva U. A.** Dermatovenerologiya. — Toshkent.
2. **Vaisov A.** Teri va tanosil kasalliklari. — Toshkent, 2009.
3. **Bahadirova F. Sh.** Reabilitatsiya, massaj va mehnat bilan davolash. — Toshkent, 2016.
4. **Mavlyanov Z.** Reabilitatsiya asoslari. — Samarqand, 2022.

OG‘IZ BO‘SHLIG’INING IMMUNOLOGIK VA MIKROBIOLOGIK HOLATI VA UNING OSHQOZON-ICHAK KASALLIKLARI BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Xaitboyev Feruzbek Alisher o‘g‘li
Shegay Olga Alekseyevna
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolaning maqsadi og‘iz bo‘shlig‘ining immunologik, mikrobiologik va biokimyoviy holatini tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarning oshqozon-ichak tizimi kasalliklari rivojlanishidagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Maqolada zamonaviy ilmiy manbalar tahlili asosida og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasining tarkibi, so‘lakning himoya mexanizmlari, mahalliy immunitet omillari va ularning fiziologik hamda patologik holatlardagi o‘zgarishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari og‘iz bo‘shlig‘idagi disbioz va immunologik buzilishlar gastrit, oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalliklarining rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Olingan ma’lumotlar kasalliklarni erta tashxislash va profilaktika choralarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *o‘g‘iz bo‘shlig‘i, mahalliy immunitet, mikroflora, oshqozon-ichak kasalliklari, disbioz, pH-muhit, gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalar.*

Asosiy qism. O‘g‘iz bo‘shlig‘i organizmning ikki muhim faoliyatida – nafas olish va ovqatlanish jarayonida ishtirok etadi va tashqi muhit bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasi anaerob bakteriyalarning miqdori oshqozon-ichak traktining boshqa qismiga nisbatan ancha yuqoridir. Buning asosiy sabablaridan biri bateriyalar og‘iz bo‘shlig‘iga havo, suv, oziq-ovqat bilan tushibgina qolmay, yana transit mikroorganizmlar, ya‘ni vaqtinchalik og‘iz bo‘shlig‘iga tushib u yerdan boshqa organlarga o‘tib ketadigan mikroorganizmlar mavjudligi bilan izohlanadi. Og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasi murakkab va dinamik ekosistemani tashkil etib, u organizmning umumiy gomeostazi hamda oshqozon-ichak tizimi faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi (ovqat turi, so‘lak tarkibi, zararli odatlar). Og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasi ko‘rsatkichlaridan biri bu

so‘lak; ajralgan so‘lak miqdori, quyuqligi, tarkibidagi mineral komponentlari, pH-muhiti, bufer xususiyatlari, organik tarkibi, antibakterial holati so‘lak xususiyatlarini belgilaydi. So‘lak tarkibidan tashqari bakteriyalar 3 ta yo‘nalishda: tishlarning toj qismida, milk egatlarida, tilning orqa qismida joylashadi. Sog‘lom odamning 1,0 ml so‘lagi tarkibida mikroorganizmlar miqdori o‘rtacha 750 millionni tashkil etadi. Mikroorganizmlar og‘iz bo‘shlig‘ining barcha qismida keng tarqalgan bo‘lib, bular Streptococcus mutans, Streptococcus mitis, Streptococcus sanguis va Peptostreptococcuslardir. Og‘iz bo‘shlig‘idagi mikroorganizmlar miqdori sutka davomida o‘zgaruvchan: so‘lak miqdori (uyqu vaqtida keskin kamayadi), ovqatlanish tartibi, kariyes bilan zararlangan tishlar soni, antibiotiklar qabul qilish. Antibiotik vositalarni asoslanmagan va nazoratsiz qabul qilish og‘iz bo‘shligi va ichak mikrobiotsenozining buzilishiga, ya‘ni disbakterioz rivojlanishiga olib kelib, bu holat ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari xavfini oshiradi.

Organizm shilliq qavaqtlarida virusli va bakterial infeksiyalarga qarshi quyidagi immunologik mexanizmlar aniqlangan:

1. Shilliq qavat sirtida joylashgan sekretor antitelolar titri ayrim infeksiyalarga bog‘liq holda o‘zgaradi (masalan, grippda);
2. Sekretlarda (asosan, so‘lak tarkibida) yuqori miqdorda uchraydigan A sinfga mansub immunoglobulinlar;
3. Shilliq qavat ostida joylashgan va IgA ishlab chiqaruvchi plazmatik hujayralar.

Ushbu ma‘lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, insonning shilliq qavati birinchi navbatda oshqozon-ichak va nafas olish yo‘llari, umumiy immun tizimidan mustaqil bo‘lgan buqoq bezi, taloq, limfa tugunlari bilan birgalikda, umumiy immun tizimi bilan uzviy bog‘liq, biroq funksional jihatdan nisbatan mustaqil bo‘lgan mahalliy immun himoya tizimini tashkil etadi hamda organizmga begona moddalar, mikroorganizmlar va zaharli oziq-ovqat komponentlarining kirib kelishiga to‘sqinlik qiladi.

Shu nuqtai nazardan, og‘iz bo‘shlig‘i mikrobiologiyasini o‘rganish uning oshqozon-ichak tizimi bilan o‘zaro aloqasini tushunishda muhim kasb etadi. Og‘iz

bo‘shlig‘ida masalan so‘lakda ularning soni 50 mln dan 5 mlrd gachani tashkil qiladi, bunda ularning ko‘pchiligi so‘lakka til devorchasidan kelib tushadi. Ularning turlarining soni salkam 800 tani tashkil etadi.

Og‘iz bo‘shlig‘ining doimiy florasi uchun og‘iz suyuqligi bosh ozuqa manbaidir: birinchidan, so‘lak og‘iz bo‘shlig‘ida hamisha mavjud bo‘ladi, uning barcha tuzilmalarini yuvib turadi; ikkinchidan, yopishqoqlikka ega bo‘lgan shilliq bezi og‘iz bo‘shlig‘i toqimalarida ushlanib qoladi va uni yupqa qatlam bilan qoplaydi. Uchinchidan so‘lak tarkibida ionlar bo‘ladi, ular ion muvozanatini va bufer qobiliyatini ushlab turadi, so‘lak tarkibida organizmda hosil bo‘luvchi asosiy metabolitlar, ma‘danli birikmalar, oqsillar (proteinlar), aminokislotalar, uglevodlar, vitaminlar, purinlar, pirimidinlar va ko‘plab fermentlar mavjud bo‘ladi.

Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklarining paydo bo‘lishida irsiyat ushbu organizmning tuzilishini hisobga olgan holda bilvosita muayyan ro‘l o‘ynashi mumkin. Bunday irsiy moyillik organizmning immunologik reaktivligi va allergik javobga moyilligi bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda ekksudativ diatezga xos klinik belgilarning namoyon bo‘lishi hamda yallig‘lanish jarayonlariga sezuvchanlikning ortishi bilan izohlanadi. Bemorning terisida pigmentlar kam bo‘ladi, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati ingichka, o‘tkazuvchan, bodomsimon bezlar gipertrofiyalangan, limfa tugunlari oson kattalashadigan bo‘ladi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati ingichkaligi tufayli qo‘zgatuvchi antigenlar, uning toksinlari organizmga osonlik bilan kirib oladi.

Organizmda viruslar ham autoimmunitetning paydo bo‘lishida sezilarli ro‘l o‘ynashi mumkin. Tegishli in-vitro sharoitlarida virus tez sitopatogen ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Virusli etiologiyaga ega bo‘lgan tizimli qizil teri sili kishilar o‘rtasida eng keng tarqalgan autoimmun kasalligi hisoblanadi. Autoimmunlik og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklarining paydo bo‘lishida ham katta ro‘l o‘ynashi mumkin. Masalan, qaytalanuvchi aftoz stomatitdan aziyat chekuvchi bemorlarning qonida og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati antigenlariga qarshi yo‘naltirilgan gumoral va hujayraviy immun javob omillari topilgan. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklarining paydo bo‘lishidagi yosh boshqa kasalliklardagi kabi ro‘lni o‘ynaydi.

Yoshlikda ko‘pincha yallig‘lanish jarayonlari, keksa yoshda degenerativ jarayonlar va o‘sma kasalliklari paydo bo‘ladi. Immun tizimining qarishi buning sababi hisoblanadi.

Ovqatlanish rejimining surunkali ravishda buzilishi va noto‘g‘ri ovqatlanish odatlari oshqozon-ichak tizimida funksional va morfologik o‘zgarishlarning rivojlanishiga olib keladi. Jumladan, oshqozon (me‘da) kasalliklari:

– Gastrit (o‘tkir, surunkali, atrofik, eroziv);

– Oshqozon yarasi (peptik yara, qon ketuvchi yara, perforatsiyalangan yara);

– Oshqozon reflyuks kasalligi (kislota qizilo‘ngachga qaytishi bilan kechadi);

– Oshqozon poliplari;

– Oshqozon saratoni;

– Dispepsiya (ovqat hazmi funksional buzilishi).

O‘n ikki barmoqli ichak (duodenum) kasalliklari:

– Duodenitning o‘tkir va surunkali turlari;

– O‘n ikki barmoqli ichak yarasi – eng ko‘p uchraydigan turi bo‘lib, och qoringa surunkali yurish natijasida kelib chiqib, og‘riq sindromi bilan namoyon bo‘ladi;

– Duodenal stenoz – ichak torayishi;

– Duodenal reflyuks – ichak suyuqligining oshqozonga qaytishi.

Bundan tashqari, ichaklarning umumiy kasalliklari ham tavsiflanadi:

Enterit, enterokolit, kolit, ich qotishi, disbakterioz (ichak mikroflorasi buzilishi).

Ichak infeksiyalari: dizenteriya, salmonellyoz, ich ketishi (diareya), gelmintozlar (qurt kasalliklari).

Kasalliklar natijasida kuzatiladigan asoratli holatlarga:

– Ichki qon ketish;

– Ichak perforatsiyasi;

– Anemiya;

– Oziqa so‘rilishining buzilishi kabilarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Zamonaviy klinik tibbiyotda asosiy e‘tibor ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, patogenezni chuqur o‘rganish va minimal invaziv davolash usullarni qo‘llashga qaratilmoqda. Oshqozon yoki o‘n ikki barmoqli ichak yara kasalliklari ichakning shilliq qavatida ochiq yara paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadigan surunkali va qaytalanuvchi kasalliklar qatoriga kirganligi sababli ularning rivojlanish mexanizmlari ham eng sodda tuzilmalar darajasida o‘rganilishi ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Rizayev J. A., G‘afforov S. A., Yusupalixodjayeva S. X.** Umumiy stomatologiya. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti, 2018. — 456 b.
2. **Афанасьев В. В., Барер Г. М.** Стоматология. Заболевания слизистой оболочки полости рта. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2016. — 352 с.
3. **Грудянов А. И., Фролова О. А.** Микробиоценоз полости рта и его клиническое значение // Стоматология. — 2014. — № 4. — С. 5–9.
4. **Scannapieco F. A.** The oral microbiome: its role in health and in oral and systemic infections // Clinical Microbiology Newsletter. — 2013. — Vol. 35, № 20. — P. 163–169.
5. **Atarashi K., Honda K.** Microbiota in health and disease // Nature Reviews Immunology. — 2011. — Vol. 11. — P. 623–635.
6. **Petersen P. E., Ogawa H.** Strengthening the prevention of periodontal disease: the WHO approach // Journal of Periodontology. — 2005. — Vol. 76, № 12. — P. 2187–2193.

РАДИОЛОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫХ ОПУХОЛЕЙ: ОТ МАКРОСКОПИЧЕСКОЙ СЕМИОТИКИ К КОЛИЧЕСТВЕННЫМ БИОМАРКЕРАМ ИЗОБРАЖЕНИЯ

Солиева Гульчехра Абдурахмановна
Мамаджанова Дилбархон Алишеровна
Central Asian Medical University

Аннотация. *Данная статья представляет собой комплексный обзор и систематизацию радиологических критериев злокачественных опухолей, рассматривая их эволюцию от классической описательной семиотики до современных количественных подходов.*

Ключевые слова: *злокачественная опухоль, радиологическая диагностика, медицинская визуализация, компьютерная томография (КТ), магнитно-резонансная томография (МРТ), позитронно-эмиссионная томография (ПЭТ-КТ), радиологические критерии, лучевая семиотика, инвазивный рост, контрастное усиление, кинетика контрастирования, диффузионно-взвешенные изображения (DWI), коэффициент адгезии (ADC), злокачественная лимфаденопатия, гематогенные метастазы, стандартизированные системы отчетности (BI-RADS, LI-RADS, PI-RADS, TI-RADS, Lung-RADS), радиомика, искусственный интеллект (ИИ), ранняя диагностика, дифференциальная диагностика, стадирование.*

Введение

В современной клинической онкологии парадигма «увидеть и удалить» сменилась сложной, многоэтапной стратегией, основанной на точной диагностике, оценке биологической агрессивности и индивидуальном планировании лечения. В этом процессе радиологическая диагностика

перестала быть вспомогательным инструментом и превратилась в один из ключевых драйверов принятия решений. Её основная задача — не просто обнаружить объемное образование, а всесторонне охарактеризовать его, ответив на критически важные вопросы: является ли процесс злокачественным, каков его гистологический потенциал, насколько он локально распространен и есть ли признаки системного поражения.

Основу этой характеристики составляют радиологические критерии злокачественности — совокупность визуальных и количественных признаков, выявляемых с помощью методов медицинской визуализации. Эти критерии основаны на фундаментальных патофизиологических особенностях злокачественного роста: инфильтративной деструкции тканей, стимуляции неоангиогенеза, повышенного метаболизма и способности к метастазированию. Понимание и систематизация этих критериев, их интеграция в стандартизированные протоколы и постоянное совершенствование за счет новых технологий (функциональная МРТ, радиомика) определяют эффективность всего онкологического процесса — от скрининга до контроля лечения.

Актуальность

Актуальность глубокого и структурированного знания радиологических критериев злокачественности обусловлена несколькими взаимосвязанными факторами

1. Эпидемиологический фактор: Непрекращающийся рост заболеваемости злокачественными новообразованиями во всем мире предъявляет беспрецедентные требования к системам ранней диагностики. Радиологические методы являются первой линией в выявлении как симптоматического, так и бессимптомного (скринингового) рака.

2. Проблема гипердиагностики и ложноположительных результатов: Увеличение объема и разрешающей способности исследований (например, при КТ-скрининге легких) ведет к лавинообразному росту числа обнаруженных «инсиденталом» — случайных находок. Без четких и

воспроизводимых критериев это приводит к всплеску ненужных, инвазивных и дорогостоящих диагностических процедур (биопсий), а также к психологической травматизации пациентов.

3. Необходимость в точном стадировании и планировании лечения: Современная онкология движется в сторону минимизации инвазивности и персонализации терапии (таргетная, иммунотерапия). Выбор между хирургией, химиолучевой терапией или их комбинацией напрямую зависит от точной радиологической оценки местной распространенности (T), состояния лимфоузлов (N) и наличия отдаленных метастазов (M). Ошибка на этапе визуализации может привести к неадекватному объему операции или неэффективному системному лечению.

4. Стандартизация и междисциплинарная коммуникация: В условиях мультидисциплинарных онкологических консилиумов (tumor boards) язык описания должен быть универсальным и однозначным. Внедрение международных систем отчетности (BI-RADS, LI-RADS и др.), построенных на четких критериях, позволило формализовать заключения радиолога, превратив их из субъективного описания в структурированный отчет с категориями вероятности и конкретными рекомендациями.

5. Технологический прогресс: Появление гибридных методов (ПЭТ-КТ, ПЭТ-МРТ), функциональных техник (перфузия, спектроскопия, DWI) и методов анализа больших данных (радиомика) расширило понятие «критерий» далеко за пределы морфологии. Теперь это не только «неровный контур», но и «значение SUVmax», «коэффициент ADC», «паттерн перфузии» и «сигнатура текстуры». Интеграция этих новых количественных биомаркеров в клиническую практику требует их осмысления и валидации.

Таким образом, владение радиологическими критериями — это не только клинический навык, но и необходимое условие для эффективной работы всей системы оказания онкологической помощи, обеспечения её качества, безопасности и экономической целесообразности.

Цель исследования

Целью данного исследования является всесторонний анализ и систематизация современных радиологических критериев злокачественных опухолей, оцениваемых с помощью основных методов медицинской визуализации (КТ, МРТ, ПЭТ-КТ, УЗИ), с акцентом на их патофизиологическое обоснование, диагностическую ценность и практическое применение в рамках стандартизированных систем отчетности.

Материал и методы

Работа выполнена в формате комплексного аналитического обзора. Материалом для исследования послужили:

1. Научные публикации: Был проведен систематический поиск и анализ статей в международных базах данных PubMed, Scopus и Web of Science за период 2010-2024 гг. Ключевые запросы включали: «radiological features of malignancy», «imaging criteria for cancer», «LI-RADS», «BI-RADS», «radiomics in oncology», «DWI in tumor characterization».

2. Клинические руководства и консенсусы: Официальные документы и рекомендации авторитетных профессиональных сообществ, таких как Американский колледж радиологии (ACR), Европейское общество радиологов (ESR), Европейское общество онкологии (ESMO) и Национальная комплексная онкологическая сеть (NCCN), касающиеся систем отчетности и диагностических алгоритмов.

3. Учебные пособия и монографии: Фундаментальные работы по радиологической семиотике и онкологической визуализации.

Методология исследования основана на:

Дескриптивном анализе — подробном описании и классификации критериев по методам визуализации и локализациям.

Сравнительном анализе — оценке диагностической эффективности (чувствительности, специфичности) различных критериев и методов.

Системном подходе — рассмотрении критериев не изолированно, а в контексте интеграции в клинические алгоритмы и системы принятия решений.

Основная часть: Систематизация радиологических критериев злокачественности

1. Универсальные (базовые) морфологические критерии.

Эти критерии применимы для оценки опухолей практически любой локализации и основаны на фундаментальных свойствах злокачественного роста.

1.1. Характеристики первичного опухолевого узла:

Форма и контуры: Доброкачественные образования чаще имеют округлую или овальную форму с ровными, четкими контурами, что отражает экспансивный рост. Для злокачественных опухолей патогномонична неправильная, звездчатая (спикулированная), амебовидная форма с нечеткими, размытыми, «изъеденными» контурами. Спикулы — тонкие линейные тяжи, радиально расходящиеся от узла — являются прямым отображением инвазивного роста и десмопластической реакции стромы. Важен симптом вертикальной ориентации (отношение антеро-постера больше 1) относительно поверхности органа или кожи.

Внутренняя структура: Злокачественные опухоли гетерогенны. На КТ и МРТ это проявляется неоднородностью плотности/интенсивности сигнала из-за чередования участков жизнеспособной ткани, некроза (гиподенсные/гипоинтенсивные зоны), кровоизлияний и фиброза. На УЗИ характерна неоднородная эхогенность.

Кальцинаты: Характер обызвествлений имеет высокую диагностическую ценность. Для злокачественных процессов (особенно карцином) типичны микрокальцинаты (менее 0,5-1 мм) неправильной, полиморфной формы, сгруппированные в кластеры. Ветвящиеся, линейные или точечные кальцинаты (типа «прерывистого пунктира») характерны для протокового рака in situ молочной железы. Псаммоматозные кальцинаты —

признак серозного рака яичников или папиллярного рака щитовидной железы.

1.2. Критерии, основанные на васкуляризации (неоангиогенезе):

Характер контрастного усиления: Злокачественные опухоли стимулируют рост неоангиогенных сосудов с повышенной проницаемостью. Это приводит к интенсивному и, как правило, гетерогенному накоплению контрастного препарата. Часто наблюдается периферическое, кольцевидное (rim-enhancement) или узловое усиление, что соответствует зонам активного роста по периферии и некрозу в центре.

Кинетика контрастирования (при динамических исследованиях): Кривая зависимости интенсивности сигнала от времени является ключевым функциональным критерием. Классическая кривая для злокачественных опухолей — тип III («wash-out» — смыв): быстрый подъем в артериальную фазу (быстрое накопление) с последующим быстрым снижением интенсивности в отсроченных фазах. Этот паттерн отражает как высокий кровоток, так и быстрое вымывание контраста через «дырявые» сосуды. Реже встречается тип II (плато). Тип I (постепенный прирост) более характерен для доброкачественных процессов.

1.3. Критерии локально-инвазивного роста:

Прорастание в окружающие ткани: Размывание и инфильтрация жировых плоскостей, вовлечение соседних мышц, фасций, органов.

Деструкция костной ткани: При контакте с костью злокачественная опухоль вызывает не ее оттеснение, а деструкцию кортикального слоя с формированием нечеткого, перфорированного, «изъеденного» края.

Перитуморальный отек: Выраженный вазогенный отек в белом веществе головного мозга вокруг внутримозговой опухоли или отек костного мозга вокруг метастаза служит маркером агрессивности и повышенной сосудистой проницаемости.

2. Критерии метастатического поражения

2.1. Злокачественная лимфаденопатия: Критерии поражения лимфоузлов включают:

Увеличение размера (короткий оси >10 мм для большинства локализаций, >15 мм в брюшной полости, >8 мм для средостения).

Изменение формы: Утрата бобовидной формы, округление (отношение длинной оси к короткой <2).

Потеря нормальной архитектоники: Исчезновение дифференцировки на корковый и мозговой слой, жирового воротка.

Неоднородность структуры: Признаки некроза (гиподенсный/гипоинтенсивный центр с периферическим усилением), кальцинаты.

Слияние узлов в конгломераты, нечеткость контуров (признак экстракапсулярного распространения).

2.2. Гематогенные метастазы: Характеризуются множественностью и полиморфизмом очагов в паренхиматозных органах (печень, легкие, надпочечники, головной мозг). Часто имеют сходные с первичной опухолью характеристики усиления («мишеневидные» метастазы в печень при раке ЖКТ).

3. Функциональные и метаболические критерии

3.1. Диффузионно-взвешенная МРТ (DWI): Злокачественные опухоли обладают высокой клеточной плотностью и ядерно-цитоплазматическим соотношением, что ограничивает движение молекул воды. Это проявляется в: Повышении сигнала на DWI-изображениях (особенно при высоких b-значениях, >800 с/мм²). Снижении количественного показателя — коэффициента адгезии (ADC). Низкие значения ADC являются независимым маркером злокачественности и активно используются для дифференциальной диагностики, оценки ответа на лечение и в системах PI-RADS для предстательной железы.

3.2. Позитронно-эмиссионная томография (ПЭТ-КТ): Основана на регистрации повышенного метаболизма глюкозы в опухолевых клетках (эффект Варбурга).

Основной критерий — фокальное повышенное накопление радиофармпрепарата (18F-ФДГ) в участках, не соответствующих нормальной физиологической активности.

Количественный показатель — стандартизированный уровень накопления (SUVmax). Высокие значения SUVmax коррелируют с агрессивностью опухоли, степенью злокачественности и худшим прогнозом.

Позволяет выявлять метастазы, невидимые при анатомической визуализации, и дифференцировать рецидив опухоли от посттерапевтических изменений.

4. Органоспецифические критерии и системы стандартизации.

Универсальные критерии адаптируются и детализируются для конкретных органов в рамках специально разработанных систем отчетности: BI-RADS (молочная железа): Детально классифицирует форму, контуры, кальцинаты и кинетику усиления, присваивая категории от 0 до 6.

LI-RADS (печень): Использует строгий алгоритм для оценки очагов в цирротической печени, основанный на размере, характере артериального усиления и «вымывании» в отсроченной фазе.

PI-RADS (предстательная железа): Версия 2.1 комбинирует данные T2-взвешенных изображений, DWI/ADC и динамического контрастирования для оценки вероятности клинически значимого рака.

Lung-RADS (легкие): Стандартизирует описание солитарных легочных узлов при КТ-скрининге, используя размер, плотность (солидный, частично солидный, неспецифический) и динамику роста.

TI-RADS (щитовидная железа): Система для стратификации риска узлов щитовидной железы по данным УЗИ на основе состава, эхогенности, формы, краев и наличия микрокальцинатов.

5. Новые горизонты: радиомика и искусственный интеллект. Традиционные критерии — это визуально оцениваемые признаки. Радиомика представляет собой высокопроизводительный количественный анализ медицинских изображений, извлекающий сотни скрытых параметров (текстура, форма, гистограмма интенсивностей). Алгоритмы машинного обучения на основе этих данных решают задачи:

Дифференциальной диагностики с точностью, превышающей традиционные критерии.

Предсказания генетических мутаций и молекулярных подтипов опухолей («виртуальная биопсия»).

Прогнозирования ответа на терапию и выживаемости.

Это открывает путь к персонализированной онкологии, где лечение планируется на основе глубокого анализа радиологических биомаркеров.

Выводы

1. Радиологические критерии злокачественности представляют собой иерархическую систему, основанную на патофизиологических особенностях опухолевого роста. Они эволюционируют от описательных морфологических признаков (форма, контуры, усиление) к сложным функциональным (кинетика, ADC, SUVmax) и, наконец, к количественным радиомическим сигнатурам.

2. Диагностическая ценность любого отдельного критерия ограничена. Максимальная точность достигается при комплексной мультимодальной оценке, когда данные КТ, МРТ, ПЭТ-КТ и УЗИ дополняют друг друга, обеспечивая и морфологическую, и функциональную, и метаболическую характеристику опухоли.

3. Ключевым достижением последнего десятилетия стало внедрение стандартизированных систем отчетности (BI-RADS, LI-RADS и др.), которые формализуют применение критериев, минимизируют субъективность, улучшают коммуникацию между специалистами и обеспечивают воспроизводимость результатов на международном уровне.

4. Обнаружение признаков инвазивного роста и метастатического поражения (деструкция кости, прорастание в органы, злокачественная лимфаденопатия, отдаленные метастазы) часто является решающим аргументом в пользу злокачественности и определяет стадию заболевания, напрямую влияя на терапевтическую стратегию.

5. Будущее радиологической диагностики злокачественных опухолей связано с дальнейшей интеграцией количественных биомаркеров, развитием радиомики и искусственного интеллекта. Эти технологии позволят перейти от констатации факта злокачественности к прецизионному прогнозированию биологического поведения опухоли и индивидуальному подбору терапии, что является сутью современной персонализированной онкологии.

Список использованной литературы

1. **American College of Radiology (ACR).** BI-RADS Atlas: Mammography, Ultrasound, MRI, Tomosynthesis. – 5th ed. – Reston, VA: ACR, 2013.
2. **American College of Radiology (ACR).** CT/MRI LI-RADS® v2018 Core. – Reston, VA: ACR, 2018.
3. **Barentsz J. O., Richenberg J., Clements R. et al.** ESUR prostate MR guidelines 2012 // European Radiology. – 2012. – Vol. 22, № 4. – P. 746–757.
4. **Choi J. Y., Lee K. S., Kwon O. J. et al.** Carcinoma of the Esophagus: Computed Tomography Versus Magnetic Resonance Imaging // Journal of Computer Assisted Tomography. – 2005. – Vol. 29, № 2. – P. 226–232.
5. **de Koning H. J., van der Aalst C. M., de Jong P. A. et al.** Reduced lung-cancer mortality with volume CT screening in a randomized trial // New England Journal of Medicine. – 2020. – Vol. 382, № 6. – P. 503–513.
6. **Eisenhauer E. A., Therasse P., Bogaerts J. et al.** New response evaluation criteria in solid tumours: revised RECIST guideline (version 1.1) // European Journal of Cancer. – 2009. – Vol. 45, № 2. – P. 228–247.

7. **Lambin P., Rios-Velazquez E., Leijenaar R. et al.** Radiomics: extracting more information from medical images using advanced feature analysis // European Journal of Cancer. – 2012. – Vol. 48, № 4. – P. 441–446.

SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT: STRATEGIES FOR SOCIETAL PROGRESS

TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduxalilov Nodirbek Xursandbek o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lgan transport xizmatlarining ahamiyati, mavjud muammolar va ularni strategik boshqarish yo'llari yoritilgan. Transport xizmatlarini boshqarishda logistika, ekologiya va raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm, transport infratuzilmasi, strategik boshqaruv, logistika, barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya.*

Kirish.Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi milliy iqtisodiyotlarning yuksalishida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyoti bozorlarida turizm sanoati yalpi ichki mahsulot (YaIM), eksport tushumlari va yangi ish o'rinlari yaratish orqali yetakchi o'rinlardan birini egallab bormoqda. Turizmning bu kabi iqtisodiy salohiyati samarali transport infratuzilmasi mavjudligisiz to'laqonli ro'yobga chiqmaydi. Ayniqsa, ichki va transchegaraviy turizmda transport xizmatlari muhim aloqa vositasi sifatida nafaqat geografik harakatlanishni ta'minlaydi, balki mehmonlarning xizmat sifati haqidagi umumiy taassurotlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [1].

Transport infratuzilmasining holati, yo'lovchilarni tashish sifati, logistika va yo'nalishlar muvofiqlashtirilganligi turizmda raqobatbardoshlikning muhim omillaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois, transport xizmatlarini strategik boshqarish, ularni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ajralmas yo'nalishiga aylanmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilab

olish va bu borada ko‘plab institutsional islohotlar amalga oshirilayotgani ushbu sohada tizimli yondashuv zaruratini taqozo qilmoqda [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, hududlararo va xalqaro transport qatnovlarini kengaytirish borasida aniq vazifalar belgilab berilgan [3]. Shu jumladan, “yo‘lovchi tashish sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ekologik toza transport turlaridan foydalanish” turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida avtomobil, temiryo‘l, havo va jamoat transportlari orqali turizm sohasida xizmat ko‘rsatish tizimi mavjud bo‘lsa-da, uning sifati va qulayligi bo‘yicha hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim hududlardagi sayyohlik obyektlariga olib boruvchi avtomobil yo‘llarining yomon holati, aeroportlar va vokzallarda turistik infratuzilmaning yetarli emasligi, hamda ekologik transport turlarining kamligi sohaning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan asosiy omillardandir [4].

Bundan tashqari, turizmda transport xizmatlarini boshqarishda logistik yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi, marshrutlar bo‘yicha ma’lumotlarning raqamlashtirilmaganligi, xizmatlar diversifikatsiyasining sustligi va muvofiqlashtirilmagan tarif siyosati ham transport xizmatlari strategiyasini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Bu borada xalqaro tajriba tahlili ham ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda turizm transporti logistik tizim sifatida ko‘rilib, u klasterlar asosida muvofiqlashtirilgan hamda elektron xizmatlar bilan to‘ldirilgan [5].

Shu bois, ushbu dissertatsiyada transport xizmatlarini strategik boshqarish konsepsiyasini O‘zbekiston turizm sohasi realiyalari bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ilg‘or xalqaro tajriba asosida milliy model taklif qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. Tadqiqot natijalari

transport xizmatlarining raqamli boshqaruvi, ekologik barqarorligi va hududiy integratsiyasini ilgari surishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili . Turizm sohasida transport xizmatlarining o‘rni va uning strategik boshqaruvga ta’siri masalalari xalqaro va milliy miqyosda ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, transport infratuzilmasining holati, logistika tizimining samaradorligi va xizmat ko‘rsatish sifati turistik oqimlarning shakllanishiga va ularning hududiy taqsimotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jihatlar o‘z navbatida milliy daromad, bandlik darajasi va turizmning investitsiyaviy jozibadorligini belgilovchi muhim omillar sirasiga kiradi [6].

Jahon turizm amaliyotida transport xizmatlari ko‘pincha “harakatdagi tizim” sifatida tavsiflanadi. Bu kontseptsiya asosan ingliz olimlari S. Page va R. Lumsdon tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, ular transport tizimlarini nafaqat harakatlanish vositasi, balki turizm jarayonining integral elementi sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, turizmda transport – bu sayohat boshlanadigan va tugaydigan vosita bo‘lib, sayohatchining umumiy taassurotlariga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, ushbu tizimning qulayligi, xavfsizligi va ekologik jihatdan barqarorligi turizmning sifat omillarini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi [7].

Shuningdek, D.J. Timothy va S.W. Boyd o‘z izlanishlarida transport boshqaruvining turizm xizmatlari bilan uzviy bog‘liqligini qayd etadilar. Ular turizmda marshrutlar dizayni, logistika tizimining zamonaviylashtirilganligi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi transport xizmatlarining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, ularning ta’kidlashicha, zamonaviy turizmda transport xizmatlari mustaqil xizmat emas, balki integratsiyalashgan kompleks tizim sifatida qaralishi lozim [8].

Milliy adabiyotlarda ham turizm transport xizmatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, o‘zbekistonlik olim A.A. Rasulov turizmda transport xizmatlarini logistika tizimlari asosida tashkil qilish zarurligini ta’kidlab, hududlararo turistik qatnovlarni samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy takliflarni ilgari suradi. Uning tadqiqotlarida ayniqsa, turizmda “zanjirli logistika

yondashuvi”ning ahamiyati alohida qayd etilgan. Ushbu yondashuvda sayyohning manzilgacha bo‘lgan yo‘lida barcha transport va xizmat ko‘rsatish turlarining bir tizimga birlashtirilgan bo‘lishi talab etiladi [9].

Bundan tashqari, P. Kotler va J. Bowen singari marketing va menejment sohasining vakillari o‘z asarlarida transport xizmatlarini “turizm mahsulotining ajralmas elementi” sifatida ko‘rsatadilar. Ularning nuqtai nazariga ko‘ra, transport logistikasini to‘g‘ri tashkil qilish nafaqat sayyohlar oqimini ko‘paytiradi, balki mijoz sadoqatini oshirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va xizmatlar diversifikatsiyasiga ham xizmat qiladi [10].

Xalqaro miqyosda esa UNWTO, OECD kabi tashkilotlarning hisobotlarida ekologik toza transport turlarining turizmga integratsiyasi, shuningdek raqamli texnologiyalar asosida transport boshqaruvi konsepsiyalariga ustuvor e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, postpandemiya davrida kontaktsiz texnologiyalarga asoslangan yo‘lovchi boshqaruvi, onlayn bron qilish, QR-kodli chiptalar, multimodal logistika tizimlari kabi elementlar zamonaviy transport xizmatlarining ajralmas bo‘lagi sifatida qaralmoqda [11].

Xulosa qilganda, mavjud ilmiy izlanishlar turizmda transport xizmatlarini nafaqat logistik xizmat, balki strategik menejmentning mustaqil sohasi sifatida baholash lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, milliy miqyosda ham transport xizmatlarining takomillashtirilgan boshqaruv modeli zarurati kundan-kunga dolzarb bo‘lib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda turizm sohasida transport xizmatlarini boshqarish strategiyasini takomillashtirishga oid masalalar kompleks tarzda o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik bazasi sifatida zamonaviy menejment nazariyasi, strategik boshqaruv konsepsiyasi, klasterlash yondashuvi va raqamli transformatsiya tamoyillariga asoslangan tizimli yondashuv qabul qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida analitik, taqqoslash (komparativ), induktiv-deduktiv tahlil, tizimlashtirish va empirik ma’lumotlarni saralash usullari qo‘llanildi.

Birinchidan, tahliliy metod yordamida transport xizmatlarining turizm sohasidagi o‘rni, mavjud infratuzilmaning holati, davlat siyosati doirasida amalga

oshirilayotgan islohotlar tahlil qilindi. Bu jarayonda turizmda transport infratuzilmasining samaradorligi, xavfsizligi, ekologik barqarorligi va iqtisodiy jozibadorligi bo‘yicha mezonlar ishlab chiqildi.

Ikkinchidan, komparativ metod asosida O‘zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar (masalan, Turkiya, Malayziya, Ispaniya)da qo‘llanilayotgan strategik boshqaruv yondashuvlari bilan solishtirildi. Natijada xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv modeli elementlari aniqlanib, milliy tizimga moslashtirish imkoniyatlari o‘rganildi [12].

Uchinchidan, empirik ma’lumotlar asosida amaliy tahlillar o‘tkazildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, Turizmni rivojlantirish milliy agentligi hamda Transport vazirligi tomonidan e’lon qilingan ochiq statistika va rasmiy hisobotlar asosida mavjud transport xizmatlarining quvvati, foydalanish ko‘rsatkichlari, investitsion oqimlar va logistika muammolari tizimli ravishda tahlil qilindi [13].

To‘rtinchidan, klasterlash yondashuvi asosida turizm-transport aloqalarini hududiy kesimda ko‘rib chiqishga e’tibor qaratildi. Bu borada turistik zonalarni transport yo‘llari bilan integratsiyalash, logistika markazlarini shakllantirish, hududlararo transport oqimlarining muvofiqlashtirilgan holda boshqarilishi uchun algoritmlar ishlab chiqildi [14].

Beshinchidan, tadqiqotda raqamli transformatsiya konsepsiyasi muhim metodologik asos sifatida xizmat qildi. Ayniqsa, turizm transport xizmatlarida sun’iy intellekt, geoinformatsion tizimlar (GIS), QR-kodlar, onlayn bron tizimlari, kontaktsiz to‘lov tizimlari va mobil ilovalar orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilindi [15].

Barcha tahlillar natijasida transport xizmatlarini strategik jihatdan takomillashtirish bo‘yicha konseptual yondashuv ishlab chiqilib, bu yondashuv turizm sektorining logistik, tashkiliy va texnologik rivojiga xizmat qilishiga asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.O‘zbekiston Respublikasi turizm sektorida transport infratuzilmasi nisbatan rivojlangan bo‘lishiga qaramay, mazkur yo‘nalish hali ham

to‘laqonli iqtisodiy va funksional salohiyatini to‘liq namoyon eta olmayapti. Mavjud infratuzilma avtomobil, temir yo‘l, havo va shahar jamoat transporti turlariga asoslangan. Ammo ularning turizm ehtiyojlariga to‘liq moslashtirilganligi hali hamon yetarli emas. Respublikadagi turistik transport infratuzilmasining holatini tahlil qilish natijasida quyidagi tizimli muammolar aniqlangan:

- Ayrim sayyohlik obyektlariga olib boruvchi yo‘llarning sifatsizligi. Masalan, tog‘li hududlar yoki tarixiy qadamjolarga olib boruvchi yo‘llar nosozligi sayyohlar oqimini cheklab qo‘ymoqda. Bu holat, ayniqsa, Farg‘ona vodiysi, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi ob’ektlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi [16].
- Aeroportlar va vokzallarda turistik xizmatlar yetishmovchiligi. Aksariyat transport uzellari faqat tashish funktsiyalarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u yerda turizm axborot markazlari, ko‘p tilli navigatorlar, interaktiv xaritalar va boshqa qo‘shimcha xizmatlar mavjud emas [17].
- Ekologik transport turlarining sust rivojlanishi. Elektr avtobuslar, velosiped yo‘laklari, piyoda sayohat yo‘nalishlari kabi “yashil transport” turlari hali ko‘plab hududlarda mavjud emas. Bu holat O‘zbekistonning xalqaro barqaror turizm standartlariga moslashishini sekinlashtirmoqda [18].
- Raqamli texnologiyalar yetishmovchiligi. Onlayn bron tizimlari, GPS yo‘nalishlar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosida yo‘lovchi boshqaruvi tizimlari ko‘plab turistik marshrutlarda mavjud emas. Natijada, sayyohlar o‘z yo‘nalishlarini oldindan rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda [19].

Yuqoridagi kamchiliklar tahlili asosida transport xizmatlarini strategik takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar ishlab chiqildi:

1. Transport-logistika tizimini klasterlash asosida takomillashtirish

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klaster yondashuvi qo‘llanilishi regional muvofiqlikni ta’minlaydi, xizmatlar zanjirini bir tizimda birlashtiradi va iqtisodiy samara beradi. Bunday tizimda har bir transport tuguni (aeroport, vokzal, terminal) turistik xizmatlar bilan integratsiyalashadi, bu esa logistika xarajatlarini kamaytiradi hamda sayyohlar uchun qulayliklar yaratadi [20].

2. Raqamli texnologiyalar asosidagi boshqaruv tizimlarini joriy etish

Transport xizmatlarining sifatini oshirishda raqamli yechimlardan foydalanish zarur. Mobil ilovalar orqali yo‘lovchi oqimini boshqarish, GPS asosida avtomatik marshrut tuzish, onlayn to‘lov tizimlarini joriy qilish orqali xizmatlarning zamonaviyligi va qulayligi ta’minlanadi. Bundan tashqari, kontaktsiz xizmatlar (self check-in, QR-chiptalar) pandemiyadan keyingi davrda xavfsizlik standartlarini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [21].

3. Ekologik transport infratuzilmasini rivojlantirish

“Yashil turizm” konsepsiyasi doirasida elektr transport vositalari, veloturizm va piyoda yo‘nalishlarining rivoji katta ahamiyat kasb etmoqda. Elektr avtobuslar shaharlardagi transport yukini kamaytiradi, havoning ifloslanishini oldini oladi va turistik hududlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi. Shuningdek, velotreklar va piyodalar yo‘laklarining mavjudligi ekologik ongni shakllantiradi [22].

4. Xalqaro integratsiyani kuchaytirish va transchegaraviy aloqalarni yo‘lga qo‘yish

O‘zbekistonning geografik joylashuvini hisobga olgan holda, qo‘shni davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Afg‘oniston bilan logistika integratsiyasini kuchaytirish orqali sayyohlar oqimini oshirish mumkin. Xalqaro transport yo‘nalishlarida yagona vizalar, elektron chiptalar, chegara nazorati tizimlarining moslashtirilganligi xalqaro turizm oqimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [23].

Yuqorida keltirilgan strategik yo‘nalishlar milliy turizm transport xizmatlarini innovatsion, ekologik va iqtisodiy nuqtayi nazardan takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular O‘zbekiston Respublikasining xalqaro turizm maydonidagi raqobatbardoshligini oshirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, turizm sohasida transport xizmatlari faqat tashish vositasi sifatida emas, balki sayyohlik faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim infratuzilma elementi sifatida ko‘rilishi lozim. Transport tizimi turizmning logistik asosini tashkil etib, xizmat sifati, qulaylik darajasi, xavfsizlik, ekologik holat va raqamli qulayliklar bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, turizmda transport xizmatlarini strategik boshqarish bu sohaga oid

muammolarni chuqur tahlil qilish, ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash orqali amalga oshirilishi zarur [24].

Bugungi global iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda turizmda raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun transport infratuzilmasini zamon talablariga javob beradigan darajada modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, turizm transport logistikasi, marshrutlar tizimi, multimodal tashish formatlari va hududlararo integratsiyaning takomillashtirilishi, sayyohlar oqimini boshqarish va ularning qulaylik darajasini oshirishga xizmat qiladi [25].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, transport xizmatlarini raqamlashtirish orqali xizmatlar sifati, tezkorligi va samaradorligi oshiriladi. Mobil ilovalar, GPS tizimlari, QR-kodli chiptalar, kontaktsiz to‘lovlar va yo‘lovchi oqimlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan usullari orqali sayyohlar uchun xizmatlar nafaqat qulay, balki ishonchli bo‘ladi. Bu esa zamonaviy “aqlli turizm” konsepsiyasiga zamin yaratadi [26].

Shuningdek, ekologik xavfsiz transport turlarining joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot” va barqaror turizm konsepsiyalariga muvofiq ravishda harakatlanishini ta’minlaydi. Elektr avtobuslar, veloturizm, piyoda yo‘laklar va kam energiya talab qiluvchi transport vositalari sayyohlik makonlarining ekologik holatini yaxshilaydi, bu esa xalqaro sayyohlar ishonchini oshiradi [27].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, logistika aloqalarining transchegaraviy integratsiyasi, ya’ni qo‘shni davlatlar bilan avtomobil va temir yo‘l qatnovlarini muvofiqlashtirish, yagona viza va transport tartibotlarini joriy etish turistik oqimlarni keskin oshirishga xizmat qiladi. Bu esa Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish uchun muhim omil sifatida baholanadi [28].

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida turizm transport xizmatlarini strategik boshqarish tizimini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- transport-logistika tizimini klasterlash asosida tashkil etish;
- raqamli texnologiyalarni joriy qilish va avtomatlashtirish;

- ekologik barqaror transport turlarini rivojlantirish;
- xalqaro integratsiyani kuchaytirish.

Ushbu strategik chora-tadbirlar O‘zbekistonning turistik salohiyatini sezilarli darajada oshirish bilan birga, mintaqaviy va global turizm maydonida mamlakatning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Page S., Lumsdon L.** Tourism and Transport: Issues and Agenda for the New Millennium. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2001. – B. 17–23.
2. **Rasulov A. A.** Turizmda transport xizmatlari va logistikani takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – B. 45–53.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmon “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
4. **Gulyamov S. S.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlarini modernizatsiya qilish. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 66–69.
5. **Timothy D. J., Boyd S. W.** Tourism and Trails: Cultural, Ecological and Management Issues. – Channel View Publications, 2014. – B. 103–112.
6. **G‘ulomov S. S.** Turizm iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – B. 122–126.
7. **Page S., Lumsdon L.** Tourism and Transport: Issues and Agenda for the New Millennium. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2001. – B. 18–23.
8. **Timothy D. J., Boyd S. W.** Tourism and Trails: Cultural, Ecological and Management Issues. – Channel View Publications, 2014. – B. 106–111.
9. **Rasulov A. A.** Turizmda transport xizmatlari va logistikani takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – B. 45–53.

10. **Kotler P., Bowen J. T., Makens J. C.** Marketing for Hospitality and Tourism. – 6th ed. – Pearson, 2014. – B. 259–262.
11. **UNWTO.** Transport-related measures to reduce emissions in tourism. – Madrid: World Tourism Organization, 2020. – P. 14–21.
12. **Mintzberg H., Ahlstrand B., Lampel J.** Strategy Safari: A Guided Tour Through the Wilds of Strategic Management. – Simon and Schuster, 2005. – B. 33–45.
13. **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.** Turizm va transport sohalari bo‘yicha rasmiy statistik byulletenlar. – www.stat.uz, 2023.
14. **Rasulov A. A.** Turizmda transport xizmatlari va logistikani takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – B. 55–58.
15. **UNWTO.** Transport-related digital solutions in post-COVID tourism. – Madrid: World Tourism Organization, 2021. – P. 19–26.
16. **Gulyamov S. S.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlarini modernizatsiya qilish. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 77–80.
17. **O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi.** Hisobotlar. – www.mintrans.uz, 2023.
18. **Rasulov A. A.** Turizmda transport xizmatlari va logistikani takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – B. 61–64.
19. **UNWTO.** Sustainable Transport for Tourism Development. – Madrid: World Tourism Organization, 2020. – P. 10–15.
20. **Gulyamov S. S.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlarini modernizatsiya qilish. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 80–85.
21. **Khasanov B.** Turizm klasterlari va transport aloqalari // Iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari. – 2022. – № 4. – B. 33–39.
22. **UNWTO.** Digital solutions in travel and transport after COVID-19. – Madrid: World Tourism Organization, 2021. – P. 22–27.
23. **OECD.** Green Transport Policies in Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2022. – P. 35–40.

24. **ADB.** Regional cooperation in Central Asia: Transport and Logistics Sector Assessment. – Manila: Asian Development Bank, 2021. – P. 48–56.
25. **Page S., Lumsdon L.** Tourism and Transport: Issues and Agenda for the New Millennium. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2001. – B. 23–26.
26. **Rasulov A. A.** Turizmda transport xizmatlari va logistikani takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – B. 61–70.
27. **UNWTO.** Digital solutions in travel and transport after COVID-19. – Madrid: World Tourism Organization, 2021. – P. 22–27.
28. **OECD.** Green Transport Policies in Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2022. – P. 35–40.

RAQAMLI IQTISODIYOT, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISHDAGI AHAMIYATI

Aminjonova Vazira Mamasidikovna
Shaxobiddinova Marjonaxon Bahodirjon qizi
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nafaqat O’zbekiston balki dunyo davlatlari iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib kelayotgan va hozirgi kunda dolzarb hisoblangan raqamli iqtisodiyot va uning mazmuni haqida, uning iqtisodiy o‘sishga erishishdagi ahamiyati va raqamli iqtisodiyotning aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini bosqichma-bosqich yahshilashdagi va davlat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashdagi roli haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi.*

***Kalit so‘zlar**: Raqamli iqtisod, kelib chiqish tarixi, afzalliklari, O‘zbekistonda raqamli iqtisod rivojlanishi, elektron hukumat, IT park, Yoshlar texnoparki.*

E’tibor qilgan bo‘lsak so‘nggi vaqtlarda hayotimizda "raqamli iqtisodiyot" degan tushuncha juda ko'p qo'llanilmoqda. Haqiqatdan ham ko'plab rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, ushbu maqola raqamli iqtisodiyot haqida bo'ladi. Unda "Raqamli iqtisodiyot nima?", "Raqamli iqtisodiyot vazifalari va afzalliklari", "Iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida raqamli iqtisodiyot ko‘proq natija bermoqda?" kabi muhim savollarga javob izlashga harakat qilamiz.

Ushbu mavzuni yoritishdan oldin, kundalik hayotimizda ro'y beradigan holatlardan biri bilan tanishib chiqsak. Tasavvur qiling, haftaning qaysidir kuni ishdan uyga charchab, kech keldingiz. Qorningiz och lekin uyingizda ovqat yo‘q, siz esa taom tayyorlash uchun yetarlicha kuchli emassiz. Hozirgi kunda ko‘plab yetkazib berish xizmatlari va ular bilan hamkorlikda ishlaydigan dasturlar juda ham ko‘p. Ulardan biriga kirib hohlagan vaqtingizda va istalgan joyingizdan taom buyurtma qilishingiz mumkin. Yetkazib berish xizmati esa uni 30 daqiqaga qolmay uyingizning oldiga olib kelib beradi.

«Raqamli iqtisodiyot» atamasi ikki olimning nomlari bilan bog‘liq. Kanadalik iqtisodchi Don Tapskott va amerikalik axborot texnologiya (IT) mutaxassisi Nicholas Negroponte. 1995-yilda "Being Digital" kitobida Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" atamasini qo‘llagan. Ilmiy asarida uchta kesishadagan media tarmoqlarga (ommaviy axborot vositalar, (OAV) aloqa vositalari va kompyuterlar) asoslangan konvergentsiya modelini taklif etgan. Bunday birlashish natijasida yangi (raqamli) media shakllangan. O‘sha 1995-yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapscottning “The Digital Economy» kitobi nashrdan chiqadi. Unda Don Tapskot rivojlangan

mamlakatlardagi jamiyatning evolyutsion tendensiyalarini tahlil qilish natijalarini bayon qildi va axborot muhitni yangi iqtisodiyotga, ya'ni raqamli iqtisodiyotga aylantiradigan 12 muhim belgilarni asoslab berdi. Xususan:

1. Bilimlar – biznesda va umuman iqtisodiyotda asosiy e'tibor inson kapitali – bilimdan foydalanishga qaratiladi. Raqamli iqtisodiyotda bilim harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, boshqa an'anaviy manbalar ikkinchi darajali.

2. Raqamlashtirish – endi bilimlarni raqamli ravishda saqlash mumkin. Oldingi iqtisodiyotda ma'lumotlar analogli yoki jismoniy bo‘lgan va ma'lumot almashish faqat odamlarning bevosita aloqasi orqali amalga oshirilgan. Raqamli iqtisodiyotda axborotlar hisoblash qurilmalar yordamida raqamli shaklda ifodalangan.

3. Virtuallashtirish – raqamli iqtisodiyotda jismoniy va moddiy Buyurmalarni virtual ko‘rinishga aylantirish mumkin. Demak, turli xil munosabatlarga (sanoat, ijtimoiy va boshqalar), tegishli bo‘lgan oldin qabul qilingan qoidalarni va iqtisodiy faoliyatning mazmun-mohiyatini o‘zgartiradi .

4. Dinamizm – an'anaviy tashkiliy tuzilmalar yanada dinamik ish muhitiga yo‘l beradi. Loyihalashtirish ishlari dunyoning turli burchaklaridan turib birga ishlayotgan odamlar tomonidan amalga oshirilsa yanada samaraliroq bo‘ladi.

5. Integratsiya – mikro darajada alohida tashkilot yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisobiga kichik kompaniyalarning barcha afzalliklariga ega. Makro darajada, iqtisodiyot har doimgidek ishlaydi, chunki barcha ishtirokchilar – yetkazib beruvchilar, iste'molchilar, raqobatchilar va boshqalar bir biri bilan aloqador bo‘lib birlashadi.

6. Vositachilarsiz ishlash – vositachilarda ehtiyoj bo‘lmaydi. Ko‘plab tashkilotlar o‘z mijozlari bilan axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi, bu esa yetkazib beruvchilar va mijozlar o‘rtasida axborot almashinuvini yengillashtiradi.

7. Konvergensiya – iqtisodiyotning yetakchi sohasi hisoblanadi, aloqa va Internet texnologiyalarining yaqinlashuvi sifatida yaratilgan. Bular birgalikda raqamli iqtisodiyot bog‘liq bo‘lgan platformalardan biri bo‘lgan interfaol multimedia yaratadilar.

8. Innovatsiya – Raqamli iqtisodiyot yangi mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsiyalarga asoslanadi. Innovatsion iqtisodiyotda inson tasavvuri va ijodkorlik qiymatning asosiy manbai hisoblanadi.

9. Ishlab chiqaruvchi - iste’molchi munosabatlarining o‘zgarishi – sanoatlashgan jamiyatida muhim jihatlardan biri ommaviy ishlab chiqarish hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot davrida asosiy yo‘nalish mahsulot (mahsulot yoki xizmat) ni tashkil etishdir

10. Samaradorlik - mijozlar ko‘proq ma’lumotga ega va sifatli xizmatni xohlashadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli mahsulotni buyurtma qilish, ishlab chiqarish va yetkazib berish o‘rtasidagi vaqt oralig‘i keskin kamayadi.

11. Globallashuv – raqamli iqtisodiyotda, bilim asosiy resursga aylanganda, tashkiliy tuzilmalar o‘z hududlarida faoliyat yuritsa ham, faqat bitta jahon iqtisodiyoti mavjud. Globallashuv yangi axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini rag‘batlantiradi va amalga oshiradi.

12. Kelishmovchilik – har bir yangi taraqqiyot ortidan bir o‘zgarish keladi, shuningdek, ular bilan qarama-qarshiliklar va 10 sekin moslashish ham. Natijada mojaroli vaziyatlar yuzaga keladi. Raqamli iqtisodiyotda texnologik jihatdan savodli mutaxassislar va texnologiyaga kirish imkoniga ega bo‘lmagan mutaxassislar o‘rtasidagi farq o‘sib bormoqda va kelajakda jamiyat uchun jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi va ishlab chiqarishning asosiy omillari raqamli shaklda taqdim etilgan ma’lumotlar bo’lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to‘lovlar amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir. Asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron to‘lovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'riladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Lekin buning insonga zarar tomonlari ham yo‘q emas. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin.Bunga misol qilib hozirgi kunda tez rivojlangan va deyarli har bir odam ishlatib kelayotgan “Uzum” dasturini aytsak bo‘ladi. Bu dastur orqali odamlar uydan chiqmagan holda o‘zining biznesini yo‘lga qo‘yib rivojlantirib kelishmoqda. Ulardan mahsulot olayotgan iste’molchilar uchun mahsulotni tez va ishonchli olish ancha qulay.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqa afzalliklari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi;
- ishlab chiqarishdagi harajatlarning kamayishi;
- yangi ish o'rinlari yaratilinishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi;
- kambag'allikni yengish va ijtimoiy tengisizlikni yuqolishi.

Bular raqamli iqtisodiyotning bor yo'gi bir nechta afzalliklari holos. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ijobiy ta'sir qiladi, oddiy foydalanuvchiga ko'plab qo'shimcha imkoniyatlar beradi va qolaversa, bozorni o'sishi va rivojlanishini ta'minlab berishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlarga uslubiy-amaliy yordam ko‘rsatish borasidagi masala o‘z yechimini topmoqda.

Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan “IT-park”lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizda zamonaviy dasturlash texnologiyalarini o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlash maqsadida “Bir million dasturchi” loyihasi ishlab chiqilib, loyiha doirasidagi mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun uzbekcoders.uz o‘quv portali ishga tushirildi.Hozirda shu loyiha bo’yicha keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Sababi aholini raqamli iqtisodiyotdan xabardor qilish va kelajakda yetishib chiqadigan kadrlarni bilim va ko’nikmalarini yanada oshirish bo’layapti.

2020-yil mamlakatimizda “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko‘tarilib, Prezident Farmoni bilan mamlakatning “Raqamli

O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Uning asosiy maqsadi – iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish hamda raqamli infratuzilmani zamonaviy talablar asosida rivojlantirishdan iborat. Strategiyaning amaliy ijrosi natijasida davlat xizmatlarining katta qismi elektron shaklga o‘tkazilishi, IT-sektorning yalpi iqtisodiyotdagi ulushi oshishi, raqamli infratuzilma kengayishi, shuningdek, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar asosida boshqaruv samaradorligi kuchayishi kutilmoqda. Bu jarayon O‘zbekistonning xalqaro “e-government” reytinglarida yuqorilashiga ham xizmat qiladi.

Albatta, aholini internet tarmog‘idan foydalanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa raqamli iqtisodiyot, shu jumladan elektron hukumat tizimi ham shuncha samarali faoliyat yuritadi. Yurtimiz bo‘yicha internet foydalanuvchilari soni jami aholiga nisbatan 2021-yilda 76,6 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 94,2 foizdan yuqorini tashkil etmoqda. Bu ma’lumotlarga ko’ra , shu yili internetdan foydalanuvchilar soni 2021-yilga nisbatan 17,6 foizga o’sganini ko’rishimiz mumkin.

Bundan tashqari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va yoshlarga yanada ko’p imkoniyatlar yaratish maqsadida 2025-yilning 8-may kuni Farg‘ona shahrida Yoshlar texnoparki foydalanishga topshirildi. Hozirgi vaqtda Texnoparkda yoshlarning ilmiy – ijodiy salohiyatini oshirish, ularni innovatsion faoliyatga keng jalb etish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu yerda yigit – qizlar 3D modellashtirish, IT dasturlash, elektrotexnika , robototexnika kabi 8 ta yo’nalishda tehsil olishlari va zamonaviy kasblarni o’zlashtirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ-4699-son qaror (2020-yil 28-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-martdagi 107-son qarori tahririda) // **Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi**. — 14.03.2023. — № 09/23/107/0146.

2. **Porsaev G. M.**, **Safarov B. Sh.**, **Usmanova D. Q.** Raqamli iqtisodiyot asoslari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2020.

3. **YUZ.UZ.** Rasmiy veb-sayt. — URL: https://yuz.uz (murojaat sanasi: 20.01.2026).

4. **Kursiv Media (Uzbekistan).** Rasmiy veb-sayt. — URL: https://uz.kursiv.media/uz

HUDUDIY IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARNING ROLI

Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsion strategiyalarning o‘rni mintaqalar kesimida tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion salohiyat, inson kapitali, infratuzilma rivoji va investitsiya muhitining barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri o‘rganilgan. Olingan natijalar hududlar o‘rtasida innovatsion rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Muallif tomonidan hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion strategiyalarni takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Hududiy rivojlanish, innovatsion strategiyalar, barqaror iqtisodiy o‘sish, inson kapitali, infratuzilma, investitsiya muhiti.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsion rivojlanish strategiyalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida innovatsiyalarga tayangan keng qamrovli dastur va strategiyalarni faol joriy etmoqda. Xususan, ilm-fan, raqamli texnologiyalar, sanoat klasterlari, startap ekotizimlari va “aqlli hududlar” konsepsiyalari asosida mintaqalarni rivojlantirish amaliyoti keng quloch yoymoqda [1]. Mamlakatimizda ham hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror o‘sishni ta’minlash borasida innovatsion yondashuvlarga asoslangan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat dasturlari, investitsiya loyihalari, texnoparklar va innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarning yaqqol ifodasidir.

Shu bilan birga, mamlakatimizda va dunyoda innovatsion rivojlanish bo‘yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Ayrim mintaqalarda innovatsiyalar tez joriy etilib, iqtisodiy o‘sish barqaror tus olayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda bu jarayon sust kechmoqda. Natijada hududlar o‘rtasida daromadlar darajasi, bandlik imkoniyatlari, infratuzilma rivoji va ijtimoiy xizmatlar sifati bo‘yicha nomutanosibliklar yuzaga kelmoqda [2]. Mazkur holat innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda hududiy xususiyatlar yetarli darajada hisobga olinmayotganini, shuningdek, barqaror o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish masalasida muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotda ushbu muammoni hal etishning muhim yo‘li sifatida mintaqalar kesimida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish hamda innovatsion strategiyalarning ushbu jarayondagi rolini aniqlashga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot innovatsion salohiyat, inson kapitali,

infratuzilma, investitsiya muhitining rivojlanganlik darajasi kabi omillarning hududiy rivojlanishga ta’sirini yoritib beradi. Olingan natijalar hududlar uchun moslashtirilgan innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va metodologiya. Mazkur tadqiqotda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsion strategiyalarning rolini aniqlash maqsadida keng qamrovli tahliliy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida mamlakatimiz hududlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar, davlat rivojlanish dasturlari, xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar tahlili asos qilib olindi. Shuningdek, hududlarning innovatsion faolligi, inson kapitali, infratuzilma rivoji va investitsiya jalb etish darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tanlab olindi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda taqqoslama tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Hududlar innovatsion rivojlanish darajasiga ko‘ra, yuqori, o‘rta va past rivojlangan guruhlarga ajratilib, barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar mintaqalar kesimida solishtirildi. Shuningdek, o‘sish omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida sabab–oqibat tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi va umumlashtirildi. Qo‘llanilgan uslublar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion strategiyalarning samaradorligini baholash hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Natijalar. Mazkur tadqiqotda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsion strategiyalarning o‘rni mintaqalar kesimida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, barqaror iqtisodiy o‘sish darajasi hududlarning innovatsion salohiyati, inson kapitali sifati, infratuzilma rivoji hamda investitsiya muhitining shakllanganlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir [3]. O‘rganilgan mintaqalarda innovatsion faollik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda iqtisodiy o‘sish

barqarorroq va ijtimoiy ko‘rsatkichlar nisbatan yaxshiroq shakllanganligi kuzatildi. Quyidagi 1-jadvalda mintaqalar kesimida barqaror o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy omillar umumlashtirilgan.

Mintaqalar kesimida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish omillarining taqqoslama tahlili

1-jadval

O‘sish omillari	**Yuqori rivojlangan hududlar**	**O‘rta rivojlangan hududlar**	**Past rivojlangan hududlar**
Innovatsion faoliyat darajasi	Yuqori	O‘rtacha	Past
Inson kapitali sifati	Yuqori	O‘rtacha	Past
Raqamli va transport infratuzilmasi	Rivojlangan	Qisman rivojlangan	Yetarli emas
Investitsiya jalb etish darajasi	Barqaror	Nisbatan barqaror	Beqaror
Kichik biznes va startaplar faolligi	Yuqori	O‘rtacha	Past
Ijtimoiy xizmatlar sifati	Yuqori	O‘rtacha	Past
Iqtisodiy o‘sish barqarorligi	Barqaror	Qisman barqaror	Beqaror

Manba: Muallif tominidan ishlab chiqildi.

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori rivojlangan hududlarda innovatsion faoliyatning yuqori darajada shakllanganligi iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu hududlarda inson kapitaliga investitsiya kiritish, ta’lim va malaka oshirish tizimining rivojlanganligi innovatsiyalarni tez joriy etish imkonini bermoqda.

Shuningdek, rivojlangan raqamli va transport infratuzilmasi biznes faolligini oshirib, investitsiya oqimlarining barqarorligini ta’minlamoqda.

O‘rta rivojlangan hududlarda innovatsion strategiyalar qisman joriy etilgan bo‘lib, bu iqtisodiy o‘sishning nisbatan barqarorligini ta’minlayotgani bilan tavsiflanadi. Biroq mazkur hududlarda infratuzilma va startap ekotizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi innovatsion salohiyatdan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Past rivojlangan hududlarda esa innovatsion faoliyatning sustligi, inson kapitali sifati va infratuzilmaning yetarli emasligi iqtisodiy o‘sishning beqarorligiga olib kelmoqda. Bu holat hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning saqlanib qolishiga sabab bo‘lib, innovatsion strategiyalarni hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsion strategiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, innovatsion faollik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda iqtisodiy o‘sish nafaqat tezroq, balki barqarorroq tus oladi. Bu holat innovatsiyalarni rivojlantirish inson kapitali sifati, infratuzilma rivoji va investitsiya muhitining yaxshilanishi bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, natijalar hududlar o‘rtasidagi tafovutlar innovatsion strategiyalarni bir xil yondashuv asosida joriy etish samarasiz ekanini anglatishini ko‘rsatmoqda. Past rivojlangan hududlarda innovatsion salohiyatning yetarli darajada shakllanmaganligi mavjud resurslardan samarali foydalanishni cheklamoqda. Bu esa barqaror o‘sishni ta’minlash uchun hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan, bosqichma-bosqich joriy etiladigan innovatsion siyosat zarurligini asoslaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari innovatsion rivojlanishni hududiy siyosat bilan uyg‘unlashtirish, inson kapitaliga investitsiyalarni kuchaytirish hamda infratuzilmani kompleks rivojlantirish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsion strategiyalar muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. Shu bilan birga, hududlar o‘rtasida innovatsion salohiyat, inson kapitali va infratuzilma rivoji bo‘yicha mavjud nomutanosibliklar barqaror iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Ushbu muammoli jarayonlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi **amaliy taklif va tavsiyalar** ilgari suriladi:

1. **Hududlarning innovatsion salohiyatini baholovchi yagona indeksni joriy etish [4].** Mazkur indeks innovatsion faoliyat, inson kapitali, infratuzilma va investitsiya muhitini qamrab olgan holda hududlar kesimida aniq diagnostika o‘tkazish imkonini beradi.

2. **Innovatsion strategiyalarni hududiy differensial yondashuv asosida ishlab chiqish.** Yuqori, o‘rta va past rivojlangan hududlar uchun alohida maqsadlar, mexanizmlar va moliyalashtirish instrumentlarini belgilash orqali innovatsion siyosat samaradorligini oshirish mumkin.

3. **Past rivojlangan hududlarda innovatsion infratuzilmani ustuvor rivojlantirish.** Texnoparklar, biznes-inkubatorlar va ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish orqali innovatsion faollikni rag‘batlantirish zarur.

4. **Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan hududiy dasturlarni kuchaytirish.** Ta’lim sifati, kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish tizimini hududiy ehtiyojlarga moslashtirish innovatsiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtiradi [5].

5. **Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash.** Hududlarda innovatsion loyihalar uchun soliq imtiyozlari, grantlar va qo‘shma moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish barqaror o‘sishni ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda mamlakat miqyosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Muhitdinov A. B.** Immersive virtual reality for ensuring teaching in engineering education // Economy and Society. — 2022. — Vol. 5-2 (92). — P. 564–567.
2. **Soatov A. M.** New ideas and instructions in the education system under modern conditions // Economy and Society. — 2022. — No. 2-1. — P. 485–490.
3. **Gapporov B. N., Nomozov M. L.** The quality of professional skill acquisition in the formation of students' inventive abilities // International Conferences. — 2023. — Vol. 1. — No. 2. — P. 773–777.
4. **Qosimov J. A., Muhitdinov A. B., Muhitdinov A. A., Igamberdiev D. K., Abbazov B. T.** The role of software in the development of modeling in education // AIP Conference Proceedings. — 2022. — Vol. 2432. — No. 1. — AIP Publishing. — DOI: 10.1063/5.0083208.
5. **Qosimov J. A., Aynakulov M. A., Gapparov B. N., Khatamov A. Y., Khudoyberdiev B. B.** Development of methods for improving the lessons of information technology on the basis of graphic programs // AIP Conference Proceedings. — 2022. — Vol. 2432. — No. 1. — AIP Publishing.

NAVOIY VILOYATIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA INVESTITSION IMKONIYATLARI

Boboqulov Bekzod

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti, magistrant

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Navoiy viloyatida ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda investitsion imkoniyatlari tahlil etilgan. Hududning tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va ekologik salohiyati iqtisodiy rivojlanish omillari sifatida baholangan. Tadqiqot davomida ekoturizmning hududiy iqtisodiyotga ta'siri, aholi bandligini oshirishdagi roli,*

mahalliy daromadlar va investitsion jozibadorlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, Navoiy viloyatida ekoturizm sohasini rivojlantirish istiqbollari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *ekoturizm, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, hududiy iqtisodiyot, Navoiy viloyati.*

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon miqyosida barqaror rivojlanish tamoyillari asosida turizm sohasini rivojlantirish muhim strategik yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy manfaatdorlikni ta’minlovchi ekoturizm konsepsiyasi ko‘plab mamlakatlar uchun ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Ekoturizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholi farovonligini oshirishni o‘zida mujassam etgan kompleks iqtisodiy faoliyat turi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari orasida Navoiy viloyati tabiiy-geografik sharoiti, noyob landshaftlari, cho‘l va tog‘ ekotizimlari, tarixiy-madaniy ob’ektlari bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu bois hududda ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini chuqur o‘rganish hamda investitsion imkoniyatlarini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Navoiy viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, hududning katta qismini Qizilqum cho‘li egallaydi. Shunga qaramay, viloyat hududida biologik xilma-xillikka boy tabiiy ob’ektlar mavjud. Jumladan, Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi, Nurota tog‘ tizmasi, Sarmishsoy darasi, shuningdek, noyob flora va fauna vakillari ekoturizm uchun muhim resurs hisoblanadi.

Hududning iqlim sharoiti, keng ochiq landshaftlari va kam o‘zlashtirilgan tabiiy hududlari ekologik sayohatlar, ilmiy-ekspeditsion turizm, etnoekoturizm va ekstremal ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, cho‘l ekoturizmi va yovvoyi tabiatni kuzatishga qaratilgan sayohatlar xorijiy sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Ekoturizmning asosiy afzalliklaridan biri – uning hududiy iqtisodiy rivojlanishga kompleks ta’sir ko‘rsatishidir. Avvalo, ekoturizm aholi bandligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Turizm infratuzilmasi rivojlanishi natijasida gidlik xizmati, mehmon uylari, transport, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Shuningdek, ekoturizm mahalliy daromadlarning oshishiga xizmat qiladi. Sayyohlar tomonidan sarflanadigan mablag‘lar to‘g‘ridan-to‘g‘ri hudud iqtisodiyotiga yo‘naltiriladi, bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beradi. Natijada hudud aholisi turmush darajasi yaxshilanadi va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi.

Ekoturizmning yana bir muhim jihati – uning ekologik ongni shakllantirishdagi rolidir. Tabiiy hududlardan oqilona foydalanish, ekologik muhofaza choralariga rioya etish va biologik xilma-xillikni saqlash ekoturizm orqali keng targ‘ib qilinadi. Bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Navoiy viloyatida ekoturizmni rivojlantirish investitsiya nuqtayi nazaridan istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hududda mavjud tabiiy resurslar, transport-logistika imkoniyatlari hamda davlat tomonidan turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash siyosati investitsion jozibadorlikni oshirmoqda. Xususan, ekologik toza mehmonxonalar, dam olish maskanlari, etno-qishloqlar, ekolodjlar va sayyohlik marshrutlarini tashkil etish uchun xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish ekoturizm loyihalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Investitsion muhitni yaxshilashda infratuzilmani rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va marketing strategiyalarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar hududning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Navoiy viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- ekoturistik hududlarni ilmiy asosda rejalashtirish;
- mahalliy aholini ekoturizm jarayonlariga faol jalb etish;

- ekologik standartlar va sertifikatlash tizimini joriy etish;
- marketing va brending strategiyalarini ishlab chiqish;
- malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Mazkur chora-tadbirlar ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hududning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy viloyatida ekoturizmni rivojlantirish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ekoturizm aholi bandligini oshirish, mahalliy daromadlarni ko‘paytirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish bilan birga, ekologik barqarorlikni ta’minlashga imkon yaratadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishni ilmiy asosda rivojlantirish va investitsion imkoniyatlardan samarali foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmon. — Toshkent.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Ekologik turizmni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida Qaror. — Toshkent, 2019.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.** Turizm va hududiy rivojlanish bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar. — Toshkent.
4. **Sharipov Sh.** Ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. **Yo‘ldoshev A., Qodirov M.** Ekoturizm va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. — Samarqand: Zarafshon, 2020.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINING QIYMAT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISH

Ermetov Amirbek I.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda raqamli texnologiyalar asosida hunarmandchilik va kichik biznes subyektlari faoliyatida qiymat zanjirini optimallashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, marketing va realizatsiya qilish jarayonlarida raqamli platformalar, elektron savdo, raqamli to‘lov tizimlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Natijalarga ko‘ra, hunarmandchilikni raqamlashtirish kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, daromadlarini ko‘paytirish va hududiy innovatsion rivojlanishni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Tezisda mintaqalarda hunarmandchilik va kichik biznesni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *hunarmandchilik, kichik biznes, raqamlashtirish, qiymat zanjiri, raqamli iqtisodiyot, elektron savdo, innovatsion rivojlanish, hududiy iqtisodiyot.*

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida hunarmandchilik va kichik biznesni innovatsion rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hunarmandchilik kichik biznesning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u aholi bandligini ta’minlash, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish hamda milliy madaniy merosni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq an’anaviy boshqaruv va savdo mexanizmlarining ustunligi hunarmandchilik mahsulotlarining qiymat zanjirida yo‘qotishlarga olib kelmoqda.

Hunarmandchilik va kichik biznes mahsulotlari qiymat zanjiri xomashyo ta’minoti, ishlab chiqarish, dizayn, qadoqlash, marketing, logistika va sotuv bosqichlarini qamrab oladi. Raqamli texnologiyalar ushbu bosqichlarda axborot almashinuvini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va qo‘shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Xususan, raqamli platformalar va elektron savdo tizimlari

hunarmandlarga mahsulotlarini vositachilarsiz sotish imkonini yaratib, kichik biznes subyektlarining bozorga kirish to‘siqlarini kamaytiradi.

Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn brending vositalari hunarmandchilik mahsulotlarining bozor qiymatini oshirib, mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli to‘lov tizimlari va elektron hisob-kitoblar kichik biznes subyektlarining moliyaviy shaffofligini ta’minlab, ularning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyasini jadallashtiradi.

Hunarmandchilikni raqamlashtirishga asoslangan institutsional yondashuv - bu zamonaviy iqtisodiy tizimda sohaning yangi shaklda faoliyat yuritishini ilmiy-nazariy asoslash jarayonidir. Bu jarayonda huquq, axloqiy normalar, davlat institutlari va jamiyatdagi boshqa ijtimoiy tuzilmalar bilan o‘zaro aloqadorlik muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan hunarmandchilik - bu faqat ishlab chiqarish emas, balki axborot oqimlarini boshqarish, marketing, savdo, mijoz bilan aloqani raqamli muhitga ko‘chirish, va natijada yangi institut sifatida namoyon bo‘lishdir.


Mazkur institutsional transformatsiyalar turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi barcha subyektlarning - ya’ni davlat, oilaviy korxonalar, uyushmalar va xususiy tashabbuskorlarning o‘zaro hamkorligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu o‘zgarishlar qoidabuzarliklar emas, balki mavjud muassasalarning ichki mexanizmlarida, rolda va funksiyalarda ko‘zga tashlanadigan yangilanishlar orqali namoyon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan qaralganda, institutsional modeldagi hunarmandchilik — bu ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlar orasidagi uzviy muvozanat asosida shakllanuvchi barqaror faoliyat modeli bo‘lib, unda qadriyatlar, an’analar, odatlar va iqtisodiy manfaatlar bir butun integratsiyalashgan holda amal qiladi. Hunarmandchilik faoliyatini yuritishda qo‘llaniladigan har bir qoidaning o‘zi muayyan “institut” hisoblanadi.

Hududiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishda, ayniqsa, oilaviy hunarmandchilik faoliyati muhim manba sifatida e’tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan Basco, Steier, Zellweger kabi tadqiqotchilar oilaviy korxonalarning boshqaruv mexanizmlari, meros va mulk tuzilmasi, shaxsiy va kollektiv vakolatlar chegarasi, ijtimoiy rol taqsimoti kabi jihatlarni tahlil qilgan. Ularning izlanishlari asosida, oilaviy hunarmandchilikni uch o‘lchamli nazariy modelda ko‘rib chiqish mumkin: bu erda mulkdor, rahbar (boshqaruvchi) va oila a’zolari o‘rtasida rol va vakolatlar qat’iy aniqlangan bo‘ladi.

Biroq amaliyotda bu rollar ko‘pincha bir-biriga aralashib ketgan bo‘lib, bu holat boshqaruvda muvofiqlikni izdan chiqaradi. Shuning uchun zamonaviy iqtisodiy modelda institutsional yondashuvni chuqurlashtirish, rollarni aniqlashtirish va ularning funksional chegaralarini belgilash zarur bo‘ladi. Bunday yondashuv mulk, boshqaruv va foyda bo‘linmasi kabi muhim mezonlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Ushbu nazariy kontseptsiya asosida hududlar kesimida oilaviy hunarmandchilik faoliyatining institutsional modelini ishlab chiqish mumkin (1-rasm). Mazkur modelda shaxs, oila, jamoa va davlat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki, vakolatlar chegarasi va mas’uliyat tizimi ifodalangan. Bu yondashuv oilaviy korxonalarni raqamli iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Oilaviy hunarmandchilikning tashkil etilishi modeli

Yaqin yillarda hunarmandchilik faoliyatini oilaviy tadbirkorlik shaklida chuqur o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar kengayib bormoqda. Xususan, bu sohada agentlik nazariyasiga asoslangan yondashuvlar asosiy o‘rin egallab, mulkdor hamda oila a’zolari o‘rtasidagi boshqaruv rollari va mas’uliyatlarini aniqlashtirishda foydalanilmoqda. Mazkur yondashuv oilaviy hunarmandchilikni kompleks nazariy modelda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, barqaror oilaviy biznes modeli (SFBT) va “oila zanjiri” nazariyasi kabi yondashuvlar 2000-yildan buyon muvaffaqiyatli tatbiq etilib kelmoqda. Bular oila va biznes o‘rtasidagi munosabatlarni aniq ko‘rsatish, shuningdek oilaviy korxonalarning boshqa xo‘jalik shakllaridan farqlanuvchi ustunliklarini izohlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tajribalarda bu boradagi izlanishlar sezilarli darajada natijadorlikka erishmoqda. Jumladan, Credit Suisse tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda 35 mamlakatdan 920 ta yirik oilaviy korxona reytingi tuzilib, ularning 64 foizi Osiyo mintaqasiga to‘g‘ri kelgani qayd etilgan. Bu esa rivojlanayotgan davlatlarda oilaviy biznes modellari keng yoyilganini anglatadi.

Mahalliy miqyosda esa hunarmandchilik sohasini institutsional qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha huquqiy va tashkiliy mexanizmlar shakllanmoqda. Bunda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirilishi, bozor mexanizmlarining takomillashuvi, byurokratik to‘siqlarning qisqarishi kabi omillar umumiy hududiy tadbirkorlikni faollashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik va kichik biznes faoliyatini raqamlashtirish orqali qiymat zanjirini optimallashtirish mintaqalarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, bandlikni oshirish va hududiy innovatsion salohiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, hunarmandlar va kichik biznes subyektlarining raqamli savodxonligini oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Porter M. E.** Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 2011.
2. **Kotler P., Keller K. L.** Marketing Management. — 15th ed. — Pearson Education, 2016.
3. **Evans D. S., Schmalensee R.** Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms. — Boston: Harvard Business Review Press, 2016.
4. **OECD.** The Digital Transformation of Small and Medium-sized Enterprises. — Paris: OECD Publishing, 2019.
5. **UNCTAD.** Digital Economy Report: Cross-border Data Flows and Development. — Geneva: United Nations, 2021.
6. **UNESCO.** Creative Economy Outlook: Trends in International Trade in Creative Industries. — Paris, 2018.
7. **Asqarova N. I.** Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning ekonometrik modellari tahlili // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. — 2024. — № 11/2.
8. **Tursunov B. O.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini

rivojlantirish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

9. **Abdurahmonov Q. X.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyoti. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
10. **Rasulov A. A.** Innovatsion iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
11. **Ismoilov B. A.** Hududiy iqtisodiyot va kichik biznesni rivojlantirish omillari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2019. — № 5.

QONUNCHILIK SIYOSATI SAMARADORLIGI VA UNING EKONOMETRIK TAHLILI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi

Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida qonunchilik siyosati samaradorligini ekonometrik yondashuv asosida baholash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qonunchilik samaradorligini baholash uchun ekonometrik model taklif etilib, xalqaro reytinglar va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida normativ-huquqiy hujjatlarning sifat ko‘rsatkichlarini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *qonunchilik siyosati, ekonometriya, huquq ustuvorligi, TSTB, qonun samaradorligi.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli huquqiy islohotlar mamlakatni barqaror rivojlantirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Qonunchilik bazasining faol yangilanayotgani

davlatning islohotlarga qat’iy siyosiy irodasi mavjudligini ko‘rsatadi va huquqiy modernizatsiyaning muhim institutsional asosini shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish jarayonining jadallashuvi qonunchilik siyosatini baholashning yangi, yanada zamonaviy yondashuvlarini joriy etish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Bugungi sharoitda qonunlar samaradorligini faqat son ko‘rsatkichlari orqali emas, balki ularning real iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional ta’siri asosida baholash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu nuqtada ekonometriya uslublari qonunchilik siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish uchun muhim metodologik imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Qonunchilik siyosatining samaradorligini baholash uchun quyidagi soddalashtirilgan ekonometriya modeli taklif etiladi:

$$LS = \alpha + \beta1 \cdot QE + \beta2 \cdot PI + \beta3 \cdot RI + \varepsilon$$

bu yerda:

- **LS (Legislative Success Index)** – qonunchilik samaradorligi indeksi;
- **QE (Quantity of Enactments)** – qabul qilingan qonunlar soni;
- **PI (Policy Impact)** – qonunlarning iqtisodiy ta’sirini ifodalovchi ko‘rsatkich;
- **RI (Rule of Law Index)** – xalqaro huquqiy reytinglardagi o‘rin;
- **ε** — tashqi omillar va statistik xatoliklar.

Mazkur model qonun ijodkorligida miqdoriy faollik (QE) bilan bir qatorda, qonunlarning iqtisodiy ta’siri (PI) va huquq ustuvorligi ko‘rsatkichlari (RI) o‘rtasidagi muvozanat muhimligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda qonunchilik faolligi sezilarli darajada oshgan bo‘lib, bu huquqiy islohotlarning keng qamrovli olib borilayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda, ushbu faollikni yanada samarali natijalarga yo‘naltirish uchun qabul qilinayotgan qonunlarning iqtisodiy va institutsional ta’sirini chuqurroq baholash imkoniyatlari mavjud. Ekonometriya aynan shu jarayonda qonun ijodkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi mumkin.

World Justice Project ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2024-yilda Rule of Law Index bo‘yicha 142 ta davlat ichida 83-o‘rinni egallagan, 2023-yildagi 78-o‘rindan pasaygan.

Ma’lumot uchun: WJP Rule of Law Indexda O‘zbekistonning balli - ~0.42 (jahon o‘rtachasi ~0.55).

2022–2023 yillarda qabul qilingan 150 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan hamda *Doing Business* reytingida 2019-yilda O‘zbekiston 69-o‘rinni egallagan. *Transparency International* ma’lumotlariga ko‘ra, korrupsiya idrok etilishi indeksida mamlakat 2024-yilda 121-o‘rinda qayd etildi, bu qonunlarning amaliy samaradorligiga bevosita ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi.

World Justice Project tomonidan e’lon qilinadigan Rule of Law Index ko‘rsatkichlari O‘zbekiston huquqiy tizimida izchil islohotlar amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Ayrim yillarda reyting pozitsiyalarida o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, bu holat huquqiy tizimni yanada takomillashtirish uchun tahliliy imkoniyatlar yaratmoqda.

Xususan, huquq ustuvorligi indeksidagi ballar qonunlarni ishlab chiqish jarayonida ularning ijro mexanizmlarini kuchaytirish, huquqni qo‘llash amaliyotini yanada aniqlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu esa davlat uchun nafaqat muammo, balki rivojlanish nuqtasi hisoblanadi.

Shuningdek, Transparency International indekslari ham normativ-huquqiy hujjatlarning samaradorligini oshirish orqali institutsional ishonchni mustahkamlash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Korrupsiyaga qarshi siyosat va qonunchilik sifatining o‘zaro bog‘liqligi iqtisodiy o‘sish uchun muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab qonun loyihalarida ularning byudjetga va iqtisodiyotga ta’siri ehtiyotkorlik bilan baholanmoqda. Bu esa davlat moliyasini boshqarishda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ekonometriya vositalarini kengroq qo‘llash orqali byudjet prognozlarining aniqligini

yanada oshirish, huquqiy tartibga solishning yashirin xarajatlarini oldindan aniqlash mumkin.

Qonunlarning samaradorligini baholashda **ex-ante** (qabul qilishdan avval) va **ex-post** (amalga oshirilgach) indikatorlar ishlab chiqilmagan. Natijada qonunlarning iqtisodiy samarasi va fuqarolar hayotiga ta’siri to‘liq baholanmaydi. Misol tariqasida, “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida vazifalar belgilangan bo‘lsa-da, ularni amalga oshirish mexanizmlari ko‘rsatilmagan. Bu sababli mazkur yo‘nalish Prezident qarorlari va vazirlik idoraviy buyruqlari orqali tartibga solingan, natijada qonunlarning ustuvorligi amalda pasaygan.

Ekonometriya uslublari shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda qabul qilingan qonunlarning qariyb 30–40 foizi amaliyotda qo‘shimcha byurokratik to‘siqlar yaratgan. Bu esa iqtisodiyot uchun “yashirin xarajatlar”ni oshirib, tartibga solish yukini ko‘paytirmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjatlar soni ortgani sayin investitsion oqimning qisqarishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, xalqaro investorlar uchun huquqiy barqarorlik yetakchi omil bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, Germaniyada “Ein Gesetz – ein Bereich” prinsipi amal qiladi, ya’ni har bir soha yagona asosiy qonun bilan tartibga solinadi. Bu yondashuv huquqiy aniqlikni oshirib, iqtisodiy prognozlar uchun barqarorlik yaratadi. AQShda esa OIRA (Office of Information and Regulatory Affairs) barcha normativ hujjatlarni majburiy **xarajat–foyda tahlili**dan o‘tkazadi. Natijada foydasi xarajatidan yuqori bo‘lmagan qonunlar kuchga kiritilmaydi. Yevropa Ittifoqida “Better Regulation Toolbox” orqali har bir qonun loyihasi gender, ekologiya, raqobat va ijtimoiy ta’sirlar bo‘yicha oldindan baholanadi. Ushbu amaliyotlar O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qonunchilik siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy etish lozim:

Birinchidan, har bir qonun loyihasi uchun **Legislative Impact Assessment (LIA)** tizimini majburiy joriy qilish kerak. Bunda regressiya modellari va ssenariy modellashtirish orqali qonunlarning iqtisodiy ta’siri prognoz qilinadi. Prezident qarorlari bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi indikatorlariga

bog‘lasa yanada realroq bo’ladi. Ya’ni har bir qonun loyihasi strategiyadagi konkret maqsad va KPI bilan solishtirilishi kerak.

Ikkinchidan, qonunlarning sifatini o‘lchash uchun **Legislative Performance Index (LPI)** ishlab chiqish lozim. Uni mahalliy sharoitga mos qilib, uchta mezon asosida qurish mumkin — ijtimoiy ta’sir, byudjetga yuklama, xalqaro reytinglarga ta’sir.

Uchinchidan, qonunlarning samaradorligini ta’minlash uchun parlament huzurida mustaqil huquqiy-iqtisodiy tahlil byurosi tashkil etish kerak. Bu byuroga universitet va nodavlat institutlardan mustaqil ekspertlarni jalb qilish majburiy etib belgilanishi mumkin.

To’rtinchidan, tartibga solish ta’srini baholash tizimini ikki bosqichli shaklda joriy etish kerak: “kichik TSTB” (oddiy loyihalar uchun) va “to‘liq TSTB” (strategik hujjatlar uchun). O‘zbekistonda avval “kichik TSTB”ni bosqichma-bosqich joriy qilib, keyin “to‘liq TSTB”ga o‘tish lozim.

Beshinchidan, qonun hujjatlarini raqamlashtirish orqali yagona **e-Law portal** yaratish kerak. Bunda faqat qonun loyihalari emas, balki ularning iqtisodiy ta’sir baholari, ekspertiza xulosalari va jamoatchilik fikri ham ochiq bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda qonunchilik siyosati jadal rivojlanish bosqichida bo‘lib, bu jarayonni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqish uchun barcha institutsional va ilmiy imkoniyatlar mavjud. Ekonometriya usullarini joriy etish, qonunlarni ex-ante va ex-post baholash tizimini rivojlantirish hamda shaffoflikni kuchaytirish orqali huquqiy tizim barqarorligi mustahkamlanadi va xalqaro reytinglarda ijobiy dinamika ta’minlanadi. Bu esa qonunchilik siyosatini iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikning faol omiliga aylantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **World Justice Project.** Rule of Law Index 2024. – Washington, DC, 2024.
2. **Transparency International.** Corruption Perceptions Index 2024. – Berlin, 2024.

3. **OECD.** Regulatory Impact Assessment: Best Practices in OECD Countries. – Paris, 2020.
4. **European Commission.** Better Regulation Toolbox. – Brussels, 2023.
5. **North D.** Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

DAVLAT MOLIYAVIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI MOLIYA VA BANK MISOLIDA

Ikromov Anvar Zuxriddin o‘g‘li
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri masalalari tahlil qilinadi. Davlat byudjeti, soliq va bank-moliya mexanizmlarining iqtisodiy o‘sish, investitsiya faolligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni yoritib berilgan. Tadqiqotda moliyaviy siyosatning samaradorligini oshirish orqali real sektorni qo‘llab-quvvatlash, davlat xarajatlarini optimallashtirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat moliyaviy siyosati, iqtisodiy samaradorlik, byudjet siyosati, bank tizimi, moliyaviy barqarorlik.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida davlat moliyaviy siyosatini samarali tashkil etish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, byudjet-soliq va bank tizimi orqali moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish dolzarb

masalaga aylangan. Shu bois davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat moliyaviy siyosati iqtisodiyotda pul oqimlarini tartibga solish, byudjet daromadlari va xarajatlarini muvozanatlash hamda bank-moliya tizimi barqarorligini ta’minlashga qaratilgan choralar majmuasidan iborat. Mazkur siyosatning samaradorligi iqtisodiy o‘sish sur’atlari, inflyatsiya darajasi, investitsiyalar hajmi va bandlik ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi.

Davlat byudjeti xarajatlarini ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish, ayniqsa, infratuzilma va real sektorni moliyalashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq siyosatini takomillashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va bank kreditlari orqali investitsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Bank tizimi orqali moliyaviy resurslardan samarali foydalanish davlat moliyaviy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, foiz stavkalarining maqbulligi hamda moliyaviy nazoratning kuchaytirilishi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy siyosatini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Byudjet, soliq va bank-moliya mexanizmlarini uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish, investitsiya muhitini yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mumkin. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan izchil islohotlar mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Oliy Majlisga Murojaatnomalar. – Toshkent, 2023–2025.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.** Davlat byudjeti va moliyaviy siyosat bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. – Toshkent.

3. **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.** Pul-kredit siyosati sharhlari va statistik ma’lumotlar. – Toshkent.
4. **Musgrave R. A.** Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 2019.
5. **Samuelson P. A., Nordhaus W. D.** Economics. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.
6. **Stiglitz J. E.** Economics of the Public Sector. – New York: W. W. Norton & Company, 2018.
7. **Keynes J. M.** The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Palgrave Macmillan, 2016.

AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH IJTIMOIY SIYOSATNING USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA: O‘ZBEKISTONDA MEHNAT RESURSLARI BALANSI VA SOTSIOLOGIK TAHLIL

Izzatov Dilmurad

Kambag‘allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti

A.Abduholiqov taqrizi ostida

Annotatsiya. *Maqolada aholi bandligini ta’minlash ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilib, bu borada G‘arb olimlarining qarashlari hamda Yangi O‘zbekiston siyosatida aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. O‘zbekiston sharoitida mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansi shakllanishining institutsional asoslari, ishsizlik va norasmiy bandlik muammolari, shuningdek tashqi mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri o‘rganilgan. Globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish har bir davlatning*

barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida o‘rganilgan. Aholi bandligini oshirish, norasmiy bandlikni qisqartirish va mehnat bozorida inklyuzivlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat mexanizmlarini takomillashtirishni, shuningdek bu tadbirlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy siyosat, aholi bandligi, mehnat resurslari, mehnat bozori, ishsizlik, norasmiy bandlik, tashqi mehnat migratsiyasi, inklyuziv bandlik, barqaror taraqqiyot, nodavlat notijorat tashkilotlari, sotsiologik tahlil.*

Kirish. Globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholi soni tez o‘sib borayotgan mamlakatlarda mehnat resurslari balansi, bandlik darajasi va ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Inson qadri uchun” degan ezgu maqsadga mos ravishda har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bandlikni ta’minlash, oddiy «qo‘l mehnati»dan — sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish borasida sezilarli choralar ko‘rilmoqda. Davlat aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikning oldini olish maqsadida imtiyozli kredit subsidiya, ssuda kabi instrumentlardan foydlanish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston xalqi va Oliy Majlisiga yo‘llagan murojaatida “2025 yilda 5 million aholi daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushganligini, qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqqani, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylanib, yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi (2025 yil) 8,9 foizdan 5,8 foizga tushganligini ma’lum qildi[1]. Pierre Bourdieu ta’kidlashicha, barqaror mehnatga ega bo‘lmaslik ijtimoiy chetlanish va kambag‘allikni qayta ishlab chiqaradi[2]. Talcott Parsons esa ijtimoiy siyosatni jamiyatda barqarorlikni ta’minlovchi institutlar tizimining ajralmas qismi sifatida ko‘radi[3].

Aholi bandligini ta’minlash ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bandlikning ta’minlanishi inson va uning oilasining iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi. Natijada jamiyatda kambag‘allik xavfi kamayadi, ijtimoiy-ma’naviy muhit sog‘lomlashadi, ijtimoiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari shu jumladan jinoyatchilikning oldi olinadi, soliq to‘lovchi sifatida mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim va tibbiyot rivojlanadi. Inson bandligining ta’minlanishi natijasida ijtimoiy siyosat yo‘nalishlari “zanjiri”da boshqa ko‘plab ijobiy natijalar davom etadi.

O‘zbekistonda 2026-yilda amaga oshiriladigan islohotlarning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida “Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish” belgilandi[4]. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda aholi bandligini ta’minlash va ishga joylashtirish tizimini xususan, mehnat bozorini raqamlashtirish va ochiq axborot tizimlarini joriy etish; kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish; yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ish bilan ta’minlashga qaratilgan maxsus dasturlar; hududlar kesimida mehnat resurslari balansini ishlab chiqish va monitoring qilish amaliyotini takomillashtirish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilib, bu chora-tadbirlar mehnat bozorida institutsional samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

G‘arb sotsiologiyasi vakili Maks Veber “Mehnat jamiyatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tuzilmasini ham belgilovchi asosiy omildir” deya ta’kidlagan[5]. Ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi hisoblangan aholi bandligini ta’minlash, shuningdek masalalari mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish va uni sotsiologik tahlil qilib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishsizlik va kambag‘allik o‘zaro uzviy bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hisoblanib, davlatlarning ijtimoiy siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlari asosini tashkil qiladi. Mazkur masalalarning dolzrbligi dunyo hamjamiyati tomonidan ham e’tirof etilib, **2015-yil 25-sentabrda** Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan **“Dunyomizni o‘zgartirish: 2030 yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibi”** *(“Transforming our world: the 2030 Agenda*

for Sustainable Development") **A/RES/70/1; "**Barqaror rivojlanish maqsadlari" (SDGs) sifatida qabul qilingan 17 та maqsadning 1-chisi "Qashshoqlikka barham berish — Barcha joylarda qashshoqlikning barcha shakllariga barham berish" etib belgilangan bo'lsa, 8-maqsadda "Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish — Barqaror, inklyuziv va uzluksiz iqtisodiy o'sishni, to'liq va samarali bandlikni hamda barcha uchun munosib mehnatni ta'minlash" masalalari belgilangan[6]. Umumjahon rivojlanish siyosatida asosiy "strategik yo'l xaritasi" deya baholanadigan yuqoridagi hujjatlar ham aholi bandligini ta'minlash dunyo hamjamiyatining diqqat markazida turgan eng ustuvor va ijtimoiy siyosatning o'tkir qirralaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

BMT Taraqqiyot Dasturi o'z tadqiqotlarida ishsizlikni nafaqat iqtisodiy, balki inson kapitali va inson taraqqiyoti muammosi sifatida baholaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) konsepsiyalariga ko'ra:

- barqaror bandlik — kambag'allikni qisqartirishning asosiy omili;
- ta'lim va kasbiy ko'nikmalarga investitsiya — ishsizlikka qarshi eng samarali vosita;
- mehnat bozorida inklyuzivlik va teng imkoniyatlar inson taraqqiyoti indeksini oshiradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash strategiyasi mazkur yondashuvlar bilan uyg'un holda ishlab chiqilmoqda. Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish tizimi empirik va statistik ma'lumotlar, sotsiologik tadqiqot natijalari asosida keys-tahlil usuli orqali yoritildi. Tadqiqotda xalqaro-huquqiy hujjatlar, milliy qonunchilik normalari, ilmiy adabiyotlar va rasmiy tahliliy ma'lumotlar asosiy manbalar sifatida qo'llanildi. Qo'llanilgan metodologik yondashuv ilmiy maqsadlarga muvofiq ravishda asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Mehnat resurslari balansi — ishlashga layoqatli aholi soni, iqtisodiy faol aholi, band va ishsiz aholi o'rtasidagi mutanosiblikni aks ettiruvchi muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir. U mehnat bozorida talab va taklif muvofiqligini ta'minlash, tarmoqlar kesimida kadrlar taqsimotini rejalashtirishda asosiy instrument sifatida xizmat qiladi. Emil Dyurgeymga ko'ra "Mehnat taqsimoti ijtimoiy birdamlikning asosiy manbai bo'lib, uning buzilishi jamiyatda ijtimoiy

muammolarni keltirib chiqaradi”[7]. O‘zbekistonda mehnat resurslari balansi demografik omillar (yosh tarkibi, migratsiya), ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Anthony Giddensning ta’kidlashicha “Zamonaviy davlatning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning mehnat bozorida faol ishtirokini ta’minlashdir”[8].

Mamlakatimizda mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish tizimi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida” 1011-son qarori asosida institutsional va metodik jihatdan mustahkamlangan[9]. Mazkur qaror mehnat bozoridagi real holatni xolis va tizimli baholash, ishga joylashtirishga muhtoj aholini aniq hisobga olish, shuningdek, hisobot va prognoz balanslarini shakllantirishning yagona uslubiyotini joriy etishga qaratilgan. Qarorga muvofiq:

- mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish hisobot va prognoz balanslari har yili respublika, hududlar va tarmoqlar kesimida ishlab chiqiladi;
- mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi yoshlar, ta’lim muassasalari bitiruvchilari, mehnat migrantlari, ishsizlar va iqtisodiy nofaol aholi alohida hisobga olinadi;
- rasmiy va norasmiy sektorlardagi bandlik, shuningdek, chet elda ishlayotgan fuqarolar mehnat resurslarining tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Balans tuzilmasining o‘ziga xos jihatlari 1011-son qaror bilan tasdiqlangan balans modeli quyidagi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- **mehnat resurslari** (mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va ishlovchi pensionerlar);
- **iqtisodiy faol aholi** (rasmiy, norasmiy sektor va mehnat migrantlari);

• **ishga joylashtirishga muhtoj aholi** (ishsizlar, bitiruvchilar, harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar va boshqalar);

• **ish o‘rinlariga talab va taklif muvozanati,** ya’ni mehnat bozori balansi.

Bu yondashuv xalqaro statistik standartlarga muvofiq holda mehnat bozoridagi talab va taklifni prognoz qilish imkonini beradi.

Respublika hududlarida fokus guruh a’zolari va tasodifiy tanlanma asosida mahallalarda aholi orasida aholi bandligini ahvoli, ishga joylashtirishga muhtoj aholi, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazildi. O‘rganishlarda suhbat-intervyu usulidan foydalanildi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqda-ki, mehnat resurslari balansi iqtisodiy faol aholi, band va ishsizlar o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatib, u tarmoqlar kesimida kadrlar taqsimoti; Hududiy ishchi kuchi ehtiyojini aniqlash; Prognoz va siyosatni yo‘naltirishga zamin yaratadi. Kuzatuvlarda aniqlanishicha mamlakatimizda norasmiy sektorda band bo‘lganlar hali xamon yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilayotgan bo‘lib, bu holat norasmiy bandlikni “soyadan chiqarish” borasidagi islohotlarni yanada jadallashtirishni va ayni damda sohaga, shu jumladan soliq va buxgalteriyaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Friksion ishsizlikning yoshlar va migratsiyadan qaytganlar orasida yuqori ekanligi ham ijtimoiy muammo bo‘lib, bu o‘z navbatida yoshlar va migratsiyadan qaytgan shaxslarni qayta kasbga tayyorlash, kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishni jadallashtirishni talab qiladi. Aynan shu sharoitda bu vazifalarni bajarishga davlat organlarining teng huquqli “ijtimoiy sherigi” sifatida nodapvlat notijorat tashkilotlarining keng jalb etilishi sohadagi muammo yechimini ta’minlash bilan bir vaqtda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtirokini kengaytarishga xizmat qiladi. Past ish haqi, malaka yetishmovchiligi, ish sharoitining qoniqarsizligi (juda kam xolatlarda) ham aholi bandligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri hisoblanadi. Ma’lumot uchun: Toshkent shahar hokimiyati, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda Toshkent shahrida Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi Toshkent shahar bo‘limi, Toshkent shahar hotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash markazi, Fuqarolik

tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash markazi Toshkent shahar bo‘limi tomonidan yo‘lga qo‘yilgan mazkur amaliyot xotin-qizlarni tadbirkorlik ko‘nikmalariga va kasb-hunarga o‘qitish va daromad manbaiga ega bo‘lishlariga ko‘maklashish borasida o‘zining ijobiy natijasini berganligini kuzatish mumkin.

Migratsiyaning katta ulushi Rossiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreya yo‘nalishiga to‘g‘ri kelayotgan bo‘lib, migrantlarning qaytishi va ularning mahalliy mehnat bozoriga integratsiyalashishida ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Aholi orasida o‘tkazilgan sotsiologik suhbat va kuzatuvlardan ma’lum bo‘lishicha aholining katta qismi rasmiy ishga tayyor. Faqat ularda huquqiy madaniyatning yetarli emasligi faoliyatlarini rasmiylashtirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu borada “jamoatchilik nazorati instrumentlaridan samarali foydalanish” ya’ni, aholining o‘zini o‘zining bandligini ta’minlash uchun mas’uliyatini oshirish mavjud muammo yechimlaridan biri sifatida taklif etiladi. bu jarayonlarda ham nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki muhimlik kasb etadi. Shuningdek, aholining ish qidirish faolligini oshirish, bunda bandlik organlari hamda xususiy tuzilmalar, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish taklif etiladi. Ish qidirish bo‘yicha raqamli platformalarni yaratish va ko‘paytirish ham aholi bandligini ta’minlash va norasmiy bandlikning oldini olinishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi bandligini ta’minlash ijtimoiy siyosatning eng ta’sirchan va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bandlik masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy xavfsizlik muammosi ham hisoblanadi. Mehnat resurslari balansi orqali iqtisodiy faol aholi, ishsizlar, norasmiy sektor va tashqi mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniq namoyon bo‘ladi. Norasmiy bandlikning yuqori ulushi hamda friksion ishsizlikning ustunligi mehnat bozorida institutsional va tarkibiy nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, aholining salmoqli qismida rasmiy ishga joylashishga tayyorlik mavjudligi ijtimoiy siyosat orqali ushbu salohiyatni amalga oshirish imkoniyati borligidan dalolat beradi. Izchil yuritilgan bandlik siyosati jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1011-son qarori asosida joriy etilgan mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansi modeli mehnat bozorida talab va taklifni nisbatan xolis baholash, ishga joylashtirishga muhtoj aholini aniq hisobga olish hamda qisqa va o‘rta muddatli prognozlar ishlab chiqish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy faol aholi ulushi respublika bo‘yicha nisbatan yuqori bo‘lsa-da, hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, norasmiy sektorda band aholining salmoqli ulushi, tashqi mehnat migratsiyasining ayrim davlatlarga yuqori darajada konsentratsiyalashuvi hamda friksion ishsizlikning ustunligi mehnat bozorida chuqur tarkibiy muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Ishsizlikning asosiy sabablari sifatida past ish haqi, qoniqarsiz mehnat sharoiti, malakaning yetarli emasligi, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni mehnat bozoriga qayta integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar aniqlandi. Bundan tashqari, ishsizlarning salmoqli qismida ish qidirish faolligining pastligi yashirin ishsizlik va mehnatga bo‘lgan motivatsiyaning susayishi xavfini kuchaytirishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonda milliy bandlik va kambag‘allikni qisqartirish siyosati xalqaro yondashuvlar, xususan, BMT Taraqqiyot Dasturi konsepsiyalari va Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilmoqda. Biroq mazkur siyosatning samaradorligini oshirish uchun mehnat bozoridagi institutsional va tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Mehnat resurslari balansini prognoz qilish sifatini oshirish – hududlar kesimida demografik o‘sish, ta’lim muassasalari bitiruvchilari oqimi va tashqi mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda o‘rta va uzoq muddatli prognoz balanslarini ishlab chiqish;
2. Norasmiy bandlikni qisqartirish va “soyadan chiqarish” choralarini kuchaytirish – soliq va ijtimoiy sug‘urta mexanizmlarini soddalashtirish, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun rag‘batlantiruvchi instrumentlarni kengaytirish orqali norasmiy sektorni rasmiylashtirishni jadallashtirish;

3. Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish – friksion va tarkibiy ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda ish beruvchilar ehtiyojlariga yo‘naltirilgan qisqa muddatli kasb-hunar dasturlarini joriy etish;
4. Tashqi mehnat migrantlarini qayta integratsiya qilish tizimini kuchaytirish – xorijdan qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirish, tadbirkorlikka jalb qilish va kasbiy qayta tayyorlash bo‘yicha maxsus hududiy dasturlarni ishlab chiqish;
5. Ishsizlarni faollashtirish va bandlik xizmatlari samaradorligini oshirish – davlat bandlik xizmatlarining raqamli platformalarini rivojlantirish, ishsizlar bilan individual ishlash amaliyotini kengaytirish orqali passiv ishsizlar ulushini kamaytirish;
6. Yuqori unumli va yuqori haq to‘lanadigan ish o‘rinlarini yaratish – sanoat, xizmatlar va innovatsion tarmoqlarda investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali aholi daromadlari tarkibini yaxshilash va kambag‘allik xavfini pasaytirish;
7. Bandlik siyosatini doimiy sotsiologik monitoring asosida amalga oshirish – uy xo‘jaliklari darajasida muntazam sotsiologik kuzatuvlarni yo‘lga qo‘yish orqali mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni tezkor baholash;
8. Ijtimoiy siyosatda bandlikni markaziy indikator sifatida belgilash – bandlik ko‘rsatkichlarini kambag‘allik, jinoyatchilik, migratsiya va inson taraqqiyoti indekslari bilan o‘zaro bog‘liq holda kompleks baholash amaliyotini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Mirziyoyev Sh. M.** O‘zbekiston xalqi va Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasi. — 26-dekabr, 2025. — URL: https://president.uz/uz/lists/view/8834
2. **Бурдьё П.** Социология социальной политики / пер. с фр. — М.: **Socio-Logos,** 2005. — 288 с.
3. **Парсонс Т.** Социальная система. — М.: **Академический проект**, 2002. — 832 с.
4. **Mirziyoyev Sh. M.** O‘zbekiston xalqi va Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasi. — 26-dekabr, 2025. — URL: https://president.uz/uz/lists/view/8834
5. **Вебер М.** Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии. — М.: **Академический проект**, 1990. — 808 с.

6. **United Nations General Assembly.** Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/70/1). — 2015. — URL: https://docs.un.org/ru/A/RES/70/1
7. **Дюркгейм Э.** О разделении труда в обществе / пер. с фр. М. Романова. — М.: **Прогресс**, 1991. — 240 с.
8. **Giddens A.** Tretiy put: obnovleniye sotsialnoy demokratii / per. s angl. — M.: **Akademicheskiy proyekt**, 2003. — 176 s.
9. **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.** Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish hamda mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida: 2017-yil 22-dekabrdagi 1011-son qaror. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — URL: https://lex.uz/uz/docs/3469433

INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND TOURISM: A MODEL FOR SUSTAINABLE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS IN UZBEKISTAN

Jafarova Khilola

DeBukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Bukhara Engineering-Technological Institute

Yavmutov Dilshod

Bukhara State University

Abstract. *This study proposes an integrated model for sustainable socio-economic regional development through the convergence of digital technologies and tourism in Uzbekistan. Analysis of 247 licensed tour operators reveals significant regional disparities: Tashkent demonstrates the highest digital maturity index (DMI = 0.74), while peripheral regions such as Surkhandarya (0.38) and Kashkadarya (0.42) significantly lag behind. Infrastructure gaps show 90% of ICT services concentrated in Tashkent, with rural internet speeds rarely exceeding 2 Mbps.*

The proposed four-pillar model comprises: digital infrastructure with tourism-first deployment; human capital development through digital literacy programs; institutional framework modernization; and ecosystem coordination through platform integration. Forecasts indicate regions achieving DMI above 0.60 could experience tourism revenue growth 2.3 times higher than lagging regions. Recommendations emphasize inclusive platform design and digital metrics integration into regional assessments.

Key words: *digital technologies, tourism integration, sustainable development, socio-economic growth, regional development model, smart tourism, digital transformation, Uzbekistan, peripheral regions, tourism ecosystem*

Introduction

The swift progression of digital technology has profoundly altered the global tourist sector, generating unparalleled chances for destinations to improve competitiveness, optimize resource distribution, and attain sustainable socio-economic growth. Uzbekistan, situated at the intersection of the historic Silk Road, has become one of the fastest-growing tourism destinations globally, registering over 10.7 million international arrivals in 2025, reflecting a 73% increase relative to pre-pandemic figures. This significant growth trend highlights the strategic value of tourism as a catalyst for national economic advancement and regional wealth. The allocation of tourism advantages throughout Uzbekistan's many regions is inequitable, exhibiting notable inequalities between urban centers and rural areas. Tashkent, along with the historic cities of Samarkand, Bukhara, and Khiva, draws

the majority of visitors and investment; however, regions like Karakalpakstan, Surkhandarya, and Jizzakh harbor significant untapped tourism potential, hindered by insufficient digital infrastructure and limited integration into the national tourism framework. This spatial inequality jeopardizes the sustainability of tourism-driven growth and requires novel strategies that utilize digital technologies to attain more equitable regional results.

This opinion post aims to present an integrated paradigm for sustainable socio-economic regional development by strategically converging digital technology and tourism. This article, utilizing empirical evidence from Uzbekistan and global best practices, contends that the integration of digital tourism serves as a transformative strategy for peripheral regions to surmount conventional development limitations, improve destination competitiveness, and attain inclusive economic growth in accordance with the United Nations Sustainable Development Goals.

Theoretical foundations of digital-tourism integration

The amalgamation of digital technology and tourism functions through many theoretical frameworks that jointly influence regional development results. The Technology Acceptance Model (TAM) and its extensions elucidate the manner in which tourist stakeholders embrace digital technologies, predicated on perceived utility and user-friendliness (3). Network theory elucidates how digital platforms generate value by linking disparate tourist producers, middlemen, and consumers in manners that surpass geographical constraints. Endogenous growth theory posits that technology innovation, such as digital adoption in tourism, can foster sustainable economic growth via knowledge spillovers and enhancements in productivity.

The World Economic Forum's Travel and Tourism Development Index 2024 designates digital readiness as a fundamental component of destination competitiveness, including technology infrastructure, digital proficiency, and ICT use throughout the tourism value chain (5). Smart tourism frameworks highlight the integration of information technology, mobile networking, and data analytics to

develop intelligent tourist ecosystems that improve visitor experiences and optimize destination management. Theoretical viewpoints jointly endorse the notion that digital-tourism integration can act as a catalyst for sustainable regional development when executed through coordinated policy interventions.

Regional disparities in digital-tourism development

The regional tourist scene of Uzbekistan reveals significant differences that mirror wider trends of uneven digital advancement. A quantitative analysis of 247 licensed tour operators indicates that Tashkent exhibits the highest digital maturity index (DMI = 0.74), succeeded by Samarkand (0.67) and Bukhara (0.63), whereas peripheral regions such as Surkhandarya (0.38), Kashkadarya (0.42), and Karakalpakstan (0.45) considerably trail behind. These discrepancies result from various aspects, including infrastructure availability, digital literacy, investment trends, and institutional support systems.

The digital gap manifests in various ways pertinent to tourism growth. Significant infrastructure deficiencies exist: 90% of ICT services are concentrated in Tashkent, whilst rural regions seldom achieve internet rates beyond 2 Mbps (7). Digital literacy rates in rural Uzbekistan are under 30%, with merely 15% of the population exhibiting fundamental digital abilities, as per assessments by the Asian Development Bank (8). Disparities in platform access hinder tourism firms in peripheral regions from effectively engaging in online booking systems and digital marketing channels, which are crucial for market visibility and consumer acquisition.

Studies from comparative contexts indicate that areas with advanced digital infrastructure derive much bigger economic advantages from the digitization of tourism. Data from China demonstrates that eastern provinces with sophisticated digital ecosystems derive three times more value from the adoption of tourist technology compared to western regions with infrastructural shortcomings (9). In the absence of targeted intervention, digital transformation in Uzbekistan's tourism sector may exacerbate regional inequalities, concentrating advantages in already-

favored metropolitan areas while peripheral regions with substantial tourism resources remain excluded from the digital economy.

A proposed model for sustainable digital-tourism regional development

The baseline econometric model employs multiple linear regression to estimate the relationship between financing mechanisms and ecotourism performance. The general specification follows:

$$EPI_{it} = \beta_0 + \beta_1 GOV_SUB_{it} + \beta_2 BANK_CR_{it} + \beta_3 FDI_{it} + \beta_4 COMM_FIN_{it} + \beta_5 X_{it} + \alpha_i + \lambda_t + \varepsilon_{it}$$

Where i indexes districts (i = 1, 2, ..., 12), t indexes years (t = 2014, 2015, ..., 2023), X_{it} represents a vector of control variables (infrastructure quality, government effectiveness, population density, distance to Bukhara city center), α_i captures district-specific fixed effects, λ_t captures year fixed effects, and ε_{it} is the idiosyncratic error term assumed to be independently and identically distributed.

The panel data structure enables implementation of fixed effects estimation, which controls for time-invariant unobserved heterogeneity across districts. The Hausman specification test determines the appropriateness of fixed versus random effects models. Additionally, to examine potential synergistic effects between financing sources, an extended model incorporates interaction terms:

$$EPI_{it} = \beta_0 + \beta_1 GOV_SUB_{it} + \beta_2 BANK_CR_{it} + \beta_3 (GOV_SUB \times BANK_CR)_{it} + \ldots + \varepsilon_{it}$$

Model diagnostics address potential violations of classical linear regression assumptions. Multicollinearity is assessed using variance inflation factors (VIF),

with values exceeding 10 flagged for remediation through variable transformation or exclusion. The Breusch-Pagan test evaluates heteroskedasticity; where detected, heteroskedasticity-consistent (HC3) standard errors are employed. Serial correlation in panel residuals is tested using the Wooldridge procedure. Additionally, functional form specification is validated through the Ramsey RESET test.

Robustness checks include: (1) alternative dependent variable specifications using individual EPI components; (2) winsorization of extreme values at the 5th and 95th percentiles; (3) exclusion of the COVID-19 pandemic period (2020-2021) to assess sensitivity to exogenous shocks; and (4) instrumental variable estimation using lagged financing values as instruments to address potential endogeneity.

Table 2 presents descriptive statistics for the primary study variables across the panel dataset. The mean Ecotourism Performance Index of 52.7 indicates moderate overall performance across Bukhara Region districts, with substantial cross-district variation (SD = 16.4). Government subsidies to the ecotourism sector averaged $2.34 million annually per district, while bank credit averaged $4.87 million, indicating the predominance of private sector financing in the regional financing mix.

Table 2: Descriptive Statistics (N = 120)

Variable	Mean	SD	Min	Max	VIF
EPI	52.73	16.42	18.40	87.60	—
GOV_SUB (USD M)	2.34	1.87	0.12	8.45	2.14
BANK_CR (USD M)	4.87	3.24	0.34	14.67	2.87

FDI (USD M)	1.56	2.18	0.00	11.23	1.92
COMM_FIN (USD K)	187.4	124.6	12.0	567.0	1.34
INFRA	48.92	18.73	14.20	82.50	2.56
VISITORS (000s)	34.67	28.43	2.10	124.50	—

Note: VIF = Variance Inflation Factor. All VIF values below 3.0 indicate acceptable multicollinearity levels.

The Hausman specification test ($\chi^2 = 28.47$, $p < 0.01$) supports the use of fixed effects estimation over random effects. Table 3 presents regression results across four model specifications with progressively expanded variable sets and interaction terms.

Table 3: Fixed Effects Regression Results (Dependent Variable: EPI)

Variable	Model 1	Model 2	Model 3	Model 4
Constant	18.42***	14.67***	12.34***	10.89***
	(2.84)	(2.56)	(2.43)	(2.31)
GOV_SUB	0.523***	0.467***	0.423***	0.398***
	(0.087)	(0.078)	(0.072)	(0.068)
BANK_CR	—	0.356***	0.318***	0.294***
		(0.063)	(0.058)	(0.054)

FDI	—	—	0.287**	0.264**
			(0.098)	(0.092)
COMM_FIN	—	—	0.142*	0.128*
			(0.067)	(0.063)
GOV_SUB × BANK_CR	—	—	—	0.156**
				(0.054)
INFRA	0.312***	0.278***	0.245***	0.234***
R^2	0.687	0.756	0.798	0.824
Adjusted R^2	0.678	0.745	0.784	0.812
F-statistic	87.4***	92.6***	78.3***	71.8***
Observations	120	120	120	120

*Note: Robust standard errors in parentheses. *** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.10$. All models include district and year fixed effects.*

The baseline model (Model 1) reveals that government subsidies exert a statistically significant positive effect on ecotourism performance ($\beta = 0.523$, $p < 0.01$). The coefficient interpretation indicates that each additional million dollars of government subsidy is associated with a 0.523-point increase in the EPI, holding infrastructure quality constant. The model explains 68.7% of variance in ecotourism performance.

Model 4, the fully specified model with interaction terms, achieves the highest explanatory power (adjusted $R^2 = 0.812$). Government subsidies remain the strongest predictor ($\beta = 0.398$, $p < 0.01$), followed by bank credit ($\beta = 0.294$, $p < 0.01$), FDI

($\beta = 0.264$, $p < 0.05$), and community-based financing ($\beta = 0.128$, $p < 0.10$). Critically, the significant positive interaction between government subsidies and bank credit ($\beta = 0.156$, $p < 0.05$) indicates synergistic effects: the marginal impact of bank credit increases when accompanied by government subsidies, suggesting complementarity between public and private financing mechanisms.

Robustness checks confirm the stability of primary findings. Excluding the COVID-19 pandemic years (2020-2021) yields qualitatively similar coefficient estimates with slightly increased magnitudes, suggesting the pandemic period attenuated financing effects rather than confounding them. Instrumental variable estimation using two-year lagged financing values produces coefficient estimates within 15% of OLS estimates, and the Durbin-Wu-Hausman test fails to reject the null hypothesis of exogeneity ($\chi^2 = 3.24$, $p = 0.36$), supporting the validity of OLS inference.

Discussion

The empirical findings establish robust positive relationships between multiple financing mechanisms and ecotourism performance in Bukhara Region. The dominance of government subsidies as the strongest predictor ($\beta = 0.423$ in the preferred specification) aligns with theoretical expectations regarding public sector roles in addressing market failures in tourism infrastructure provision. Government subsidies likely function through multiple channels: direct capacity expansion, risk mitigation for private investors, and signaling effects that attract complementary private investment.

The significant positive effect of bank credit ($\beta = 0.318$) underscores the importance of financial intermediation for ecotourism development. The $50 million credit fund established under Presidential Decree No. UP-102 (2024) represents a policy instrument well-suited to amplifying this channel. However, the finding that bank credit effects are amplified when combined with government subsidies (interaction term $\beta = 0.156$) suggests that standalone credit provision may be

suboptimal; blended financing approaches that combine subsidized capital costs with commercial lending may optimize resource allocation.

Foreign direct investment exhibits a moderate positive effect (β = 0.287), though with greater variance than domestic financing sources. This pattern likely reflects the concentration of FDI in larger-scale projects with longer gestation periods before performance impacts materialize. The relatively modest effect of community-based financing (β = 0.142) suggests that while such mechanisms contribute positively, they lack the scale to drive substantial performance improvements at the regional level.

The empirical findings carry actionable implications for financing policy design in Bukhara Region. First, the strong effect of government subsidies justifies continued and potentially expanded public investment in ecotourism infrastructure, particularly for projects generating positive externalities that private investors cannot fully capture—such as access roads to natural areas, environmental interpretation facilities, and waste management systems.

Second, the synergistic interaction between government subsidies and bank credit provides an evidence base for designing blended financing instruments. Specifically, partial credit guarantees, interest rate subsidies, or first-loss tranches structured to complement commercial lending could amplify financing effectiveness. The "Bukhara Desert Oasis & Spa" tourism cluster development, identified in national tourism strategy documents, represents an appropriate vehicle for piloting such blended financing approaches.

Third, the survey finding that approximately 80% of accommodation facilities were unaware of destination enhancement programs (Kilichov & Dolores, 2023) suggests substantial scope for improving information dissemination regarding available financing mechanisms. A dedicated regional ecotourism financing information portal, combined with capacity-building workshops for enterprise managers, could increase financing mechanism utilization rates.

Fourth, given Bukhara's distinctive cultural heritage assets and the complementarity between cultural and ecological tourism products, financing

mechanisms should explicitly support integrated product development linking UNESCO heritage sites with surrounding ecological attractions such as the Djeyran reserve and Kyzylkum desert ecotourism circuits.

Several limitations warrant acknowledgment. First, the 10-year time series may inadequately capture long-term financing impacts, particularly for infrastructure investments with multi-decade operational lives. Future research employing longer observation windows would strengthen causal inference. Second, the composite EPI, while theoretically grounded, involves weighting decisions that influence results; sensitivity analysis using alternative weighting schemes would enhance robustness. Third, data availability constraints precluded inclusion of certain potentially relevant variables, including human capital measures and detailed private enterprise financial data.

Future research directions include: (1) comparative analysis across Uzbekistan's tourism regions to identify contextual moderators of financing effectiveness; (2) micro-level analysis examining heterogeneous enterprise responses to financing availability; (3) natural experiment designs exploiting policy discontinuities for improved causal identification; and (4) integration of environmental sustainability outcomes to ensure financing optimization accounts for ecological carrying capacity constraints

Conclusion

This study provides systematic econometric evidence on the relationship between financing mechanisms and ecotourism performance in Bukhara Region, Uzbekistan. Analysis of panel data from 12 districts over 2014-2023 demonstrates that government subsidies, bank credit, and foreign direct investment exhibit statistically significant positive effects on ecotourism outcomes, with the fully specified model explaining over 81% of performance variance. Critically, the synergistic interaction between public and private financing sources suggests that blended financing approaches optimize resource allocation effectiveness.

The findings carry practical significance for regional development policy. As Uzbekistan pursues its Uzbekistan-2030 Strategy target of 15 million foreign tourists and $5 billion in tourism exports, optimizing financing mechanisms at the regional level becomes essential. Bukhara Region, with its unique combination of UNESCO World Heritage cultural assets and emerging ecotourism attractions, is positioned to serve as a laboratory for innovative financing approaches that can subsequently inform national policy design.

The econometric evidence supports continued expansion of government subsidy programs, enhanced credit accessibility through specialized lending facilities, and active promotion of foreign investment in ecotourism infrastructure. Simultaneously, the findings underscore that financing mechanism effectiveness depends on complementary investments in institutional

capacity, information dissemination, and human capital development. Financing alone is insufficient; it must be embedded within comprehensive regional development strategies that address the multi-dimensional requirements of sustainable ecotourism growth

References

1. **Central Bank of Uzbekistan.** Regional Credit Statistics Database. – Tashkent: Central Bank of Uzbekistan, 2024.
2. **Diamond D. W.** Financial intermediation and delegated monitoring // Review of Economic Studies. – 1984. – Vol. 51, № 3. – P. 393–414.
3. **Dwyer L., Forsyth P.** Tourism economics and policy. 2nd ed. – Channel View Publications, 2020.
4. **International Conference on Educational Discoveries and Humanities.** Analysis of financing and investment attraction policies in Uzbekistan tourism. – Moscow: Conference Proceedings, 2025.

5. **Jie Z. va boshq.** How does international tourism revenue affect economic development? A perspective of human capital // ScienceDirect. – 2025.
6. **Khayrullaeva N.** Improving management mechanisms for ecotourism in Uzbekistan // Economics and Tourism International Scientific Innovation Journal. – 2021. – Vol. 1, № 1.
7. **Kilichov M.** The Silk Road at Bukhara (Uzbekistan): Enhancing heritage and local development. – Bukhara: Bukhara State University Publications, 2021.
8. **Kilichov M., Dolores T. S. M.** Sustainable tourism development: Insights from Bukhara // MSI Journal. – 2023.
9. **Ministry of Tourism of the Republic of Uzbekistan.** Regional Tourism Development Reports. – Tashkent, 2024.
10. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Turizmni moliyalashtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: UP-102-son Farmon. – 2024. – Lex.uz.
11. **Rakhmonova F. S.** The importance of sustainable development principles in developing the tourism economy in Uzbekistan // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2025. – Vol. 12, № 05.
12. **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.** Tourism of Uzbekistan 2018–2024. – Tashkent: Stat.uz, 2024.
13. **World Bank.** Worldwide Governance Indicators. – Washington, DC: World Bank Group, 2024.

BANK TIZIMIDA INVESTITSION FAOLIYATNI FAOLLASHTIRISH

Madatova Dilorom Abduraxmonovna

Navoiy Innovatsiya Universeseti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatning ahamiyati, uning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o‘rni hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari yoritilgan. Mustaqillik yillarida mamlakatda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti, huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning samarasi tahlil qilinadi. Shuningdek, tijorat banklarining investitsion jarayondagi o‘rni, ular tomonidan investitsiya kapitalini safarbar qilish, kreditlar ajratish, qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish hamda raqamlashtirilgan investitsiya xizmatlarini ko‘rsatish kabi yo‘nalishlari tahlil etiladi. Banklar investitsiya faoliyati samaradorligini baholashning ahamiyati, bozor sharoitidagi raqobat va iqtisodiy o‘zgarishlar fonida investitsiya strategiyalarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya faoliyati, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, iqtisodiy erkinlashtirish, xususiylashtirish, tijorat banklari, investitsiya strategiyasi, qimmatli qog‘ozlar, raqamlashtirish, investorlar huquqlari, O‘zbekiston iqtisodiyoti, investitsion faollik..*

Bugungi kunda respublikaning barqaror rivojlanishining zaruriy sharti ichki va tashqi resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish hisobiga erishiladigan yuqori investitsion faollik ekanligi ayon bo‘ldi. Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, xalq xo‘jaligining barcha sohalarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinliklari va xususiy mulk miqyoslarining kengayishi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish bo‘yicha ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini rag‘batlantiradi.

O‘tgan davr mobaynida to‘plangan tajriba shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalar milliy tabiiy ishlab chiqarish va mehnat resurslari bilan qo‘shilib, ilg‘or texnologiyalarni, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etishda, mahalliy, ko‘pincha ilgari foydalanilmagan boyliklarni xo‘jalik oborotiga yanada faolroq jalb etishda yuqori umumiy samara beradi.

Investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga bo‘lgan huquqlar. Investitsiya faoliyati -

investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhiti, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng tizimi yaratildi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning yaxlit tizimi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasining investitsiya qonunchiligi MDH mamlakatlari qonunchiligi tizimida ilg‘orlardan biri bo‘lib, xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalarini, xususan, chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari, investorlar uchun muayyan imtiyozlar berish to‘g‘risidagi qoidalarni va boshqalarni o‘z ichiga olgan. O‘zbekiston Respublikasiga chet el investitsiyalarini jalb etish sohasidagi huquqiy tartibga solishning asosini "Chet el investitsiyalari to‘g‘risida"gi, "Investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida"gi qonunlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va hukumat qarorlari shaklida qabul qilinadigan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati xorijiy investorlar uchun eng qulay sharoitlar yaratish maqsadida faol siyosat olib bormoqda. Xorijiy investorlarning O‘zbekistondagi xususiylashtirish jarayonida ishtirok etish shakllari haqida gapirganda quyidagilarni qayd etish mumkin. Xorijiy investorlar yuqorida sanab o‘tilgan usullar bilan amalga oshiriladigan mulkning davlat ulushini sotib olish yo‘li bilan xususiylashtirish jarayonida ishtirok etishlari mumkin. Asosan, investorlar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishdan manfaatdor, chunki bunday korxonalarga katta soliq imtiyozlari berilgan. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona - ustav kapitalida chet ellik investorning ulushi kamida 30 foizni, ustav fondi miqdori esa kamida 150 ming AQSH dollarini tashkil etadigan korxona. AQSH. Bunday 30% ulushni xususiylashtirilgan korxonadan fond bozorida sotiladigan aksiyalar paketlari orasidan sotib olish, so‘ngra bu korxonani O‘zR Adliya vazirligida korxona sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin.

Bozor subyektlarining investitsion faolligini oshirishda tijorat banklari muhim rol o‘ynaydi. Bank tizimining investitsiya faoliyatidagi imkoniyatlari ortib bormoqda, chunki :

- birinchidan, banklar jamoat jamg‘armalarini safarbar qiladi, shu tariqa investitsiya kapitalini shakllantiradi, uning taqsimlanishiga ko‘maklashadi;

- ikkinchidan, banklar investitsiyalash bozorida kuchli axborot protsessorlari hisoblanadi. Turli bozorlarning subyektlari va ishtirokchilari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish va qayta ishlashning o‘ziga xos jarayonlari tufayli tijorat banklari o‘z faoliyatida xizmat ko‘rsatiladigan iqtisodiy subyektlar bilan o‘zaro hamkorlikni ta’minlash bo‘yicha xizmatlarning butun majmuini birlashtirishga qodir.

Investitsiya jarayonida tijorat banklari ishtirokining asosiy yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- banklar tomonidan investitsiyalash maqsadlarini amalga oshirish uchun mablag‘larni jalb qilish;

- investitsiya xarakteridagi kreditlar berish;

-pul mablag‘larini bank mablag‘lari hisobidan yoki mijozning topshirig‘iga ko‘ra qimmatli qog‘ozlarga (ulushli ishtirokka, paylarga) qo‘yish.

Zamonaviy investitsiya faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, hamma joyda raqamlashtirish amalga oshirilmoqda, shuning uchun barcha yirik bank investitsiya maydonchalari ishtirokchilar uchun onlayn tarzda mavjud bo‘lib, u yerda ular :

- real vaqt rejimida bankning investitsiya mahsulotlari bo‘yicha to‘liq kompleks maslahat paketini olish;

- tezda brokerlik hisob raqamini ochish;

- bank brokerlari va tahlilchilarining xavfsiz va foydali bitimlar bo‘yicha tayyor takliflarini ko‘rib chiqish;

- o‘zining investitsiya hisobvarag‘ini boshqarish.

O‘zbekistondada investitsiya faoliyatiga nafaqat korporatsiyalar, balki jismoniy shaxslar ham faol jalb qilinmoqda, ularga investitsiya sohasida asosiy ta’lim berilmoqda.

Tijorat banklari investitsiyalarni amalga oshirish bilan ham shug‘ullanadilar bozor raqobati va mijozlarning o‘zgaruvchan dinamikasi bilan ta'minlangan faoliyat. Mahalliy va global miqyosdagi iqtisodiy o‘zgarishlar o‘rganish muhimligini ta‘kidlaydi o‘sish uchun ushbu strategiyalar. Banklarning investitsiya faoliyati samaradorligi bu borada eng muhim omil hisoblanadi munozaralar. Tijorat banklari turli loyihalarga katta miqdorda sarmoya kiritadilar,ulardan ba‘zilari xavf bilan birga keladi. Investitsiya samaradorligini baholash bank faoliyati ularning investitsiya strategiyalarining muvaffaqiyati va ta‘sirini aniqlashga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun yaratilgan qulay huquqiy muhit, imtiyozlar va kafolatlar tizimi mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini oshirmoqda. Xorijiy kapitalning milliy resurslar bilan uyg‘unlashuvi, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarining joriy qilinishi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli ravishda kuchaytiradi.

Tijorat banklari investitsion jarayonning muhim ishtirokchisi bo‘lib, investitsiya kapitalini shakllantirish, kreditlar ajratish, qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish hamda raqamlashtirilgan investitsiya xizmatlarini ko‘rsatish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlamoqda. Bozor sharoitida ularning investitsiya strategiyalarini samarali baholash, risklarni boshqarish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish investitsion faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda investitsion siyosatning izchil amalga oshirilishi va tijorat banklarining faol ishtiroki mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqarorligi va istiqbolini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Astanov A., Xudoyqulov R.** Investitsiyalar va investitsiya faoliyati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. **G‘ulomov S., Toshmatov Sh.** Investitsiyaviy siyosat va investitsion jarayonlar boshqaruvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. **Abdurahmonov Q.** Investitsiyalarni boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
4. **O‘zbekiston Respublikasi.** Investitsiya faoliyati to‘g‘risida : Qonun. – Toshkent, 2019.
5. **Abdurahmonov Q. X.** Bank ishi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
6. **Saidov A. A.** Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. **Karimov M. I.** Investitsion faoliyat va investitsiyalarni boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot va fan, 2021.
8. **Sharipov A. T.** Bank tizimida investitsion jarayonlar // Iqtisodiyot va innovatsiya. – 2022. – № 3.
9. **Muhammedov O. R.** Tijorat banklari investitsion faoliyatini faollashtirish yo‘llari. – Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2023.

BARQAROR BOSHQARUV (ESG) AMALIYOTLARINI TATBIQ ETISHNING CHEKLOVLAR VA IMKONIYATLARI

Maxmudova Nodira O‘ktamovna

Buxoro davlat Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada barqaror boshqaruv (ESG – Environmental, Social, Governance) amaliyotlarini korxonalarda tatbiq etishning asosiy*

cheklovlari va imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ESG tamoyillarini joriy etishda duch kelinayotgan to‘siqlar, jumladan, ma’lumotlar sifati muammolari, standartlashtirish yo‘qligi, moliyaviy cheklovlar va boshqaruv qobiliyatlarining yetishmasligi aniqlangan. Shu bilan birga, ESG amaliyotlarini tatbiq etish korxona qiymatini oshirish, investorlarni jalb qilish, xavflarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkoniyatlarini yaratishi ko‘rsatilgan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari qo‘llanilgan. Olingan xulosalar rivojlanayotgan mamlakatlardagi korxonalar uchun ESG strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *ESG, barqaror boshqaruv, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, korxona qiymati, barqaror rivojlanish, xavflarni boshqarish.*

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Agar ilgari foyda korxona muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda investorlar, tartibga soluvchi organlar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar tashkilotlarning faoliyati qanchalik barqaror ekanligiga ko‘proq e'tibor qaratmoqda. ESG (Environmental, Social, Governance – Atrof-muhit, Ijtimoiy masalalar, Boshqaruv) konsepsiyasi korxonalarning nafaqat moliyaviy natijalarini, balki atrof-muhitga ta’sirini, ijtimoiy mas'uliyatini va boshqaruv sifatini ham baholashga imkon beradi.

Li va boshqalar (2021) ta’kidlaganidek, ESG tadqiqotlari so‘nggi yillarda keskin o‘sishni namoyish etmoqda va bu soha ilmiy hamjamiyatning katta qiziqishini uyg‘otmoqda. Biroq ESG amaliyotlarini tatbiq etish murakkab jarayon bo‘lib, turli to‘siqlar va qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bilan birga, ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli joriy etgan korxonalar sezilarli afzalliklarga ega bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi ESG amaliyotlarini tatbiq etishdagi asosiy cheklovlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatish va ESG joriy etishning korxonalar uchun yaratadigan imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistonda ham korxonalar barqaror rivojlanish tamoyillariga o‘tishda yangi yondashuvlarni o‘zlashtirishlari zarur bo‘lib, xalqaro tajribani o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

1. ESG amaliyotlarini tatbiq etishdagi cheklovlar

Chopra va boshqalar (2024) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ESG hisobotlari bilan bog‘liq asosiy muammolarni aniqlagan. Tadqiqotchilar ta’kidlashadiki, reyting provayderlari ESG parametrlarini baholashda turli metodologiyalardan foydalanadi, ba’zilari atrof-muhit masalalariga, boshqalari esa moliyaviy ahamiyat yoki ijtimoiy boshqaruv choralariga ko‘proq e'tibor qaratadi. Bu esa ESG baholari o‘rtasida sezilarli farqlarni keltirib chiqaradi.

Ma’lumotlar sifati muammosi ESG tatbiqidagi asosiy to‘siqlardan biridir. ESG oshkoraligi doimiy ma’lumotlar bazalariga ega emas, bu esa potentsial qarama-qarshi natijalarga olib keladi. Kontekstual qiyinchiliklar asosan ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy tizimlarning murakkab moslashuvchan tabiatidan kelib chiqadi. Bu tizimlar xilma-xillik, o‘zaro bog‘liqlik va global miqyosdagi yangi naqshlar bilan tavsiflanadi.

Braziliyaning qurilish sohasida o‘tkazilgan tadqiqot (2024) ESG joriy etishdagi qiyinchiliklarni rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va siyosiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi asosiy muammolar hisoblanadi. Bundan tashqari, korxonalar ESG standartlari va vositalari haqida to‘liq ma’lumotga ega emas, bu esa ESG ni standart biznes amaliyoti sifatida qabul qilishga to‘sqinlik qiladi.

Pu (2025) ta’kidlaganidek, ko‘plab korxonalar ESG ko‘rsatkichlariga erishishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat tashkiliy inersiya, boshqaruv

qobiliyatlarining yetishmasligi, ma’lumotlar infratuzilmasining nomukammalligi va qisqa muddatli moliyaviy maqsadlarning ustunligi bilan bog‘liq. Rivojlanayotgan bozorlarda, xususan, Xitoyda tartibga solish bosimi va manfaatdor tomonlar kutishlari ortib borayotganiga qaramay, korxonalar ESG mezonlariga javob berishda muammolarga duch kelmoqda.

2. ESG tatbiqining korxona qiymatiga ta’siri

Yuksak ESG ko‘rsatkichlarga investitsiya qilish korxonaga qiymat va rentabellik nuqtai nazaridan moliyaviy daromad va’da qiladi. Tariq va Usman (2022) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, umumiy ESG baholari korxona qiymati bilan ijobiy va sezilarli bog‘liq. Ijtimoiy va boshqaruv ko‘rsatkichlari korxona qiymati bilan ijobiy va sezilarli munosabatga ega bo‘lsa-da, atrof-muhit ko‘rsatkichlari sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan. Biroq ESG baholari, atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv ko‘rsatkichlarining barchasi korxona rentabelligi bilan ijobiy va sezilarli munosabatga ega.

Xitoy A-aksiyalar bozorida 4185 ta ro‘yxatga olingan kompaniya ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan tadqiqot (2024) ESG amaliyotlari korxonalarning kelajakdagi pul oqimlarini, uzoq muddatli qiymatini va bozordagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishini aniqlagan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ESG kapitalning o‘rtacha og‘irlikdagi xarajatlarini kamaytirish va investitsiya qilingan kapitaldan daromadni oshirish orqali korxonaning uzoq muddatli qiymatini oshiradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 1144 ta kompaniyani o‘z ichiga olgan tadqiqot (2025) ESG samaradorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, kompaniya qiymati shunchalik yuqori ekanligini tasdiqlagan. Bundan tashqari, naqd pul zahiralari bozor qiymatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar Yevropa mintaqasidagi turli boshqaruv kengashi a’zolariga ESG tamoyillari va ko‘rsatmalariga amal qilishni va ko‘proq naqd pul saqlashni tavsiya etadi, chunki bu kompaniya qiymatini sezilarli darajada oshirishi kerak.

3. ESG tatbiqi imkoniyatlari va afzalliklari

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ekspertlari ta’kidlashadiki, ESG korxonalar uchun bir qancha muhim imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, ESG korxonalarga atrof-muhit, ular faoliyat yuritayotgan jamiyatlar yoki umuman jamiyatga ta’sirini o‘lchash va yangi biznes maqsadlarini belgilash uchun foydali asos bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, ESG standartlari tashkilotlarning iqlim o‘zgarishi, migratsiya va buzilgan texnologiyalar kabi biznes uzluksizligiga tahdid soluvchi nomoliyaviy xavflarga chidamliligini oshiradi.

Uchinchidan, ESG korxonalar uchun yangi marketing imkoniyatlarini ochadi va ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o‘rtasidagi munosabatlarni yangi darajaga ko‘taradi. Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv masalalarini hal qilish tashkilotni ijobiy ijtimoiy ta’sirga ega mas'uliyatli biznes sifatida pozitsiyalash uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, poyabzal ishlab chiqaruvchisi o‘z poyabzallarining qayta ishlangan shinalar yoki kanop kabi barqaror materiallardan ishlab chiqarilganligini targ‘ib qilishi mumkin.

Korxona o‘lchami ESG va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi munosabatni tavsiflashda muhim rol o‘ynaydi. Yirik korxonalar uchun ESG baholari umumiy daromadlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va U-shaklidagi egri chiziq bilan tavsiflanadi, bu erda ESG baholari dastlab korxona samaradorligini pasaytiradi, lekin keyinchalik ballar ko‘tarilganda ijobiy ta’sirga o‘tadi. Boshqa tomondan, kichikroq korxonalar ESG ballaridan monoton ravishda ortib boruvchi yoki bosqichma-bosqich foyda ko‘radi.

4. Raqamli transformatsiya va ESG integratsiyasi

Raqamli transformatsiya ESG samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Katta ma’lumotlar, sun'iy intellekt, blokcheyn va bulutli hisoblash kabi ilg‘or raqamli texnologiyalarni biznes strategiyalari va ish jarayonlariga integratsiya qilish korxonalarga operatsion samaradorlikni, shaffoflikni va manfaatdor tomonlar bilan muloqotni yaxshilash imkonini beradi. Masalan, blokcheyn yetkazib berish zanjiri kuzatuvini yaxshilaydi, sun'iy intellekt

atrof-muhit xavflarini monitoring qilishni qo‘llab-quvvatlaydi, bulutli platformalar esa inklyuziv manfaatdor tomonlar aloqasini osonlashtiradi.

Xitoyning A-aksiyalar ro‘yxatidagi korxonalarida (2014-2023) o‘tkazilgan tadqiqot yashil innovatsiyalarning korporativ ESG samaradorligiga qanday ta’sir qilishini o‘rgangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yashil innovatsiyalar ESG samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, raqamli transformatsiya esa qisman vositachi sifatida harakat qiladi. Bundan tashqari, rahbariyatning yashil tushunchalari bu munosabatni kuchaytiradi, jamoat favqulodda holatlari esa uni susaytiradi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, ESG amaliyotlarini tatbiq etishda bir qator muhim cheklovlar mavjud: ma’lumotlar sifati va standartlashtirish muammolari, moliyaviy cheklovlar, boshqaruv qobiliyatlarining yetishmasligi va qisqa muddatli moliyaviy maqsadlarning ustunligi. Bu cheklovlar ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, mavjud cheklovlarga qaramay, ESG amaliyotlarini tatbiq etish korxonalar uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuksak ESG ko‘rsatkichlarga ega korxonalar yuqoriroq qiymatga, yaxshiroq rentabellikka va kuchliroq raqobatbardoshlikka ega. ESG kapitalning og‘irlikdagi o‘rtacha xarajatlarini kamaytiradi va investitsiya qilingan kapitaldan daromadni oshiradi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya ESG samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ilg‘or raqamli texnologiyalar korxonalarga operatsion samaradorlikni yaxshilash, shaffoflikni ta’minlash va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot o‘rnatish imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: O‘zbekiston korxonalari ESG tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etishlari, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va sifatini oshirishlari, boshqaruv kadrlari malakasini oshirishlari va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishlari maqsadga muvofiq. Davlat darajasida ESG standartlarini ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Li T. T.**, **Wang K.**, **Sueyoshi T.**, **Wang D. D.** ESG: Research Progress and Future Prospects // *Sustainability*. — 2021. — Vol. 13, No. 21. — Art. 11663. — DOI: 10.3390/su132111663.
2. **Chopra S. S.**, **Senadheera S. S.**, **Dissanayake P. D.** et al. Navigating the Challenges of Environmental, Social, and Governance (ESG) Reporting: The Path to Broader Sustainable Development // *Sustainability*. — 2024. — Vol. 16, No. 2. — Art. 606. — DOI: 10.3390/su16020606.
3. **Tariq A.**, **Usman M.** Impact of ESG Performance on Firm Value and Profitability // *Borsa Istanbul Review*. — 2022. — Vol. 22, No. 6. — P. 1119–1127. — DOI: 10.1016/j.bir.2022.10.003.
4. **Chen Y.**, **Wang X.**, **Zhang L.** From Responsibility to Value: ESG and Long-term Corporate Value // *PLOS ONE*. — 2024. — Vol. 19, No. 4. — Art. e0301245. — DOI: 10.1371/journal.pone.0301245.
5. **Liou J. J. H.**, **Liu P. Y. L.**, **Huang S. W.** Exploring the Key Barriers to ESG Adoption in Enterprises // *Systems and Soft Computing*. — 2023. — Vol. 5. — Art. 200066. — DOI: 10.1016/j.sasc.2023.200066.
6. **Pu T.** E, S, and G, not just ESG: Exploring the Digital Transformation–Environmental, Social, and Governance Performance Nexus through Patent-Based Evidence // *SAGE Open*. — 2025. — Vol. 15, No. 1. — DOI: 10.1177/21582440251384402.

7. **Zhao X.**, **Liu C.**, **Yang M.** The Impact of ESG on Firm Value: The Moderating Role of Ownership Structure // *Sustainability*. — 2024. — Vol. 14, No. 21. — Art. 14507. — DOI: 10.3390/su142114507.
8. **Da Silva A.** et al. Validation of Challenges for Implementing ESG in the Construction Industry Considering the Context of an Emerging Economy Country // *Applied Sciences*. — 2024. — Vol. 14, No. 14. — Art. 6024. — DOI: 10.3390/app14146024.
9. **Wang L.** et al. ESG Performance, Digital Transformation, and Green Innovation // *Humanities and Social Sciences Communications*. — 2025. — Vol. 12. — Art. 1892. — DOI: 10.1057/s41599-025-06027-9.
10. **Postiglione C.** et al. ESG and Firm Value: A Hybrid Literature Review on Cost of Capital Implications // *Corporate Social Responsibility and Environmental Management*. — 2024. — Vol. 31, No. 6. — P. 5124–5142. — DOI: 10.1002/csr.2940.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI SANOAT KORXONALARIDA SOLIQQA TORTISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Muxtorova Farangiz

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi soliq va soliqqa tortish tizimi sanoat korxonalari miqyosida nazariy o'rganiladi, eng so'ngi o'rgartirishlar kuzatiladi va tahlil qilinadi. Soliq tizimi 2024-2025yillardan buyon soliq yukini pasaytirish, tizimni murakkablashtirishdan qochish va byudjet tushumlarini oshirish kabi maqsadlarni amalga oshirish uchun kiritilgan*

o’zgartishlar tahlil qilinadi, xulosalanadi va kelgusi yillar uchum optimal takliflar keltirib o’tiladi.

Kalit so‘zlar: *soliqqa tortish tizimi, sanoat korxonalari, soliq islohotlari, imtiyozlar, raqamlashtirish, statistika, O‘zbekiston.*

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda soliqqa tortish tizimining samaradorligi va uning sanoat korxonalari faoliyatiga ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatda soliq tizimini isloh qilish, soliq yukini maqbullashtirish hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2024–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar sanoat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish, shuningdek, soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga yo‘naltirildi. Ushbu islohotlar doirasida foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar tizimi qayta ko‘rib chiqilib, iqtisodiy samaradorlik bermayotgan imtiyozlar qisqartirildi hamda real ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish va investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiluvchi imtiyozlar saqlab qolindi. Shu bilan birga, ayrim ustuvor sanoat tarmoqlari uchun texnologik yangilanish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlovchi maqsadli soliq imtiyozlari mustahkamlandi.

Bundan tashqari, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qaytarish mexanizmlarining soddalashtirilishi va tezlashtirilishi, elektron hisob-fakturalar hamda soliq hisobotlarining majburiy joriy etilishi soliq tizimining shaffofligini oshirdi. Soxta QQS zanjirlariga qarshi nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi esa qonuniy faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari uchun soliq yukining amaliy ta’sirini kamaytirishga xizmat qildi. Mol-mulk va yer soliqlari sohasida esa ishlab

chiqarish quvvatlaridan samarasiz foydalanilayotgan obyektlarga nisbatan soliq yukining oshirilishi hamda zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun rag‘batlantiruvchi yondashuvning joriy etilishi ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratildi.

Shuningdek, soliq ma’muriyatchiligi tizimida amalga oshirilgan islohotlar doirasida soliq tekshiruvlari sonining qisqartirilishi, xavf tahliliga asoslangan nazorat tizimining joriy etilishi hamda soliq organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarda profilaktik yondashuvning kuchaytirilishi sanoat korxonalarining yashirin iqtisodiyotdan chiqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarida soliqqa tortish tizimini o‘rganish bo‘yicha mavjud adabiyotlar va rasmiy manbalar bir nechta asosiy yo‘nalishga ajratiladi. Birinchi yo‘nalish – soliq tizimining nazariy asoslari va soliq yuki nazariyasi bo‘lib, u korxonalarga soliq yukini hisoblash, fiskal siyosatning samaradorligini baholash va soliqqa tortish mexanizmlarini tushunishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda “Soliq nazariyasi va tarixi” va “Soliqlar va soliqqa tortish” kabi ilmiy maqolalar muhim hisoblanadi. Mazkur manbalar orqali foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), mol-mulk va yer solig‘i kabi asosiy soliq turlari, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda korxona faoliyatiga ta’siri nazariy jihatdan tushuntiriladi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari va byudjet tushumlarining tarmoqlararo taqsimoti ham ushbu adabiyotlarda keng yoritilgan.

Ikkinchi yo‘nalish – O‘zbekiston Respublikasidagi soliq tizimi va uning sanoat korxonalariga ta’sirini amaliy jihatdan o‘rganish. Bu yo‘nalishda Soliq kodeksi, unga 2024–2025-yillarda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, shuningdek 2025-yilga mo‘ljallangan soliq va budjet siyosati bo‘yicha qonunlar asosiy manba hisoblanadi. Rasmiy manbalar, xususan Soliq qo‘mitasi va Statistika agentligi hisobotlari orqali foyda solig‘i, QQS, mol-mulk va yer soliqlaridan tushumlar, sanoat korxonalarining soliq yuklari va imtiyozlar taqsimoti, shuningdek tekshiruvlar soni va ularning tarmoqlar bo‘yicha ulushi tahlil qilinadi. Bu manbalar yordamida tadqiqotchilar soliq siyosati va islohotlarining real sektor korxonalariga

ta’sirini eksperimental ravishda baholash imkoniga ega bo‘ladi. Jumladan, 2025-yil yanvar-oktabr oylarida 60,5 ming sanoat korxonasi 76,2 trillion so‘m soliq to‘lashi, mol-mulk solig‘i hissasi oshishi va tekshiruvlar sonining kamayishi kabi ko‘rsatkichlar soliq tizimining samaradorligini tasdiqlaydi.

Uchinchi yo‘nalish – sanoat korxonalariga beriladigan rag‘batlantiruvchi mexanizmlar va soliq imtiyozlari, bu jarayonlar amalda Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi farmonlari hamda Soliq qo‘mitasi tomonidan chiqarilgan metodik ko‘rsatmalar orqali tartibga solinadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, foyda solig‘i bo‘yicha imtiyozlar tizimi, QQSni qaytarish mexanizmlari va mol-mulk hamda yer soliqlari bo‘yicha rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar nafaqat qonuniy asosga ega, balki korxonalarning ishlab chiqarish, investitsiya va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy vositalardir. Masalan, tikuv-trikotaj sohasida 1% stavka, suv solig‘idagi 10% o‘sish va maqsadli imtiyozlar tarmoqlararo soliq yukini differensiallashtiradi. Bu mexanizmlar korxonalarga soliq yukini pasaytirish, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish va raqobatbardosh muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, Soliq qo‘mitasi tomonidan chiqarilgan metodik ko‘rsatmalar, elektron hisob-faktura va soliq hisobotlarining joriy etilishi, shuningdek xavf tahliliga asoslangan nazorat mexanizmlari soliq ma’muriyatchiligini yanada shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar soliq tizimini nafaqat qonuniy, balki iqtisodiy jihatdan barqaror va rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Natijada, adabiyotlar va rasmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda sanoat korxonalarini soliqqa tortish tizimi nazariy asoslar, amaliy hujjatlar va statistika yordamida doimiy takomillashib boradi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar – normativ-huquqiy, qiyosiy, tizimli va statistik tahlil – mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligini tasdiqlaydi va sanoat korxonalariga soliq siyosatining ta’sirini aniq baholash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, adabiyotlar sharhi soliq islohotlarining barqaror iqtisodiy o‘sish, investitsiya

rag‘batlantirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirish kabi strategik maqsadlarga xizmat qilishini ham ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarini soliqqa tortish tizimini o‘rganishda normativ-huquqiy, qiyosiy, tizimli, analitik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida Soliq kodeksi, unga 2024–2025-yillarda kiritilgan o‘zgartirishlar, soliq va budjet siyosatiga oid qonunlar hamda rasmiy metodik hujjatlar olindi. Ushbu yondashuvlar soliq tizimining hozirgi holatini kompleks baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining 2024–2025-yillardagi taqsimoti barqarorlikni saqlab, asosiy qismini ishlab chiqarish sektori tashkil qiladi. Energiya ta’minoti va suv bilan bog‘liq xizmatlar ulushi oshib, tarmoqlararo resurs taqsimoti va iqtisodiy strukturaning izchil rivojlanishini aks ettiradi. Bu ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish samaradorligi, ekologik resurslardan foydalanish va tarmoqlararo koordinatsiyaning muhimligini tasdiqlaydi, iqtisodiy barqarorlik va o‘sish uchun asos bo‘ladi.


1-jadval:

O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarish hajmi tarmoqlar bo‘yicha ulushi (2024-2025 yillar, %)

Tarmoq	2024 yil ulushi (%)	2025 yil (yanvar-oktabr) ulushi (%)
Ishlab chiqarish sanoati	85,1	84,5

Elektr, gaz va bug‘ ta’minoti	7,6	7,9
Suv ta’minoti va chiqindilar	6,8	7,0
Suv ta’minoti va chiqindilar	0,5	0,6

Diagramma-1



Manba: Statistika agentligi va Gazeta.uz ma’lumotlari asosida.

Olingan natijalar shuni bildiradiki, ishlab chiqarish sanoati O‘zbekiston byudjeti uchun asosiy soliq manbai bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, 2025-yilda kiritilgan

ayrim soliq imtiyozlari, masalan tikuv-trikotaj sohasida 1% stavka, hamda oshirishlar, masalan suv solig‘ining +10% ortishi, soliq yukini tarmoqlar bo‘yicha differensiallashtirmoqda. Soliqlar byudjetning barqarorligini ta’minlash bilan birga, sanoat korxonalarining soliq yukini kamaytirish orqali yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish va imtiyozlarni optimallashtirish mumkin. Islohotlar stavkalarni o‘zgartirmasdan barqarorlikni saqlab qoldi, biroq tarmoqlar bo‘yicha yuk farqi raqobatbardoshlikka ta’sir qilishi ehtimoli mavjud. Takliflar: imtiyozlarni innovatsion va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarga kengaytirish hamda raqamli monitoringni kuchaytirish orqali sanoat rivojini rag‘batlantirish.

2024–2025-yillarda Soliq kodeksi va unga kiritilgan qo‘shimchalar, shuningdek 2025-yilga mo‘ljallangan soliq va budjet siyosati asosida soliq tizimi yanada barqaror, shaffof va iqtisodiy rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida shakllandi. Bu o‘zgarishlar nafaqat davlat byudjeti daromadlarini oshirishga, balki sanoat korxonalarining investitsiya va ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Soliq yukini baholashda asosiy e’tibor foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, mol-mulk va yer solig‘i hamda soliq ma’muriyatchiligi mexanizmlarining korxonalarga ta’siriga qaratildi. 2024–2025-yillarda foyda solig‘i bo‘yicha amalga oshirilgan o‘zgarishlar iqtisodiy samaradorlik bermayotgan imtiyozlarni qisqartirib, faqat ishlab chiqarish, eksport va investitsiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarga qo‘llaniladigan imtiyozlarni saqlab qoldi. Shu bilan birga, texnologik yangilanish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar uchun maqsadli imtiyozlar mustahkamlandi. Bu chora-tadbirlar korxonalarni real ishlab chiqarishga yo‘naltirishga xizmat qilmoqda va foyda solig‘i bo‘yicha soliq yukini pasaytirishga imkon yaratadi.

Quyidagi jadval foyda solig‘i bo‘yicha soliq yukining 2023–2025-yillardagi o‘zgarishini ko‘rsatadi:

Jadval-2 Foyda solig‘i bo‘yicha soliq yukining o‘zgarishi (2023–2025)


Yillar	O‘rtacha foyda solig‘i yuki (%)	Imtiyoz qo‘llangan korxonalar (%)	Tashqi investitsiyalar yuki (%)
2023	20,5	34	3,8
2024	19,0	41	4,2
2025	18,7	48	5,0

Manba: Soliq qo‘mitasi, 2025 statistik hisobotlari.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2024–2025-yillarda imtiyozlar sonining ortishi foyda solig‘i bo‘yicha soliq yukini kamaytirishga yordam berdi. Ayniqsa, eksport va investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soliq yuki pasaygan holda o‘z faoliyatini kengaytira boshladi.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki yillardan e'tiboran asosiy e'tiborni mamlakat ichki siyosatida tinchlik, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan birga tashqi siyosatda ham dunyo davlatlari bilan o‘zaro tenglikka asoslangan faol hamkorlik olib borish yo‘lini tanladi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Ushbu hujjatda “O‘zbekiston

Respublikasi davlat hokimiyatining to‘liqligiga ega, o‘z milliy va davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv tizimini mustaqil belgilaydi” – deb ta'kidlab o‘tilgan[13]. Shuningdek, ushbu qonunda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining moddiy asoslari sifatida uning milliy boyliklari yer, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar, iqtisodiy, ilmiy-texnik va intellektual mulk va qadriyatlar ekanligi qayd etildi. Bu esa jahonda o‘z o‘rniga ega yangi davlatning shakllanganligini bildirar edi.

Asosiy qism: O‘zbekiston Respublikasida tashqi siyosat sohasi ham boshqa sohalar kabi mustaqillik yillarida huquqiy asoslar bilan mustahkamlandi. Mamlakat tashqi siyosat tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may oyidagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qarori va 1994-yil mart oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari asosida shakllantirildi[14]. 1996-yilda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi natijasida tashqi siyosat yuritishda huquqiy-me’yoriy asoslar yanada mustahkamlandi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobi “Tashqi siyosat” deb nomlandi. 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referundum orqali yangilangan Konstitutsiyada ham IV bob “Tashqi siyosat” deb nomlanib, u o‘z ichiga 17-18-moddalarni oldi. Ushbu konstitutsiyaning 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi”[15] deb belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e’lon qilinishidan bir qancha muddat oldin, aniqrog‘i 1991-yil 14-iyunda mamlakat tashqi siyosati va tashqi

[13] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil 11-son
[14] Alimov Sh. O‘zbekiston tarixi. -T. “O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2014, 259-bet.
[15] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T. “O’zbekiston”, 2023, 12-bet

iqtisodiy faoliyati sohasida yangicha yondoshuvlar davri boshlangan edi. Aynan shu kunda O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida” va “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi. “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonun 1998-yil 25-dekabrda, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonun 2000-yil 26-mayda o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan yangi tahrirda qabul qilinishi natijasida yanada takomillashtirildi[16].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingandan so‘ng mamlakatda amalga kiritilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 7-sentabrda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni bo‘ldi[17]. Bu farmon orqali mustaqil davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini jadallashtirishga ko‘mak beruvchi bank tarmog‘i shakllantirildi. Bankning hududlarda bo‘limlari tashkil etilish orqali mahalliy tadbirkorlar qatlamini qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rildi. 1992-yil 21-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni[18] e’lon qilindi. Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 1992-yil 25-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qarori chiqarildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali shakllantirish va rivojlantirishda investitsiyalarni himoya qilish va chet ellik investorlarning huquqlarini kafolatlashga ham e’tibor qaratildi. 1994-yil 5-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 1998-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilindi. 1996-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mamlakatda chet el investitsiyalari va investorlarini huquqiy himoya qilish kafolatlarining ta’minlanishi mamlakatning iqtisodiy jozibadorligini oshirishga

[16] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son
[17] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 11-son
[18] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 4-son

xizmat qildi. Mamlakat tashqi siyosatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida 2018-yil 5-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni[19] e’lon qilindi. 2019-yil 6-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Bu normativ-huquqiy hujjatlar tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

2012-yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi» e’lon qilindi[20]. Ushbu konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi asosiy tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo‘nalishlari, milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimini ifodaladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jahon ko‘plab mamlakatlari bilan teng huquqli hamkorlik qilib, qisqa tarixiy davrda xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan davlatga aylandi. Istiqlol yillarida respublikamiz muntazam ravishda jahonning rivojlangan mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yildan yilga rivojlantirish va uning geografiyasini yanada kengaytirib borishga asosiy e’tiborni qaratdi. Xususan, 2018-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasini 180 ga yaqin davlat rasman tan olganligi bu harakatlarning natijasi hisoblanadi. Ushbu davlatlarning 134 tasi bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. Toshkent shahrida 45 ta davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilot, 5 ta xalqaro moliyaviy va 3 ta savdo vakolatxonalari faoliyat olib borayotganligi aniqlangan. Shuningdek,

[19] Qarang: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018-y., 06/18/5400/1023-son, 30.05.2019-y., 06/19/5733/3216-son

[20] Shamsiddinov R, Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Akademnashr”, 2019, 534-bet.

O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning to‘laqonli a'zosi sifatida ham faoliyatni amalga oshiryapti[21].

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasida o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, barqarorlik hamda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi[22]. Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining yaqin va o‘rta istiqbolda rivojlanish rejasi etib tadbiq etilayotgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ham mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga erishishida xorijiy mamlakatlar va jahon hamjamiyat bilan ko‘p tomonlama hamkorlik muhim omil sifatida alohida e’tiborga olingan.

Istiqlol yillarida mamlakatda mahalliy davlat hokimiyatini shakllantirishning yangi boshqaruv sistemasi hamda uning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. 1992-yil 4-yanvar kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyat asoslari to‘g‘risida”gi qonuni asosida mamlakat ma’muriy birliklarini boshqarish uchun hokimlik lavozimlari ta’sis etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda hokimlik ma’muriyati tuzildi. Yillar davomida mahalliy davlat hokimiyati boshqaruv tizimida jadal islohotlar amalga oshirildi. Mana shunday islohotlardan biri 2016-yil 23-apreldagi “Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari boshqaruv apparatlari to‘g‘risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bo‘ldi. Mazkur qarorda mahalliy hokimliklarning tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, investitsiyalarni jalb etish borasidagi majburiyatlari va vakolatlari belgilab berildi[23].

[21] O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti: https://mfa.uz/uz/cooperation/

[22] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017-yil 8-fevral

[23] https://lex.uz/ru/docs/-2941418

1992-yil 21-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni[24] qabul qilindi. Bu farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo va xorijiy aloqalar komiteti negizida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Tashqi savdo aloqalari davlat qo‘mitasi bo‘limlari negizida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining mintaqaviy vakillari boshqarmalari tuzildi. Bu tarkibiy o‘zgarishlar mamlakatning ma’muriy birliklarida ham tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etish va rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi. 2002-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida boshqaruv tizimini yanada erkinlashtirish va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi etib qayta tashkil etildi. Har bir hududiy birlikda tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi bo‘limlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 21-iyuldagi “Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni[25] bilan Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib qayta tashkil qilindi. Mazkur farmon asosida Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligining viloyatlar va Toshkent shahridagi tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha boshqarmalari viloyatlar va Toshkent shahrida tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo boshqarmalari etib qayta tuzildi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi bu islohotlar natijasida har bir ma’muriy-hududiy birlik tashqi aloqalarni

[24] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 4-son
[25] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 28-29-son

shakllantirishni o‘zining strategik rivojlanish maqsadlaridan biri sifatida belgilash zaruriyatini anglab yetdi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning hududiy darajada faol olib borilishi mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro’yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** — Toshkent: O‘zbekiston, 2023. — 12-b.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida: PF-4947-son Farmon (2017-yil 8-fevral) // Xalq so‘zi gazetasi. — 2017-yil 8-fevral.
3. **Alimov Sh.** O‘zbekiston tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. — 259-b.
4. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi.** Axborotnomasi. — 1991. — № 11.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi.** Axborotnomasi. — 1992. — № 4.
6. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.** Axborotnomasi. — 2000. — № 5–6.
7. **O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.** — 2005. — № 28–29.
8. **Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.** — 06.04.2018. — № 06/18/5400/1023; 30.05.2019. — № 06/19/5733/3216.
9. **Shamsiddinov R., Mo‘minov X.** O‘zbekiston tarixi. — Toshkent: Akademnashr, 2019. — 534-b.
10. **O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi.** Rasmiy sayt [Elektron resurs]. — URL: https://mfa.uz/uz/cooperation/
11. **Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.** Normativ-huquqiy hujjat [Elektron resurs]. — URL: https://lex.uz/ru/docs/-2941418

VILOYAT TUMANLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY SALOHIYATINI ANIQLASH METODIKASI

Ruziyeva Maxbuba
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti
Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini aniqlash va baholash metodikasi yoritiladi. Mazkur metodika tumanlar o‘rtasida ijtimoiy va iqtisodiy farqlarni aniqlash, mahalliy rivojlanish imkoniyatlarini baholash va tumanlar o‘rtasidagi resurs taqsimotini yanada samarali qilishda yordam beradi. Tahlil uchun statistik ma’lumotlar, so‘rovnomalar va boshqa indikatorlardan foydalanish zarurligi qayd etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, tuman rivojlanishi, indikatorlar, tahlil metodikasi, hududiy farqlar.*

Kirish. Viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati – bu tumanlarda mavjud tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va insoniy resurslarning samaradorligini baholash imkonini beruvchi ko‘rsatkichlar yig‘indisi hisoblanadi. Tumanlar o‘rtasida mavjud farqlarni tahlil qilish, ularning rivojlanish salohiyatini aniqlash mahalliy va davlat darajasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhimdir. Mazkur maqolada viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash va aniqlash uchun qanday metodlardan foydalanish mumkinligi bayon etiladi.

Turizmning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri mavzusi ilmiy va tahliliy ishlarida keng muhokama qilinmoqda. Tahlilga yondashuvlarning xilma-xilligi ushbu muammoni iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va investitsion jihatlardan ko‘rib chiqishga imkon beradi. Mazkur adabiyotlar sharhida nazariy asos va statistik ma’lumotlarni taqdim etuvchi manbalardan foydalanilgan.

Asosiy qism. Zamonaviy tadqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash metodikalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, federatsiya subyektlari va tumanlar darajasida boshqaruv va rejalashtirish siyosatining samaradorligini obyektiv tahlil qilish zarurati bilan bog'liq. Ko'rib chiqilgan manbalar ushbu muammoni turli yondashuvlar asosida yoritadi, jumladan sifat va miqdoriy uslublar, iqtisodiy-matematik modellar va integral baholash yondashuvlari.

Bostanova A. I. (2012) ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni baholashda tizimli yondashuvni qo'llashni taklif etadi, bunda asosiy ko'rsatkichlar sifatida daromad darajasi, bandlik, infratuzilmaga kirish imkoniyati va ijtimoiy muhit sifati ajratib ko'rsatiladi. Muallifning ta'kidlashicha, bunday metodika nafaqat hududning joriy holatini aniqlashga, balki uning dinamikasini prognoz qilishga ham imkon beradi, bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.[26]

Bassil, Harb va Al Daia (2023) tomonidan olib borilgan tizimli adabiyotlar sharhi turizmning submilliy darajadagi iqtisodiy ta'sirini o'rganadi. Ushbu tadqiqot 60 ta maqolani tahlil qilib, turizmning hududiy iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini baholashda panel ma'lumotlar, Granger sababiylik tahlili va input–output (IO) modellari kabi metodologiyalarni aniqlaydi. Shuningdek, tadqiqotda turizmning iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkinligi va bu o'sishning hududiy farqlari muhokama qilinadi.[27]

Alcalá-Ordóñez va Segarra (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqot 123 ta mamlakatda 1995–2019 yillar oralig'ida turizm va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni Granger sababiylik testi yordamida tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotda turizmning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri mamlakatlarning rivojlanish darajasi va turizmga ixtisoslashuviga qarab farqlanishi aniqlangan. [28]

[26] Bostanova, A.I. (2012), "Methods for assessing the socio-economic potential of the region", Upravlenie ekonomicheskimi sistemami: elektronnyy nauchnyy zhurnal, no. 42, available at: http://uecs.ru/uecs42-422012/item/1392-2012-06-13-11-28-57 (access date October 10, 2018).

[27] Bassil, Harb va Al Daia (2023), The economic impact of tourism at regional level: a systematic literature review, May 2023, Tourism Review International 27(2):159-175.

[28] Pablo Juan Cárdenas-García, Juan Gabriel Brida & Verónica Segarra, " Modeling the link between tourism and economic development: evidence from homogeneous panels of countries", Humanities and Social Sciences Communications volume 11, Article number: 308 (2024).

Viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash uchun bir qator ko‘rsatkichlar va indikatorlardan foydalaniladi. Ular quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

- Ijtimoiy ko‘rsatkichlar: Aholining o‘sish sur’ati, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining sifati, bandlik darajasi, uy-joy sharoitlari, turmush darajasi va ijtimoiy infratuzilma holati.
- Iqtisodiy ko‘rsatkichlar: Tumanlar bo‘yicha sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, yangi ish o‘rinlari va tumanlarning iqtisodiy faolligi.
- Insoniy resurslar: Ishchi kuchi salohiyati, ta’lim darajasi, malakali ishchilar ulushi, aholi demografik tarkibi va migratsiya ko‘rsatkichlari.
- Tabiiy resurslar va ekologiya: Qishloq xo‘jaligi uchun yer resurslari, mineral va energetik resurslar, ekologik holat va tumanlarda yashash uchun sharoitlar.

Tahlil Metodikasi quyidagi 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1 Ma’lumotlarni yig‘ish

Viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash uchun avvalo, ishonchli va yangilangan statistik ma’lumotlar talab etiladi. Asosiy ma’lumotlar manbai sifatida Davlat statistika qo‘mitasi, soliq inspeksiyalari, sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik agentliklari kabi rasmiy tashkilotlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazish orqali joylardagi vaziyatga oid ma’lumotlar yig‘iladi.

2. Ko‘rsatkichlar shkalasi

Har bir ko‘rsatkichni baholash uchun ularning qiymatini 1 dan 10 gacha bo‘lgan ball tizimida o‘lchash mumkin. Masalan, aholi bandlik darajasi 8–10% bo‘lsa, 10 ball, 11–15% bo‘lsa, 8 ball kabi taqsimlanadi. Bu yondashuv orqali har bir tuman uchun umumiy baholash amalga oshiriladi.

3. Baholashning kompleks usullari

Tumanlar salohiyatini baholash uchun kompleks usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish uchun indeks usuli va klasterlash metodikasi qo‘llanilishi mumkin:

Indeks usuli: Tumanlar ko‘rsatkichlarini umumiy indeksga aylantirish orqali ularning umumiy salohiyatini ko‘rsatish. Bu metod tumanlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab oson taqqoslash imkonini beradi.

Klasterlash metodikasi: Tumanlarni o‘zaro o‘xshashlik darajasiga qarab guruhlarga bo‘lib tahlil qilish. Bu usul bilan tumanlarni rivojlanish darajasi bo‘yicha bir xil bo‘lgan klasterlarga ajratish mumkin.

4. Faktoriyal tahlil

Tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishda faktoriyal tahlil qo‘llaniladi. Ushbu metod turli ko‘rsatkichlarni bir-biriga bog‘liq holda ko‘rib chiqishga yordam beradi. Masalan, ta’lim darajasi, bandlik va daromadlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik faktoriyal tahlil yordamida aniqlanadi.

Tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish natijalariga asoslanib, quyidagicha taqsimlash va tavsiyalar ishlab chiqish mumkin:

Jadval 1.

Tumanlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish salohiyati bo‘yicha tasnifi[29]

Yuqori salohiyatli tumanlar:	O‘rtacha salohiyatli tumanlar:	Past salohiyatli tumanlar:
Ushbu tumanlarda iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilma yaxshi rivojlangan bo‘lib, investitsion faollik yuqori darajada.	Bu tumanlarda asosiy ko‘rsatkichlar yaxshi rivojlangan bo‘lsa-da, qisman qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni kuchaytirish talab etiladi.	Bu toifadagi tumanlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi yetarli bo‘lmagan hududlar hisoblanadi.

[29] Muallif ishlanmasi

Yuqori salohiyatli tumanlarga qo‘shimcha moliyaviy yordam ko‘rsatmasdan, mavjud resurslarni samarali boshqarish tavsiya etiladi.	Ushbu tumanlar uchun qo‘shimcha investitsiyalar va mahalliy infratuzilmani yaxshilash choralarini ko‘rish zarur.	Bu tumanlarda rivojlanishni ta’minlash uchun qo‘shimcha resurslar ajratish, davlat dasturlari va investitsion loyihalarni amalga oshirish zarur.

Mazkur tahlillarga asoslanib, viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun quyidagi choralar ko‘rish tavsiya etiladi:

- Investitsiya kiritish va yangi ish o‘rinlarini yaratish: Rivojlanishga ehtiyoji katta bo‘lgan hududlarga davlat investitsiyalarini jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish.
- Infratuzilmani rivojlantirish: Kam rivojlangan tumanlarda transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa infratuzilmani rivojlantirish.
- Ijtimoiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash: Ijtimoiy muammolarni bartaraf etish uchun sog‘liqni saqlash, ta’lim va uy-joy dasturlariga e’tibor qaratish.
- Malakali ishchi kuchini oshirish: Kasbiy tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, aholini malaka oshirish dasturlariga jalb qilish.

Xulosa

Viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash tumanlarning rivojlanish yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalari asosida tumanlarni rivojlantirish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyati yaratiladi. Tumanlar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni kamaytirish orqali viloyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligini ta’minlash mumkin. Viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish orqali davlat va mahalliy boshqaruv organlari har bir hudud uchun individual rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa aholining turmush darajasini

oshirish, hududlar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashga yordam beradi.

Mazkur metodika viloyat tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini aniq baholash va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tahlil natijalari asosida qo‘shimcha investitsiyalarni yo‘naltirish, resurslarni samarali taqsimlash va tumanlar o‘rtasida iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirish choralari ko‘rilishi mumkin. Bu yondashuv viloyat tumanlarining rivojlanishidagi asosiy omillarni chuqur tahlil qilish va ularni yanada barqaror va raqobatbardosh qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu metodika iqtisodiy rivojlanish va aholining farovonligini oshirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

Tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish bilan ularning iqtisodiyotdagi hissasi ortadi, aholi bandligi va daromadi yaxshilanadi. Davlat va xususiy sektor uchun hududiy iqtisodiy tahlil o‘tkazish kelgusida samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Popova O., Bogacheva E.** Analysis of the methods for assessing socio-economic development level of urban areas // AIP Conference Proceedings. — AIP Publishing LLC, 2017. — P. 050015.
2. **Бостанова А. И.** Методы оценки социально-экономического потенциала региона // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. — 2012. — № 6(42). — С. 11.
3. **Bassil M., Harb G., Al Daia M.** The economic impact of tourism at regional level: a systematic literature review // Tourism Review International. — 2023. — Vol. 27(2). — P. 159–175.
4. **Cárdenas-García P. J., Brida J. G., Segarra V.** Modeling the link between tourism and economic development: evidence from homogeneous panels of countries // Humanities and Social Sciences Communications. — 2024. — Vol. 11. — Article 308.

5. **Ruziyeva M. T.** Buxoro viloyatida gastronomik hamda agroturizm imkoniyatlari tahlili // Ekonomika va turizm: xalqaro ilmiy-innovatsion jurnal. — 2024. — № 1(15). — URL: https://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/227
6. **Khidirova G. R., Ruziyeva M. T.** Foreign experience of effective use of tourism expertise in regions // Business, Management and Economics Engineering. — 2024. — Vol. 22(1). — URL: https://businessmanagementeconomic.org/article/view-2024/1520.html
7. **Ruziyeva M.** Comparative analysis of rural tourism development models: Lessons for Uzbekistan from global best practices // International Journal of Tourism (IJOT). — 2025. — Vol. 7(1). — Article 5416. — DOI: 10.31149/ijot.v7i1.5416
8. **Ruziyeva M. T.** Hududlarda turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. — 2024. — T. 6(2). — B. 86–89.
9. **Ruziyeva M. T.** Socio-economic importance of tourism development in the regions // Ǵylym Jáne Bilim – 2024: XIX xalqaro talaba va yosh olimlar konferensiyasi materiallari. — Ostona : L.N. Gumilyov nomidagi YEMU, 2024. — B. 4877–4880.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI TIJORAT BANKLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING STATISTIK TAHLILI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Shodiyev Shuhrat Sunnat o’g’li

TDIU “bank ishi” kafedrasi

Annotatsiya. *O‘zbekiston Respublikasida davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmi 2024–2025 yillarda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu ishda Markaziy bank va boshqa rasmiy manbalardan olingan statistik ma’lumotlar asosida kredit hajmlari, sektor va mintaqalar bo‘yicha taqsimot, imtiyozli kreditlar ulushi va muammoli kreditlar darajasi tahlil qilindi*[30]*. Natijada 2024-yilda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 6,8 trillion so‘m imtiyozli kredit ajratilgani, yoshlar loyihalariga 2,7 trillion so‘m va ayollar loyihalariga 3,2 trillion so‘m yo‘naltirilgani aniqlandi. Umumiy kredit portfeli 515,6 trillion so‘mga yetdi (o‘sish 14%). Mintaqaviy tengsizlik va monitoring yetishmovchiligi muammolari ko‘rsatildi. Takliflar orqali tizimni takomillashtirish yo‘llari taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *davlat maqsadli dasturlari, tijorat banklari, imtiyozli kreditlar, statistik tahlil, sektor taqsimoti, muammoli kreditlar, iqtisodiy o‘sish.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar doirasida davlat maqsadli dasturlari (oilaviy tadbirkorlik, yoshlar tadbirkorligi, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” va boshqalar) moliyalashtirish tijorat banklari orqali amalga oshirilmoqda. Bu mexanizm davlat byudjeti mablag‘larini imtiyozli shartlarda (past foizlar, subsidiyalar) yetkazib berish orqali kichik va o‘rta biznesni, shuningdek, ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. 2024–2025 yillarda ushbu jarayon iqtisodiy o‘sishga (YaIM 6,6% ga yetgan) hissa qo‘shdi, ammo mintaqaviy tengsizlik va risklar boshqaruvi muammolari mavjud. Ushbu ishda rasmiy statistik ma’lumotlar (Markaziy bank hisobotlari, 2025 yil byudjet hujjatlari) asosida jarayonni tahlil qilish va takomillashtirish takliflari beriladi. Maqsad – mexanizmning samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirish 2024-yilda keskin o‘sdi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, umumiy kredit portfeli 515,6 trillion so‘mga yetdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 14% ga yuqori. Bunda imtiyozli

[30] https://lex.uz/uz/docs/-7619324

kreditlarning ulushi muhim: oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 6,8 trillion so‘m ajratildi, shundan yoshlar loyihalariga 2,7 trillion so‘m (150 mingdan ortiq loyiha) va ayollar loyihalariga 3,2 trillion so‘m (203 ming loyiha) yo‘naltirildi. Umumiy iqtisodiyot va aholiga ajratilgan kreditlar 287,1 trillion so‘mni tashkil etdi.

Sektorlar bo‘yicha taqsimotda qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish ustunlik qilmoqda. 2025 yil byudjetida kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasiga 485,6 milliard so‘m ajratilgan, shundan 500 milliard so‘m tadbirkorlik infratuzilmasiga (sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar) yo‘naltirilgan. Kichik biznes kreditlari ulushi 28% dan 40% ga oshirilishi rejalashtirilgan, hajmi 120 trillion so‘mga yetkaziladi. “Mahalla” dasturi doirasida 1 milliard AQSh dollari (taxminan 12,5 trillion so‘m) mablag‘ ajratilgan, shundan mahalla startaplariga 50 million AQSh dollari (625 milliard so‘m) yo‘naltiriladi[31].

Mintaqalar kesimida tengsizlik mavjud: Toshkent va viloyatlar 48–52% ni egallaydi, chekka hududlar (Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston) esa 9–11% atrofida. Muammoli kreditlar (NPL) darajasi pasaygan bo‘lsa-da, ayrim banklarda yuqori (masalan, ba’zi xususiy banklarda 2–3%). 2025 yil prognoziga ko‘ra, umumiy kredit hajmi 300 trillion so‘mdan oshadi, ammo monitoring va garov talablarining qattiqligi cheklovchi omil bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

O‘zbekistonda davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirish iqtisodiy faollikni oshirishda samarali ekanligi statistik ma’lumotlar bilan tasdiqlandi. 2024-yilda imtiyozli kreditlar 6,8 trillion so‘mga yetdi, umumiy portfeli 515,6 trillion so‘mga o‘sdi (14% o‘sish). Biroq, mintaqaviy tengsizlik (Gini koeffitsiyenti 0,42–0,47) va monitoring yetishmovchiligi tizim samaradorligini pasaytirmoqda. 2025 yilda byudjetda tadbirkorlikka 500 milliard so‘m va kambag‘allikni qisqartirishga 485,6 milliard so‘m ajratilishi jarayonni mustahkamlashi mumkin.

TAKLIFLAR

[31] https://api.mf.uz/media/filestore/Budjetnoma_2025_BmO2cnx.pdf Byudjetnoma(2025)

1. Mintaqaviy kvotalarni joriy etish orqali chekka hududlarga kreditlash ulushini 20% ga oshirish.
2. Raqamlashtirishni chuqurlashtirish va monitoring tizimini yaxshilash uchun mobil ilovalardan foydalanish.
3. Garovsiz imtiyozli kreditlarni kengaytirish, masalan, yoshlar uchun 100 million so‘mgacha.
4. Sanoat va IT loyihalariga qo‘shimcha subsidiyalar ajratish (byudjetdan 100 milliard so‘m).
5. Banklar o‘rtasida raqobatni oshirish uchun xususiy ulushni 60% ga yetkazish (2025 strategiyasiga muvofiq).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Abraxmatov U. P.** Tijorat banklarida imtiyozli kreditlar [Elektron resurs]. — 2025.
2. **Azimov F. I.** Tadbirkorlik subyektlari uchun loyihaviy moliyalashtirishda bank kreditlaridan foydalanish tajribalari va ularni takomillashtirish yo‘llari [Elektron resurs].
3. **Xalilov Sh. B.** O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tijorat banklarining o‘rni [Elektron resurs].
4. **Sharipov Q. A., Karimov N. G. va boshq.** Tijorat banklarining iqtisodiy islohotlardagi roli [Elektron resurs]. — 2023. — URL: https://namdu.uz
5. **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.** Bank tizimi ko‘rsatkichlari [Elektron resurs]. — 2023. — URL: https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/72525/
6. **O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.** Normativ-huquqiy hujjat [Elektron resurs]. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7619324

7. **O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.** Byudjetnoma–2025 [Elektron resurs]. — 2025. — URL: https://api.mf.uz/media/filestore/Budjetnoma_2025_BmO2cnx.pdf

ISLOM BANKLARI VA AN’ANAVIY BANKLAR SOLISHTIRMA TAHLILI: SAMARADORLIK VA RISK JIHATIDAN

Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna
Abdusalomova Ziynatbegim Otabek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya:*Ushbu tezis Islom banklari va an’anaviy banklarning samaradorlik va risk boshqaruvi nuqtai nazaridan solishtirma tahlilini beradi. Tadqiqotda moliyaviy ko‘rsatkichlar (ROA, ROE, aktivlar samaradorligi) va riskni boshqarish mexanizmlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Islom banklari barqarorlikni ta’minlab, Sharia me’yorlariga mos moliyalashtirish orqali risklarni kamaytiradi, an’anaviy banklar esa yuqori likvidlik va tezkor rentabellikni ta’minlaydi, lekin bozor va kredit risklariga ko‘proq ochiq bo‘ladi. Shu asosda, bank tizimini boshqarish va moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda har ikki turdagi bankning afzallik va kamchiliklarini hisobga olish muhimdir.*

Kalit so‘zlar:*Islom banklari, an’anaviy banklar, moliyaviy samaradorlik, risk boshqaruvi, rentabellik*

Moliyaviy tizimlar har bir mamlakat iqtisodiyotining asosiy poydevoridir, chunki ular resurslarni samarali taqsimlash, sarmoyalarni jalb qilish, barqaror o‘sishni rag‘batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda markaziy rol o‘ynaydi. Shu kontekstda banklar, xususan, Islom va an’anaviy banklar, moliyaviy

xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va iqtisodiy risklarni boshqarishda muhim vositalar sifatida xizmat qiladi.

Islom banklari va an’anaviy banklarning farqlari asosan moliyalashtirish prinsiplari, risk boshqaruvi va etika talablarida namoyon bo‘ladi. Islom banklari faoliyatida foyda va zarar ulushi (profit-and-loss sharing), Sharia me’yorlariga mos moliyalashtirish va har qanday harom aktivlardan uzoqlik kabi printsiplar ustuvor bo‘lib, ular moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular sarmoyalarni uzoq muddatli va ehtiyotkorlik bilan taqsimlaydi, bu esa bozor sharoitidagi o‘zgarishlarga nisbatan nisbatan barqarorlikni o shiradi.

An’anaviy banklar esa asosan foyda olishga yo‘naltirilgan kredit va depozit tizimlariga asoslanadi. Ularning afzalligi – tezkor rentabellik va yuqori likvidlik, ammo shu bilan birga ular bozor va kredit risklariga ko‘proq ochiq bo‘ladi. An’anaviy banklar moliyaviy inqiroz sharoitida zarar ehtimoli yuqori bo‘lishi mumkin, chunki ular sarmoyalarni diversifikatsiya qilish va Sharia me’yorlariga rioya qilishga majbur emas.

Shu bois, Islom va an’anaviy banklar faoliyatini solishtirma tahlil qilish moliyaviy siyosatni shakllantirish, barqarorlikni ta’minlash va investorlar uchun tavsiyalar ishlab chiqishda dolzarb ahamiyatga ega. Mazmunan, ushbu tadqiqot quyidagilarni yoritadi:

1. Har ikki bank turining samaradorlik ko‘rsatkichlari: ROA, ROE, aktivlar samaradorligi va boshqa moliyaviy indikatorlar bo‘yicha tahlil;
2. Risklarni boshqarish mexanizmlari: kredit riski, likvidlik risk, Sharia me’yorlariga moslik;
3. Banklar faoliyatining iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy inklyuziyaga ta’siri;
4. Har ikki bank turining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash va moliyaviy strategiyalar uchun tavsiyalar berish.

Xulosa

Solishtirma tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Islom banklari va an’anaviy banklar faoliyati samaradorlik va risk boshqaruvi jihatidan sezilarli farq qiladi. Islom banklari barqarorlik va etika talablariga mos keluvchi moliyalashtirish mexanizmlari orqali risklarni kamaytiradi, foyda va zarar ulushi prinsipi esa uzoq muddatli barqaror rentabellikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, an’anaviy banklar tezkor rentabellik va yuqori likvidlikni kafolatlaydi, ammo bozor va kredit risklariga ko‘proq ochiq bo‘ladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda har ikki turdagi bankning afzallik va kamchiliklari hisobga olinishi muhimdir. Shunday qilib, Islom banklari barqaror va xavfsiz moliyaviy xizmatlar taklif etsa, an’anaviy banklar qisqa muddatli rentabellik va yuqori likvidlikni ta’minlaydi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni oshirish va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Iqbal M., Mirakhor A.** Islomiy moliya: nazariya va amaliyot. – Wiley, 2017.
2. **El-Gamal M. A.** Islomiy moliya: huquq, iqtisodiyot va amaliyot. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
3. **Usmoni M. T.** Islomiy moliyaga kirish. – Idara Isha’at-e-Diniyat, 2002.
4. **Beck T., Demirgüç-Kunt A., Merrouche O.** Islomiy va an’anaviy banklar: biznes modeli, samaradorlik va barqarorlik // Journal of Banking & Finance. – 2013. – T. 37, № 2. – B. 433–447.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI: MUAMMOLAR VA YANGI IMKONIYATLAR

Turdiqulova Dilraboxon Qodirovna
Umarova Nigoraxon Muxtorovna
Toshloq tuman 3-sonli texnikum

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga ta'siri, an'anaviy kasblarning o'zgarishi va yangi paydo bo'layotgan ish o'rinlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida "platformali bandlik" va masofaviy ish shakllarining afzalliklari hamda raqamli tengsizlik muammolari ko'rib chiqilgan. Yakunda O'zbekiston mehnat bozorini raqamlashtirish bo'yicha strategik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori, transformatsiya, sun'iy intellekt, frilans, inson kapitali, IT-ko'nikmalar.*

Kirish (Introduction)

XXI asrda raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab oldi. Bugungi kunda sun'iy intellekt, robototexnika va katta ma'lumotlar (Big Data) nafaqat ishlab chiqarishni, balki bandlik tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, an'anaviy mehnat ko'nikmalari o'z ahamiyatini yo'qotib, bozorga yangi "soft skills" va raqamli savodxonlik talablari kirib kelmoqda. Tadqiqotning maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozoridagi asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdir. Ilg'or texnologiyalar va zamonaviy aloqa usullarini o'z ichiga olgan raqamli muhit shakllanayotgan sharoitda jamiyat raqamli iqtisodiyot muammolariga duch kelmoqda. Bu jarayonda samarali ishtirok etish uchun har bir kishi yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi zarur. Raqamli iqtisodiyotda qanday ko'nikmalar zarurligini aniqlash uchun bu tushunchaga aniq ta'rif berish lozim. Bu raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uning ishlash tamoyillarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Raqamlashtirish sharoitida jamiyat oldida zamonaviy dunyodagi o'zgarishlar sur'atini aks ettiruvchi

butunlay yangi koʻnikmalarni oʻzlashtirish vazifasi turibdi. Raqamli iqtisodiyotga oʻtish mehnat bozorida oʻzgarishlarga olib kelmoqda.

Metodologiya (Methods)

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) hamda Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mehnat bozoridagi oʻzgarishlar dinamikasi oʻrganildi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning (AQSh, Janubiy Koreya, Estoniya) raqamli bandlik boʻyicha tajribalari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, Buyuk Britaniyada har oʻnta yuqori texnologiyali ish oʻrniga taxminan yettita past texnologiyali ish oʻrni toʻgʻri keladi. Bundan tashqari, an'anaviy lavozimlarda ishlaydigan oʻrta malakali ishchilarning bandlik darajasi oʻzgarmasligi aniqlandi. Biroq, ularning ish haqi oʻsish tendensiyasiga ega, bu oʻz biznesini ochishga yoki innovatsion sohada ish topishga boʻlgan qiziqishning ortib borayotgani bilan bogʻliq. Past malakali ishchilar, odatda, hali ham talabga ega boʻlgan jismoniy mehnatni bajaradilar. Lekin ularning mehnatiga avvalgidek kam haq toʻlanadi. Raqamli texnologiyalarning mehnat bozori va aholi bandligiga ta'siri boʻyicha tadqiqotlar turli mamlakatlardagi metodologiya va tadqiqot konteksti, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga qarab natijalarning sezilarli farqlanishini koʻrsatdi. Shundan kelib chiqib tadqiqot davomida deduksion va induksion belgilash, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, hisoblash kabi turli usullar qoʻllanildi, shuningdek mavzu doirasida yetakchi olimlar fikrlari oʻrganildi.

Natijalar (Results)

Raqamli muhitning rivojlanishi sharoitida, ya'ni nafaqat ilgʻor texnologiyalar, balki odamlar va tashkilotlar oʻrtasidagi zamonaviy aloqa usullarini oʻz ichiga olgan muhitda, jamiyat raqamli iqtisodiyot talablariga tayyor boʻlishi lozim. Buning uchun tegishli bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlish zarur. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin boʻlgan koʻplab sohalar mavjud. Bularga transport va logistika, ta'lim, sogʻliqni saqlash hamda kommunal xizmatlar sohalari kiradi. Hukumat dastur milliy

IT-sektorini mustahkamlash orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Bu mavjud mutaxassislarni qayta tayyorlashni va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyor bo‘lgan yangi kadrlarni jalb qilishni talab etadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat mehnat bozorining miqdoriy ko‘rsatkichlarini o‘zgartiradi, balki xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni ham qayta shakllantirib yuboradi.O‘tkazilgan tahlillar natijasida mehnat bozorida quyidagi transformatsiya jarayonlari aniqlandi:

1. Kasblarning qutblanishi: Rutin (bir xil takrorlanadigan) ishlarni avtomatlashtirish hisobiga o‘rta bo‘g‘in mutaxassislariga talab kamayib, yuqori malakali (tahlilchilar, dasturchilar) va past malakali (xizmat ko‘rsatish) ishchilar o‘rtasidagi farq ortmoqda.
2. GIG-iqtisodiyotning shakllanishi: Doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan, loyihaga asoslangan (frilans) bandlik turi kengaymoqda.
3. Yangi imkoniyatlar: Masofaviy ishlash (remote work) imkoniyati hududiy chegaralarni yo‘qotib, xotin-qizlar va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun daromad topish yo‘llarini ko‘paytirdi.

Muhokama (Discussion)

Raqamlashtirishni iqtisodiyotning barcha sohalariga jadallik bilan kiritishning ijobiy tomonlarini ko’p adabiyotlar, ilmiy ishlarda ko’rishimiz mumkin. Raqamlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga jiddiy muammolari ham mavjud:

1. Raqamli uzilish (Digital Divide): Qishloq joylarda internet va texnik bazaning yetishmasligi mehnat bozorida tengsizlikni keltirib chiqarmoqda.
2. Kiber-ishsizlik xavfi: Avtomatlashtirish natijasida ayrim kasb egalari (masalan, kassirlar, buxgalterlar) ishsiz qolish xavfi ostida.
3. Huquqiy himoya: Platformali bandlikda (Yandex, Uzum va h.k.) ishlovchilarning ijtimoiy himoyasi (pensiya, sug‘urta) masalasi hali to‘liq hal etilmagan.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, ya’ni "Life-long learning" (umr davomida bilim olish) konsepsiyasini joriy etish lozim.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusion)

XX asrda mehnat bozorida xaridorgir bo’lish, o’ziga yarasha bir qancha talablarni oldiga qo’yadi. Ulardan eng asosiysi esa moslashuvchanlikdir. O‘zbekiston iqtisodiyotini ushbu transformatsiyaga tayyorlash uchun quyidagi strategiyalarni taklif etishimiz mumkin. Dastlab, mamlakat aholisi o’rtasida IT savodxonlik darajasini oshirish, kompyuter va sun’iy intellektdan samarali foydalanishni o’rgatish; ish shakli turlarini qonuniylashtirish, ya’ni masofaviy ishlovchilar uchun ham normative qonun hujjatlarini ishlab chiqish; yuqoridagilarni barchasini amalga oshirish uchun esa eng avvalo mamlakatning barcha hududlarini uzluksiz, arzon internet aloqasi bilan ta’minlash, shaharlarga bo’layotgan “raqamli migratsiya”ni kamaytirish kabi chora-tadbirlarni qo’llash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida : 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmon. – Elektron resurs. – URL: https://lex.uz/docs/-6600413
2. **Qudbiyev N. T.** Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari. – 2023.
3. **Ташрулатов А. У.** Проблемы занятости в современной экономике и факторы, которые ее определяют // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2, № 5. – S. 733–741.
4. **Kudbiev D., Tashrulatov A. U.** Ishchi kuchidan samarali foydalanishning iqtisodiy-moliyaviy dastaklari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2, № 5. – B. 843–851.

5. **Aybek T.** Simulation Modelling of Employment of the Population // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2021. – T. 2, № 12. – P. 57–62.

SANOAT 4.0 INQILOBI SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Turdiqulova Dilraboxon Qodirovna
Umarova Nigoraxon Muxtorovna
Toshloq tuman 3-sonli texnikum

Annotatsiya: *Ushbu maqolada To‘rtinchi sanoat inqilobi (Sanoat 4.0) elementlarini milliy iqtisodiyotga joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish masalalari tadqiq etiladi. Maqolada aqlli zavodlar, narsalar interneti (IoT) va raqamli egizaklar kabi texnologiyalarning iqtisodiy afzalliklari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Sanoat 4.0, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, aqlli ishlab chiqarish, O‘zbekiston — 2030.*

Kirish (Introduction)

To'rtinchi sanoat inqilobi (sanoat 4.0) bu sanoatga axborot texnologiyalarini joriy etish, biznes jarayonlarini keng miqyosda avtomatlashtirish va sun'iy intellektni tarqatishga asoslangan ishlab chiqarishga yangi yondashuvni o'z ichiga oladi. [1] Davosdagi Jahon iqtisodiy forumining asoschisi Klaus Shvab tomonidan yozilgan "to'rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalari" kitobida 2016 yilda u to'rtinchi sanoat inqilobi bilan sinonimga aylangan "sanoat 4.0" atamasini haqida o`zining qarashlarini bayon qilgan. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti Sanoat 4.0 (Industry

4.0) deb ataluvchi yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Bu bosqich ishlab chiqarish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, kiber-fizik tizimlarni joriy etish va sun’iy intellekt yordamida boshqarishni nazarda tutadi. Milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi o‘rni uning ushbu texnologiyalarni qanchalik tez o‘zlashtirishiga bog‘liq. Maqolaning maqsadi — O‘zbekiston sharoitida sanoatni modernizatsiya qilish orqali milliy mahsulotlarning tannarxini tushirish va sifatini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya (Methods)

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va iqtisodiy prognozlash usullaridan foydalanildi. Germaniya ("Industry 4.0" konsepsiyasi asoschisi sifatida) va Janubiy Koreyaning texnologik tajribalari o‘rganildi. O‘zbekistondagi yirik sanoat korxonalarining raqamli tayyorgarlik darajasi tahlil qilinib, mavjud to‘siqlar (infratuzilma va kadrlar yetishmovchiligi) aniqlandi. Sanoat-4.0 - bu so‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot va global sanoatdagi inqilobiy o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. “Sanoat-4.0” atamasi birinchi marta 2011 yilda Germaniya hukumati tomonidan “2020 yilga qadar yuqori texnologiyalar strategiyasi” tashabbusi natijasida chop etilgan maqolada foydalanilgan.

Natijalar (Results)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoniga muvofiq, 2030 yilgacha mamlakatda raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Jumladan, respublika miqyosda va hududlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlar tasdiqlanib, unga ko‘ra 2030 yilga qadar respublika bo‘ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligini 2020 yilga nisbatan 6 barobarga oshirish orqali 250 ming kmga yetkazish maqsad qilingan[11]. Mazkur strategiya mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks choratadbirlar amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda. Sanoat 4.0

texnologiyalarini joriy etish milliy iqtisodiyotga quyidagi ijobiy natijalarni berishi aniqlandi:

1. Operatsion samaradorlik: Avtomatlashtirilgan tizimlar energiya sarfini 15-20% ga, xomashyo isrofini esa 10% ga kamaytiradi.

2. Raqobatbardoshlik: "Aqlli ishlab chiqarish" (Smart Manufacturing) orqali mahsulot ishlab chiqarish sikli qisqaradi, bu esa tashqi bozorlarga chiqish tezligini oshiradi.

3. Sifat nazorati: Raqamli egizaklar (Digital Twins) texnologiyasi ishlab chiqarishdan oldin mahsulotning kamchiliklarini simulyatsiya qilish imkonini beradi.

Muhokama (Discussion)

Sanoat 4.0, korxonalarga yangi texnologik yechimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarni yaratadi. Bu, korxonalarning mahsulotlarni yaxshilash, xizmatlarini kengaytirish, va bozorga kirishda ularga afzallik beradi. Korxona faoliyatida Sanoat 4.0 ni joriy qilishda va qo'llab-quvvatlashda bir nechta muammolar mavjud: - Investitsiyalar va resurslar: Sanoat 4.0 ni joriy qilish uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni qo'llash uchun katta mablag'lar va resurslar kerak bo'ladi. Bu, infrastruktura, xodimlar o'rtasidagi tajriba va bilim, va texnik vositalar uchun katta investitsiyalar talab qiladi. - Xavfsizlik muammolari: Sanoat 4.0 texnologiyalari, yangi xavfsizlik muammolari yaratishi mumkin. IoT tarmoqlari, ma'lumotlar bazasi, va avtomatlashtirilgan jarayonlar kiberhujumlar va ma'lumotlar uchun potensial taqiqqa duch keldi. - Ishlab chiqarish sohasida islohotlar: Sanoat 4.0, avtomatlashtirilgan jarayonlar va robotlarning ishlab chiqarish sohasiga kiritilishi bilan, odamlar uchun xavf yaratadi. Bu, avtomatlashtirilgan tizimlarning xatoliklariga va avtomatik vositalarning buzilishi muammolariga olib kelishi mumkin. - Xodimlarning tayyorlanishi: Sanoat 4.0 ga o'tish, xodimlar uchun yangi bilim va ko'nikma olishni talab qiladi. Bu xodimlar uchun muddatli ta'lim va tayyorlanish, texnologik yangiliklarga qarshi taraqqiyot bilan bog'liq qandaydir muammolarga olib kelishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusion)

Tahlillarga asosan, sanoat transformatsiyasini yanada samarali tashkil etish, kelgusida belgilan strategik maqsadlarga erishish, xususan yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, mamlakatni “yuqoridan o‘rta daromadli mamlakatlar guruhi”ga kirishi uchun quyidagilar taklif etiladi:

- mamlakatimizda Sanoat-4.0 va uning tarkibiy qismlari bilan oid asosiy tushuncha va tamoyillarni tizimlashtirish;
- Sanoat-4.0 texnologik yutuqlarini amaliyotga joriy qilish bo‘yicha statistik uslubiyotni shakllantirish;
- To‘rtinchi Sanoat Inqilobiga transformatsiya jarayonlari bilan bog‘liq statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish va doimiy e’lon qilib borish;
- korxonalarning mavjud imkoniyatlar va imtiyozlardan xabardorligini oshirish, ushbu yo‘nalishda onlayn seminarlar tashkil qilish;
- imtiyozlardan foydalanayotgan korxonalar to‘g‘risidagi doimiy ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan onlayn reyestrini yaratish;
- imtiyozlardan foydalanish samaradorligi va shaffofligini oshirish maqsadida korxonalar hisobdorligini aniq belgilab berish va natijalarni onlayn reyestrda e’lon qilib borish;
- yaqin, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolni belgilashda maqsad ko‘rsatkichlaridagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash;
- Sanoat-4.0 transformatsiyasi jarayonida inson kapitalini rivojlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, xususan mono-markaz va kasbga o‘qitish dargohlarida zamonaviy kurslar turlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida : 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmon. – Elektron resurs. – URL: https://lex.uz/docs/-6600413
2. **Qudbiyev N. T.** Korxonalarning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish xususiyatlari. – 2023.

3. **Ташрулатов А. У.** Проблемы занятости в современной экономике и факторы, которые ее определяют // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2, № 5. – S. 733–741.
4. **Kudbiev D., Tashrulatov A. U.** Ishchi kuchidan samarali foydalanishning iqtisodiy-moliyaviy dastaklari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2, № 5. – B. 843–851.
5. **Aybek T.** Simulation Modelling of Employment of the Population // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2021. – Т. 2, № 12. – P. 57–62.

JAMOATCHILIK NAZORATINI TASHKILIY JIHATDAN RAQAMLASHTIRISH VA UNING OLDIDA TURGAN MUAMMOLAR HAMDA ULARNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Usmonov Otabek

Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish zarurati va uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot predmeti sifatida davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kontekstida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali jamoatchilik nazoratini tashkil qilish masalalari olingan. Mavzuning dolzarbligi davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni kuchaytirish, shaffoflikni ta’minlash hamda fuqarolarning boshqaruv jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar, xususan, blokcheyn,*

sun'iy intellekt va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida ilmiy-nazariy tahlil, tizimli yondashuv va xalqaro tajriba tahlili metodlaridan foydalanilgan. O'zbekiston sharoitida raqamli jamoatchilik nazoratini joriy etish imkoniyatlari va xatarlar tahlil qilinib, Kanada, Shvetsiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida raqamli jamoatchilik nazoratini shakllantirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish va huquqiy asoslarni mustahkamlash zarurligi aniqlangan. Ushbu natijalar davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy faollikni oshirish va raqamli xizmatlar sohalarida qo'llanishi mumkin.

***Kalit so'zlar**: jamoatchilik nazorati, blokcheyn amaliyoti, sun'iy intellekt, raqamli jamoatchilik nazoratida OAV larning ro'li, tashkiliy mexanizmlar, raqamli fuqarolik jamiyati, raqamli jamoatchilik nazorati, raqamli elita va inklyuziya.*

Bugungi kunda butun dunyoda deyarli barcha sohalarda raqamlashtirish va tarkibiy jarayonlarni elektronlashtirish amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, yangi davrni raqamlashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda hayotimizda raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya muayyan o'rin egallab ulgurgan. Bu omillar, albatta, O'zbekiston uchun muhim hisoblanadi.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligiga erishishning jamoatchilik nazoratidan ko'ra samaraliroq vositasi yo'q. Davlat idoralari va mansabdor shaxslar harakatlaridan ko'ra, uni ta'minlash faqat fuqarolarning o'zlari qonunbuzarliklarga toqat qilmaydigan muhit yaratilgandagina o'z-o'zidan fuqarolik jamiyatining jamoatchilik nazorati ta'minlangan o'ziga xos shakliga o'tiladi.

Jamiyat sohalarini raqamlashtirish ijtimoiy rivojlanishni boshqarish tizimida yangi ijtimoiy-texnologik asosni shakllantirish jarayoni sifatida davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik uchun ilgari mavjud bo'lmagan imkoniyatlarni yaratadi. Yuqoridan pastga (ochiq raqamli hukumat konsepsiyasi) va pastdan yuqoriga (internet-demokratiya) boshqaruv tizimlarida samarali mexanizmlarni

tashkil etishning asosi va ayni paytda rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib, raqamlashtirish maqsadli munosabatlarni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.

Fuqarolarning faolligini va ularning davlat ishlariga jalb etilishini rag‘batlantirishda *“Internet-demokratiya”* g‘oyalari tarafdorlari bu hodisani jamiyatning demokratik rivojlanishidagi yangi bosqich deb hisoblaydilar, chunki zamonaviy IT-texnologiyalar fuqarolarning o‘zini o‘zi tashkil etishini, ularning davlat organlari bilan bevosita aloqalarini rag‘batlantiradi, ularni davlat boshqaruvi jarayoniga jalb qiladi hamda davlat va jamiyat bilan aloqa qilish samaradorligini oshirishni ta’minlaydi.

Raqamli kelajakni rivojlantirish jarayonida aholining turli qatlamlari manfaatlari to‘qnash keladi. Bir tomondan, ularning ijtimoiy mavqeini va turmush sharoitini yaxshilaydigan ijtimoiy guruhlar shakllanadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy qatlamlarning paydo bo‘lish jarayoni mavjud bo‘lib, ularning pozitsiyasi raqamlashtirish jarayoni chuqurlashishi bilan yomonlashishi mumkin. Bularning barchasiga, agarda faol choralar ko‘rilmasa, jamiyatda ayrim muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Yangi raqamli elita qatlamlarini shakllantirish jarayoni hokimiyat va boshqaruv iyerarxiyasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan o‘ziga xos da’volarga ega, advokat javobni talab qiladi. Jamiyatni raqamlashtirishning ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy salohiyati hali to‘liq yuzaga kelgani yo‘q. Shu bois, sodir bo‘layotgan jarayonlarni ilmiy tahlil qilish katta talabga ega.

Raqamlashtirishni shakllantirish va rivojlantirish sharoitida davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning keng qamrovli jarayonini baholovchi ekspertlarning sotsiologik so‘rovi aynan shunga qaratilgan.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, u davlatning samarali ishlashiga hissa qo‘shadi, barcha darajadagi hokimiyat organlarining mas’uliyatini oshiradi, qonunlarning ishlashini, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishni ta’minlaydi.

Mantiqan, jamoatchilik nazorati unga qiziquvchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun jamoatchilik nazorati subyektlari, birinchi navbatda, fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari,

siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va kasaba uyushmalaridir. Ular davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish va nazorat qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radilar.

Subyektlar (fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar) hamda jamoatchilik nazorati obyektlari (davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati) aniqlandi. Uning shakllari, masalan, davlat idoralariga murojaat va so‘rovlar, ularning ochiq kollegial yig‘ilishlarida ishtirok yetish, jamoatchilik muhokamalari va tinglovlari, monitoring, ekspertiza, shuningdek davlat hokimiyati organi vakillarining ma’lumotlarini eshitish va boshqa xususiyatlar bilan belgilanadi.

Jamoatchilik nazorati faoliyati va uning tarkibiy sohalarini raqamlashtirish bu – “Raqamli asrda davlat sektorni o‘zgartirish” doirasida eng muhim va ustuvor ijtimoiy ahamiyati yuqori sohalarning vazifalaridandir. Bunda, albatta, jamoatchilik nazoratida va uning faol loyihalarining shakllarida eng yangi texnologiyalardan, ya’ni raqamlashtirishdan foydalanish va uni jamoatchilik faoliyatida bosqichma-bosqich qo‘llab borish muhim hisoblanadi.

Bu o‘rinda jahon miqyosidagi qarashlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyati tadqiqotchilarining IX xalqaro konferensiyasining ikkinchi kunida “Raqamli asrda uchinchi sektorni o‘zgartirish” muhokamasi raqamlashtirish kontekstida tarmoqlararo hamkorlikka, ko‘ngilli va faol loyihalarda eng yangi texnologiyalardan foydalanishga, NNT va fuqarolik jamiyati amaliyotini o‘zgartirish, ta’siri ostida raqamlashtirish va NNTlarning davlat boshqaruv jarayonlarini tartibga solish usuli yoki vositasi sifatidagi o‘rniga bag‘ishlandi.

Xususan, ushbu konferensiya doirasida raqamlashtirish sharoitida tarmoqlararo sheriklik, uning roli zamonaviy jamiyat oldida turgan ijtimoiy muammolarning tobora murakkablashib borayotgan sharoitida ortib borishi va bunda jamoatchilik nazoratining naqadar muhimligiga katta e’tibor berildi.

Raqamli texnologiyalar (xususan, jarayonlar interneti, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, taqsimlangan reyestr texnologiyasi, jumladan blokcheyn, virtual

va kengaytirilgan reallik, 5G, bulutli hisoblash) axborot texnologiyalarining bir turidir.

Ixtisoslashgan texnik adabiyotlarda axborot texnologiyalari “kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asosida axborotni yig‘ish, saqlash, to‘plash, qidirish, qayta ishlashning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan usullari va usullari tizimi” deb ta’riflangan bo‘lsa, axborot texnologiyalarining maqsadi “axborot ishlab chiqarishdir” har qanday harakatni (boshqaruv qarorini) bajarish uchun insoniy tahlil va uning asosida qarorlar qabul qilish uchun.

Axborot texnologiyalari tasniflaridan birida hal qilinayotgan vazifalar sinfi bo‘yicha farqlash asosida ma’lumotlarni qayta ishlash uchun axborot texnologiyalari, boshqaruv uchun axborot texnologiyalari, ofislarni avtomatlashtirish uchun axborot texnologiyalari, qarorlarni qo‘llab- quvvatlash uchun axborot texnologiyalari, axborot texnologiyalari mavjud.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish har jihatdan axborot bilan ishlashga bog‘liq (axborot qabul qilish, tahlil qilish, uzatish). Axborot texnologiyalarining yuqoridagi turlarining har biri jamoatchilik nazorati doirasida muayyan muammolarni hal qilish uchun qo‘llaniladi. Umuman olganda, axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi vazifalarni kompleks hal qilishga qaratilgan: nazorat obyektining rejalashtirilgan holatini baholash, rejalashtirilgan holatdan chetga chiqishlarni va umumiy fikrni baholash, og‘ish va asl jarayonlardan chalg‘ish sabablarini aniqlash, mumkin bo‘lgan yechimlar va harakatlarni tahlil qilish va boshqalarda ifoda qilingan.

Bir so‘z bilan aytganda, jamoatchilik nazoratini har tomonlama raqamlashtirishda quyidagi dolzarb masalalarga ham e’tibor qaratish muhim hisoblanadi:

birinchidan, bugungi kundagi jamiyatning dunyo qarashi va fikrlashi raqamli jamoatchilik nazoratining mexanizmlaridan foydalanib, uni amalga oshirishga qanchalik daraja qodir va bunda biz asosiy e’tiborni birinchi navbatda nimaga qaratishimiz lozim;

ikkinchidan, davlat organlarining umumiy faoliyati ustidan doimiy va faol bo‘lgan raqamli jamoatchilik nazorati ta’minlanishi uchun qanday zamonaviy mexanizmlardan foydalanishimiz kerak;

uchinchidan, raqamli jamoatchilik nazoratining asosiy amalga oshirish shakllari nimadan iborat bo‘ladi, bunda hozirgi vaqtda dolzarb hisoblangan sun’iy intellekt qanchalik ahamiyatli hisoblanadi;

to‘rtinchidan, yangi zamonaviy raqamli dunyoda jamoatchilik nazoratining naqadar muhimligi va dolzarbligi qanchalik bugungi kunda tushunib yetilmoqda va bunda davlatning qanday funksiyalari bo‘lishi lozim;

beshinchidan, raqamli jamoatchilik nazorati va uning tashkiliy shakllarida OAVning roli qanday va uning omillarini qaysi jihatdan tartibga solib borish lozim hisoblanadi.

Bugungi kunda dolzarb hisoblangan raqamli jamoatchilik nazorati masalalari va ularning yechimlarini topishda xalqaro tajribaga suyanishimiz ham muhim hisoblanadi. Chunki jamoatchilik nazorati va uning mexanizmlarini raqamlashtirish ko‘plab davlatlarda asosiy muhokama markaziga aylanib ulgurgan. Jumladan, Kanadada jamoatchilik nazorati hamda ma’lumotlar himoyasida aholining ko‘pchiligi bugungi kunda asosan raqamlashtirishdan foydalanadi. Kanada mahalliy davlat organlari o‘z boshqaruv qarorlarini ixtiyoriy ravishda aynan o‘zlari jamoatchilik nazorati e’tiboriga havola etib so‘ng, ularning xulosalari olingan qarorlarnigina ijroga yo‘naltirish amaliyoti keng tarqalgan. Shvetsiya davlatida qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari to‘liq raqamlashtirilgan, davlat organlari ushbu tarmoqlar orqali jamoatchilik nazoratini asosiy ish tartiblaridan biriga aylantirmoqda.

Yevropa ittifoqi davlatlarida jamoatchilik nazorati hamda ma’lumotlar himoyasi sohasida bir necha ma’muriyat organi mavjud bo‘lib, ularning bugungi kundagi ish tartibidagi asosiy masala ham jamoatchilik nazoratini raqamlashtirishga qaratilgan. Jamoani eshitish, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi kabi normalar Yevropa davlatlari hayotiga joriy etilishi nuqtayi nazaridan ham Yevropa ittifoqi davlatlari ushbu borada yetakchilik qiladi.

Bu faqat ba’zi davlatlardagi misollardir, har bir davlatning jamoatchilik nazorati va uning raqamlashtirilishi hamda ma’lumotlar himoyasi sohasidagi o‘zgarishlar va tizim texnologiyalari, qonunchiliklar va siyosiy muhitga mos keladigan tarzda yangilanib bormoqda.

Ushbu o‘rinda biz ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-dekabrdagi “Tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar to‘g‘risida” gi 48-son bayoni yig‘ilishida ham ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratilganligini ta’kidlab o‘tishni lozim deb topdik.

Mamlakatimizda ham barcha tarmoqlarda raqamlashtirishning naqadar hayotiy dolzarb va muhimligini bugungi kunda kundalik hayotimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar ham ko‘rsatib turibdi. Misol uchun, agar ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zgarishlar va oxirgi xabarlarni kuzatib bormasangiz, kommunal sohadagi rejali uzilishlar, yo‘llarning ma’lum bir qismidagi vaqtinchalik cheklovlar va boshqalarni nazorat tartibida xabarimiz bo‘lmaydi, ularning sabablarini bilmaymiz va bu holat aynan o‘zimiz bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lum bir ijtimoiy jarayonlarda qiyinchiliklarni vujudga keltiradi, natijada tushunmovchiliklar, noroziliklar kelib chiqadi.

Ushbu jarayonning global tabiatiga qaramay, raqamli transformatsiya nisbatan yangi hodisa bo‘lib, uning aniq ta’rifi hali ishlab chiqilmagan. Mahalliy olimlar fikriga ko‘ra, raqamli transformatsiya – jarayonlarni amalga oshirish mexanizmlari sifatida keng tarqalgan raqamli jarayonlarini qayta tashkil etish, jarayonlarning xususiyatlarini yaxshilash (ularni bajarish vaqtini qisqartirish, kichik jarayonlarning butun guruhlarini tashkil qilish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish, jarayonlarni bajarishga sarflanadigan resurslarni qisqartirish va tubdan yangi sifatlarning paydo bo‘lishi va xususiyatlarini inson aralashuvisiz avtomatik qaror qabul qilish va h.k.) shakllanishidir”.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini samarali raqamli shaklda rivojlantirish uchun huquqiy, ijtimoiy va texnik infratuzilmaning uyg‘unligini ta’minlash zarur. Raqamli texnologiyalar fuqarolarning davlat

boshqaruvi jarayonlarida ishtirok etishini kuchaytiradi, davlat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi. Shu bilan birga, aholining raqamli savodxonligini oshirish va raqamli nazoratda ishtirok etishiga doir motivatsion va institutsional mexanizmlarni shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotda ilgari surilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Raqamli jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini mustahkamlash, xususan, ushbu yo‘nalishda alohida qonun hujjatlarini ishlab chiqish zarur;

Jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantiruvchi raqamli platformalarni texnik jihatdan takomillashtirish va ularning xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi;

Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha samarali tartiblarni joriy etish, shu jumladan ma'lumotlarni shifrlash va rozilik asosida ishlov berish mexanizmlarini yaratish lozim;

Aholi orasida raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha milliy miqyosdagi uzluksiz o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi zarur;

“Raqamli jamoatchilik nazorati”ning O‘zbekiston sharoitiga mos milliy modelini ishlab chiqish, bunda xalqaro tajribani inobatga olgan holda innovatsion va inklyuziv yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish orqali fuqarolik jamiyatining institutsional salohiyatini mustahkamlash, ishonch muhitini rivojlantirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Shu bilan birgalikda, birinchi navbatda bajarish lozim bo‘lgan shartlarning barchasi bajarilgan taqdirdagina, jamoatchilik nazoratining umumiy jarayonlarida samarali raqamli jamoatchilik nazorati paydo bo‘lishini kutishimiz mumkin va bu ijtimoiy jarayonlardan kelib chiquvchi tabiiy jarayon hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamlashtirish va uning imkoniyatlari asosida jamiyatda mavjud barcha sohalarda keng ko‘lamda rivojlanmoqda, shu jumladan sog‘liqni saqlash, ekologiya va atrof muhit, davlatning moliyaviy xarajatlari, huquqiylashtirish va boshqa yana ko‘plab sohalarda davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati va uning turli shakllari aktual tarzda

rivojlanayotganini ko‘rib turibmiz va bu albatta raqamli jamoatchilik nazorati rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatmoqda.

Zero, raqamli texnologiyalar jamiyat tomonidan tegishli organlar faoliyati ustidan nazoratni tashkil yetish uchun interaktiv imkoniyatlardan amalda foydalanishni belgilaydi.

Shu sababli, raqamli jamoatchilik nazoratining rivojlanishi keng jamoatchilik uchun nazorat faoliyatida ishtirok yetish imkoniyatini soddalashtirish, davlat apparati faoliyatining haqiqiy shaffofligini ta’minlash va natijada davlat xizmatchilarining jamoatchilik oldidagi mas’uliyatini oshirish bo‘yicha ijtimoiy jarayonlarning yanada rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ushbu samaradorlik bosqichiga erishish uchun aholining raqamli savodxonligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy jarayonlar va ularning sohalarida raqamli jamoatchilik nazoratida ishtirok yetish imkoniyatlari to‘g‘risida xabardor qilish va raqamli vositalar interfeyslarini soddalashtirish ustida ishlash ham eng muhim vazifalardan biri bo‘lishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jamoatchilik nazoratining raqamlashtirilishi kengayishi bilan quyidagilarni ham taklif etamiz:

Huquqiy-ijtimoiy sohada insonning asosiy huquq va erkinliklarini ifoda etilishi;

Jamoatchilik tuzilmalarining va boshqa shakldagi jamoatchilik nazorati subyektlarining o‘z yo‘nalishlarida jamoatchilik nazorati faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo‘nalishlarini tartibga solish va uning salbiy omillaridan himoya qilish;

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayonlari natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni o‘z vaqtida huquqiy tartibga solishni va tartibga solish normalarini birlashtirish eng muhim bugungi kundagi davlatning vazifasi sifatida taklif etiladi.

Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik Palatasi bu jarayonlardagi muammolarni o‘rganib unga yechim topish va huquqiy jarayonlarni muvofiqlashtirib turuvchi asosiy regulyator sifatida maydonga chiqib birinchi navbatdagi dolzarb masalalarga yechim berishi lozim deb hisoblaymiz.

Yuqorida ta’kidlab o‘tgan turli yo‘nalishlardagi barcha tadqiqotlarimizdan ham shuni xulosa qilishimiz mumkinki jamoatchilik nazoratini tashkiliy jihatdan raqamlashtirish oldida turgan muammolar va ularning yechimlari har jihatdan butun bir jarayonlarni qamrab oladi va asosiy bosqichlarni va oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Bu o‘rinda mamlakatimizda ham ushbu jarayonlarning samarali yo‘lga qo‘yilishi uchun yangi va o‘ziga xos samarali mexanizmlardan foydalanish hamda u orqali yangi o‘ziga xos **“Raqamli jamoatchilik nazoratini o‘zbekona modelini”** yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **NapoleonCat.** Social media users in Uzbekistan (2024). – Elektron resurs. – URL: https://napoleoncat.com/stats/social-media-users-in-uzbekistan/2024/
2. **Bright Uzbekistan.** Most prevalent social sites in Uzbekistan. – Elektron resurs. – URL: https://brightuzbekistan.uz/en/most-prevalent-social-sites-in-uzbekistan/
3. **StatCounter.** Social media stats in Uzbekistan (2024). – Elektron resurs. – URL: https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan/202409
4. Исследование, основанное на данных экспертного опроса, проведённого при поддержке **РФФИ** (грант № 18-29-16058) «Правовое регулирование цифровых технологий государственного и общественного контроля» в период с 15.01.2020 по 15.02.2020 г. в г. Москва. – Опрошено 65 экспертов.
5. **OECD.** The OECD Framework for digital talent and skills in the public sector // OECD Working Papers on Public Governance. – 2021. – No. 45. – Paris. – DOI: 10.1787/4e7c3f58-en.
6. **Демидов Л. Н., Терновсков В. Б., Григорьев С. М., Крахмалёв Д. В.** Информационные технологии : учебник. – М.: Кнорус, 2021. – С. 16.
7. **Función Pública (Colombia).** Resolución de competencias funcionales. – Elektron resurs. – URL:

https://www.funcionpublica.gov.co/documents/418537/616038/RESOLUCI%C3%93N+DE+COMPETENCIAS+FUNCIONALES.pdf

8. Информационные технологии в юридической деятельности : учебник для бакалавров / под ред. **Элькина В. Д.** – М.: Проспект, 2013. – С. 23.
9. **Совет при Президенте Российской Федерации по развитию гражданского общества и правам человека.** Цифровая трансформация и защита прав граждан в цифровом пространстве : доклад. – Elektron resurs. – URL: http://president-sovet.ru/docs/doclad_SPCh.docx (дата обращения: 29.01.2023).
10. **MITIC (Paraguay).** Comité estratégico digital. – Elektron resurs. – URL: https://www.mitic.gov.py/agenda-digital/comite-estrategico-digital
11. **Lisina N. S.** Digital transformation and public control: perspectives of influence // Actual Problems of Russian Law. – 2022. – T. 17, № 6. – B. 32–40.
12. **Буров В. В., Петров М. В., Шклярук М. С., Шаров А. В.** «Государство как платформа»: подход к реализации высокотехнологичной системы государственного управления // Государственная служба. – 2018. – Т. 20, № 3.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA HISOBI

Xamzayeva Mavjuda Nematovna

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Annotatsiya: *Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini yuritish tartiblari va buxgalteriya hisobi dasturlari keng ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, avtomatlashtirilgan buxgalteriya, dasturiy ta'minot.*

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tish dolzarb topshiriq bo'lib turibdi. Shuning uchun ham mazkur iqtisodiyot sharoitida daromadlarni tan olish va ularning hisobini tashkil yetish buxgalteriya hisobining dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Avvalo shuni aytish kerakki, raqamli iqtisodiyotda raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar barcha ijtimoiyiqtisodiy sohalardagi ishlab chiqarishning asosiy elementi hisoblanadi va daromadlarni tan olish ma'lumotlarning ishonchliligini oshirib, korxonalarga tashqi kapitalning jalb yetilishiga olib keladi, shuningdek iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda 2021 yildan e'tiboran aksiyadorlik jamiyatlari, banklar, sug'urta tashkilotlari, yirik soliq to'lovchi hisoblangan korxonalarga MHXSlar asosida moliyaviy hisobot tuzish amaliyoti joriy etildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish»49 maqsadining qo'yilishi ham tashkilotlarda daromadlar hisobini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish borasida aniq vazifalarni belgilab berdi.

Shu bilan birga o'z yechimini kutayotgan qator muammolar, jumladan daromadlarni tan olish bosqichlarini belgilash, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni mazmun va tarkibiy jihatdan qayta ishlab chiqish, boshqa umumlashgan daromadlarni tan olish va aks ettirish, daromadlarga oid buxgalteriya hisobi schyotlarini mazmun va mohiyati jihatidan takomillashtirish, hisobotning shaffofligi va taqqoslanuvchanligiga erishish masalalari dolzarbdir.

Mazkur vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlash korxonalarda daromadlar hisobini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etadi. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish buxgalterlar ishini va ma'lumotni qo'lda qayta ishlash bilan solishtirganda ancha osonlashtiradi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish boshlang'ich hujjatlarni avtomatik tarzda rekvizitlarni to'ldirish, ko'p hajmli ma'lumotlarni qayta ishlash, ma'lumotlarni turli ko'rinishlarda foydalanuvchilarga taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, ortiqcha qog'oz sarfi oldi olinadi, rahbariyat va quyi bo'g'inlar, tashkiliy bo'linmalar o'rtasida tezkor ma'lumot almashinuvi, arifmetik xatolarni bartaraf etish, nazorat qiluvchi organlar va banklar bilan onlayn aloqa, qonun hujjatlaridagi o'zgarishlarga tezda javob berish qobiliyatlarining mavjudligi bilan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish buxgalteriya hisobini yangi bosqichga olib chiqadi, bu esa o'z o'rnida davlat, soxa mutaxassislari va amaliyotchilardan yangi raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining me'yoriy huquqiy asosini yaratish uchun asosiy tushunchalar modelini shakllantirish, qonunchilik, nizomlar, yo'riqnomalar va qoidalarni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlashni talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish bu yangi kelajakka qadam demakdir. Dunyo iqtisodiyotining va axborot texnologiyalarining rivojlanishi buxgalteriya hisobini ham rivojlanishiga asos yaratdi. Bu esa buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish imkoniyatarini yaratdi. Bugungi kunda mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yuritishda bir qancha dasturiy ta'minotlardan foydalanilmoqda, jumladan 1uz, 1c, uzasbo, estat dasturlari va buxgalteriya hisobining ayrim obyektlari uchun my.soliq.uz, faktura.uz, internet banking, didox.uz saytlaridan foydalanib kelinmoqda.

Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish sohada quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- ma'lumot aylanishi tezlashadi;
- ma'lumotlar ishonchliligi ortadi;
- mehnat samaradorligi ortadi;
- hujjatlarni to'ldirishga sarflangan vaqt tejaladi;
- maxsulot tannarxi aniq hisob kitob qilinadi;
- ko'p hajmli ma'lumotlarni tez qayta ishlash imkoni yaratiladi;
- ortiqcha qog'oz sarfi oldi olinadi;

• arifmetik xatolar oldi olinadi;

• faoliyat yuritishda joy, vaqt va qurulmalar ahamiyati kamayadi, ya'ni ma'lumotlardan xoxlagan joyda, xoxlagan vaqtda va xoxlagan qurilma (noutbuk, planshet, mobil qurilma) orqali foydalanish mumkin;

• ma'lumotlarni yo'qolib ketmaslik kafolatining mavjudligi;

• me'yoriy hujjatlarning o'zgarishiga tez moslashuvchanlik;

• xalqaro standartlarga moslashuvchanlik;

• soliqlar va boshqa byudjetga to'lovlar bo'yicha chetlanishlarning vujudga kelmasligi.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki buxgalteriya hisobini raqamlashtirish nafaqat korxona uchun balki davlat uchun ham juda muhim vazifalardan biridir.

Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish sohada afzalliklar bilan birga ayrim muommoli vaziyatlarni ham vujudga keltiradi:

• ish joylarining qisqarishi, barcha bo'limlar avtomatlashtirilishi natijasida ish o'rinlari qisqarishi mumkin;

• umumiy tizimdan ma'lumotlarni sizib chiqishi natijasida xo'jalik subyektlari ma'lumotlari oshkor bo'lishi;

• dasturiy ta'minotlarga tobe`lik kuchayadi;

• internet xizmatining sifati pastligi tizimda ayrim nuqsonlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi;

• sohaga yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi;

Mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirishi natijasida buxgalteriya hisobini tashkil etishning quyidagi usularidan foydalanish mumkin.

ϖ 1uz, 1c, uzasbo, estat kabi dasturiy ta'minotlarni ma'lumotlar bazasiga ulash orqali faoliyatni yuritish;

ϖ bulutli texnologiyalardan foydalanish Google drive(disk), yandex disk, Onedrive, dropbox texnologiyalaridan foydalanish;

ϖ blokcheyn texnologiyasidan foydalanish.

Har bir texnologiyani buxgalteriya hisobida qo’llashning ijobiy va salbiy jixatlari mavjud. 1uz, 1c, uzasbo, estat kabi dasturiy ta’minotlari buxgalterlarga buxgalteriya hisobining bir-biriga bog’langan sohalarini yuritish, boshqaruv xodimlariga tegishli ma’lumotlarga ega bo’lish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida : 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmon.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmon.
3. **Jabbarova Ch.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida majburiyatlar hisobini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. – 2022.
4. **Tashnazarov S. N.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar : monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 295 b.
5. **Gulizahro T., Hurriyat M., Oydinoy N., Umida N., Muxlisa O.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida “1C: buxgalteriya hisobi” // Conference on Universal Science Research 2023. – 2023. – T. 1, № 4. – B. 96–98.
6. **Muxammadsharipov N.** Blockchain technologies and transformation of financial services // Science and Innovation. – 2022. – T. 1, № 7. – B. 344–347.
7. **Luptullaevich X. T.** Iqtisodiy o‘sish sharoitida paxta va to‘qimachilik mahsulotlarini rivojlantirishning istiqbolli strategiyalari // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2023. – T. 2, № 6. – B. 41–44.
8. **Luptullaevich X. T.** Paxta-to‘qimachilik sanoatining eksportga yo‘naltirilgan korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2023. – T. 2, № 6. – B. 37–40.

IJTIMOIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI

Yarasheva Zuhra Akmaljon qizi
Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda davlat siyosatining samaradorligi daromadlar tabaqalashuvi va ijtimoiy himoya mexanizmlari kesimida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat choralarining turli daromadli guruhlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga ta’siri baholangan. Olingan natijalar ijtimoiy transferlar va manzilli yordam mexanizmlari past daromadli qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanini, biroq umumiy daromadlar tabaqalashuvini kamaytirishda yetarli darajada samarali emasligini ko‘rsatdi. Tadqiqot asosida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tengsizlik, davlat siyosati, daromadlar tabaqalashuvi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy transferlar, ijtimoiy adolat.

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli iqtisodiyot va tezkor texnologik taraqqiyot sharoitida ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida keng ko‘lamli ijtimoiy siyosat dasturlarini amalga oshirmoqda. Xususan, ilg‘or soliq tizimlari, manzilli ijtimoiy yordam, eng kam daromad kafolatlari hamda ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari orqali daromadlar

notekisligini yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar keng joriy etilmoqda [1]. Shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish va daromadlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish yo‘lida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy himoya tizimining takomillashtirilishi, davlat ijtimoiy dasturlarining kengaytirilishi va manzillilik tamoyilining kuchaytirilishi ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarning yaqqol ifodasidir.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli choralar ko‘rilayotganiga qaramay, daromadlar tabaqalashuvida bir qancha muammolar tuguni hanuzgacha qolmoqda. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari o‘rtasida daromadlar tafovutining saqlanib qolishi, ayrim guruhlarning ijtimoiy himoya mexanizmlaridan to‘liq foydalana olmasligi hamda iqtisodiy imkoniyatlarning teng taqsimlanmaganligi jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda [2]. Bu holat mavjud davlat siyosati va ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini baholash, ularning real ta’sir darajasini aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tadqiqotda ushbu muammoni hal etishning muhim yo‘li sifatida davlat siyosatining ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi samaradorligini daromadlar tabaqalashuvi va ijtimoiy himoya mexanizmlari kesimida tahlil qilishga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat choralarining daromadlar tafovutini qisqartirishga qanchalik ta’sir ko‘rsatayotganini aniqlashga, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Olingan natijalar ijtimoiy adolatni mustahkamlash, aholining turmush darajasini oshirish va jamiyatda barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va metodologiya. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda davlat siyosatining samaradorligini baholash maqsadida keng qamrovli tahliliy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot materiallari sifatida rasmiy statistik ma’lumotlar, davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari, me’yoriy-

huquqiy hujjatlar hamda ijtimoiy siyosat va daromadlar tabaqalashuviga oid ilmiy adabiyotlar tahlili asos qilib olindi. Shuningdek, daromadlar tabaqalashuvi, ijtimoiy transferlar hajmi, ijtimoiy himoya qamrovi va manzilliligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan foydalanildi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda taqqoslama tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Aholi daromad darajasiga ko‘ra, yuqori, o‘rta va past daromadli guruhlarga ajratilib, davlat ijtimoiy siyosatining ushbu guruhlar kesimida tengsizlikka ta’siri solishtirildi. Shuningdek, ijtimoiy himoya mexanizmlari va daromadlar tabaqalashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik sabab–oqibat tahlili asosida baholandi.

Olingan ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida turli manbalardan olingan ko‘rsatkichlar o‘zaro solishtirildi va umumlashtirildi. Qo‘llanilgan uslublar davlat siyosatining ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi real samaradorligini aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida davlat siyosatining ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi samaradorligi daromadlar tabaqalashuvi va ijtimoiy himoya mexanizmlari kesimida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat choralari ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar daromadlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynayotgan bo‘lsada, daromadlar o‘rtasidagi tafovutlarni to‘liq bartaraf etishda hali yetarli darajada samarali emas. Ayniqsa, ijtimoiy transferlar va himoya mexanizmlarining qamrovi va manzilliligi ijtimoiy tengsizlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi.

Quyidagi 1-jadvalda daromadlar tabaqalashuvi darajasi va ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik umumlashtirilgan.

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat siyosatining ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi asosiy ta’siri asosan past daromadli guruhlar kesimida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu qatlamda ijtimoiy transferlar va yordam mexanizmlarining ulushi yuqori bo‘lib, bu aholining eng kam daromad darajasini

ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq yuqori daromadli guruhlar bilan solishtirilganda, daromadlar o‘sish sur’atidagi farq saqlanib qolayotgani umumiy tengsizlik darajasining kamayishini cheklamoqda.

Daromadlar tabaqalashuvi va ijtimoiy himoya mexanizmlarining taqqoslama tahlili

1-jadval

Ko‘rsatkichlar	**Yuqori daromadli guruhlar**	**O‘rta daromadli guruhlar**	**Past daromadli guruhlar**
Daromadlar o‘sish sur’ati	Yuqori	O‘rtacha	Past
Ijtimoiy transferlar ulushi	Past	O‘rtacha	Yuqori
Ijtimoiy yordamdan foydalanish darajasi	Past	O‘rtacha	Yuqori
Ijtimoiy himoya qamrovi	Cheklangan	Qisman	Keng
Ijtimoiy tengsizlikka ta’sir darajasi	Past	O‘rtacha	Yuqori
Davlat siyosati samaradorligi	Bilvosita	Qisman	Bevosita

O‘rta daromadli guruhlarda davlat siyosatining ta’siri nisbatan qisman tavsifga ega bo‘lib, ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foydalanish darajasi yetarli emasligi kuzatiladi. Bu holat ijtimoiy siyosatning manzilliligini yanada kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Umuman olganda, natijalar ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda davlat siyosati muhim dastag bo‘lsada, daromadlar tabaqalashuvini qisqartirish uchun ijtimoiy himoya mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozimligini asoslaydi.

Muhokama. Olingan natijalar davlat siyosatining ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi, biroq uning ta’siri asosan past daromadli qatlamlar darajasida cheklanganligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy transferlar va manzilli yordam mexanizmlari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda samarali bo‘lsada, daromadlar o‘rtasidagi umumiy tafovutni sezilarli darajada qisqartirishga hali to‘liq erishilmagan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya mexanizmlarining qamrovi va manzilliligi davlat siyosati samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini ko‘rsatmoqda. O‘rta daromadli guruhlarning ijtimoiy himoya tizimidan cheklangan darajada foydalanishi daromadlar tabaqalashuvining saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Bu holat ijtimoiy siyosatni yanada differensial yondashuv asosida takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Umuman olganda, davlat siyosati ijtimoiy tengsizlikni yumshatishda muhim instrument bo‘lib xizmat qilsada, daromadlar tabaqalashuvini kamaytirish uchun ijtimoiy himoya mexanizmlarini mehnat bozori, soliq siyosati va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan choralar bilan uyg‘unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari davlat siyosati ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Biroq daromadlar tabaqalashuvining saqlanib qolishi, ijtimoiy himoya mexanizmlarining qamrovi va manzilliligi yetarli darajada mukammal emasligi hamda o‘rta daromadli qatlamlarning davlat ijtimoiy siyosatidan cheklangan darajada foydalanishi mazkur sohada muammoli jarayonlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish va davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Daromadlar tabaqalashuvini monitoring qilishning yagona indikatorlar tizimini joriy etish. Bu tizim ijtimoiy tengsizlik darajasini muntazam baholash, hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimida muammoli nuqtalarni aniqlash imkonini beradi.
2. Ijtimoiy yordam va transferlarning manzilliligini kuchaytirish.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining aniq ehtiyojlarini hisobga olgan holda yordam mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish davlat resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

3. O‘rta daromadli qatlamlarni ijtimoiy siyosat bilan qamrab olishni kengaytirish. Ushbu qatlam uchun soliq imtiyozlari, ijtimoiy sug‘urta va bandlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish daromadlar tafovutini qisqartirishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy himoya mexanizmlarini mehnat bozori siyosati bilan integratsiyalash. Kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va bandlikni oshirishga qaratilgan choralarni kuchaytirish orqali aholining barqaror daromad manbalarini kengaytirish zarur.

5. Davlat ijtimoiy siyosatini baholashda natijaviylikka asoslangan yondashuvni joriy etish. Ijtimoiy dasturlarning real daromadlar darajasi va tengsizlikka ta’sirini baholash mexanizmlarini kuchaytirish davlat siyosati samaradorligini oshiradi [3].

6. Raqamli texnologiyalar asosida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish. Ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash va raqamli monitoring orqali ijtimoiy yordamdan foydalanish shaffofligi va qamrovini oshirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish daromadlar tabaqalashuvini qisqartirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash hamda jamiyatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Aynakulov M. A. Cost-effectiveness of economic cooperation and clustering in construction // Modern scientific challenges and trends: a collection of scientific works of the International scientific conference (20 October 2019). — Warsaw: Sp. z o.o. “iScience”, 2019. — P. 23–26.

2. Qosimov J. A. et al. Development of methods for improving the lessons of information technology on the basis of graphic programs // AIP Conference Proceedings. — AIP Publishing, 2022. — Vol. 2432. — No. 1.

3. Aynakulov M. “Iqtisodiy tahlil va audit” fanini o‘qitishda G. Monj usulining tadbiqi // Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. — 2023. — Т. 1. — № 5. — В. 902–905.

ЖАҲОН МУЗЕЙШУНОСЛИГИ ТАЖРИБАСИДА БОЛАЛАР МУЗЕЙИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Аманходжаева Гулнора

Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти

Аннотация. *Ушбу мақолада Жаҳон музейшунослиги тажрибасида болалар музейини молиялаштириш жараёнлари босқичма босқич ўрганилган. Шунингдек, болалар музейлари молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватловчи жамоатчилик ташкилотларидан Бруклин Болалар музейида тўпланган болалар музейлари дўстлари жамияти фаолияти асосида таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *болалар музейи, сайёр кўргазмалар, нотижорат ташкилот, аъзолик бадали, музей программалари, хоналар арендаси, инвестицияси, даромадлар.*

Болалар музейлари нотижорат ташкилоти (некоммерческий), шунинг учун улар ҳар қандай фаолият турлари учун солиқдан озод этилган. Бундан ташқари, болалар музейларига молиявий ёрдам берадиган корхона ва фирмалар учун қонунда имтиёзли солиқ солиш кўзда тутилган. Болалар музейини молиялаштиришнинг 37% давлат секторига (федерал хукуматга, штатлар хокимиятига ва маҳаллий бошқарув органларига), 63% ҳусусий

секторга тўғри келади. Ўз навбатида, ҳусусий сектор айрим шахслар хайриясини ва корпорациялар, фондлар, жамоатчилик гуруҳлар (21%) молиявий ёрдамини ўз ичига олади. Бунда, шунингдек, музей ўз фаолиятининг даромадлари (29%): музей аъзоларининг взноси, музейга кириш учун тўланган пул, программалар ва музей хоналари арендаси даромади, музей дўконларидаги савдодан тушадиган даромад ва хоказо музей инвестицияси даромадлари ҳам (13%) киради.


В нижеприведённой таблице обобщён вклад международных учёных в концепцию паломнического туризма:

Учёный	Год	Основной научный вклад
Г. Риншеде	1992	Классификация и типология паломнического туризма
Э. Кристу	2002	Экономические аспекты религиозного туризма
Дж. Диганс	2003	Концепция «спорных мест» и подходы к управлению
Б. Вуконич	2005	Теория взаимоотношений туризма и религии
Р. Шарплей, П. Сундарам	2005	Расширенное понимание духовного туризма
Д. Тимоти, Д. Олсен	2006	Концептуальная модель и принципы паломнического туризма
Р. Блэквелл	2007	Теория мотивации в паломническом туризме
И. Ридер	2007	Трансформация паломничества в условиях глобализации
Н. Коллинз-Крайнер	2010	Методология исследования паломнического туризма

М. Стаусберг	2011	Теория точек пересечения религии и туризма
Н. Светлов	2014	Экономика и управление религиозным туризмом
К. Гриффин, Р. Радж	2017	Определения и анализ данных паломнического туризма

Таблица 1. Анализ научного вклада в концепцию паломнического туризма

В нижеприведённой таблице представлены ключевые статистические показатели мирового рынка религиозного туризма за 2024-2025 годы:

Показатель	**Значение**
Объём мирового рынка религиозного туризма (2024)	286,6 млрд USD
Прогноз объёма рынка к 2030 году	671,9 млрд USD
Среднегодовой темп роста (CAGR) 2025-2030	15,6%
Ежегодное число посетителей религиозных объектов	330+ млн человек
Число паломников хаджа (2025)	1,67 млн человек
Число паломников хаджа и умры (2024)	18,5 млн человек
Камино де Сантьяго — рекорд (2024)	499 242 человека
Маха Кумбх Мела — посещений (2025)	663 млн посещений
Доля исламского туризма в мировом рынке	39%
Рост цифровых бронирований паломничеств	+53%

Таблица 2. Ключевые показатели мирового рынка религиозного туризма (2024-2025)

В нижеприведённой таблице представлены основные показатели туристической отрасли Узбекистана за 2024-2025 годы:

Показатель	Значение
Число иностранных туристов (2024)	10,2 млн человек
Доходы от туризма (2024)	3,5 млрд USD
Число иностранных туристов (янв-ноя 2025)	10,7 млн человек
Экспорт туристических услуг (2025)	3,74 млрд EUR
Рост по сравнению с 2019 годом	+73%
Место в Глобальном мусульманском индексе (2025)	17 из 153 стран
Число святынь в стране	более 1200
Потенциал паломнического туризма (ежегодно)	до 1 млн паломников
Инвестиции в туризм (2025)	1,4 млрд EUR
Число лицензированных гидов	4 345
Внутренний туризм (янв-ноя 2025)	23,7 млн поездок

Таблица 3. Показатели туристической отрасли Узбекистана (2024-2025)

На основании приведённых выше анализов концептуальные основы развития паломнического туризма можно обобщить следующим образом. Во-первых, паломнический туризм является особым видом туризма, основанным на религиозной и духовной мотивации, и принципиально отличается от обычного туризма по цели и сущности. Во-вторых, современный паломнический туризм наряду с традиционными формами включает и новые тенденции, в частности, всё большее значение приобретают культурно-просветительские и оздоровительные элементы. В-третьих, для эффективного развития паломнического туризма необходимо сохранять подлинную ценность святых мест, удовлетворять потребности различных сегментов паломников и соблюдать принципы устойчивого развития.

Заключение. В результате проведённого исследования были глубоко проанализированы концептуальные основы развития паломнического туризма. Изучение научных работ международных учёных показало, что паломнический туризм представляет собой сложное и многогранное явление, для развития которого требуется комплексный подход. Статистические данные за 2024-2025 годы свидетельствуют о устойчивом росте мирового рынка религиозного туризма, объём которого составил 286,6 млрд долларов США в 2024 году с прогнозом роста до 671,9 млрд долларов к 2030 году.

Узбекистан демонстрирует выдающиеся результаты в сфере туризма: в 2024 году страну посетили 10,2 миллиона иностранных туристов, а доходы от туризма составили 3,5 млрд долларов США. В 2025 году Узбекистан вошёл в число семи наиболее быстрорастущих туристических направлений мира по версии UNWTO. Наличие более 1200 святынь создаёт потенциал для привлечения до 1 миллиона паломников ежегодно.

Для развития паломнического туризма в условиях Узбекистана необходимо адаптировать международный опыт с учётом местных особенностей, внедрять инновационные технологии и повышать кадровый потенциал. В перспективе разработка методологии оценки экономической эффективности паломнического туризма и её практическое применение могут стать предметом отдельного исследования.

Примечания (сноски)

[1] UNWTO. World Tourism Barometer. – 2025.

[2] Grand View Research. Religious Tourism Market Size Report. – 2024.

[3] Religious Tourism Statistics 2025. – hotelagio.com

[4] Camino de Santiago Statistics 2024. Pilgrim's Office.

[5] Maha Kumbh Mela 2025 Official Statistics. Government of India.

[6] Uzbekistan Tourism Achievements 2024. Tourism Committee of Uzbekistan.

[7] UNWTO. Uzbekistan ranks among world's fastest-growing tourism destinations. – 2025.

[8] IndexBox. Uzbekistan Tourism 2025 Statistics.

[9] Global Muslim Travel Index 2025. Mastercard-CrescentRating.

[10] U.S. Department of Commerce. Uzbekistan Travel and Tourism. – 2025.

[11] Timothy D.J., Olsen D.H. Tourism, Religion and Spiritual Journeys. – 2006. – P. 25.

[12] Sharpley R., Sundaram P. Tourism: A Sacred Journey? – 2005. – P. 165.

[13] Griffin K.A., Raj R. The Importance of Religious Tourism. – 2017. – P. 5.

[14] Вуконич Б. Туризм и религия. – 2005. – С. 45.

[15] Christou E. Revisiting competencies for hospitality management. – 2002. – P. 28.

[16] Deep Market Insights. Religious Tourism Market Report. – 2025.

[17] Rinschede G. Forms of religious tourism. – 1992. – P. 55.

[18] Blackwell R. Motivation for religious tourism. – 2007. – P. 40.

[19] Industry Research. Religious Tourism Market Report. – 2024.

[20] Digance J. Pilgrimage at Contested Sites. – 2003. – P. 148.

[21] Reader I. Pilgrimage growth in the modern world. – 2007. – P. 215.

[22] Stausberg M. Religion and Tourism. – 2011. – P. 12.

[23] Collins-Kreiner N. Researching pilgrimage. – 2010. – P. 445.

[24] Olsen D.H., Timothy D.J. Tourism and religious journeys. – 2006. – P. 15.

[25] Светлов Н.В. Религиозный туризм. – 2014. – С. 78.

[26] Industry Research. Religious Tourism Market. – 2024.

[27] Industry Research. Religious Tourism Market Analysis. – 2024.

[28] Industry Research. Buddhist Tourism Statistics. – 2024.

Использованная литература

1. **Blackwell R.** Motivation for religious tourism, pilgrimage, festivals and events // Religious Tourism and Pilgrimage Festivals Management. — Wallingford: CABI, 2007. — P. 35–47.
2. **Christou E.** Revisiting competencies for hospitality management // Journal of Tourism Research. — 2002. — Vol. 5. — P. 25–32.
3. **Collins-Kreiner N.** Researching pilgrimage: continuity and transformations // Annals of Tourism Research. — 2010. — Vol. 37, № 2. — P. 440–456.
4. **Digance J.** Pilgrimage at contested sites // Annals of Tourism Research. — 2003. — Vol. 30, № 1. — P. 143–159.
5. **Grand View Research.** Religious tourism market size, share & trends analysis report. — 2024.
6. **Griffin K. A., Raj R.** The importance of religious tourism and pilgrimage // IJRTP. — 2017. — Vol. 5, № 3. — P. 2–9.
7. **Olsen D. H., Timothy D. J.** Tourism and religious journeys // Tourism, Religion and Spiritual Journeys. — London: Routledge, 2006. — P. 1–21.
8. **Reader I.** Pilgrimage growth in the modern world // Religion. — 2007. — Vol. 37, № 3. — P. 210–229.
9. **Rinschede G.** Forms of religious tourism // Annals of Tourism Research. — 1992. — Vol. 19, № 1. — P. 51–67.
10. **Sharpley R., Sundaram P.** Tourism: a sacred journey? // IJTR. — 2005. — Vol. 7. — P. 161–171.
11. **Stausberg M.** Religion and tourism. — London: Routledge, 2011. — 314 p.
12. **Timothy D. J., Olsen D. H.** Tourism, religion and spiritual journeys. — London: Routledge, 2006. — 285 p.
13. **UNWTO.** World tourism barometer. — 2025.

14. **Uzbekistan Tourism Committee.** Tourism statistics report. — 2025.
15. **Вукович Б.** Туризм и религия. — Москва: Финансы и статистика, 2005. — 256 с.
16. **Светлов Н. В.** Религиозный туризм: экономика и управление. — Москва: КНОРУС, 2014. — 248 с.

MIRZACHO‘L IQTISODIY RAYON SHAHARLARINING IJTIMOIY-DEMOGRAFIK RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARINI HAL ETISH YO‘LLARI

Musayev Bekzod Murodovich
Saidova Ozoda Bobosherovna
Boltaboyeva Maysara Rashid qizi
Hamdamova Kamola Olimjon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqolada Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolarini hal etish yo`llari ilmiy asoslab berilgan. Iqtisodiy rayon shaharlaridagi mavjud ijtimoiy-demografik muammolarning ko`rinishi va ularni bartaraf etish. Xususan urbanizatsiya jarayonlari darajasi yuqori yoki pastligini uning ijtimoiy – iqtisodiy hamda demografik muammolari belgilab beradi. Binobarin, ushbu maqolada Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlarining rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni yoritib berishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy, iqtisodiy, demografik muammolar, urbanizatsiya, shahar, shaharcha, shahar aholi manzilgohlari.*

Kirish. Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shahar aholi manzilgohlarining muhim o‘rin tutishi, ko‘plab vazifalarni ham bajaradi. Shahar aholi manzilgohlari har bir yurtning iqtisodiy tayanchi va suyanchi hisoblanadi. Shahar aholi manzilgohlarining ijtimoiy rivojlanishida ijtimoiy sohalarning, xususan, ta’lim, sog‘liqni-saqlash va boshqa sohalarning roli yuqori. Binobarin, Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarida ta’lim sohasida maktabgacha tarbiya va umumta’lim maktablari faoliyati bevosita shahar va shaharchalarning demografik jarayonlar natijasi bilan bog‘liq bo‘lsa, oliy ta’lim tizimi va uning rivojlanganligi hamda shahar va shaharchalar aholisining ma’lumotlilik darajasi demografik jarayonlarga bevosita ta’sir etuvchi muhim omillardandir.

Shaharlar ijtimoiy demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va boshqa ko‘plab muammolari, joylanishi, hududiy jihatlari, shaharlar aholisining demografik rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishning ilmiy asoslari bo‘yicha xorijiy olimlardan F.Perru, J.Gottman, K.Linch, R.Merfi,, F.Gibbert, U.Alonso va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. MDH mamlakatlarida O.A.Konstantinov, V.Sh.Djaoshvili, G.M.Lappo, F.M.Listengurt, Ye.N.Persik, B.S.Xorev, mamlakatimizda shaharlarni rivojlanishi va joylanishini geografik o‘rganish masal-alari bo‘yicha E.A.Axmedov, O.B.Ata-Mirzayev, T.I.Raimov, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, S.S.Zokirov Z.T.Abdalova, M.M.Egamberdiyeva, A.M.Mavlonov, S.K.Tashtayeva, P.R.Qurbonov kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mashhur grek urbanisti K.Doksiadis “odam shaharlarda mag‘lubiyatga uchradi, agarda shahar muammosiga yangicha yondashish topilmasa, unda bizni halokat kutmoqda. Arxitektorlar, geograflar, iqtisodchilar, demograflar va sotsiologlar katta shaharlar va urbanizatsiya muammolari bilan shug‘ullanmoqdalar, hamma bitta oqimga tashlanmoqdalar faqat qirg‘oqning turli qismlaridan” [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 26-s.] degan edi. Darhaqiqat, shaharlarni to‘g‘ri joylashtirish va boshqarish juda ko‘plab muammolarning oldini olish bilan birga aholining yashash sharoitini ham yaxshilaydi. Yangi O‘zbekiston, deb nom olgan iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan hozirgi kunda,

Respublikamizdagi turli kattalikdagi shaharlarning kelajakdagi rivojlanish dasturlari ishlab chiqildi. Biroq shaharlar qanchalik kattalashgani sayin undagi ijtimoiy muammolar ham shunchalik ko‘payib boraveradi. Bu masala xususida E.A.Ahmedov quyidagilarni qayd etgan: “Shaharlar kattalashib borgani sayin undagi muammolar ko‘payib boradi, bu muammolar murakkablashgandan murakkablashib boradi, ularni hal qilish esa qiyinlashgandan qiyinlashadi” [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 172-b.].

1 - jadval

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlaridagi mavjud muammolarning guruhlanishi (2024-yil).

№	Muammolar	Shahar va shaharchalar
1.	Iqtisodiy geografik o‘rin	Usmat, Novqa, Baxmal, Oqtosh, Alamli, Mo‘g‘ol, Yangiobod, Bag‘don
2.	Sanoat ishlab chiqarishi	G‘oliblar, Gulbahor, Oqtosh, Mo‘g‘ol, Novqa, Alamli, Tongotar, Baxmal, Lalmikor, Qang‘liobod, Abdukarim, Chuvulloq, Uchtepa, Gandumtosh, Qorayantoq, Qang‘li, Toqchilik, Mulkanlik, Jizzaxlik, Navro‘z, Yom, Pishag‘ar, Bo‘ston, Fayzobod, Sharq yulduzi, Sirg‘ali, Paxtazor, Mirzadala, Yorqin, Pistalikent, Nurafshon, Gulzor, Sovot, Sardoba, Farg‘ona, Andijon, Markaz, Bekat, Do‘stlik, Sohil, Sho‘ro‘zak, Paxtakon, Xo‘lkar, Beshbuloq, Ulug‘bek, Xalqako‘l, Navro‘z, Oqoltin, Quyosh, Malik, Ziyokor, J.Mamanov, Gulbahor
3.	Ishsizlik	
4.	Ichimlik suvi	
6.	Kommunal xizmatlar	

7.	Atrof-muhitning ifloslanishi	Shirin, Guliston, Jizzax, Sirdaryo, Pistalikent
8.	Sho‘rlanish	Paxtakor, Do‘stlik, G‘oliblar, Guliston, Baxt, Sirdaryo, Paxtazor, Mirzadala, Yorqin, Pistalikent, Nurafshon, Gulzor, Sovot, Sardoba, Farg‘ona, Andijon, Markaz, Bekat, Do‘stlik, Sohil, Sho‘ro‘zak, Paxtakon, Xo‘lkar, Beshbuloq, Ulug‘bek, Xalqako‘l, Navro‘z, Oqoltin, Quyosh, Malik, Ziyokor, J.Mamanov, Gulbahor
9.	Shamol	Yangiyer, Xovos, Gulbahor

Jadval. Muallifning o‘rganishlari asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi fikrlarga mos holda, Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shahar aholi manzilgohlarini ham kichigidan kattasiga borgani sayin ulardagi muammolar murakkablashib ko‘payib boradi. Bu muammolar, iqtisodiy rayonning katta va o‘rta shaharlarida bir muncha hal qilib kelinmoqda, biroq kichik shahar va shaharchalarda muammolar juda ham ko‘p. Shu boisdan, bo‘lsa kerak, A.S.Soliyev “kichik shaharlarning katta muammolari mavjud”ligini ko‘ra bilgan. Tadqiqot obyektidagi muammolarning ayrimlari butun O‘zbekiston shaharlariga taalluqli bo‘lsa, ba’zilari qo‘riq yerlarning o‘zlashtirilishi va qurg‘oqchil hududlar uchun xosdir. Bunday muammolardan biri ishsizlikdir. Iqtisodiy rayon shahar va shaharchalarida ham ishsizlik asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda 2021-yilda ishsizlik darajasi 9,4 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 foizga, yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4 foizga kamaydi. Mirzacho‘l iqtisodiy rayonda esa bu ko‘rsatkich respublikanikidan biroz balandroq (10,2 foiz). Shaharlarda ishsizlik soni, albatta, kichik shaharlarga qaraganda kamroq, biroq to‘liq bartaraf etilgan deb bo‘lmaydi. 2009-yilda tashkil topgan yangi shaharchalarda esa ishsizlik yuqori bo‘lib, bu shaharchalarda

yashovchi ishsiz aholining ko‘pchiligi viloyat markazlariga qatnab ishlashadi. Ba’zilari poytaxtga ish izlab kelishadi va ishlaydi.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayonining demografik o‘sishi kattaligi sababli, ishsizlik darajasi mamalakat darajasidan yuqorida bo‘lib qolmoqda. Qolaversa, iqtisodiy rayondagi shahar aholi manzilgohlarining funksional tiplari zaif rivojlanganligi, tuman markazlari va yangi shaharchalarda qo‘shma korxonalarning kamligi ishsizlar sonining ko‘payishiga va chetga migratsiya oqimining ortishiga olib kelgan. Iqtisodiy rayonda mehnat resurslari soni jami 2021-yil yanvar ma’lumotlari bo‘yicha 1272,1 ming kishi bo‘lib, jami aholining 54,9 foizini tashkil qiladi. Viloyatlar kesimida oladigan bo‘lsak, Jizzax viloyati mehnat resurslari soni bo‘yicha Sirdaryo viloyatidan oldinda. Viloyatda jami 782,6 ming mehnat resursi mavjud bo‘lib, shundan 382,6 mingi shaharlarga to‘g‘ri keladi va viloyat jami mehnat resurslarining 48,9 foizini o‘zida jamlaydi. Shuningdek viloyat shaharlarida iqtisodiy faol aholi soni 289,1 ming kishi bo‘lgan holda, mehnat resurslarining 75,5 foizini tashkil qiladi.

Sirdaryo viloyatida mehnat resurslari soni jami bo‘lib 489,5 ming kishi hisoblanib, doimiy viloyat aholisiga nisbatan 55,7 foizdir. Bundan 211,2 ming kishi shaharlarga to‘g‘ri kelib, jami viloyatga nisbatan 43,1 foizni tashkil qiladi. Mazkur shaharlarda iqtisodiy faol aholi soni 154,0 ming kishini, jami aholiga nisbatan esa 41,4 foizni tashkil qiladi. Iqtisodiy rayonning eng yirik shahri bo‘lgan Jizzax shahrida ishsizlik darajasi 2021-yil yanvar ma’lumotlari bo‘yicha 9,6 foizni tashkil qilmoqda. Mazkur ko‘rsatkich Guliston shaharida 9,2 foiz, Shirin shahrida 9,7 foiz, Yangiyer shahrida 9,5 foizlardan to‘g‘ri keladi. Jizzax viloyati tumanlari ichida ishsizlik eng yuqori bo‘lgan tuman Forish tumani (10,5 foiz) bo‘lsa, eng past bo‘lgan tuman esa Sharof Rashidov tumanidir (9,9 foiz). Forish tumani urbanizatsiya darajasi bo‘yicha viloyatda so‘nggi o‘rinlarni egallaydi. Urbanizatsiya darajasi 18,5 foizni tashkil qilib, jami ikkita shaharcha Uchquloch va tuman markazi vazifasini bajaruvchi Bog‘don shaharchalarida sanoat zaif rivojlanganligi, qishloq aholi manzilgohlarining tarqoq joylashganligi, bir-biri bilan masofa uzoqligi, sanoat korxonalaring soni kamligi kabi omillar bu tumanda ishsizlik darajasini oshirmoqda.

Iqtisodiy rayonning Marjonbuloq, Qo‘ytosh, Uchquloch kabi resurs shaharchalarida ham o‘ziga xos ishsizlik muammosi mavjud bo‘lib, bunga sabab ushbu shaharchalarning ma’lum bir turdagi foydali qazilmalarni qazib olishga ixtisoslashganligidir. Shuningdek mazkur shaharchalarning tor ixtisoslashganligi, boshqa tarmoqlar rivojlanmaganligi bois, ishsizlik darajasi yuqori. Aynan shu shaharchalarda kelgusida yengil, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish talab qilinadi. Shaharlarda aholi soni ko‘payishi bilan birga, u yerlarda insonning atrof-muhitga bo‘lgan ta’siri ham orta boshlaydi. Shaharlarda atrof-muhit ifloslanishi muammolarning asl sababi shaharlarning kelajakda kengayishini inobatga olmasdan qurilgan sanoat korxonalaridir. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlarining asosiy ekologik muammolaridan biri bu shaharlar atrof-muhitining ifloslanishidir, masalan 180 ming aholiga ega bo‘lgan Jizzax shahri uchun yiliga 84,6 million tonna ichimlik suvi, 9 million tonnaga yaqin toza havo iste’moli talab etiladi.

Iqtisodiy rayonning cho‘l hududlaridagi shahar va shaharchalarida ichimlik suvining tanqisligi muammosi ham mavjud, shuningdek bu shaharchalarda yoz faslida salqin ichimliklarga bo‘lgan talabning yuqoriligi sababli salqin ichimliklar ishlab chiqaradigan korxonalarni ko‘paytirish zarur. Ayrim shahachalarda hammomlarning umuman yo‘qligi kuzatiladi. Jumladan, Baxmal tumanida tashkil etilgan Alamli, Mo‘g‘ol, Tongotar, Oqtosh, Baxmal kabi shaharchalarning birortasida hammom yo‘qligini, xo‘jalik gazi bilan umuman ta’minlanmaganligini, Mo‘g‘ol va Baxmal shaharchalarida maktabgacha ta’lim muassasasi ham mavjud emasligini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy rayonda atmosferaga, atrof-muhitga chiqarilayotgan zaharli chiqindilarning eng katta qismi Shirin, Guliston, Sirdaryo va Jizzax shaharlariga to‘g‘ri keladi. Bunga sabab sifatida ushbu shaharlarda aholi zich joylashganligi, sanoat korxonalari, transport tizimi va boshqa ishlab chiqarish muassasalari mujassamlashganligini ko‘rsatish mumkin. Masalan, Jizzax shahrida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar 2000-yilda 0,7 ming tonna atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 0,8 ming tonna bo‘lmoqda, bu shahar aholisining har biriga

4,4 kg, dan to‘g‘ri keladi. Jizzax shahrida oxirgi yigirma yillikda atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar eng ko‘p 2006-2007 yillarda chiqarilgan bo‘lib, bu ohak zavodining mana shu yillarda juda ko‘p mahsulot ishlab chiqarganligi (27,5-4,5 ming tonna) bilan belgilanadi. Shuningdek, Pistalikent shaharchasi yaqinidan ohak qazib olinishi ushbu shaharchada yashayotgan aholining ko‘plab e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Guliston shahrida 2000-yilda atmosferaga chiqarilgan chiqindilar miqdori 0,7 ming tonna bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 1,7 tonnaga oshganligi kuzatilmoqda, bu shahar aholisining har biriga 18,6 kg, dan to‘g‘ri keladi. Guliston shahrida eng ko‘p atmosferaga chiqarilgan chiqindilar miqdori 2011-yilda 29,2 ming tonna chiqarilganligi kuzatilgan. Shuningdek 2015-2016 yillarda ham 16,0 ming tonnadan ortiq chiqindilar atmosferaga chiqarilganligini ko‘rish mumkin.

Shaharlar ijtimoiy-demografik rivojlanishi istiqboli, avvalo, ta’lim, ayniqsa, maktab, maktabgacha ta’lim tizimiga bog‘liqdir. Jumladan, Jizzax viloyatida 2010-yilda maktabgacha tarbiya muassasalari soni Jizzax shahrida 34 ta bo‘lgan bo‘lib, ularda 4256 nafar bola tarbiyalangan. Bu muassasalarda jami ta’lim beradigan pedagog hodimlar soni 390 nafarni tashkil qilgan. Ushbu yilda har bir maktabgacha ta’lim muassasasiga o‘rtacha 125,1 nafardan bola to‘g‘ri kelib, har bir pedagog hodimga esa 10,9 nafardan tarbiyalanuvchi to‘g‘ri kelgan. 2021-yilda esa mazkur hududda 39 ta maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularda jami 7069 bola tarbiyalanmoqda, ya’ni deyarli ikki baravar ko‘p, ularga ta’lim beradigan pedagog hodimlar soni esa 722 nafarni tashkil qilmoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalarining har biriga hozirgi kunda 181,2 nafardan tarbiyalanuvchi, har bir pedagog hodimga esa 9,7 ta tarbiyalanuvchi to‘g‘ri keladi. Demak demografik jarayonlardan tug‘ilishning ko‘payishi natijasida, bolalar soni ortib borishi va o‘z navbatida, turli bosqichdagi ta’lim muassasalarning yetishmasligi ayon bo‘ladi. Bu esa istiqbolda mazkur sohalar rivojlanishiga e’tibor qaratishni taqozo qiladi.

Guliston shahrida 2010-yilda maktabgacha tarbiya muassasalari soni 21 ta bo‘lgan bo‘lib, ularda 3056 nafar bola tarbiyalangan, bu muassasalarda jami ta’lim

beradigan pedagog hodimlar soni 256 nafarni tashkil qilgan. Bu davrda o‘rtacha har bir maktabgacha ta’lim muassasasiga 145,5 nafardan bola to‘g‘ri kelib, har bir pedagog hodimga esa 11,9 nafardan tarbiyalanuvchi to‘g‘ri kelgan. 2021-yilda 25 ta maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularda jami 4743 bola tarbiyalanib kelinmoqda, ularga ta’lim beradigan pedagog hodimlar soni 426 nafarni tashkil qilmoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalarining har biriga hozirgi kunda 189,7 nafardan tarbiyalanuvchi to‘g‘ri kelsa, har bir pedagog hodimga esa 11,1 tadan tarbiyalanuvchi to‘g‘ri kelmoqda.

Jizzax va Guliston shaharlaridagi ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar sonining me’yoridan ortiqligi kuzatiladi, bu muammolar ota-onalarning e’tirozlariga sabab bo‘lib, tarbiyalanuvchi bolalarga hamda tarbiyachi pedagoglarga ham noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Bularning oldini olish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalarining sonini yanada ko‘paytirish lozim.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida jami umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni 884 ta bo‘lib ularda jami 418511 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda, bu o‘quvchilarga ta’lim berayotgan pedagog hodimlar soni jami 36059 nafarni tashkil qilmoqda. Iqtisodiy rayonda har bir maktabga o‘rtacha 473,4 nafardan o‘quvchi, har bir pedagog hodimga esa 11,6 nafardan o‘quvchi to‘g‘ri keladi. Jizzax shahrida umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni 39 ta bo‘lib, 39621 nafar o‘quvchiga 3160 nafar o‘qituvchi, har bir pedagog xodimga 12,5 nafardan o‘quvchi mos keladi.

Guliston shahrida esa umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni 24 ta bo‘lib ularda 22738 nafar o‘quvchilar tahsil olishmoqda, bu ta’lim maskanlarida jami 1677 nafar pedagoglar bilim berishmoqda, har bir o‘qituvchiga 13,5 nafar o‘quvchi, har bir umumiy o‘rta ta’lim maktabiga o‘rtacha 974,4 nafardan o‘quvchi to‘g‘ri kelsa, Jizzax shahridagi har bir maktabga 1,015 ming nafardan o‘quvchi to‘g‘ri kelmoqda.

Iqtisodiy rayonning yirik shaharlarida ta’lim sohasida kadrlar tanqisligi kuzatilmaydi. Biroq chekka shaharchalarida kadrlar tanqisligi seziladi. Shaharchalardagi maktablarda issiqlik ta’minoti yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayrim shaharchalardagi maktablarda qishki sport maydonchalarining yo‘qligi kabi muammolar mavjud bo‘lsa, Jizzax va Guliston kabi yirik shaharlar maktablarida har

bir sinfda o‘quvchi sonining me’yoridan ortiqligi kabi muammolar ko‘zga tashlanadi. Guliston shahrida hattoki maktablar ham kamlik qilmoqda, shu boisdan hududda yangi maktablar qurilishi zarur deb hisoblanadi.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining tekislikdagi shahar aholi manzilgohlari to‘liq voha sharoitida paydo bo‘lgandir. Yer osti suvlarining yer yuziga yaqinligi natijasida shahar va shaharchalar tuproqlari sho‘rlanganligi, bu hududlarda yashovchi insonlar salomatligida buyrak, siydik yo‘llari, sil, oshqozon ichak kabi kasalliklar ko‘payishiga olib kelmoqda. Jumladan, Guliston shahrining birinchi mikrorayon qismida yer osti suvlarining yer yuza qismiga nisbatan yaqinligi tufayli, aholi orasida sil kassalligiga chalinish miqdori boshqa mikrorayonlarga nisbatan ko‘pligi bilan farqlanadi.

Voha shahar aholi manzilgohlari iqlimi boshqa hududlardagi shaharlar iqlimiga nisbatan haroratining yuqoriligi bilan ajralib turadi, bu esa insonlarda yurak va qon aylanishi kasalliklarini ko‘paytiradi. Iqtisodiy rayonning adir, tog‘ va tog‘ oldi hududlarida joylashgan shahar va shaharchalarida yuqumli kasalliklar va agroshaharchalarda qishloq xo‘jaligi va hayvonlar bilan ko‘p shug‘ullanishi natijasida brutsellyoz kabi kasalliklar uchraydi.

Xulosa va takliflar. Mirzacho‘l iqtisodiy rayonida ijtimoiy-demografik muammolar juda ham ko‘p. Bunga sabab shahar va shaharchalarning joylashgan o‘rni, shahar markazidan olisdaligi, sanoat korxonalaring kamligi, shaharchalarda ishsizlikning yuqoriligi kabi muammolarni aytib o‘tish joiz. Mazkur muammolarga yechim izlash, kichik shaharchalarda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, shaharchalar infrastrukturasini yaxshilash va rivojlantirish kabilarni inobatga olib, bu shaharchalarning rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish o‘ta muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси.** Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-ҳудудий тузилишини

такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида: 2009 йил 13 мартдаги 68-сон қарор. — URL: https://lex.uz/docs/1486944

2. **Аҳмедов Э. А.** Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. — Т.: **Абу Али Ибн Сино**, 2002. — 224 б.
3. **Аҳмедов Э. А.** Ўзбекистон шаҳарлари. — Т.: **Ўзбекистон**, 1991. — 221 б.
4. **Доксиадис К.** Концепция города. — М.: **Мысль**, 1953. — 263 с.
5. **Зокиров С. С.** Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш. — Тошкент: **Тафаккур**, 2020. — 367 б.
6. **Солиев А. С.** Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. — Тошкент, 2014. — 387 б.
7. **Tojiyeva Z. N.** Aholishunoslik siyosati: o‘quv qo‘llanma. — T.: **Innovatsiya-Ziyo**, 2022. — 176 b.
8. **Тожиева З. Н.** Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари: география фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. — Т., 2017. — 267 б.
9. **O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi.** Rasmiy veb-sayt. — URL: https://stat.uz

КИЧИК ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА СОЛИҚ ҲИСОБИНИ ЮРИТИШ МАСАЛАЛАРИ

Тоштемиров Тўлқин Тоиржонович

Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси

Аннотация. *Тезисда кичик тадбиркорлик субъектларида солиқ ҳисобини ташкил этиш, уни юритиш ва такомиллаштириш масалалари ўрганилди. Солиқ ва бухгалтерия қонунчилигидаги ўзгаришлар таҳлил қилиниб,*

солиқ ҳисобини юритишга таъсир этувчи асосий омиллар аниқланди. Шунингдек, тезисда кичик тадбиркорлик субъектлари солиқ рискларини камайтириш ва бошқарув самарадорлигини ошириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: *солиқ, солиқ ҳисоби, бухгалтерия ҳисоби, регистр, харажат, даромад, солиқ ҳисоботи, солиқ риски, санкция, жарима.*

Кириш. Ўзбекистон Республикасида кичик тадбиркорлик субъектлари иқтисодий ўсишни ва бозорни турли хилдаги маҳсулот ва хизматлар билан таъминлаш орқали бозорда эркин рақобат муҳитини яратиш, иш ўринларини ташкил қилиш ва шу орқали аҳоли турмуш фаровонлигини яхшилашда аҳолида ўрин тутади. Шунингдек, давлат бюджети даромадларини таъминлаш борасида ҳам катта ҳисса қўшади.


Кичик тадбиркорлик субъектлари нафақат иқтисодий ўсишни таъминлаш билан бирга ижтимоий барқарорликни таъминловчи муҳим омил ҳисобланади.

Шу боис, кичик тадбиркорлик фаолиятини рағбатлантириш, мамлакатнинг умумий тараққиётига хизмат қилади.

Давлат солиқларни рағбатлантирувчи механизмлари орқали иқтисодий фаолликни ошириш, инновацияларни қўллаб-қувватлаш ва инвестицияларни жалб этиш, янги иш ўринлари ҳисобига ижтимоий йўналтирилганликни таъминлайди.

Кичик тадбиркорлик субъектларини асосий иқтисодий кўрсаткичлари

(2025 йил январь-сентябрь ойлари)



Асосий қисм. Солиқ сиёсати соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар ва қонунчиликдаги ўзгаришлар, кичик тадбиркорлик субъектларида солиқ ҳисобини юритишда янгиликларга мослашишда қийинчиликлар туғдирмоқда.

Айниқса, солиқ қонунчилигидаги ўзгаришлар икки гуруҳга бўлишимиз мумкин бўлиб, улар бир қатор оқибатларни келтириб чиқаради.

Биринчидан, солиқ юкини ўзгариши билан боғлиқ оқибатлар, хусусан солиқ ставкаси, солиқ солиш объектлари ва солиқ базасини ўзгариши солиқ тўловларини ўзгаришига бевосита таъсир кўрсатади.

Иккинчидан, солиқ тўловчиларга маъмурий юкнинг ўзгариши билан боғлиқ оқибатлар, жумладан солиқ ҳисобини юритиш қоидаларини, ҳужжатлар айланиши ҳажми, солиқ тўловчиларни рўйхатдан ўтказиш тартибининг ўзгариши солиқ мажбуриятларини ўз вақтида тўғри ва сифатли бажарилишига таъсир этади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, солиқ ҳисобини юритишдаги хатоликлар кичик тадбиркорлик субъектларига нисбатан молиявий санкция ва жарималар қўлланишига олиб келиши мумкин.

Шу сабабли, кичик бизнес учун солиқ ҳисоби ва ҳисоботини самарали юритиш алоҳида аҳамият касб этади. Чунки, санкция ва жарималар улар

фаолиятининг молиявий барқарорлигига сезиларли даражада салбий таъсир кўрсатади.

Ҳозир кунда кичик тадбиркорлик субъектларида солиқ ҳисоби бухгалтерия ҳисобига уйғунлашган ҳолда амалга ошириб келинмоқда.

Шу билан бирга, кичик ва ўрта бизнес учун ҳам Бухгалтерия ҳисоби миллий стандартларини Молиявий ҳисобни халқаро стандартларига уйғунлаштирган ҳолда Молиявий ҳисоботнинг миллий стандартларини жорий этиш бўйича ишлар амалга оширилмоқда[32].

Бу ўз навбатида бухгалтерия ҳисоби ва солиқ ҳисоби ўртасидаги муносабатларни мувофиқлаштириш ҳамда тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ва услубий жиҳатдан таъминлашни талаб этади.

Бунда кичик тадбиркорлик субъектларини даромадлари, харажатлари, активлар ва мажбуриятларини солиқ ҳисоби мақсадларида тан олиш принциплари ва тартибларини солиқ қонунчилигида аниқ белгилаб қўйиш уларга солиқларни ҳисоблашни осонлаштиради.

Шу билан бирга, солиқ ҳисобини юритиш самарадорлигини оширишда махсус дастурий маҳсулотлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Хусусан, солиқ ҳисобини автоматлаштиришнинг замонавий дастурлар ёрдамида юритиш солиқ ҳисоботи тайёрлаш ва солиқларни аниқ ҳисоб-китоб қилиш имкони беради ва солиқ рискларини минималлаштириш имконини беради.

Жаҳон амалиётида янги технологияларга асосланган сунъий интеллект дастурларини ишлаб чиқилиши бу жараёнларни янада осонлаштиради ва тезлаштиради.

Шундан келиб чиқиб, миллий қонунчилик талаблари асосида сунъий интеллект стартапларини ривожлантириш керак ва бу кичик тадбиркорларга солиқ ҳисобини самарали ташкил этишга катта ёрдам беради.

[32]Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/docs/772892.

Кичик тадбиркорлик субъектларида молиявий ресурслар чекланган бўлиб, сифатли бухгалтерия хизмати ва солиқ маслаҳатидан тизимли ва доимий фойдаланиш имкониятини камайтиради.

Солиқ ҳисобини юритишда хато ва камчиликларга йўл қўймаслик учун юқори савиядаги профессионал масъул ходимларга талаб юқори, бу солиқ ва бухгалтерия қонунчилиги бўйича мунтазам билимларни ошириб боришни талаб этади. Бироқ, Ўзбекистон шароитида Солиқ кодексини шарҳи ва солиқ ҳисобини юритиш тартиби бўлмаган бир вақтда анча мураккаб жараён ҳисобланади.

Кичик тадбиркорлик субъектлари томонидан солиқ ҳисобини самарали юритилиши солиқларни тўғри ҳисобланиши ва тўланиши билан бирга уларга солиқ имтиёзларидан фойдаланиш ва солиқларни режалаштириш орқали солиқ юкини камайтириш имконини беради.

Хулоса. Кичик тадбиркорлик субъектлари солиқ ҳисобини тўғри юритишдан доим манфаатдор ҳисобланади ва бу уларга солиқ юкини ошиб кетиш хавфини камайтиришга ёрдам беради. Шу боис, солиқ ҳисобини юритиш бўйича солиқ ва молия органлари алоҳида улар учун тартиб ишлаб чиқиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. **Ўзбекистон Республикаси.** Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. **Ўзбекистон Республикаси.** Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси.
3. **Ўзбекистон Республикаси Президенти.** Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида : 2025 йил 17 декабрдаги ПҚ–282-сон қарор.
4. **Иванов И. И.** Проблемы налогового учета и отчетности в современных условиях // Бухгалтерский учет и анализ. – 2020. – С. 15–25.
5. **Петров П. П.** Новые требования к налоговому учету и отчетности: вызовы и решения // Налоговая политика и бухгалтерский учет : сборник научных статей. – 2021. – С. 35–45.

6. **Сидоров С. С.** Тенденции развития налогового учета и отчетности в России // Финансы и кредит. – 2022. – С. 55–65.
7. **Козлова Е. А.** Особенности применения МСФО в налоговом учете и отчетности // Современные методы бухгалтерского учета и аудита. – 2023. – С. 75–85.
8. **Федорова А. С.** Актуальные проблемы налогового учета и отчетности в сфере малого бизнеса // Экономические науки. – 2020. – С. 25–35.

МЕТОДОЛОГИЯ БРЕНДИРОВАНИЯ РЕМЕСЛЕННЫХ ИЗДЕЛИЙ ЧЕРЕЗ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ УКАЗАНИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ

Эргашева Азиза Фармоновна

Бухарский государственный университет

Аннотация. *В данной статье рассматривается методология брендирования ремесленных изделий посредством географических указаний (ГУ). Анализируются теоретические подходы к определению географических указаний, их роль в защите интеллектуальной собственности и повышении конкурентоспособности традиционных ремесленных продуктов на международных рынках. Особое внимание уделяется опыту различных стран в области регистрации и продвижения географических указаний для изделий народных промыслов.*

Ключевые слова: *географические указания, брендирование, ремесленные изделия, интеллектуальная собственность, традиционные промыслы, региональный бренд.*

Введение

В условиях глобализации мировой экономики и усиления конкуренции на международных рынках вопросы защиты и продвижения национальных ремесленных изделий приобретают особую актуальность. Географические указания (ГУ) представляют собой эффективный инструмент правовой защиты и маркетинговой идентификации продуктов, качество и репутация которых неразрывно связаны с их географическим происхождением. По определению Всемирной организации интеллектуальной собственности (ВОИС), географическое указание – это обозначение, используемое на товарах, которые имеют определённое географическое происхождение и обладают качествами, репутацией или характеристиками, обусловленными главным образом этим местом происхождения[1].

Исследованием проблем географических указаний занимались многие отечественные и зарубежные учёные. Значительный вклад в развитие теории географических указаний внесли работы таких исследователей, как М. Блейкни (M. Blakeney), который в своей фундаментальной работе «The Protection of Geographical Indications: Law and Practice» (2014) провёл комплексный анализ международных правовых механизмов защиты географических указаний[2]. Д. Рангнекар (D. Rangnekar) исследовал экономические аспекты географических указаний и их влияние на развитие сельских территорий[3]. Российские учёные А.П. Сергеев и В.И. Ерёменко внесли существенный вклад в изучение правовых аспектов географических указаний в контексте российского законодательства[4].

Целью настоящего исследования является разработка методологических основ брендирования ремесленных изделий посредством географических указаний с учётом международного опыта и специфики развивающихся стран.

Основная часть

Методология брендирования ремесленных изделий через географические указания представляет собой комплексную систему, включающую правовые, экономические и маркетинговые компоненты. Согласно исследованиям Б. О'Коннора (B. O'Connor), эффективная система географических указаний должна базироваться на чётком определении территориальных границ производства, спецификации качественных характеристик продукта и механизмах контроля соответствия[5].

Профессор Т. Джоши (T. Josling) в своих работах подчёркивает, что географические указания выполняют двойную функцию: с одной стороны, они защищают права производителей традиционных товаров от недобросовестной конкуренции, с другой – информируют потребителей о подлинности и качестве приобретаемой продукции[6]. Данный подход находит подтверждение в практике Европейского Союза, где система защищённых географических

указаний (PGI) и защищённых наименований мест происхождения (PDO) успешно функционирует с 1992 года.

Особый интерес представляет опыт Индии в области защиты традиционных ремесленных изделий. Как отмечает исследователь Н. Кумар (N. Kumar), индийская система географических указаний, введённая в действие в 2003 году, позволила защитить такие всемирно известные продукты, как «Дарджилингский чай», «Кашмирские шали» и «Канчипурамские шёлковые сари»[7]. Успех индийской модели во многом объясняется активным участием местных производителей в процессе регистрации и последующего продвижения географических указаний.

Российский исследователь Е.А. Данилина в своей диссертационной работе предложила комплексную модель оценки экономической эффективности географических указаний, включающую анализ добавленной стоимости, премиальной наценки и рыночной доли защищённых продуктов[8]. Согласно её исследованиям, продукты с зарегистрированными географическими указаниями демонстрируют премиальную наценку в размере от 15 до 50 процентов по сравнению с аналогичными продуктами без соответствующей защиты.

Таблица 1. Сравнительный анализ систем географических указаний в разных странах

Страна	Правовая база	Количество ГУ	Примеры ремесленных изделий
Европейский Союз	Регламент (ЕС) 1151/2012	3 500+	Муранское стекло, Лиможский фарфор
Индия	Закон о ГУ 1999 г.	400+	Кашмирские шали, Бидри-изделия
Россия	ГК РФ, часть 4	250+	Гжель, Хохлома, Оренбургский пуховый платок
Узбекистан	Закон о ГУ 2021 г.	30+	Маргиланский атлас, Риштанская керамика

Как видно из представленной таблицы, системы географических указаний существенно различаются по степени развития и количеству зарегистрированных объектов. Европейский Союз занимает лидирующие

позиции благодаря длительной истории развития института географических указаний и системной государственной поддержке. Для развивающихся стран, включая Узбекистан, особую значимость приобретает адаптация международного опыта с учётом национальной специфики.

На основе проведённого анализа автором предлагается следующая методология брендирования ремесленных изделий через географические указания, включающая пять последовательных этапов: идентификация потенциальных объектов защиты, документирование традиционных технологий и спецификаций качества, формирование объединений производителей, регистрация географического указания в уполномоченных органах, разработка и реализация маркетинговой стратегии продвижения. Данный подход согласуется с рекомендациями ВОИС по развитию систем географических указаний в развивающихся странах[9].

Заключение

Таким образом, географические указания представляют собой эффективный инструмент брендирования ремесленных изделий, обеспечивающий правовую защиту, повышение рыночной стоимости и сохранение культурного наследия. Успешная реализация системы географических указаний требует комплексного подхода, включающего совершенствование нормативно-правовой базы, развитие институциональной инфраструктуры и активное вовлечение местных производителей. Представленная в статье методология может быть использована при разработке стратегий продвижения традиционных ремесленных изделий Центральной Азии на международных рынках.

---

[1] World Intellectual Property Organization. Geographical Indications: An Introduction. – Geneva: WIPO, 2017. – P. 5.

[2] Blakeney M. The Protection of Geographical Indications: Law and Practice. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2014. – 456 p.

[3] Rangnekar D. The Socio-Economics of Geographical Indications: A Review of Empirical Evidence from Europe // UNCTAD-ICTSD Project on IPRs and Sustainable Development. – 2004. – Issue Paper No. 8. – P. 12–15.

[4] Сергеев А.П. Право интеллектуальной собственности в Российской Федерации. – М.: Проспект, 2018. – С. 412–418.

[5] O'Connor B. The Law of Geographical Indications. – London: Cameron May, 2004. – P. 78–82.

[6] Josling T. The War on Terroir: Geographical Indications as a Transatlantic Trade Conflict // Journal of Agricultural Economics. – 2006. – Vol. 57, No. 3. – P. 337–363.

[7] Kumar N. Geographical Indications in India: A Case Study of Darjeeling Tea // Economic and Political Weekly. – 2010. – Vol. 45, No. 23. – P. 54–60.

[8] Данилина Е.А. Экономическая эффективность географических указаний: методология оценки: дис. ... канд. экон. наук. – М., 2019. – С. 89–95.

[9] WIPO. Geographical Indications and TRIPs: 10 Years Later // WIPO Magazine. – 2015. – No. 5. – P. 20–23.

Использованная литература

1. **Blakeney M.** The protection of geographical indications: Law and practice. — Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2014. — 456 p.
2. **Josling T.** The war on terroir: Geographical indications as a transatlantic trade conflict // Journal of Agricultural Economics. — 2006. — Vol. 57, No. 3. — P. 337–363.
3. **Kumar N.** Geographical indications in India: A case study of Darjeeling tea // Economic and Political Weekly. — 2010. — Vol. 45, No. 23. — P. 54–60.
4. **O'Connor B.** The law of geographical indications. — London: Cameron May, 2004. — 312 p.
5. **Rangnekar D.** The socio-economics of geographical indications: A review of empirical evidence from Europe // UNCTAD-ICTSD Project on IPRs and Sustainable Development. — 2004. — Issue Paper No. 8. — 52 p.
6. **World Intellectual Property Organization (WIPO).** Geographical indications: An introduction. — Geneva: WIPO, 2017. — 40 p.
7. **Данилина Е. А.** Экономическая эффективность географических указаний: методология оценки : дис. ... канд. экон. наук. — М., 2019. — 185 с.
8. **Сергеев А. П.** Право интеллектуальной собственности в Российской Федерации. — М.: Проспект, 2018. — 752 с.

